O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Ajiniyaz atindagi
NO'KIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
NMPI
1934

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiy-teoriyalıq konferenciya



Digital object identifier

Google Scholar

OpenAIRE

GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS

atamasındağı respublikalıq ilimiy-teoriyalıq

KONFERENCIYA TOPLAMÍ

Nókis, Ózbekstan

2024-jıl 24-aprel

GEOGRAFIYA – KELAJAKKA NAZAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Nukus, O‘zbekiston

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

республиканской научно-практической конференции

ГЕОГРАФИЯ – ВЗГЛЯД В БУДУЩЕЕ

Нукус, Узбекистан

Geografiya – keleshekke kóz-qaras / – Nókis. – 2024. – 390 b.

«Geografiya – keleshekke kóz-qaras» atamasındağı Respublikalıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya materiallarına Ózbekstan Respublikasınıń joqarı hám orta arnawlı oqıw orınları pedagog-xızmetkerleri, úlken ilimiy xızmetker-izleniwshiler, doktorantlar, magistrantlar, studentler hám ulıwma bilim beriw mektepleri muǵallimleriniń geografiya páni hám onı oqıtıwdıń aktual máselelerine arnalǵan ilimiy bayanatları kirgizilgen.

Konferenciya materiallarınıń mazmunı hám onda kórsetilgen dereklerdiń durıslıǵına avtorlar juwapker.

Juwaplı redaktor
Genjexan Utepova
geografiya ilimleriniń kandidatı, docent

Pikir bildiriwshiler
Qoshqarbay Seytniyazov
geografiya ilimleriniń kandidatı, docent
Izimbet Turdımambetov
geografiya ilimleriniń doktorı, professor

Redkollegiya ağzaları
Kuandik Kadirov
Roxat Eshmuratov
Maman Sarıbaev
Roza Gaypova
Uktamjon Eshimbetov
Jangabay Abdiramanov
Abdijan Nurlanov
Alisher Iskenderov
Muzaffar Radjapov
Nariman Otenov
Omirbay Baltabayev
Zamira Turdıbekova
Ernazar Tolepov
Yerkinbay Saliyev
Ómirbay Auezov

Materiallardı toplap, baspaǵa tayarlawshı
Koblan Uzakbaev

Bul ilimiy-teoriyalıq konferenciya toplamı Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institute ilimiy Keńesiniń 2024-jıl 29-marttağı 8-sanlı qararı menen baspaǵa usınıs etildi.

DEVELOPMENT OF A TECHNOLOGY FOR OBTAINING $Ca(NO_3)_2$ FROM SOLUTIONS OBTAINED BY ACID ENRICHMENT OF LOW-GRADE LOCAL PHOSPHORITES WITH HNO_3

Reymov Akhmed Mambetkarimovich
Doctor of technical Sciences, Professor, Academic Karakalpak State University

Kazakhbaev Saparbay Atabaevich,
3rd base doctoral student Karakalpak State University

Ospanov Temur Amir uli,
1st base doctoral student Karakalpak State University

Kurbiyazov Dilshodbek Kuanishbay uli,
2nd master degree student Karakalpak State University

Saparbaev Nursultan Nurg'ali uli,
3rd bachelor degree student Karakalpak State University

The process you're describing involves the extraction of calcium nitrate ($Ca(NO_3)_2$) from solutions obtained through the acid enrichment of low-grade local phosphorites using nitric acid (HNO_3). This process likely involves several steps

Acid Enrichment of Phosphorites Low-grade phosphorites contain phosphorus compounds that are not readily accessible. By treating them with nitric acid (HNO_3), the phosphorus compounds can be solubilized and separated from the insoluble components.

Formation of Calcium Nitrate Solution During the acid enrichment process, calcium compounds present in the phosphorites would dissolve in the nitric acid to form soluble calcium nitrate ($Ca(NO_3)_2$) along with other soluble calcium compounds.

Separation and Purification Once the solution is formed, it needs to be separated from any remaining insoluble materials, such as undissolved phosphorites or impurities. Filtration or centrifugation can be used for this purpose.

Concentration The separated solution containing calcium nitrate needs to be concentrated to increase the concentration of $Ca(NO_3)_2$. This can be achieved through processes like evaporation or crystallization.

Crystallization of Calcium Nitrate By carefully controlling the temperature and conditions, calcium nitrate can be induced to crystallize out of the concentrated solution. Crystallization separates the calcium nitrate from any remaining impurities in the solution.

Drying and Packaging The crystallized calcium nitrate is then dried to remove any remaining moisture and packaged for storage or further use.

It's important to note that this process may require optimization and adjustments based on the specific properties of the phosphorites, the concentration of calcium compounds, and the desired purity of the calcium nitrate product. Additionally, environmental and safety considerations should be taken into account, as the use of nitric acid can pose hazards if not handled properly.

The acid enrichment of phosphorites involves a chemical reaction between the nitric acid (HNO_3) and the phosphorus compounds present in the low-grade phosphorites. This reaction results in the solubilization of phosphorus compounds, making them accessible for further processing. Here's a more detailed explanation of the process:

Chemical Reaction Nitric acid reacts with the phosphorus compounds in the low-grade phosphorites according to the following general equation:

$Ca_3(PO_4)_2+6HNO_3 \rightarrow 2H_3PO_4+3Ca(NO_3)_2+2H_2O$ This reaction converts the insoluble calcium phosphate ($Ca_3(PO4)_2$ into soluble phosphoric acid H_3PO_4 and soluble calcium nitrate $Ca(NO_3)_2$.

Solubilization As the reaction progresses, the phosphorus compounds dissolve into the nitric acid solution, forming phosphoric acid. The calcium compounds also dissolve to form calcium nitrate.

Separation After the reaction is complete, the soluble phosphoric acid and calcium nitrate are separated from the insoluble components of the phosphorites. This separation can be achieved through filtration or other solid-liquid separation methods.

Further Processing The separated solution containing phosphoric acid and calcium nitrate can undergo further processing steps to isolate and purify these compounds. For example, the solution may be concentrated through evaporation to increase the concentration of phosphoric acid and calcium nitrate.

*Utilization*The resulting phosphoric acid and calcium nitrate can be used in various industrial applications. Phosphoric acid is commonly used in the production of fertilizers, detergents, and food additives, while calcium nitrate is used as a fertilizer and in certain industrial processes.

The acid enrichment of phosphorites is an important step in the production of phosphoric acid and other phosphate-based products, allowing for the utilization of low-grade phosphorite deposits that would otherwise be economically unviable.

The process of obtaining calcium nitrate ($Ca(NO_3)_2$) from solutions obtained by acid enrichment of low-grade local phosphorites using nitric acid (HNO_3) can have several environmental consequences, some of which include:

Acid Mine Drainage (AMD): The acid enrichment process involves the use of nitric acid, which can contribute to the generation of acidic wastewater if not properly managed. This acidic wastewater, if released into the environment, can lead to acid mine drainage. AMD can have detrimental effects on aquatic ecosystems, including the acidification of water bodies, which can harm aquatic life and disrupt ecological balance.

Water Contamination: The use of nitric acid in the process can result in the leaching of heavy metals and other contaminants from the low-grade phosphorites. These contaminants can then enter water bodies, potentially contaminating groundwater and surface water sources. This contamination can have long-term impacts on water quality and human health if not adequately addressed.

Air Pollution: The production and use of nitric acid can contribute to air pollution through the release of nitrogen oxides (NO_x) into the atmosphere. NO_x emissions are a significant contributor to smog formation and can have adverse effects on human health, including respiratory issues and cardiovascular problems.

Energy Consumption: The process of obtaining calcium nitrate from phosphorite solutions may require significant energy inputs, particularly for processes such as concentration and drying. High energy consumption can contribute to greenhouse gas emissions and exacerbate climate change.

Habitat Disruption: Mining activities associated with the extraction of low-grade phosphorites can lead to habitat disruption and loss of biodiversity. Clearing land for mining operations can result in the destruction of natural habitats and displacement of wildlife.

To mitigate these environmental consequences, it is essential to implement effective environmental management practices and regulatory measures. This may include the implementation of wastewater treatment systems to minimize the release of acidic wastewater, the adoption of cleaner production technologies to reduce emissions and energy consumption, and the

implementation of reclamation and restoration measures to rehabilitate mined areas and mitigate habitat disruption. Additionally, adherence to environmental regulations and standards is crucial to ensure that the environmental impacts of the process are minimized and mitigated.

References:

1. Kurbanova, G. D., Ospanov, T. A., & Japarbaeva, M. A. (2021). Production of ceramic drainage pipes in uzbekistan. Theoretical & Applied Science, (2), 67-71.
2. Reymov, A., & Ospanov, T. Development of new technologies of simple superphosphoric fertilizers based on humins.
3. Preliminary patent of the Republic of Uzbekistan IDP 05291 .MKI 7S 05V 13/06. Method for producing complex fertilizer . / Erkaev A.U. Yusupbekov N.R. Artikov G.O. and etc. // Ichthirolar . Rasmiy akhbor o tnoma. 2002 г. No. 4.
4. Patent of the Republic of Uzbekistan No. IAP 05335. Method for processing highly carbonized phosphorites / Erkaev A.U., Yakubov R.Ya., Allamuratova A., Toirov Z.K. // Publ . 01/04/2017. – Bulletin № 2.
5. Reimov A.M., Erkaev A.U., Namazov Sh.S., Beglov B.M. Physico-chemical properties of nitrocalcium phosphate pulps//Uzb. Chem. Zh. 2001, №6, P.6-11.
6. Ospanov, T., & Japarbaeva, M. (2020). Problems in the production of potassium fertilizers in uzbekistan. In инновационные подходы в современной науке (pp. 137-140).
7. Оспанов, Т. А., & Жапарбаева, М. А. (2020). Разработка нового метода количественного определения инсулина. In Научное сообщество студентов. Междисциплинарные исследования (pp. 50-55).

DELTA GEOTIZIMLARIDAGI YER USTI SUV OQIMLARINING STRUKTURASIGA RELYEF SHAKLLARINING TA’SIRI

Urazbayev Abdukarim Kendirbayevich
g.f.d. professor CHDPU Geografiya kafedrasi
E-mail: a.urazbayev@cspi.uz


Amudaryo hozirgi deltasi relyef plastikasi kartasi asosida ajratilgan to‘qqizta kichik deltalar va oltita kollektor havzalaridagi yer usti suv oqimlarining yo‘nalishi o‘z navbatida obyektlarning ichki strukturasini tashkil etuvchi relyefning elementlari (balandliklar va pastliklar) bilan bog‘liqdir.

S.D.Muraveyskiy ilk bor landshaftlarning hosil bo‘lishida yer usti suv oqimlarining rolini nazariy asoslab berdi. Delta taraqqiyotida hosil bo‘lgan kichik deltalar “daraxtsimon” strukturaga ega bo‘lib, bu struktura hozirgi vaqtda sug‘orilmaydigan hududlardagi yer usti suv oqimlarining strukturasini belgilab beradi. Sug‘oriladigan hududlarda kollektor havzalari mavjud bo‘lib, ulardagi yer usti suv oqimlarining strukturasi o‘ziga xosdir [1].

Amudaryo hozirgi deltasining sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan hududlaridagi yer usti suv oqimlari o‘zlarining strukturalari bo‘yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Shu sababli ularni ikki guruhga ajratdik: 1. Daraxtsimon struktura (rasm 1); 2. Havzaviy struktura (rasm 2).

Rasmlardan ko‘rinib turibdiki, yer usti suv oqimlarining yo‘nalishini belgilab berishda relyefning balandlik elementi asosiy rol o‘ynaydi. Ana shuning uchun ham yirik masshtabli (1:25 000) relyef plastikasi kartalari deltadagi yer usti suv oqimlarining strukturasini tadqiq qilishda asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.


Yer usti suv oqimlarining “daraxtsimon” va “havzaviy” strukturalari landshaftlarning geokimyoviy rejimini tadqiq qilishda asosiy omildir. Ana shuning uchun ham yer usti suv oqimlarining “daraxtsimon” va “havzaviy” strukturalarini tadqiq qilishning nazariy ahamiyati quyidagilardan iborat:



Rasm 1. Ideallashtirilgan kichik deltadagi yer usti suv oqimlarining “daraxtsimon” strukturasi

Shartli belgilar:


- r balandlik elementi
- yer usti suv oqimining yo’nalishlari



Rasm 1. Ideallashtirilgan kollektor havzasidagi yer usti suv oqimlarining “Havzaviy” strukturasi

Shartli belgilar:

- havza chegarasi
- rel’yefning balandlik elementi
- yer usti suv oqimi

 - kollektor

 - ko’l

1. Har bir kichik deltalardagi yer usti suv oqimlarining “daraxtsimon” strukturasi relyefning elementlari (balandlik va pastliklar) bilan aloqadorlikda bo‘lib, balandlik va pastliklarning maydoniga bog‘liq holda meliorativ sharoitning har xil bo‘lishida yer usti suv oqimi asosiy omildir;

2. Har xil suv-tuz rejimidagi landshaftlarning (gidromorf, yarim gidromorf, avtomorf) hosil bo‘lishida grunt suvlarining chuqurligi qanday rol o‘ynasa, shu bilan birgalikda landshaftlardagi tuzlarning dinamikasida va migratsiyasida yer usti suv oqimi ham shunday rol o‘ynaydi;

3. Kollektor havzasidagi yer usti suv oqimining “havzaviy” strukturasi avvalambor obyektdagi geokimyoviy landshaftning elementlariga bog‘liq bo‘lib, ular asosan elyuvial elementar landshaftidan superakval elementar landshafti tomon harakat qiladi, ya’ni huddi shu yo‘nalishda landshaftlarning geokimyoviy rejimi tartibli o‘zgaradi;

4. Yer usti suv oqimlarining strukturasi bir tomondan kichik deltalarning strukturaviy yaxlitligiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa kollektor havzalarining funksional yaxlitligiga bog‘liqdir;

5. Daryo va kollektor havzalarining tabiiy resurslaridan oqilona foydalanishda havzaviy konsepsiyaning qo‘llanilishi o‘z navbatida yer usti suv oqimlarining strukturasi haqida nazariy bilimga ega bo‘lishni taqozo qiladi, ya’ni yer usti suv oqimlarining yo‘nalishi havzalardagi tabiat komponentlariga va ularning sifat ko‘rsatkichlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etadi.

Boshqacha so‘z bilan aytganda, relyef strukturasining yer usti suv oqimlarining strukturasiga ta’sirini tadqiq qilish natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Delta sharoitida yer usti suv oqimlarining faoliyati natijasida hosil bo‘lgan kichik deltalar hozirgi vaqtda obyektlardagi yer usti suv oqimlarining “daraxtsimon” strukturasini hosil qiladi.

2. Kollektor havzalaridagi kichik deltalarning bir-biri bilan o‘zaro aloqadorligiga sabab bo‘luvchi yer usti suv oqimlari “havzaviy” strukturani belgilab beradi.

3. Kichik deltalarda yer usti suv oqimi o‘zan bo‘yi balandliklaridan ikki yonidagi superakval elementar landshafti tomon harakat qilganligi sababli, xuddi shu yo‘nalishda tuproqlarning meliorativ holati va mexanik tarkibi, grunt suvlarining kimyoviy darajasi hamda landshaftlarning geokimyoviy rejimi

tizimli o‘zgaradi.

4. Kollektor havzalarida yer usti suv oqimi havza chegarasidan kollektor o‘zani o‘tgan tomon harakat qiladi va xuddi shu yo‘nalishda tabiat komponentlarining sifati o‘zgaradi.

5. Amudaryo hozirgi deltasi sug‘orilmaydigan hududlaridagi yer usti suv oqimlarining “daraxtsimon” strukturasi va sug‘oriladigan hududlaridagi “havzaviy” struktura O‘rta Osiyodagi barcha delta geotizimlariga xos bo‘lgan umumiy geografik strukturadir.

6. Delta sharoitida mavjud bo‘lgan bu ikki yer usti suv oqimlari strukturasining hosil bo‘lishida asosiy omil relyef plastikasidir. Yer usti suv oqimlarining strukturasi doimo relyef bilan suv oqimlarining munosabatini talab qilganligi sababli, ularning strukturasiga relyefning shakli to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etadi.

Adabiyotlar:

1. Муравейский С.Д. Роль географических факторов в формировании географических комплексов. // Вопросы географии, - М.: Мысль, 1948. - Сб. 9. - С. 95-110.
2. Уразбаев А.К. Явление функциональной целостности орощаемых территорий дельтовых геосистем. //ДАН РУз. - 1997. №10. -С.31-33.

Ájiniyaz atındağı
NÓKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
NMPI
1934

FARG’ONA VODIYSI DARYO HAVZALARI VA ULARNI TADQIQ ETISHNING BA’ZI MASALALARI

Mirzamahmudov Odiljon To’xtasinovich
University of Business and Sciens nodavlat oliy ta’lim muassasasi geografiya fanlari doktori(Ds), dotsent
Tel:+99899-760-89-01
e.mail: mirzamaxmudovodiljon@gmail.com

Xakimov Mirqobil Mirsaydillayevich
University of Business and Sciens nodavlat oliy ta’lim muassasasi Maktabgacha – boshlang’ich ta’lim va jismoniy tarbiya kafedrasi o’qituvhchisi
Tel:+99894-150-72-72
e.mail: mirqobil.hakimov@gmail.com

Annotatsiya*: Ushbu maqolada, Farg’ona vodiysi daryo havzalari va u bilan bog’liq xususiyatlar o’rganilib ularni tadqiq etishning o’ziga xos xsusiyatlari bayon etilgan.*
Kalit so‘zlar: *Daryo havzasi, antropogen landshaft, obikor dehqonchilik, sug’orma dehqonchilik, jarlar, suffozion o’ralar, eroziya, tabiiy tuproq, o’simlik qoplami, degradatsiya.*

Аннотация: *В данной статье изучены бассейны рек Ферганской долины и связанные с ними особенности и описаны особенности их исследования.*
Ключевые слова: *бассейн реки, антропогенный ландшафт, интенсивное земледелие, орошаемое земледелие, овраги, удушающие русла, эрозия, естественная почва, растительный покров, деградация.*

Annotation: *In this article, the river basins of the Ferghana Valley and the features related to it are studied and the specific features of their research are described.*
Key words: *River basin, anthropogenic landscape, intensive agriculture, irrigated agriculture, ravines, suffocation beds, erosion, natural soil, vegetation cover, degradation.*

Bugungi kunda tabiatdan oqilona foydalanish, atrof-muhit musaffoligini saqlash, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni tezda bartaraf etish, shuningdek, qishloq xo’jaligi madaniyatini oshirish orqali jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan sof, raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirish kabi dolzarb masalalar barchaning diqqat-e’tiborini tortmoqda.

Jumladan, dunyo aholisini tabiiy resurslar bilan ta’minlash maqsadida landshaftlardan intensiv foydalanilayotganligi tufayli tabiiy muhitda texnogen buzilish, kimyoviy ifloslanish, tuproq degradatsiyasi va boshqa salbiy jarayonlar kuchaymoqda. Bu muammolarga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlar katta e’tibor bermoqda. Chunonchi, BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo’yicha dasturida belgilangan 17 ta maqsadlardan biri “quruqlik

ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o’rmonlarni ratsional boshqarish, cho’llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to’xtatish va biologik xilma-xillik yo’qolishining oldini olish” vazifalari yechimiga yo’naltirilgan [1]. Yuqoridagi vazifalar Farg’ona vodiysi daryo havzalari landshaftlarini har tomonlama tadqiq etishni va landshaftlarni landshaft-ekologik sharoitlarini optimallashtirishni taqozo etadi.

Farg’ona vodiysining asosiy qismini tashkil etgan daryo va soylarining barcha yoyilmalari, uzoq yillardan sug’orma va lalmi dehqonchilikda foydalanib kelinishi natijasida dastlabki tabiiy landshaftlar o’rnini antropogen va tabiiy-antropogen landshaftlar egallamoqda. Shundan kelib chiqqan holda, Farg’ona vodiysi daryo havzalari landshaftlarining inson faoliyati ta’sirida o’zgarishini va landshaft-ekologik sharoitini tahlil qilish hamda amaliy tadbirlar majmuasini ishlab chiqish dolzarb masala bo’lib xisoblanadi.

O’zbekiston daryo havzalari geotizimlari bo’yicha kompleks tabiiy geografik tadqiqotlar E.M.Murzaev, L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.Abdulqosimov, V.N.Veber, A.A.Yurev, V.M.Chetirkin, N.P.Kostenko N.A.Gvozdetskiy, T.V.Zvonkova, B.P.Alisov, L.Alibekov, SH.Ergashov, A.K.Urazboev, K.M.Boymirzaev, Q.S.Yarashev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Farg’ona vodiysi antropogen landshaftlarini A.A.Abdulqosimov [2,3] tasniflashtirgan; tuproqlarini B.V.Gorbunov [4]., S.N.Shuvalov [5], tuproq-ekologik sharoitini A.Maqsudov [6] o’rgangan. Farg’ona vodiysining landshaftlari va ularning inson xo’jalik faoliyati ta’sirida o’zgarishi haqida K.M.Boymirzaev [7], O.Mirzamaxmudov [8,9,10] tadqiqot ishlarini olib borgan. Farg’ona vodiysining o’simlik qoplamini Ye.P.Korovin [11], Arifxonova [12), R.S.Vernik, T.U.Rahimova [13], va boshqa geobotaniklar tadqiq etdilar.

Biroq, Farg’ona vodiysi tabiatidan foydalanish muammosiga doir ko’pgina ishlar bo’lishiga qaramay, Farg’ona vodiysi daryo havzalari landshaftlarining tadqiq etish bo’yicha to’liq, keng qamrovli ilmiy ishlar majmuasi yaratilmagan.

Farg’ona vodiysi daryo havzalarining landshaftlari kishilarning xo’jalik faoliyati ta’sirida madaniylashgan landshaft xususiyatlariga ega. Bu xududlardan chorva hayvonlarini boqishda yaylov sifatida foydalanish davom etmoqda, qishloq xo’jalik ekinlarining barcha turlarini yetishtirish uchun, shuningdek yangi aholi punktlarini barpo qilish maqsadida o’zlashtirildi va hamon o’zlashtirilmoqda.

Farg’ona vodiysi daryo havzalari landshaft komplekslari insonlarning

xo’jalik faoliyatining turli tarmoqlari, ayniqsa qishloq xo’jaligi ta’sirida kuchli o’zgarishga uchramoqda. Bunday o’zgarishlar turli-tuman hududlar doirasida sodir bo’lgani uchun vujudga kelgan antropogen landshaftlar ham o’sha hudud tabiatining umumiy xususiyatlariga bo’ysungan holda rivojlanadi.

Farg’ona vodiysi daryo havzalari landshaft-ekologik sharoitining o’zgarishi, relyefning o’zgarishi, tuproqda chirindi miqdorining kamayishi, agroirrigatsion yotqiziqlarning vujudga kelishi, tuproq qoplamining yuvilishi, landshaftlarning ifloslanishi, injener-geografik jarayonlarning rivojlanishi va hokazolar[9].

Kishilarning surunkali obikor dehqonchilik bilan shug’ullanishi landshaft komplekslarining mikrorelьef xususiyatlariga kuchli ta’sir etadi. Daryo havzalarining o’rta qismi hozirgi kunda aholining eng zich joylashgan hududi bo’lib, anhorlar va ariqlar, turli darajadagi yo’llar juda ko’p. Daryo havzalarining quyi qismi esa drenaj zovurlari va sug’orish inshootlari ko’plab barpo etilgan joydir. Sug’oriladigan och tusli bo’z va allyuvial o’tloqli tuproqlarda ham sug’orish boshlangan dastlabki 20-30 yillar davomida chirindi miqdorining kamayib, so’ngra ko’paya borishi kuzatiladi.

Obikor dehqonchilik maydonlari ko’proq tarixan shakllangan qulay geomorfologik qiya tekisliklar va botiqlarida hamda bir qator gidrotexnik inshootlar bilan bog’liq bo’lgan hududlarda joylashgan.

Daryo havzalarining dehqonchilik ta’sirida o’zgarishi, birinchi navbatda agroirrigatsion yotqiziqlarning hosil bo’lishi va qalinlashib borishi, sug’orish inshootlarining barpo etilishi, qishloqlar va shaharlarning paydo bo’lishi, yo’llar qurilishi va hokazolar oqibatida tabiiy landshaft komplekslari o’rniga madaniy geokomplekslarning barpo etilishi landshaft komplekslari va ular tuzilishining o’zgarishiga olib keldi. Buning oqibatida xilma-xil seliteb, qishloq-xo’jalik, suv-xo’jalik va degradatsiyalashgan kabi sinflar paydo bo’ldi.

Shu bilan birga, daryo havzalari landshaftlarining sug’orma dehqonchilik ta’sirida kuchli o’zgartirilishi ham turli xil ko’rinishdagi ekologik muammolar vujudga kelishiga sabab bo’lmoqda. Ayniqsa, bu mintaqada sodir bo’lgan va bo’layotgan jarlar, suffozion o’ralar, eroziya, tabiiy tuproq va o’simlik qoplamining degradatsiyaga tortilganligi, sho’rlanishning kuchayib borishi kabi murakkab holat kuzatilmoqda. Sug’orishdagi xo’jasizlik, sug’orish inshootlaridan noto’g’ri, pala-partish foydalanilganligi oqibatida havzada ko’plab buzilgan landshaft tiplari vujudga kelmoqda[8].

Bundan tashqari, havza landshaftlarining sug’orma dehqonchilik ta’sirida kuchli o’zgartirilishi bu mintaqada sodir bo’lgan va bo’layotgan jarlar, suffozion

o’ralar, eroziya, tabiiy tuproq va o’simlik qoplamining degradatsiyaga tortilganligi, sho’rlanishning kuchayib borishi kabi murakkab holat kuzatilmoqda.

Havzadagi tabiiy sharoit, qishloq xo’jalik, sanoat tarmoqlari va aholi joylashuvi tabiiy landshaftlari o’rnida keyingi vaqtlarda yo’l landshaft komplekslari vujudga kelishiga sabab bo’la boshladi. Yo’l landshaftlari havza hududlari bo’yicha notekis taqsimlangan [9].

Inson faoliyati ta’sirida vujudga kelgan navbatdagi tabiiy-texnogen geotizim sanoat komplekslaridir. Ular tarkibini paxta tozalash, yengil sanoat, oziq-ovqat, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, ximiya va qurilish materiallari sanoatlari tashkil etadi. Sanoat komplekslari Havza xom ashyolarini qayta ishlaganligi uchun ham uning hududlari bo’yicha notekis taqsimlangan.

Sanoat korxonalarining qurilishi landshaftlardagi modda va energiya almashinuvining izdan chiqishiga, ayrim landshaft komponentlarining strukturasi o’zgarishi va son jihatidan ozayishiga hamda ular chiqindilarining tashlanishi ayrim landshaftlarning o’zgarishiga sabab bo’lmoqda. SHuning uchun sanoat komplekslarini qurishda va faoliyatini boshqarishda ilmiy asoslangan chora-tadbirlarga qat’iy amal qilish lozim.

Farg’ona vodiysi daryo havzalari landshaftlariga, ayniqsa so’nggi 15-20 yillar ichida antropogen ta’sir kuchli bo’ldi. Havzadan oqib o’tuvchi soylarning deyarli barcha suvlari sug’orish ishlariga sarflanishi bir qator muammolarni vujudga keltirmoqda.

Bu jarayonlarning oldini olish uchun, birinchidan, havzaning adirlar qismida oqar suvlarning bo’lishiga chek qo’yish, suv faqat yopiq holatda olib yurilishini hamda tomchilab sug’orishni amalga oshirish, ko’p suv talab qiladigan ekinlar o’rniga uzumchilik va bog’dorchilikni rivojlantirish, lalmikor dehqonchilikni kengaytirish lozim.

Ikkinchidan, Farg’ona vodiysi daryo havzasi tabiatiga antropogen ta’sirning kuchliligi madaniy landshaftlarni vujudga keltirish bilan birga landshaft komponentlarini muhofaza qilish va u bilan bog’liq xsusiyatlarni anglab yetishni talab etadi.

Uchunchidan, havza landshaftlarining tabiiyligini saqlab qolish, ekologik muammolarni hal qilish faqat o’rmonlar bunyod etishga emas, balki turli amaliy, tashkiliy ishlar, agrotexnik va agromeliorativ hamda gidrotexnik ishlarni amalga oshirishga ko’p jihatdan bog’liqdir.

To’rtinchidan agrofitotsenozlar tashkil qilish faqat sel emas, balki suv eroziyasining ham oldini oladi.

Beshinchidan Farg’ona vodiysi daryo havzalari tabiiy sharoitni hisobga olib, yaylov chorvachiligini, lalmikor dehqonchilik, bog’dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu sohada tuproq, o’simlik va suvning o’zaro bog’liqlik xususiyatini to’g’ri hisobga olish kutilgan natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳаси кун тартиби //Электрон ҳавола: http://www.uz/undp/org/content/ uzbekistan.ru
2. Абдулкосимов А.А. Ландшафтное районирование Ферганской котловины // Ландшафты Узбекистана -Т.: Фан, 1966. -57с.
3. Абдулкосимов А.А. Типология и классификация антропогенных ландшафтов Узбекистана // Табиий географиянинг регионал муаммолари. Илмий конференция тезислари. -Самарқанд, 2002. -Б. 6-10.
4. Горбунов Б.В. Почвы Андижанской области // Почвы УзССР Т.11 -Т. 1957. -С. 160-248.
5. Шувалов С.А. Почвы Наманганской области // Почвы Узбекской ССР.т. 2. –Тошкент. 1957. -326 с.
6. Максудов А. Изменение почвенно-экологических условий Ферганской долинў под антропогенным воздействием. -Т.: Фан, 1990. -85 с.
7. Боймирзаев К.М. Агроирригационные наносы оазисных ландшафтов Ферганской долины и их рациональное использование (на примеры Сохского и Чартаксайского конусов выноса): Автореф. дис. … канд. геогроф. наук. -Т.: ТашГУ, 1995. -21 с.
8. Мирзамаҳмудов О.Т., Боймирзаев К.М. Наманган вилояти адирларининг ландшафт-экологик шароитини баҳолаш. Монография. – Тошкент: “Муҳаррир”, 2011. - 122 б.
9. Мирзамаҳмудов О.Т. DEVELOPMENT OF GEOTEXTILES OF THE HILLS OF TNE HILLS OF TNE FERGANA YALLEY AND THEIR CONSEQUENCES.// «Ekonomika i sotsium» № 2(93) 2022. –Б. 256-259.
10. Мирзамаҳмудов О.Т. Деҳқонова Ш. Фарғона водийси ландшафтлари ўзгаришининг айрим жиҳатлари.// Фарғона водийси географлари уюшмасининг илмий-амалий семинари материаллари. 12 декабрь.- Наманган, 2015. –Б. 95-97.
11. Коровин Е.П. Растительность Средней Азии и Южного Казахстана. -Т.: АН Уз ССР, кн. 1. 1962. -547 с.
12. Арифханова М.М. Растительности Ферганской долины. -Тошкент: Фан, 1967. –295 с.
13. Арифханова М.М. Растительности Ферганской долины. -Тошкент: Фан, 1967. –295 с.

АНАЛИЗ ВНУТРИГОДОВОГО ИЗМЕНЕНИЯ РАСХОДОВ И МИНЕРАЛИЗАЦИИ ВОДЫ В КОЛЛЕКТОРАХ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН

Хожамуратова Роза Тажимуратовна
Доктор географических наук, профессор Каракалпакский государственный университет им. Бердаха
Узбекистан, Нукус

Календерова Қумар Тенгелбай кызы
Базовый докторант Каракалпакский государственный университет им. Бердаха
Узбекистан, Нукус

Иманмурзаев Адилбек Қалдыбаевич
стажёр-предователь Каракалпакский государственный университет им. Бердаха
Узбекистан, Нукус

Аннотация: *В коллекторе КС-1 минерализация воды изменялась в пределах 2,42-5,42 г/л, состав воды был преимущественно хлоридно-сульфатный-магниево-натриевый (ХС-МН). В коллекторе КС-3 минерализация воды изменялась в пределах 2,53-5,61 г/л, в КС-4 от 1,88 до 3,14 г/л, в ККС от 2,94 до 6,51 г/л, состав воды в этих коллекторах также был преимущественно хлоридно-сульфатный-магниево-натриевый (ХС-МН).*
Ключевые слова: *сток реки, Амударья, дельта, озеро, режим, питания, гидрохимия, площадь, глубина.*

Abstract: *In the KS-1 reservoir, water mineralization varied within the range of 2.42-5.42 g/l, the composition of the water was predominantly chloride-sulfate-magnesium-sodium (CS-MN). In the KS-3 collector, water mineralization varied within the range of 2.53-5.61 g/l, in KS-4 from 1.88 to 3.14 g/l, in KKS from 2.94 to 6.51 g/l , the composition of the water in these reservoirs was also predominantly chloride-sulfate-magnesium-sodium (CS-MN).*
Key words: *river flow, Amudarya, delta, lake, regime, nutrition, hydrochemistry, area, depth.*

Данный вопрос был рассмотрен для следующих магистральных коллекторов: КС-1, КС-3, КС-4, главного левобережного коллектора (ГЛК), правой ветки ККС, Аязкалинского отводящего коллектора, Кунградского коллекторного сброса (ККС), Кызылкумского, Правомангитского, К-4, Берунийского и Восточного.

На рис. 1, 2, 3 показано, среднее за 2017-2023 гг. внутригодовое распределение расходов и минерализации воды в коллекторах КС-1, КС-1-16 и КС-3.




Рисунок -1. Внутригодовое распределение расходов и минерализации воды в коллекторах КС-1




Рисунок -2. Внутригодовое распределение расходов и минерализации воды в коллекторах КС-1-16




Рисунок -3. Внутригодовое распределение расходов и минерализации воды в коллекторах КС-4

Как видно из рисунков, практически во всех коллекторах наблюдается обратная зависимость между водным и гидрохимическим режимами, что соответствует I-ому выделенному типу режима. То есть можно отметить, что в период июнь-сентябрь во время проведения оросительных поливов, с ростом расходов воды в коллекторах их минерализация понижалась.

Во время невегетационного периода (октябрь-февраль), а также в период промывных и влагозарядковых поливов (март-май) - минерализация коллекторно-дренажных вод повышена.



Рис.2.6.3. Внутригодовое распределение расходов воды

На рис.4. показано внутригодовое распределение расходов воды в магистральных коллекторах КС-1 и КС-3. Как видно из рисунка расход воды в магистральных коллекторах изменяется во времени и пространстве.

Химический состав коллекторно-дренажных вод

Так как в большинстве вышеперечисленных магистральных и межхозяйственных коллекторах вода отличалась повышенной минерализацией, то эти воды в основном отводились за пределы орошаемой территории, стихийно заполняя близлежащие пустынные понижения. Поэтому химический состав этих вод в первые годы работы коллекторов практически не изучался, так как население предпочитало пресную воду, поступающую по оросительным каналам.

Однако в связи с расширением орошаемых площадей и дефицитом воды в маловодные годы появилась практическая необходимость начать изучение химического состава коллекторно-дренажных вод, чтобы более обоснованно использовать часть коллекторного стока повторно в сельском хозяйстве или в других целях.

Достаточно достоверная информация о содержании главных ионов (HCO_3^-, Cl^-, SO_4^{-2}, Mg^{+2} и Na^+, K^+) в воде магистральных коллекторов Республики Каракалпакстан (КС-1, КС-3, КС-4, ККС) приведена табл.1.

В коллекторе КС-1 минерализация воды изменялась в пределах 2,42-5,42 г/л, состав воды был преимущественно хлоридно-сульфатный-магниево-натриевый (ХС-МН). В коллекторе КС-3 минерализация воды изменялась в пределах 2,53-5,61 г/л, в КС-4 от 1,88 до 3,14 г/л, в ККС от 2,94 до 6,51 г/л, состав воды в этих коллекторах также был преимущественно хлоридно-сульфатный-магниево-натриевый (ХС-МН).

В коллекторе КС-1 минерализация воды изменялась в пределах 2,42-5,42 г/л, состав воды был преимущественно хлоридно-сульфатный-магниево-натриевый (ХС-МН).

Таблица 1.

Химический состав воды магистральных коллекторов Республики Каракалпакстан в 2023 г.

Дата отбора пробы	Содержание главных ионов, в мг - экв						Минерализация, г/л.
	HCO_3^-	Cl^-	SO_4^{-2}	Ca^{+2}	Mg^{+2}	$Na^+ + K^+$	
1	2	3	4	5	6	7	8
1. Коллектор КС-1							
09.04	2,00	33,28	38,30	21,96	23,67	27,95	4,592
08.05	0,61	38,35	52,40	29,94	49,32	12,10	5,424
14.06	0,39	32,71	32,20	13,97	80,58	21,14	3,832
09.07	0,80	20,87	26,60	9,98	22,69	15,60	2,972
09.08	4,00	23,69	12,89	9,98	15,78	14,82	2,424
07.09	2,80	24,82	21,60	10,98	18,74	19,50	3,024
2. Коллектор КС-3							
16.04	1,61	40,61	48,20	15,97	20,63	47,62	5,616
08.05	0,61	32,15	42,00	10,98	26,63	37,15	4,616
14.06	0,39	32,17	38,30	12,97	22,69	35,74	4,464
12.07	2,00	23,69	23,30	9,98	18,74	20,27	3,088
09.08	4,20	24,82	13,78	8,98	20,71	13,06	2,536
07.09	2,20	25,94	25,00	10,98	18,74	23,42	3,296
3. Коллектор КС-4							
16.04	1,39	21,43	27,70	11,98	17,76	20,78	3,144
08.05	0,16	14,10	16,46	9,98	7,89	13,30	1,928
14.06	0,61	23,12	29,70	14,97	20,71	17,75	3,328
12.07	0,40	17,48	23,10	9,98	14,80	16,20	2,544
09.08	3,40	23,12	13,31	8,98	21,70	9,15	2,328

07.09	2,00	15,79	13,21	9,98	11,84	9,18	1,880
4. Кунградский коллекторный сброс (ККС)							
16.04	1,61	33,84	44,70	22,95	24,66	32,54	4,984
08.05	0,39	47,94	49,50	22,95	60,17	14,71	5,592
14.06	0,39	52,45	55,50	18,96	38,47	50,91	6,512
11.07	0,61	27,07	25,40	10,98	19,73	23,37	3,304
09.08	3,40	28,76	17,29	8,98	21,70	18,77	2,936
10.09	1,80	28,20	29,50	11,98	26,63	20,89	3,624

В коллекторе КС-3 минерализация воды изменялась в пределах 2,53-5,61 г/л, в КС-4 от 1,88 до 3,14 г/л, в ККС от 2,94 до 6,51 г/л, состав воды в этих коллекторах также был преимущественно хлоридно-сульфатный-магниево-натриевый (ХС-МН).

Использованные источники:

1. Чембарисов Э.И., Хожамуратова Р.Т. Практическая гидроэкология // Учебное пособие, - Нукус, Билим, 2012. -С. 83.
2. Хожамуратова Р.Т., Чембарисов Э.И. Характеристика качества поверхностных вод дельты Амударьи и их исследование / В сб. научных трудов. «Жәмийеттиң раўажланыўында илимпаз ҳаял-кызлардың орны». –Нукус, 2011. – С. 156-158.
3. Туреева Қ. Жанубий Оролбўйи сув объектларининг антропоген дегредацияланиш жараёнларининг қонуниятлари //дисс.автореферати. Нукус, 2021й. -С. 21.
4. Чембарисов Э. И. и др. Загрязненность воды Амударьи по длине реки //международная научнопрактическая конференция «образование, наука и технологии: основные проблемы и направления Развития» М. – 2022. – С. 230-234.
5. Чембарисов Э. И. и др. Экологические проблемы Приаралья и Аральского моря //ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ АГРАРИЕВ. – 2016. – С. 519-522.
6. Чембарисов Э. И. и др. Использование земельных ресурсов Республики Каракалпакстан //международная научно-практическая конференция «Педагогика, образование, наука и технологии: проблемы и решения». М. – 2022. – С. 316-321.
7. Кутыбаева Д. К., Пишенбаев Ш. Т., Хожамуратова Р. Т. ГИДРОЭКОЛОГИЧЕСКИЙ МОНИТОРИНГ БАССЕЙНА РЕКИ АМУДАРЬИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-1. – С. 499-502.

8. Хожамуратова Р. Т. и др. ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ БЕЗОПАСНОЙ ПИТЬЕВОЙ ВОДОЙ //Экономика и социум. – 2022. – №. 11-1 (102). – С. 986-990.
9. Реймова Г. Б., Хожамуратова Р. Т. КОМПЛЕКСНАЯ ОЦЕНКА ГИДРОЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН //Форум молодых ученых. – 2021. – №. 10 (62). – С. 124-127.
10. Чембарисов Э. И., Хожамуратова Р. Т., Шодиев С. Р. ГИДРОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ БАССЕЙНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ ПРИ ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА //Современные проблемы геологии, геофизики и геоэкологии Северного Кавказа. – 2021. – С. 427-429.
11. Хожамуратова Р. Т., Жангабаев Д. М., Иманмурзаев А. Қ. МНОГОЛЕТНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ МИНЕРАЛИЗАЦИИ ГРУНТОВЫХ ВОД НА ОРОШАЕМОЙ ТЕРРИТОРИИ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.
12. ЧЕМБАРИСОВ Э. И. и др. СОВРЕМЕННЫЕ ЗАДАЧИ ГИДРОЭКОЛОГИИ БАССЕЙНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ //ББК 60 Н 34. – 2020. – С. 267.
13. Гафуров А., Нурбацина А., Калашникова О. Оценка водных ресурсов в Центральной Азии методами дистанционного зондирования //Новые методы и результаты исследований ландшафтов в Европе, Центральной Азии и Сибири. – 2018. – С. 405-410.
14. Чембарисов Э. И. и др. Многолетние изменения качества речных вод Узбекистана //Природные ресурсы, среда и общество. – 2020. – №. 3 (7). – С. 55-58.

JANUBIY OROLBO’YI MINTAQASIDAGI HAVO HARORATI VA ATMOSFERA YOG’INLARINING O’ZGARISHINI MIQDORIY BAHOLASH

Allanazarov K.J.,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti

Abdullayev T.J.
Qoraqalpoq davlat universiteti stajyor-o’qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada Janubiy Orolbo’yi mintaqasida joylashgan Nukus, Chimboy, Qo’ng’irot, Mo’ynoq va Jasliq meteorologik stansiyalarida 1950-2020-yillarda kuzatilgan havo harorati va atmosfera yog’inlari ma’lumotlarini to’plab, ularni matematik-statistik usul bilan qayta ishlab, o’zgaruvchanlik koeffitsientlari hisoblab chiqildi. Tadqiqot davomida shu narsa aniq bo’ldiki, 1950-2020-yillar davomida o’rtacha yillik havo harorati mintaqadagi barcha meteorologik stansiyalarida so’ngi yillarda ortib borayotganligi aniqlandi. Atmosfera yog’inlari miqdorining tebranishlarida esa shu narsa ayon bo’ldiki, so’ngi 15 yillik davrda mintaqa hududidagi yog’inlar miqdori o’rtcha ko’p yillik miqdordan kamaygan. Bu esa Janubiy Orolbo’yidagi iqlimiy balansning o’zgarib borayotganligini ifodalaydi.*

Kalit so’zlar: *Iqlim, havo harorati, atmosfera yog’inlari, meteorologik stansiya, variatsiya koeffitsienti.*

Аннотация*. В статье изучены данные о температуре воздуха и атмосферных осадках, наблюдавшихся в 1950-2020 гг. на метеорологических станциях Нукус, Чимбай, Кунград, Муйнак и Жаслык, расположенных в Южном Приаралье. Собранные данные были обработаны математико-статистическим методом и рассчитаны коэффициенты вариации. В ходе исследований выяснилось, что среднегодовая температура воздуха в период 1950-2020 годов в последние годы увеличивается на всех метеостанциях региона. По колебаниям количества атмосферных осадков стало видно, что за последние 15 лет количество осадков на территории региона снизилось от среднего многолетнего значения. Это означает, что климатический баланс в Южном Аральском море меняется.*

Ключевые слова: *Климат, температура воздуха, атмосферные осадки, метеостанция, коэффициент вариации.*

Abstract. *In the article, the data of air temperature and atmospheric precipitation observed in 1950-2020 at Nukus, Chimbay, Kungrad, Muynak and Jaslyk meteorological stations located in the Southern Aral Sea region are studied. The collected data were reprocessed by the mathematical-statistical method and the coefficients of variation were calculated. During the research, it became clear that the average annual air temperature during 1950-2020 has been increasing in recent years at all meteorological stations in the region. In the fluctuations of the amount of atmospheric precipitation, it became clear that in the last 15 years, the amount of precipitation in the territory of the region has decreased from*

the average amount for many years. This means that the climate balance in the South Aral Sea is changing.

Key words: *Climate, air temperature, atmospheric precipitation, meteorological station, coefficient of variation.*

Kirish. Hozirgi kunda butun sayyoramiz miqyosida kuzatilayotgan iqlim o’zgarishlari har xil geografik o’rinlarda va mintaqalarda turlicha ko’rsatkichlar ega bo’lmoqda. Bu o’zgarishlarning har xilligi iqlimni paydo etuvchi asosiy omillardagi bo’layotgan tabiiy o’zgarishlar, shuningdek fan-texnikaning rivojlanishi natijasida inson omilining sezilarli darajada ortishiga bog’liq. Global iqlim o’zgarishi insoniyat oldiga yanada yangi muammolar va yechimini topish zarur bo’lgan masalalarni yuzaga keltirmoqda. Bunday muammoli mintaqalar miqdorining so’ngi davrlarda yanada ortib borayotganligi ham sir emas. Bunday mintaqalar qatoriga XX asrdagi vujudga kelgan Orol dengizining qurishi va shu boisdan Orolbo’yi mintaqasida vujudga kelgan ekologik muammoni ham kiritishimiz mumkin.

O’tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab Amudaryo havzasida antropogen omillarning daryo oqimiga ta’siri keskin kuchayishi oqibatida Orol dengizi suv sathining kamayishi mintaqadagi iqlim ko’rsatkichlariga bevosita o’z ta’sirini ko’rsatdi. Bu esa o’z navbatida mintaqada ko’p yillardan buyon shakllangan iqlimiy rejimning o’zgarishiga olib keldi. Mintaqadagi ekologik sharoitni yaxshilash uchun, bugungi kundagi iqlimiy holatni o’rganish va kelajakda vujudga keladigan iqlimiy vaziyatni prognozlash, iqlimiy xatarlarni baholash uchun mintaqadagi iqlim ko’rsatkichlarining davrlardagi o’zgarishini o’rganish muhim ahamiyatga ega. Mazkur holatlarni e’tiborga olib, Orol va Orolbo’yi mintaqasida iqlim ko’rsatkichlarining o’zgarishlarini baholash bugungi kunda o’ta dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi janubiy Orolbo’yi mintaqasi iqlim ko’rsatkichlarining XX asrning ikkinchi yarmidagi va XXI asr boshlaridagi o’zgarishlarini baholashdan iborat. Ishda belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun iqlim ko’rsatkichlardan havo harorati va atmosfera yog’inlari tanlab olindi. Qoraqalpog’iston Respublikasi hududida joylashgan Nukus, Chimboy, Mo’ynoq, Qo’ng’irot va Jasliq meteorologik stansiyalaridagi havo harorati va atmosfera yog’inlari haqidagi ma’lumotlar to’planib, matematik-statistik tahlil qilindi va tegishli xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotda ko’zlangan maqsadni amalga oshirish uchun ishda quyidagi vazifalarni bajarish rejalashtirildi va ular izlanishlar jarayonida o’z yechimini topdi:


- mintaqada joylashgan beshta meteorologik stansiyalarda havo haroratining 1950-2020-yillardagi o’rtacha qiymati aniqlandi va har bir meteorologik stansiyadagi o’n yilliklar bo’yicha o’zgarishi aniqlandi;
- atmosfera yog’inlarining 1980-2020-yillardagi o’zgarishi aniqlandi va tahlil qilindi;
- atmosfera yog’inlarining beshta meteorologik stansiya bo’yicha o’rtacha kvadratli chetlanishi va variatsiya koeffitsientlari aniqlandi;
- hududdagi beshta meteorologik stansiyadagi havo harorati va atmosfera yog’inlarining o’zaro korrelyatsiya koeffitsientlari aniqlandi.

Asosiy natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqot ishida dastlab yuqorida belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, havo haroratining o’rtacha yillik miqdorlarining 1950-2020-yillar bo’yicha o’zgarishi tahlil etildi. Yuqorida keltirilgan meteorologik stansiyalardagi havo haroratining o’n yilliklar bo’yicha o’rtacha miqdorlari aniqlandi va diagramma ko’rinishida 1-rasmda keltirildi.

Mintaqa huudidagi meteorologik stansiyalardagi havo haroratining o’n yilliklar bo’yicha o’zgarish diagrammalaridan shu narsa aniq bo’ldiki, ko’rib chiqilgan barcha meteorologik stansiyalarda bir xil ko’rinishda havo harorati o’rtacha miqdorlarining ko’tarilishi kuzatilgan. Bu global ilish jarayonining Orol bo’yi hududida ham kuzatilayotganligini bidiradi. Mazkur jarayonning vujudga kelishida Orol dengizining qurishi bilan bog’liqlik taraflari ham bo’lishi mumkin. Chunki Orol dengizi ko’p yillar davomida katta maydonni egallab yotgan suv obekti sifatida mintaqa iqlimida regulyator vazifasini bajarib kelgan. Ya’ni yilning sovuq mavsumlarida havo haroratlarining keskin pasayib, issiq mavsumlarda keskin ortib ketishining oldini olgan.


Janubiy Orolbo’yida joylashgan meteorologik stansiyalardagi so’ngi 50 yil ichidagi havo haroratining o’zgarishi planetar miqyosdagi havo harorati o’rtacha miqdorining ortish ko’rsatkichiga qaraganda katta ekanligida namoyon bo’ladi. Misol uchun, Nukus meteostansiyasida 1951-1960-yillardagi havo haroratining o’n yillik o’rtacha qiymati +11,1℃ bo’lgan bo’lsa, so’ngi o’n yillikda bu qiymat +13,3 ℃ ga, ya’ni, +2,2 ℃ ga, Chimboyda +2,4 ℃ ga, Qo’ng’irotda +2,5 ℃ ga, Mo’ynoqda +2,3 ℃ ga ortgan. Jasliq meteorologik stansiyasida kuzatishlar 1973-yildan boshlangan bo’lib, 1973-1980-yillardagi o’rtcha harorat +9,6 ℃ bo’lib, so’ngi o’n yillikning o’rtacha qiymati +11,6 ℃ ga teng bo’lgan. Yana

shuni ta’kidlash joizki, havo haroratining ortishi ekstremal iqlim sharoitlarining ham ortishiga olib kelmoqda.



1-rasm. Meteorologik stansiyalardagi havo haroratining o'n yilliklar bo'yicha o'zgarish diagrammasi

Bilamizki, hozirgi kunda global iqlim o’zgarishi bilan bog’liq vaziyatni aniq baholash va prognoz qilish maqsadida ko’plab yetakchi ilmiy institutlar va xalqaro tashkilotlar tarafidan har xil matematik modellar yaratilgan. Bunday modellarda hozirgi kundagi global vaziyatdan kelib chiqib bir nechta ssenariylar bo’yicha prognozlar amalga oshirilgan. Har xil iqlim ssenariylaridagi prognozlar bo’yicha mintaqa hududida qurg’oqchilik hodisalarining ortishi kuzatilishi aytilmoqda. Bu ko’rsatkichlar haqiqatga qay darajada yaqinligini bilish maqsadida mintaqadagi yuqorida ko’rsatilgan meteorologik stansiyalarda 1980-2020-yillarda kuzatilgan atmosfera yog’inlarining yillik yig’indi miqdorlari to’planib yillar bo’yicha o’zgarish grafigi chizilib tahlil qilindi (2-rasm).



2-rasm. Orolbo'yi mintaqasidagi atmosfera yog'inlarining 1980-2020-yillardagi o'zgarishlari

Ma’lumotlar analizi shuni ko’rsatadiki, mintaqada joylashgan 5 ta meteorologik stansiyada atmosfera yog’inlarining o’zgarishi bir-biriga yaqin miqdorlarda aks etgan. Bu meteorologik stansiyalar ichida Jasliq meteorologik stansiyasidagi o’zgarish tendensiyalari qolganlariga nisbatan unchalik mos tushmaydi. Jasliqda 2015-yil atmosfera yog’inlarining yillik miqdori eng yuqori ko’rsatkichga, ya’ni, 297,3 mm ni tashkil etgan. Bu ko’rsatkich ushbu davr (1980-2020-yillar) uchun yuqoridagi 5 ta stansiya ichida eng yuqori hisoblanadi. Bunga asosiy sabab Jasliqning joylashgan geografik o’rni bo’lib, u Ustyurt platosida joylashgan. Bilamizki, Orolbo’yi mintaqasiga atmosfera yog’inlari asosan Janubiy Kaspiy va G’arbiy siklonlar hisoblanadi. Ko’rilayotgan davrda bu siklonlarning yo’nalishi shimoli-g’arbdan ko’proq bo’lgan bo’lishi mumkin. Shu sababli, yog’in-sochinlar Ustyurt platosi joylashgan Qoraqalpog’istonning shimoli-g’arbiy hududida mintaqaning boshqa stansiyalariga nisbatan ko’proq yog’gan bo’lish ehtimolligi katta. Ma’lumotlar tahlil qilinganda yana shu narsa ayon bo’ldiki, 2015-yil Jasliqda bahor oylarida (mart-may) yog’in miqdori ko’p yillik o’rtacha miqdordan ancha yuqori bo’lgan. Mart oyida 32,8 mm o’rtacha ko’p yillik miqdor (1980-2020-yillardagi)dan qariyib 2 baravar, aprel oyida 53,9 mm, may oyida 66,8 mm qariyib 3 baravar ko’p yog’gan. Yog’in-sochinlar bu mavsumda asosan jala yomg’irlari ko’rinishida bo’ladi. Jala yomg’irlari esa asosan siklonnning sovuq fronti zonasida vujudga keladi. Shuni alohida e’tirof etish lozim, 2015-yil mintaqadagi boshqa 4 ta meteorologik stansiyasida ham atmosfera yog’inlari o’rtacha miqdorga nisbatan 2-3 marta kattaroq ko’rsatkichga ega bo’lgan. Biroq Jasliq meteorologik stansiyasidagichalik anomal miqdorda bo’lmagan. Yuqoridagi 2-rasmda keltirilgan grafiklarga e’tibor bersangiz, hududdagi atmosfera yog’inlarining yillik miqdorlarida so’ngi 15-yillik davrda, 1990-2020-yillar orasidagi o’rtacha miqdorga qaragan pasayish kuzatilgan (Jasliq va Chimboy meteostansiyalaridan tashqari). Tadqiqot ishida bu miqdorlar ham aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Atmosfera yog’inlarining 1980-2000 va 2001-2020-yillardagi o’rtacha miqdorlari orasidagi farqlar

Davr	Nukus	Chimboy	Qo’ng’irot	Mo’ynoq	Jasliq
1980-2000	108,6	124,2	130,8	147,1	117,9
2001-2020	101,8	132,4	119,4	103,0	126,6
Davrlardagi farq	**6,8**	**-8,2**	**11,3**	**44,1**	**-8,7**

Atmosfera yog’inlari Nukus va Qo’ng’irot meteostansiyalaridagi so’ngi 20 yillik o’rtacha miqdorlari 1980-2000-yillardagi miqdorga qaraganda biroz kamaygan. Mo’ynoq meteostansiyasida esa bu ko’rsatkich sezilarli darajada 44,1 mm ga kamayganini ko’rish mumkin. Chimboy va Jasliq meteostansiyalarida esa bu ko’rsatkich aksincha, ortgan bo’lib, bu asosan 2015-yildagi yog’in miqdorining anomal darajada ko’p bo’lganligi bilan bog’liq.

Tadqiqotning keyingi bosqichida havo harorati va atmosfera yog’inlarining ko’p yillik davr uchun o’rtacha kvadratli chetlanishi aniqlandi:

$$\sigma_t = \sqrt{\frac{\sum(t_i - t_{o'rt})^2}{n-1}} \quad (1)$$

$$\sigma_P = \sqrt{\frac{\sum(P_i - P_{o'rt})^2}{n-1}} \quad (2)$$

Hisoblashning keyingi bosqichida variatsiya koeffitsienti quyidagi formula bian aniqlandi:

$$C_v = \frac{\sigma_t}{t_{o'rt}} \quad (3)$$

$$C_v = \frac{\sigma_P}{P_{o'rt}} \quad (4)$$

Hisoblashlar vaqtida havo haroratining 1950-2020-yillardagi miqdorlari, atmosfera yonatijalarining esa 1980-2020-yillardagi miqdorlaridan foydalanildi. Hisblash natijalarida aniqlangan qiymatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

2-jadval

1950-2020-yillardagi ma’lumotlar bo’yicha havo harorati va atmosfera yog’inlarining o’rtacha kvadratli chetlanishi va variatsiya koeffitsientining qiymatlari

Meteostansiyalar	σ_t	σ_P	Havo harorati uchun C_v	Atmosfera yog’inlari uchun C_v
Nukus	1,07	32,8	0,09	0,31
Chimboy	1,23	47,2	0,11	0,37
Qo’ng’irot	1,16	47,5	0,10	0.38
Mo’ynoq	1,24	52,8	0,11	0,42
Jasliq	0,89	48,4	0,08	0,40

Tadqiqot ishi natijalaridan kelib chiqib, quyidagicha xulosalarga kelishimiz mumkin: o’rganilayotgan hududda 1950-2020-yillarni o’z ichiga olgan davrda havo harorati sezilarli darajada ortib borgan. Davrning dastlabki o’n yilligiga qaraganda so’ngi o’n yillikda hududda havo haroratining miqdori o’rtacha +2,3℃ ga ko’tarilgan. Atmosfera yog’inlarining o’zgarishi esa aksincha

kamayish tendensiyalarini ko’rsatmoqda. Chimboy va Jasliq meteostansiyalaridagi atmosfera yog’inlarining yillik miqdorlari ortgan (2001-2020-yillarda) bo’lishiga qaramay, umumiy tendensiya salbiy ko’rsatkichga ega bo’lgan. Bu esa mintaqadagi iqlim sharoitining aridlashib borayotganligini anglatadi va iqlimning komfortligini yanada kamaytiruvchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev T.J., Kalabaev S.B. Iqlim o’zgarishi sharoitida havo harorati o’zgarishini miqdoriy baholash (Qoraqalpog’iston Respublikasi misolida) // Иқлим ўзгариши шароитида гидрометеорологик тадқиқотлар: Долзарб муаммолар ва уларнинг ечимлари мавзуида профессор Ф.Ҳикматовнинг 70 йиллик юбилейи доирасида ташкил этилган халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: 2022. 10-13 б.
2. Аденбаев Б.Е., Абдуллаев Т.Ж. Орол денгизи қуриши натижасида Жанубий Оролбўйи минтақасидаги иқлимий кўрсаткичларнинг ўзгаришини баҳолаш // Иқлим ўзгариши шароитида гидрометеорологик тадқиқотлар: Долзарб муаммолар ва уларнинг ечимлари мавзуида профессор Ф.Ҳикматовнинг 70 йиллик юбилейи доирасида ташкил этилган халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т.:. 2022. 36-40 б.
3. Imanmurzaev Adilbek Qaldibaevich, Abdullaev Tozabek Jumabay O’g’li, Ganiev Nurman Janabergenovich, Khudaybergenov Nurlan Saparbay O’g’li, & Amangeldieva Umida Joldasbayevna. (2022). Assessment of hazardous hydrometeorological phenomena affecting agricultural crops. // British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 10, pp. 125–131.
4. Aleuov A. et al. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE SENSING OF THE EARTH //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 842-845.
5. Imanmurzaev A. Q. et al. Janubiy Orol boyi iqlim sharoiti // INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 21. – с. 73-77.
6. Imanmurzaev , A., & Sultashova , O. (2024). Qoraqalpog’iston respublikasi hududiga xavfli gidrometeorologik hodisalarning ta’sirini baholash. Interpretation and Researches, 2(3(25).
7. Khadjaeva G, Kholbayev G.Kh.The air temperature changes in the irregated areas of the Republic of Karakalpakistan // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), Volume: 5, Issue:5. 2020. https://eprajournals.com/IJSR/article/2518/abstract
8. Кузьмина Ж.В., Трешкин С.Е. Климатические изменения в Приаралье и Средней Азии // Аридные экосистемы. Т. 22. № 4 (69). 2016. - С. 5-20.
9. Rafikov1 V.A., Allanazarov K.J., Sharipov B., Sarsenbaev N.D. Prediction-informational properties of natural components and complexes of the arid

zone of Uzbekistan // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2023. – T. 9. – №. 6. – C. 323-328. DOI: https://doi.org/10.36713/epra13661
10. Субботина О.И., Чанышева С.Г. Климат Приаралья. – Т.: НИГМИ, 2006. 172 с.
11. Sultashova O.G., Utemuratov S., Ubaydullaev K.D., Abdullaev T., Abdullaeva P. To study the effect of thermal resources on crop productivity in agricultural systems // Экономика и социум. 2022. №4-1 (95).
12. Тлеуов Н.Р., Хожамуратова Р.Т., Абдуллаев Т.Ж. Глобал иқлим ўзгариши шароитида Орол денгизининг динамик хусусиятлари. – Т.: “Lesson Press”, 2023. 116 б.
13. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. - Ташкент, НИГМИ. 2007. - 132 с.

ТУПРОҚ ТУЗЛАРИНИНГ ЎСИМЛИКЛАРГА КЎРСАТАДИГАН ЗАҲАРЛИЛИК ТАЪСИРИ

Султашова О.Г.,
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети, табийий география ва гидрометеорология кафедраси профессори в.б.б. -Нукус.

Далжанов К.О.
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети, Иқтисодий география кафедраси ассистенти.

Қўриқ ерларни ёппасига экстенсив ўзлаштириш ҳамда уларни назоратсиз ва меъёрсиз суғоришлар билан боғлиқ табиий муҳитнинг тубдан бузилиши, суғорма деҳқончиликнинг бир қатор зоналарида гидрогеологик, гидрологик, геокимёвий ва тупроқ жараёнларини ўзгаришига олиб келди, иккиламчи шўрланишнинг янада кучайиши учун имкониятлар яратди. Ҳозирда шўрланган ерлардан фойдаланишда шўрланган тупроқларнинг асосан уч хил тоифасига эътибор қаратилади. 1-чи тоифа – тузлар устки 0-1 метрлик ёки илдиз қатламида тўпланган тупроқлар; 2-чи тоифа – тузлар асосан 1-2 метрлик қатламда тўпланган тупроқлар ва 3-чи тоифа – тузлар тупроқ ҳосил қилувчи ёки ундан пастда жойлашган жинсларда тўпланган тупроқгрунтлар. Тузлар устки 0-2 метрлик қатламда тўпланган тупроқларни ҳисобга олиш, улардан қишлоқ хўжалигида фойдаланиш даражасини аниқлаш ва мелиоратив вазифаларни ҳал қилиш (шўр ювиш) учун зарур бўлса, 3-тоифа шўрланган тупроқларни ҳисобга олиш, уларни тубдан мелиорациялаш муаммосини ҳал қилиш учун зарурдир.

Шўрланган тупроқларни ҳосил бўлишида иштирок этувчи тузлар, тузли бирикмаларни шаклланишидаги асосий элементлар – Ca, Mg, Na, K, Cl, S, N, B, Si лар ҳисобланади, шунингдек Sr, Li ҳамда J ва Br элементларининг ҳам тупроқ шўрланиши жараёнидаги иштироки тадқиқотларда аниқланган. Бу элементларнинг миграцияси ва уларнинг тупроқда тўпланиши асосан куйидаги гипотетик тузлар: хлоридлар – NaCI, KCl, $MgCl_2$, $CaCl_2$; сульфатлар – Na_2SO_4, $MgSO_4$, K_2SO_4, $CaSO_4$; карбонатлар – Na_2CO_3, $NaHCO_3$, $MgCO_3$, $CaCO_3$, $Ca(HCO_3)_2$; нитратлар – $NaNO_3$, KNO_3; боратлар – $Na_2B_2O_2$ ва бошқалар кўринишида содир бўлади. Бу тузларга яна эриган кремнезём – SiO_2 x H_2O; силикатлар –

Na_2SiO_4, K_2SiO_3, $CaSiO_3$ ва ишқорий металлар гуматлари ҳам қўшилиши мумкин [3,5].

Табиатда тузлар кислоталардаги водород ўрнини металлар эгаллаши билан ҳосил бўлади. Тузлар жуда кўп турлардан иборат бўлиб, уларнинг оз қисми шўр тупроқлар таркибида учрайди. Тупроқ таркибида учрайдиган тузларнинг ҳаммаси ҳам ўсимликлар учун зарар етказавермайди. Шўр тупроқлар таркибида асосан тўртта кислота (анион) – карбон (CO_3), бикарбон (HCO_3), сульфат (SO_4), хлор (Cl) ва учта металл (катион) – натрий (Na), магний (Mg) ва кальций (Ca) ларнинг ўзаро бирикишидан 12 та оддий тузлар:

1. Карбонатлар – Na_2CO_3, $MgCO_3$, $CaCO_3$;
2. Бикарбонатлар – $NaHCO_3$, $Mg(HCO_3)_2$, $Ca(HCO_3)_2$;
3. Сульфатлар – Na_2SO_4, $MgSO_4$, $CaSO_4$;
4. Хлоридлар – NaCl, $MgCl_2$ ва $CaCl_2$ таркиб топади.

Карбон кислотаси билан металларнинг бирикишидан натрий карбонат тузи, ёки кир содаси (Na_2CO_3), магний карбонат ёки магнезит ($MgCO_3$), кальций карбонат ёки оҳак ($CaCO_3$), натрий бикарбонат ёки чой содаси ($NaHCO_3$), кальций бикарбонат [$Ca(HCO_3)_2$] ва магний бикарбонат [$Mg(HCO_3)_2$] тузлари ҳосил бўлади. Сульфат кислотаси билан металларнинг бирикувидан натрий сульфат (Na_2SO_4) ва бу тузга 10 молекула сув қўшилиши билан глаубер деб аталувчи (Na_2SO_4 x $10H_2O$) туз, магний сульфат ($MgSO_4$) ҳамда кальций сульфат ($CaSO_4$) тузи ҳосил бўлади ва бу туз 2 молекула сув бириктириб гипс ($CaSO_4$ x $2H_2O$) га айланади. Тупроқда хлор кислотасининг тузларидан асосан натрий хлор (NaCl), магний хлор ($MgCl_2$) ва кальций хлор ($CaCl_2$) учрайди.

Юқорида кўрсатилган тузлар, пахта, ғалла ва бошқа қишлоқ хўжалик экинларига турли даражада таъсир кўрсатади, бу тузларнинг айримлари бутунлай зарарсиз, айримлари кам зарарли бўлса, бошқа хиллари эса жуда зараралидир. Тузларнинг ўсимликларга кўрсатадиган таъсир доираси тупроқнинг устки ҳайдалма (0-30 см) қатламидаги умумий тузлар миқдорига, уларнинг эрувчанлик даражасига ва шўрланиш типига боғлиқ [4,5,6].

Қуйида келтирилган маълумотларда шўрланган тупроқлар таркибида учрайдиган барча тузлар диагонал узуқ чизиқлар билан икки гуруҳга ажратилган. Ўнгда ва юқорида жойлашган тузлар зарарсиз бўлиб, чапда ва пастда жойлашган тузлар эса ўсимликлар учун зараралидир.

Na_2CO_3	$MgCO_3$	$CaCO_3$
$NaHCO_3$	$Mg(HCO_3)_2$	$Ca(HCO_3)_2$
Na_2SO_4	$MgSO_4$	$CaSO_4$
NaCl	$MgCl_2$	$CaCl_2$

Тупроқ таркибида учрайдиган тузлар ичида атиги тўрттаси – $CaCO_3$, $Ca(HCO_3)_2$, $CaSO_4$ ва $Mg(CO_3)_2$ тузлари ўсимликлар учун зарарсиз бўлиб, қолган 8 хил тузлар зарарли ёки заҳарли ҳисобланади. Кальций карбонат ($CaCO_3$), гипс ($CaSO_4$ x $2H_2O$) ва магний карбонат ($MgCO_3$) тузлари, ўсимликлар учун зарарсиз тузлар сирасига кирсада, уларнинг тупроқда юқори миқдорларда тўпланиши деҳқончилик юритишни анча мушкуллаштиради, ўта зичланган қатлам ҳосил қилганликлари боис, ўсимликлар илдиз системасини нормал ўсиш ва ривожланишига тўсқинлик қилади, тупроқга ишлов бериш ва шўрини ювишни қийинлаштиради. Гипсли қатламлари мавжуд, ер ости сувлари яқин жойлашган анаэроб шароитдаги майдонлардан водород сульфид (H_2S) заҳарли гази ажралиб, нафақат ўсимликларга, балким инсонлар саломатлигига ҳам салбий таъсир кўрсатади.

Сувда осон эрувчи тузларнинг маданий ўсимликларга кўрсатадиган зарарли таъсири турлича бўлиб, улар тупроқ ва ўсимликлар таркибидаги шўрга (тузга) қараб ўзгариб туради. Гап шундаки, ҳамма ўсимликлар ҳам бир хил туздан баробар зарарланмасдан ҳар хил зарарланади. Шундай бўлишига қарамасдан сувда яхши эрувчи тузларнинг заҳарли таъсири ўзаро солиштирилганда, улардаги фарқни яққол кўриш мумкин. Агар тупроқдаги тузларни ўсимликларга кўрсатадиган заҳарлилик даражасини схематик равишда ифодалаб, бунда заҳарлилик даражаси ўртача бўлган натрий сульфат (Na_2SO_4) тузини бирга тенг деб олинса, у ҳолда заҳарлилик даражаси бўйича тузлар қуйидаги кетма – кетликда ўрин олади.

$NaSO_4$ – 1, $NaHCO_3$ – 3, $MgSO_4$, $MgCl_2$, $CaCl_2$ – 3-5, NaCl – 5-6, Na_2CO_3 – 10.

Na_2CO_3 тузининг маданий ўсимликларга кўрсатадиган токсик таъсири Na_2SO_4 тузига қараганда 10 марта кучли бўлиб, бу туз парчаланганда (эриганда) натрийнинг кучли ишқор тузи (NaOH) ҳосил бўлади, бу янги туз тупроқ эритмасининг осмотик босимини кескин ошириб, ўсимликларни озиқланишдан тўхтатади.

Тупроқ тузларининг ўсимликларга кўрсатадиган заҳарлилик таъсирини, уларнинг умумий миқдори билан эмас, айнан заҳарли тузлар миқдори билан ифодалаш, бу борада ионларнинг “Заҳарлилик чегараси”ни

(мезонини) аниқлаш муҳим аҳамият касб этади. Бу борада Н.И.Базилевич ва Е.И.Панковалар [1,2] томонидан тупроқнинг механик таркиби, намланиш даражаси, сув-физикавий хоссалари, иқлим шароитлари, ўсимлик турлари ва ривожланишининг физиологик фазаларини ҳисобга олган ҳолда, тупроқдаги гипотетик тузларни ташкил этувчи ионларнинг тахминий “Заҳарлилик чегарасини” қуйидаги меъёрий кўрсаткичлари таклиф этилган.

HCO_3 <0,05% (0,8 мг-экв.); Cl <0,01% (0,3 мг-экв.);


SO_4 <0,08% (1,7 мг-экв.); Na <0,023% (1 мг-экв.).

Тупроқдаги заҳарли тузлар миқдори (%) ни аниқлашнинг бир неча усуллари мавжуд бўлиб, улардан бири Н.И.Базилевич ва Е.И.Панковалар таклиф этган эмперик формула ёрдамида аниқлаш усулидир. Бунда сувли сўрим анализи таркибидаги натрий (Na) ва магний (Mg) ионларининг миллиэквивалент миқдорлари йигиндиси ни 15 сонига бўлиш орқали аниқланади.

$$\text{Заҳ. туз (\%)} = \frac{\text{мг-экв. Na + мг-экв. Mg}}{15}$$

Иккинчи усул сувли сўрим маълумотлари бўйича заҳарли тузлар йиғиндисини аниқлашнинг номограммадан фойдаланиб ҳисоблаш усули (Минашина, 1978) бўлиб, бунда пастки горизонтал чизиқ бўйича умумий тузлар йиғиндиси кўрсаткичлари, чапдаги ординат ўқи бўйича эса кальцийнинг (мг-экв) миқдори жойлашган бўлиб, қия чизиқ йўналишидаги кесишган нуқта остидаги рақамлар заҳарли тузлар миқдорини кўрсатади (1-расм).

Заҳарли тузлар миқдорининг аниқлашнинг энг тўғри, деярли хатосиз усули, бу сувли сўримдаги ионларни гипотетик тузлар кўринишида ифодаланиши бўлиб, тузларни сифат таркибларига кўра аниқланган умумий тузлар йиғиндисидан заҳарсиз кальций бикарбонат ва сульфат [$Ca(HCO_3)$, $CaSO_4$] тузлари миқдорларини айириб ташлашдан иборат.



Сувли сўримдаги тузлар йиғиндиси, %

1-расм. Сувли сўрим бўйича заҳарли тузларни ҳисоблаш учун номограмма

Заҳарли тузлар йиғиндиси сувли сўримдаги натрий (Na) + магний (Mg) + хлор (Cl) миқдорлари ва сульфатнинг (SO_4) муайян бир қисмини ташкил қилади. Яъни:

$$\Sigma \text{ Заҳ. туз. (\%)} = \text{Na (\%)} + \text{Mg (\%)} + \text{Cl (\%)} + SO_4 \text{ заҳ. (\%)}$$

Бунда сульфатнинг (SO_4) заҳарли қисми сувли сўримдаги сульфатлар мг-экв умумий йиғиндисидан HCO_3 ва Са мг-эквивалент миқдорларини айриб ташлангандан кейинги миқдорий кўрсаткични ташкил этади.

Тупроқларда туз тўпланиш жараёни асосан, буғланиш ва транспирация жараёнлари авжига чиққан кеч баҳор, ёз ва кузда содир бўлади. Қишда ва эрта баҳорда тупроқларни ёғинлар таъсирида ювилиши тузларни (NaCl, Na_2SO_4) эришига олиб келади, ва уларни пастга ҳаракатланаётган сувлар билан грунт сувларигача етиб бориши, улар минерализациясини оширади. Натрий сульфат, гипс ва кальций карбонат деярли қайтарилмас ҳолатда чўкмага тушади, ва фақат мавсумий шўрсизланиш даврида (қиш, баҳорда) грунт сувларига бориб қўшилади.

Баҳорнинг охиридан мавсумий туз тўпланишнинг навбатдаги йиллик цикли яна қайтарилади, кейинроқ ёмғирли мавсум – янги шўрсизланиш мавсуми ва грунт сувларининг осон эрувчи тузлар билан бойиши билан алмашади.

Адабиётлар:

1. **Базилевич Н.И., Панкова Е.И.** Методические рекомендации по мелиорации солонцов и учёту засоленных почв. - Москва: Изд-во «Колос», 1970. - 112 с.
2. *Почвы республики Каракалпакста*н/ Книги 1-7. - Ташкент, 1995-1996.
3. **Попов Г.В., Сектименко В.Е., Турусунов А.А.** Изменение почвенного покрова современной дельты Амударьи. - Ташкент: Изд-во “ФАН”, 1992.
4. **Курвантаев Р.** Влияние плотности сложения почвы на ее плодородие и пути его повешения в целях интенсификации хлопководства. // Бюл. Почвенного института им. В.В.Докучаева, «Физические и химические основы почвенного плодородия» вып. 33. - М., 1983.
5. **Ковда В.А.** Проблемы борьбы с опустыниванием и засолением орошаемых почв. - Москва: «Колос», 1984. - 304 с.
6. **Ковда В.А.** Проблемы опустынивания и засоления почв аридных регионов мира / [Отв. Ред. Е.И.Панкова, И.П.Айдаров] Ин-т физ.-хим. и биол. проблем почвоведения РАН. - Москва: “Наука”, 2008. - 415 с.

Ájiniyaz atındağı
NÓKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
NMPI
1934

QISHLOQ XO’JALIGIGA TA’SIR ETIVCHI XAVFLI GIDROMETEOROLOGIK HODISALARNI BAHOLASH (QORAQALPOG’ISTON RESPUBLIKASI) MISOLIDA

Sultashova Oralxan Genjebaevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Uzbekstan, Nukus
oralxan@rambler.ru

Imanmurzaev Adilbek Qaldibaevich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Uzbekstan, Nukus
adilbekimanmurzaev86@gmail.com

Annotatsiya: *Hozirgi kunda global iqlim o’zgarishi natiyjasida xavfli gidrometeorologik hodisalarning takorlanishi o’rtib bormoqda. Shu jumladan Orol boyi hududidagi yashovchi aholiga va iqtosodiyotga o’zining salbiy ta’siri yuzaga kelmoqda. Shu jumladan Orol dengizining qurishi oqibatida va antoropgen ta’sir doirasida xavfli gidrometeorologik hodisalar kuzatilmoqda. Havo haroratinig o’zgarishi, yozdagi issiq kunlar (+40^{0}C) soninng kobayishi, Ba’horgi va kuzgi qora sovuq, hodisalarning qayd etilish natiyjalari yildan yilda ortib bormoqda. Qoraqolpog’iston Respublikasida joylashgan meteorologik stansiyalardagi ma’lumotlar asosida tahlil qilindi ushbu tezisda.*

Kalit so’zlar: *xavfli gidrometeorologik hodisalar, qora sovuq, yozgi termik depressiya, iqlim o‘zgarishi.*

Аннотация: *В настоящее время в результате глобального изменения климата увеличивается повторяемость опасных гидрометеорологических явлений. Кроме того, это оказывает негативное влияние на население и экономику региона Арольского залива. Среди них наблюдаются опасные гидрометеорологические явления в результате высыхания Аральского моря и в рамках антропогенного воздействия. Изменение температуры воздуха, увеличение числа жарких дней летом (+40^{0}C), весенние и осенние заморозки, результаты мероприятий с каждым годом увеличиваются. В данной диссертации он проанализирован на основе данных метеостанций, расположенных на территории Республики Каракалпакстан.*

Ключевые слова: *опасные гидрометеорологические явления, черный мороз, летняя термическая депрессия, изменение климата.*

Abstract: *Currently, as a result of global climate change, the recurrence of dangerous hydrometeorological events is increasing. In addition, it has a negative impact on the population and economy of the Arol Bay region. Among them, dangerous hydrometeorological events are being observed as a result of the drying up of the Aral Sea and as part of anthropogenic influence. Changes in air temperature, increase in the number of hot days in summer (+40^{0}C), spring and autumn black frost, the results of events are increasing every year. In this thesis, it was analyzed on the basis of data from meteorological stations located in the Republic of Karakalpakstan.*

Keywords: *dangerous hydrometeorological events, black frost, summer thermal depression, climate change.*

Kirish

Qoraqalpog’iston Respublikasida joylashgan Quyi Amudaryoning meteorologik rejimini o’rganish va qishloq xo’jaligi ekinlariga ta’sir etuvchi xavfli gidrometeorologik hodisalarni baholashdan iboratdir. 2020-2023 yillarda Qoraqalpog’iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori tasdiqlandi. Ushbu qarorda 90,9 ming gektar qishloq xo’jaligi yer maydonlarining suv ta’minotini, 208 ming gektar maydonning meliorativ holatini yaxshilash va 45 ming gektar ekin yerlarida suvni tejovchi texnologiyalarni joriy qayd etilgan. Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi bilan birgalikda Oliy Majlis Senati Orolbo’yi mintaqasini rivojlantirish masalalari qo’mitasiga o’z faoliyatini bevosita Qoraqalpog’iston Respublikasida tashkil etish hamda sohaga oid muammolarni shahar va tumanlarning o’ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda joyida hal etib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ko’zda tutilgan. Shu jumladan, qishloq xo’jaligi ekinlariga ta’sir etuvchi xavfli gidrometeorologik hodisalarni o’rganish masalari Qoraqalpog’iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida Prezident qarorida xam belgilangan. Qoraqalpog’iston Respublikasida xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokida istiqbolli investitsiya loyihalar ham amalga oshirilmoqda. Suv xo’jaligi vazirligi tomonidan Orol dengizi havzasida suv resurslarini boshqarishda iqlimiga moslashish loyihasi amalga oshirilmoqda. Xavfli gidrometeorologik hodisalar, jumladan, bahorgi va kuzgi qora sovuqlar, yozgi jazirama issiq qishloq xo’jaligi ekinlari hosildorligiga salbiy ta’sir etadi. Iqlim o’zgarishi natijasida xavfli gidrometeorologik hodisalarning takrorlanishi va keskinlashuvining ortishi tufayli xavfli gidrometeorologik hodisalarni o’rganish mintaqada qishloq xo’jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishga va oziq-ovqat xavfsizligiga oid chora-tadbirlar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur xavfli gidrometeorologik hodisalarni kuzatish, ularning ko’rsatkichlari o’zgarishi tendentsiyalarini o’rganish **dolzarb** masalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi bo’yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).

O’rta Osiyoning sipoptik jarayonlari va xavfli gidrometeorologik hodisalarni o’rganish va ularni qishloq xo’jaligi ekinlariga ta’sirini baholash masalalari ko’plab olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ko’rib chiqilgan. Jumladan: N.A.Agaltseva , V.A.Bugaev ., G.E.Glazirin , T.A. Ososkova, A.V. Paku.,

Ye.V. Petrova., Ye. R. Semakova., L.E. Skripnikova., T.Yu.Spektorman., G.N.Trofimov., V.O.Usmonov, V.F. Usmonov, L. Babushkin , J.Matmuratov, V.Chub, V.Karnauxova., F.Muminov., F.Raxmanova., A.Alautdinov., G.Xolboev., O.Sultashova va boshqa olimlar tomonidan o’rganilgan. Qoraqalpog’iston Respublikasida kuzatilgan xavfli gidrometeorologik hodislarni so’nggi yillarda V.L. Chub tomonidan keng tadqiq etilgan.

Quyi Amudaryo Turon provintsiyasining shimolida joylashganligi sababli qishi nisbatan sovuq, yozi issiq, quruq va serquyosh. Bu yerda o’rtacha yillik havo harorati 10-12^{0}C, sovuq bo’lmaydigan kunlar Mo’ynoq atrofida 172 kun, Amudaryo delьtasida 198 kun, Xivada 208 kunni tashkil etadi. Quyi Amudaryoda qish ob-havosining shakllanishida Arktika havosi va Sibir antitsiklonining ta’siri katta. Bular ta’sirida qishda Quyi Amudaryoda havo harorati keskin pasayib ketadi. Adabiyotlarda qayd etilishicha yanvarь oyining ko’p yillik o’rtacha harorati -4,5 -7,6^{0}S atrofida, eng past harorat -32, -33^{0}C ga, ayrim yerlarda -40^{0}C gacha tushadi. Quyi Amudaryoda haqiqiy qish 3 oy davom etadi. Iliq qishlar esa janubida 10% ni tashkil etadi. Qish davridagi manfiy haroratlar yig’indisi shimolida -500^{0}C ga, janubida -300 ^{0}C ga teng Amudaryo deltasi sersuv bo’lganidan yozgi harorat atrofdagi qumliklardagiga nisbatan pastroq. Iyul oyining o’rtacha harorati +26^{0}C, janubida +27^{0}C, cho’l qismlarida +29^{0}C ni tashkil etadi. Eng yuqori harorat esa +41, +42^{0}C, mutlaq yuqori harorat +45^{0}C gacha ko’tariladi. Quyi Amudaryo O’rta Osiyodagi eng qurg’oqchil hudud bo’lib, yillik yog’in miqdori 79-108 mm ni tashkil etadi va eng ko’p yog’in miqdori qish hamda bahor oylariga to’g’ri keladi.

1-javdal

Qoraqalpog’iston Respublikasida joylashgan Qo’ng’irot meteostansiyasida qayd etilgan sovuq urish muddatlari

Yillar	Kech bahorgi sovuq urish	Sanasi	Mart	Aprel	May	Takrorlanish	Min	Sanasi
2005	-0,3	08.04.2005	6	5	0	11	-2,1	26.03.2005
2006	-1	09.04.2006	13	1	0	14	-5,1	18.03.2006
2007	-3,7	29.03.2007	0	20	0	20	-14,6	01.03.2007
2008	-1,6	17.04.2008	1	3	0	4	-1,9	02.03.2008
2009	-1,1	21,04,2009	22	5	0	27	-7,2	19.032009
2010	-3,1	28.03.2010	0	12	0	12	-5	01.03.2010
2011	-1	05.04.2011	3	16	0	19	-21,8	03.03.2011

2012	-4,5	29.03.2012	0	18	0	18	-13,6	12.03.2013
2013	-0,5	02.04.2013	2	9	0	11	-9,9	08.03.2013
2014	0	02.04.2014	0	14	0	14	-10	09.03.2014
2015	-0,5	02.04.2015	1	23	0	24	-10,5	30.03.2015
2016	2,5	1.04.2016	0	1	0	1	-3,6	22.03.2016
2017	-2	04.04.2017	4	17	0	21	-9,1	07.03.2017
2018	-1,5	02.04.2018	14	2	0	16	-7,1	15.03.2018
2019	-1,6	22.04.2019	8	1	0	9	-3,4	10.03.2019

Qoraqalpog’iston Respublikasida joylashgan Qo’ng’irot meteostansiyasi tadqiqot natiyjalari toplandi va tahlil qilindi. Organishlar natiyjasida meteostansiyadagi gidrometeorologik ma’lumotlar jumladan: Kech bahorgi sovuq urish, takrorlanish davrlari va ushbu davr mobaynida minimal havo harorati tadqiq etildi. Qo’ng’irot meteostansiyada kech bahorgi sovuq urish 29.03.2012 yilda eng ozining minimal havo harorati kuzatilgan va $-4,5^0$C qayd etilgan. Mazkur meteostansiyada kech bahorgi sovuq urishning takrorlanish muddatlari 2009 yilda eng ko’p kuzatilgan ya’ni, 27 marta sovuq urish qayd etilgan. Qon’girot meteostansiyada bahor faslinig eng minimal havo harorati 2011 yilda kuzatilib va $-21,8^0$C qayd etilgan.

2-jadval

Qoraqalpog’iston Respublikasida joylashgan Chimboy meteostansiyasida qayd etilgan sovuq urish muddatlari

Yillar	Kesh bahorgi sovuq urish	Sanasi	Mart	Aprel	May	Takrorlanish	Min	Sanasi
2005	-1,2	07.04.2005	5	4	0	9	-4,8	06.04.2005
2006	-0,1	09.04.2006	10	1	0	11	-4	18.03.2006
2007	-3,1	29.03.2007	17	0	0	17	-14,6	01.03.2007
2008	-1,6	17.04.2008	3	1	0	4	-1,6	09.03.2008
2009	-0,6	16.04.2009	8	3	0	11	-6,7	19.03.2009
2010	-2,6	28.03.2010	12	0	0	12	-5,4	12.03.2010
2011	-3,2	04.04.2011	13	2	0	15	-18,8	01.03.2011
2012	-1,8	29.03.2012	17	0	0	17	-	13.03.2012

							12,8	
2013	-2,2	02.04.2013	6	2	0	8	-9,4	08.03.2013
2014	-0,6	14.04.2014	13	1	0	14	-8	09.03.2014
2015	-0,7	02.04.2015	22	2	0	24	-5,5	16.03.2015
2017	-0,2	07.04.2017	17	6	0	23	-9,4	11.03.2017
2018	-1,1	02.04.2018	12	2	0	14	-6,5	15.03.2018
2019	-0,5	12.03.2019	7	0	0	7	-4,9	05.03.2019

Qoraqalpog’iston Respublikasida joylashgan Chimboy meteostansiyasi tadqiqot natiyjalari toplandi va tahlil qilindi. Organishlar natiyjasida meteostansiyadagi gidrometeorologik ma’lumotlar jumladan: Kech bahorgi sovuq urish, takrorlanish davrlari va ushbu davr mobaynida minimal havo harorati tadqiq etildi. Chimboy meteostansiyada kech bahorgi sovuq urish 29.03.2007 yilda eng ozining minimal havo harorati kuzatilgan va $-3,1^0$C qayd etilgan. Mazkur meteostansiyada kech bahorgi sovuq urishning takrorlanish muddatlari 2015 yilda eng ko’p kuzatilgan ya’ni, 24 marta sovuq urish qayd etilgan. Chimboy meteostansiyada bahor faslinig eng minimal havo harorati 2011 yilda kuzatilib va $-18,8^0$C qayd etilgan.

Xulosa

Hozirgi kunda global iqlim ilishi kuzatilmoqma va o’zining isbotini topmoqdalar. Shu jumladan Marzakiy Osiyo davlatlarida ha’m bu o’zgarishlar qayd etilyapdi. Orol dengizining qurishi oqibatida hududgi xavfli gidrometeorologik hodisalar yildan yilga takrorlanish muddatllari ha’m siljiganini ko’rishimiz mumkin. Xavfli gidrometeorologik hodisalardar bahorgi va kuzgi sovuq urish, yozgi anomal termik depressiya, havo haroratinig me’yordan ortib ketishi, songi yillarda kuzatilmoqda. Harorat o‘zgarishi haqida ko‘p gapirilyapti. Ammo iqlim o‘zgarishi toza suvning mavjudligi muammosi kabi jiddiy oqibatlarga olib kelmaydi. Toshqinlar davrimizning eng katta ofatlaridan biridir. Hozir dunyoning atmosferasi yanada namroq darajada turibdi, yomg‘ir yog‘ganda avvalgidan ko‘ra uzoqroq davom etyapti. Dunyoning ba’zi qismlarida esa qurg‘oqchilik kuzatilmoqda. Qoraqalpog’iston Respublikasida joylashgan Qo’ng’irot meteostantsiyasida 1991-2021 yillarda kuzatilgan o’rtacha havo harorati maksimal va minimal havo haroratlari tahlil qilindi. Qo’ng’irot meteostantsiyasida to’plangan ma’lumotlar maksimal havo harorati asosida fasllar bo’yicha taqsimlandi. Unga ko’ra, yoz oyidagi maksimal havo harorati $49,7^0$C teng va 2019 yilda kuzatilgan. 2016 yilda qish oyida maksimal havo harorati $26,7^0$C sodir bo’lgan. Tanlangan meteostantsiyada kuz oyidagi maksimal havo harorati 2017 yilda qayd etilgan va $41,9^0$C teng bo’lgan.

1991-2021 yillarda Qo’ng’irot meteostantsiyasida bahor oyidagi maksimal havo harorati 43,5^{0}C va 2021 yilda kuzatilgan. Mazkur meteostantsiyada 1991-2021 yillarda kuzatilgan minimal havo haroratlari fasllar buyicha taqsimlandi. Unga ko’ra yoz oyidagi minimal havo harorati 30C va 2016 va 2017 yillarda kuzatilgan. 2016 yilda qish oyida sodir bo’lgan minimal havo harorati -31,4 ^{0}C teng. Qo’ng’irot meteostantsiyasida kuz oyidagi minimal havo harorati -23,4^{0}C va 1998 yilda qayd etilgan. Tanlangan meteostantsiyada yani Qo’ng’irotda bahor oyidagi minimal temperatura -21,8 ^{0}C va 2011 yilda kuzatilgan

Foydanilgan Adabiyotlar:

1. Imanmurzaev Adilbek Qaldibaevich, Abdullaev Tozabek Jumabay O’g’li, Ganiev Nurman Janabergenovich, Khudaybergenov Nurlan Saparbay O’g’li, & Amangeldieva Umida Joldasbayevna. (2022). ASSESSMENT OF HAZARDOUS HYDROMETEOROLOGICAL PHENOMENA AFFECTING AGRICULTURAL CROPS. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 10, 125–131. Retrieved from https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/149
2. Qaldibayevich I. A. et al. Qishloq xo ‘jaligi ekinlariga ta’sir etuvchi xavfli gidrometeorologik hodisalarni baholash //ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО. – 2022. – №. 2.
3. Турдимамбетов И. Р. и др. Аҳоли турмуш сифатининг таркибий тузилиши //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 1285-1293.
4. Иманмурзаев А. Қ. и др. ОЦЕНКА ОПАСНЫХ ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ, ВЛИЯЮЩИХ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫЕ КУЛЬТУРЫ,(НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН) //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-1 (106). – С. 336-343.
5. Imanmurzaev Adilbek Qaldibaevich, Bazarbaev Nursultan Azatbay Ogli, Omonboyev Shohzod Davronbek O‘g‘li, & Berdimuratova Aysara. (2023). Dangerous Hydrometeorological Phenomena Observed in Lower Amudarya Region. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 23, 49–53. Retrieved from https://zienjournals.com/index.php/tjabs/article/view/4854
6. Qaldibaevich, I. A. ., O’g’li, A. T. J. ., Janabergenovich, G. N. ., & O’g’li, K. N. S. . (2023). Assessment of Dangerous Hydrometeorological Events Affecting Agricultural Crops with a Modern Program . International Journal of Biological Engineering and Agriculture, 2(2), 12–17. https://doi.org/10.51699/ijbea.v2i2.1076
7. Imanmurzaev A. Q., & Abdullaev , T. J. O. (2023). JANUBIY OROL BOYI IQLIM SHAROITI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(21), 73–77. Retrieved from http://erus.uz/index.php/cf/article/view/983

8. Imanmurzaev , A., & Sultashova , O. (2024). QORAQALPOG’ISTON RESPUBLIKASI HUDUDIGA XAVFLI GIDROMETEOROLOGIK HODISALARNING TA’SIRINI BAHOLASH. Interpretation and Researches, 2(3(25). извлечено от http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2187
9. Хожамуратова Р. Т., Жангабаев Д. М., Иманмурзаев А. Қ. МНОГОЛЕТНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ МИНЕРАЛИЗАЦИИ ГРУНТОВЫХ ВОД НА ОРОШАЕМОЙ ТЕРРИТОРИИ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.
10. Imanmurzaev , A., & Kalmurzaev , J. (2024). OROL BOYI HUDUDIDA QURG’OQCHILIK HODISASINING O’ZGARISHI. Talqin Va Tadqiqotlar, 2(6(43). извлечено от http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2064
11. Khadjaeva G, Kholbayev G.Kh.The air temperature changes in the irregated areas of the Republic of Karakalpakistan// EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), Volume:5, Issue:5, May 2020

ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИДА ЧАНГЛИ БЎРОНЛАРНИНГ ҲОСИЛ БЎЛИШИ ВА ДАВОМИЙЛИГИ

Султашова О.Г., Иманмурзаев А.К., Султашов Р.Г., Жақсыбаев И.Б.

Катта миқдордаги чанг ва қумларни бир жойдан бошқа жойга кўчирадиган кучли (тезлиги 10 м/с дан катта) шамолларни чангли бўрон деб юритилади. Чангли бўрон вақтида ҳаво жуда ифлосланиб кетганидан кўриш масофаси 50-10 м га тушиб қолади.

Шамол таъсирида тупроқнинг емирилиб учиб кетишига шамол эрозияси дейилади. Чангли бўрон табиий ёки антропоген омиллар, баъзан эса деҳқончиликда олинган иқлим зонасига мос келмайдиган агротехник тадбирларни қўллашда пайдо бўлади. Чангли бўронлар Ер юзида кенг тарқалган.

АҚШ, Хитой, Ҳиндистон, Африка мамлакатларида, шунингдек Шимолий Қозоғистон, Бошқирдистон, Ставропол ва Краснодар ўлкаларида, Жануби-Шарқий Украина ва Волга ортида, Ғарбий ва Шарқий Сибирнинг дашт зоналарида, айниқса чўл ва чала чўлларда кўп кузатилади.

Энг кучли чангли бўронлар 1969 йили Шимолий Кавказда ва Украина шарқида кузатилган.

Ўрта Осиё ҳудудида чанг бўронли кунлар кўпинча Марказий Қорақумда ва Копетдоғ тоғ олди ҳудудларида кузатилиб, йил давомида 100 кун ва ундан ҳам ортиқ бўлади. Чанг бўронлари кўпинча 3 соатдан ортиқ давом этмайди, аммо баъзида бир неча кунга чўзилиб кетади.

Ўзбекистонда Сурхондарё вилоятининг Термиз, Жарқўрғон, Музрабод туманларида чанг бўронлари тез-тез бўлиб туради. Айниқса Термиз туманида чанг бўронлари баъзи вақтларда бир суткадан ортиқ давом этади, бундай чанг бўронлари вақтида кўриниш ёмонлашиб кетганлигидан машиналарнинг чироғини баъзан кундуз куни ҳам ёқиб юрилади. Чангли бўронлар вақтида кўриниш масофаси 1 км гача ва ундан ҳам камайиб кетиши Термиз туманида тез-тез кузатилади. Ўзбекистоннинг текислик ҳудудлари-да чанг-бўронли кунларнинг кўп йиллик ўртача сони тупроқ тури ва шамол тезлигига боғлиқ равишда 3-5 кундан 30 кунгача етади.

Тоғ олди ҳудудларида чанг-бўронли кунлар сони йил давомида 10

кундан ошмайди. Маҳаллий шамоллар кучли эсадиган ҳудудлар (Янгиер, Қўқон, Термиз атрофлари) да чанг-бўронли кунлар сони йилига 30 кундан ҳам ортиши мумкин. Ўзбекистоннинг турли ҳудудларида йил давомида чанг-бўронли кунларнинг ўртача сонига ушбу маълумотларни ҳам келтирамиз. Йил давомидаги чанг-бўронли кунларнинг ўртача сони Т. Л. Веремеева ва С. Г. Чанишеваларнинг маълумотига кўра Тошкентда - 6,2 кунга, Нукусда - 32,2 кунга, Бухорода - 14,5 кунга, Томдида – 31,3 кунга, Қаршида –12,6 кунга, Термизда - 32,3 кунга, Қўқонда – 20,4 кунга, Жиззахда – 8,8 кунга тенг. Чангли бўронларнинг ҳосил бўлиши ва ривожланишига бир неча омиллар: тезлиги 10 м/с дан ортиқ бўлган кучли шамол, тупроқ юқори қатламининг қуруқлиги ва майда зарралардан иборатлиги, далаларда ўсимликлар қопламининг йўқлиги ёки жуда кучсиз ривожланганлиги таъсир қилади.

Чангли бўронлар ҳавонинг нисбий намлиги 50 фоиздан кам бўлган ҳолларда кузатилади. Қиш пайтида тупроқ сиртида қор қоплами ва муз қатламининг йўқлиги, тупроқ заррачаларининг ўзаро кучли ёпишмаганлиги, тупроқнинг саёз музлаши чангли бўрон ҳосил бўлишига қулайлик яратади. Юқорида айтилган омиллар мажмуи одатда чала чўл ва саҳроларда вужудга келади.

Чангли бўронлар кўпинча баҳор фаслида юзага келади. Чунки бу даврда шамоллар энди кучаяётган, ерлар ҳайдалган юмшоқ ҳолатда, ўсимликлар ҳали тупроққа мустаҳкам ўрнашмаган ва кам ривожланган бўлади. Ўз-ўзидан аёнки, тупроқ қанчалик ғовак, тупроқ зарралари жуда майда ва ўзаро кучсиз боғланган, экин ҳали ёш бўлса шамол уларни учириб кетиши осон бўлади. Чўлларда чангли бўрон ёз охирида ҳам юзага чиқиши мумкин. Чунки бу пайтда далалардан эрта баҳорда экилган экинлар ҳосилини йиғиштириб олинган, ерлар ҳайдалган ҳолатда бўлади. Чангли бўронлар қишда жуда кам ҳолларда пайдо бўлади.

Қаварик шаклли рельефларда ва қияликларнинг шамолга қараган томонларида тезлиги 8-10 м/с бўлган шамоллар ҳам тупроқ юқори қатламининг майда зарраларини учириб кета бошлайди.

Шамол таъсирида тупроқнинг майда заррачалари тупроқ сиртидан ажралиб чиқади ва шамол уни олис масофаларга олиб кетади. Тупроқнинг шамол таъсирида ажралиб чиққан каттароқ заррачалари шамол тезлиги камайиши билан ер юзига яна қайтиб тушади ва тушган жойидан майда заррачаларни уриб чиқаради, уларни эса шамол учириб олиб кетади, оғир зарралар ер юзига тез қайтиб тушади. Шу тарзда чангли бўрон

занжирсимон реакция каби бўлади, оғир зарралар ер юзига тез қайтиб тушади, майда зарралар узоқ вақт ҳавода муаллақ ҳолатда бўлади. Шунинг учун чангли бўрон вақтида кўриниш ва ёритилганлик ёмонлашади. Шамол енгил механик таркибли (қумли, қумлоқ, енгил қумоқ) тупроқлар зарраларини энг кўп учириб олиб кетади. Бундай тупроқларда анча йирик ковакликлар кўп бўлгани учун сувни пастки қатламларга яхши ўтказади ва шу сабабли унинг юзаси тез қурийди, унчалик кучли бўлмаган шамол билан ҳам учирилиб олиб кетилади. Йирик зарралар тўсиқлар олдида ва ботиқ рельефли жойларда тўпланади.

Структурали тупроқлар шамол эрозиясига камроқ дучор бўлади. Шунинг учун механик таркиби турлича бўлган тупроқларда шамол эрозияси шамолнинг турлича бошланғич тезликларида бошланади (1-жадвал).

1 - жадвал

Механик таркиби турлича бўлган тупроқларда шамол эрозияси бошланадиган шамол тезликлари (Л. Ф. Смирнова бўйича)

Тупроқ	Ер сиртидан 15 см баландликдаги шамол тезлиги (м/с ларда)
Қумли	2-3
Қумлоқ	3-4
Енгил қумоқ	4-6
Оғир қумоқ	5-7
Соз тупроқ	7-9

1-жадвалдан кўринадики, таркибида қум зарралари кўп бўлган тупроқларда шамол эрозияси шамол тезлиги кам бўлганида ҳам бошланади. Чунки бундай тупроқларда зарралар бир-бирига ёпишмайди ва сочилиб туради. Шунинг учун уларни шамолнинг учириб кетиши осон.

Оғир механик таркибли тупроқларда эса майда зарралар кўп, улар бир-бирига кучли ёпишган бўлади. Шунинг учун механик таркиби оғир соз тупроқларда шамол эрозиясини кучли шамолларгина вужудга келтиради.

Чангли бўронларга қарши кураш тадбирлари. Чанг бўронлари анча олис масофаларга тарқалади, етиб бориб тушган жойларидаги қишлоқ хўжалик экинларига катта зарар келтиради. Шамол билан учиб келган қум зарралар ўсимликлар баргларини тешиб ўтади, ҳаттоки экин майдонларининг

анча қисмини кўмиб юборади.

Шамол билан тупроқнинг юза қатлами учирилиши натижасида экилган уруғлар, ўсимликларнинг илдизлари очилиб қолади.

Кучли чанг бўронлари баъзан экилган уруғларни ёки энди униб чиққан ёш ниҳолларни тупроқ билан қўшиб учириб кетади.

Шамол тупроқ бетидаги унумдор қатламни учириб кетиши натижасида тупроқ унумдорлиги пасайиб, у ерларда экинлар яхши ривожланмайди.

Чанг бўронларига қарши курашиш учун тупроқ юзасидаги шамол тезлигини камайтирадиган ва тупроқ зарраларининг ўзаро тутиниш кучини оширадиган тадбирларни қўллаш керак. Худди шу мақсадда ўсимликлар қоплами катта аҳамиятга эга. Уларнинг шамол эрозиясига қаршилик кўрсатиш кучи ўсимлик тури ва ривожланиш даражасига боғлиқ. Ўсимлик қанча ривожланган ва қоплами кучли бўлса, унинг тупроқни эрозиядан ҳимоялаш кучи шунча кучли бўлади. Илдизи яхши ривожланган экинларни чангли бўронларнинг олиб кетиши анча қийин.

Шамол эрозиясига қарши курашнинг муҳим тадбирларидан бири суғориладиган пайкалларнинг бўйини кучли шамоллар эсадиган томонга кўндаланг жойлаштириш ва пайкаллар атрофига дарахтлар экиш – иҳота дарахтзорларини барпо қилишдир. Иҳота дарахтзорларини барпо қилгунча эса бир мунча муддат керак. Улар етишгунча, пахта майдонларининг четларига маккажўхори экиш керак. Пахта майдонларининг четидаги бир неча қаторлаб маккажўхори қаторлари шамол кучини камайтирадиган яшил тўсиқ бўлиб хизмат қилади.

Органик ва минерал ўғитлар қишлоқ хўжалик экинларининг ҳосилдорлигини оширишдан ташқари тупроқнинг физик ҳолатини яхшилайди ва шу билан экинларнинг шамол эрозиясидан ҳимояланишини кучайтиради.

Кузги экинларни ўз вақтида экиш ҳам шамол эрозиясига қарши курашда аҳамиятга эга. Чунки ўз вақтида экилган экинлар баҳорда чанг бўронлари бошланадиган давргача яхши ривожланиб, илдизи маҳкам ўрнашган бўлади ва шамол эрозиясидан зарарланиши анча камаяди. Шу билан чанг бўронидан экинларни сақлаб қолиш имконияти яратилади.

Чанг бўронларига қарши кураш тадбирларини ишлаб чиқишда шамолларнинг энг кўп эсадиган йўналишини, жой рельефи, далаларнинг микроиқлим хусусиятларини ва тупроқ хоссаларини эътиборга олиш керак.

Адабиётлар:

1. Абдуллаев А.Қ. Қишлоқ хўжалигига агрометеорологик хизмат / Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали, №5, 1999, 13-14 б.
2. Абдуллаев А.Қ. Қишлоқ хўжалик метеорологияси ва ғўза агрометеорологиясининг истиқболдаги йўналишлари ҳақида // Учинчи Республика илмий коллоквиуми маърузалар тўплами. Тошкент, 1999, 236-238 б.
3. Абдуллаев А.К., Арғинбоев Ҳ.А., Абдуллаев Ҳ.У. Агрометеорология. –Тошкент, 2006. -432 б.
4. Бабушкин Л.Н. Агроклиматическое описание Средней Азии. Труды ТашГУ. –1964. –Вып.236. –с.5-185.
5. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на природно-ресурсный потенциал Республики Узбекистан. –Ташкент, САНИГМИ, 2000. –252 с.
6. Султашова О.Г. Агрометеорология. Golden print.Нукус 2023 - 225 б.
7. Khadjaeva G, Kholbayev G.Kh.The air temperature changes in the irregated areas of the Republic of Karakalpakistan// EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), Volume:5, Issue:5, May 2020

QISHLOQ XO‘JALIK HUDUDLARIDA TABIIY MUHITNING O‘ZGARISHI VA AGROLANDSHAFTLARNING SHAKLLANISHI

Abdullayev Suyun Ismatovich,
geografiya fanlar nomzodi, dotsent
Qarshi davlat universiteti

Choriyev Bekzod Farxod o’g’li,
Qarshi davlat universiteti talaba
safarovisoq@gmail.com

Qishloq xo`jalik faoliyati jarayonida insonning tabiiy muhitga ta’siri ayniqsa uzoq intensiv dehqonchilik regionlarida juda kuchli bo`lib, u sanoat ta’siri bilan barobar, ba’zi joylarda esa undan ham kuchliroq bo`ladi. Qishloq xo`jalik ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan, uning ta’sirida shakllanadigan va mavjud bo`ladigan qishloq xo`jalik landshaftlari qishloq xo`jaligiga, Yer qurilishiga, tabiat muhofazasiga doir hozirgi geografik adabiyotlarda qishloq xo`jalik landshafti uchun “agrolandshaft” termini ko`proq qo`llaniladi. V.A.Nikolayevning (1987) fikricha, “agrolandshaft – bir butun, ichki tuzilishiga ko`ra bir xil bo`lmagan qishloq xo`jalik geosistema bo`lib, u haydaladigan yerlarni ham, boshqa funksional profildagi foydalaniladigan joylarni ham o`z ichiga oladi” [1,160-b].

Agrolandshaftlar – bu qishloq xo`jalik dalalari (sug`oriladigan va sug`orilmaydigan) dalalar, polizlar, bog`lar va hayvonlar uchun turli yaylovlar. Qishloq xo`jalik landshaftlari dalalar, pichanzorlar, o`tloqlar, qishloq aholi manzilgohlari, va tomorqalarning majmualari qishloq xo`jalik ishlab chiqarish obyektlari (turli fermalar, qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo`yicha zavod va sexlar)ning mavjudligi bilan ifodalanadi.

Har qanday agrolandshaft tabiiy landshaft asosida va uning chegaralarida vujudga keltiriladi. Agrolandshaftlarda tabiiy geosistemalardagi kabi barcha komponentlar o`zaro bog`liqlikda va o`zaro taqozada bo`ladi. Antropogen omillar ta’sirida o`zgarish jarayonida landshaftda yangi tuzilma va yangi sifat hosil bo`ladi. Ular inson tomonidan doimo quvvatlanib turganligi sababli vujudga kelgan landshaftlar tub tabiiy landshaftlarga nisbatan ancha tez rivojlanadi. Agrolandshaftlar ham tabiiy, ham antropogen omillarning birgalikdagi ta’siri ostida rivojlanadi [2].

Dehqonchilikda agrolandshaftlar inson tomonidan yaratilgan biogeosenozlardan (ekinzorlar, bog`lar, uzumzorlar, choy va rezavor mevali plantatsiyalar, bog`lar-polizlar va b.), chorvachilikda esa yaylov va ferma

biogeosenozlaridan – yaylovlar (tabiiy va sun`iy), pichanzorlar va fermalardan iborat.

Agrolandshaftlar uchun butun tabiiy geosistemaning qayta shakllantirilishi, komponentlarning kuchli darajada o`zgartirilganligi va bu landshaftlarning tub tabiiy landshaftlardan bir qator xususiyatlari bilan farq qilishi xosdir. Landshaftlardagi tabiiy muvozanat va mutanosiblikning buzilishi ularning o`rnida boshqariladigan antropogen landshaftlari shakllanishiga olib keladi. Bu tipdagi landshaftni yaratishda ko`pgina hollarda relyefni tekislash – mayda notekisliklarni bartaraf qilish natijasida amalga oshiriladi. Inson tabiiy landshaftlar o`rnida qishloq xo`jalik ishlarini olib boradi va buning natijasida boy tabiiy biosistemalar kambag`al agrosistemalar yaratiladi.

Landshaftlardagi tabiiy muvozanat va mutanosiblikning buzilishi ularning o`rnida boshqariladigan antropogen landshaftlari shakllanishiga olib keladi. Bu xildagi landshaftni yaratishda ko`pgina hollarda relyefni tekislash – mayda notekisliklarni bartaraf qilish natijasida amalga oshiriladi. Inson tabiiy landshaftlar o`rnida qishloq xo`jalik ishlarini olib boradi va buning natijasida boy tabiiy biosistemalar kambag`al agrosistemalar bilan almashinadi [1].

Qishloq xo`jaligida yerdan foydalanish jarayonida tabiiy landshaftlarda bir komponentli va ko`p komponentli o`zgarishlar ularning tuzilmasida ifodalanmasdan qolmaydi. Agrolandshaftlarda tuproqlarning rivojlanishi va qayta vujudga kelishi ularning hosildorligini oshirish maqsadida inson tomonidan maqsadli ta’sirida va, shuningdek, agrotexnik usullarning takomillashmaganligi tufayli tuproqlarda nomaqbul o`zgarishlarga sabab bo`ladigan stixiyaviy hodisalar tufayli kechadi. Shu sababli “madaniy” tuproqlar bilan bir qatorda tub tuproqlardan chirindi va ozuqa moddalarining harakatchan shakllari miqdorining ko`payishi, suv-fizikaviy xossalarining yaxshilanishi va morfologik tavsiflarining o`zgarishi va pirovardida oshgan unumdorlik agrolandshaftlarda dastlabki xossalarning yomonlashuvi bilan ifodalanadigan oriqlagan (kuchi ketgan – выпаханные) tuproqlar ham uchraydi.

Agrolandshaftga insonning ta’siri natijasida tuproq qoplami buziladi va bizning sharoitlarda cho`llashuv jarayonining kuchayishiga olib keladi. Ayni paytda agrolandshaftlarda haydaladigan yerlardagi tuproqlarning infiltrasion va suvni tutib qolish xossalarini yaxshilash maqsadida kuzgi shudgorlash natijasida bahorgi yuza oqimining koeffitsiyenti kamayadi. Agrolandshaftlarda dastlabki o`simlik qoplamining yo`qolishi tuproqlarning quruqlashuviga, sizot suvlari sathining keskin pasayishiga olib keladi.

Agrolandshaftlar tabiiy biologik aylanma harakatni ham ancha katta miqdorda buzadi. Hozirgi qishloq xo`jaligida tuproqqa tayyorlanadigan biomassaning ozgina qismi qaytadi, katta qismi esa yig`ishtirilgan hosil bilan olib ketiladi.

Agrolandshaftlarning yuzaga kelishi bilan bir necha ming yil ilgari insonning Yer iqlimiga ta’siri ham namoyon bo`la boshlagan. Katta maydonlarda o`rmonlarning qirqilishi nam aylanishidan 2500-3000 km^3 chuchuk suvning olinishiga va buning oqibatida yog`inlarning kamayishiga olib kelgan. Agrolandshaftlarda mahalliy iqlimning barcha parametrlari ancha o`zgaradi, zero madaniy o`simliklarni yetishtirish agrotexnikasi muhim iqlim hosil qiluvchi omildir. Sug`orma dehqonchilik rayonlarida o`zgarish ayniqsa kuchli bo`ladi. Bu yerlarda kunduz kuni havo harorati $15\text{-}20^0$, tuproq harorati 30^o past bo`lishi, nisbiy namlikning ortishi 20-25% bo`lishi mumkin [1; 105-b].

O`zgarish bunyod etuvchi (ijobiy) va buzuvchi (salbiy) sajiyada bo`lishi mumkin. Hozirgi paytda landshaftdagi murakkab aloqalarni barcha hollarda ham hisobga olmaydigan qishloq xo`jalik o`zgartirilishi ayrim hollarda salbiy ta’sir ko`rsatadi. Binobarin, optimal agrolandshaft o`zida muhitning barqarorligini, resursni qayta tiklash va o`z-o`zini tartibga solish qobiliyati saqlanib qolingan o`zgartirilgan landshaftdir.

Agrolandshaftning bosh vazifasi muayyan iqlim sharoitlarida imkon darajasida ko`proq qishloq xo`jalik mahsulotini ishlab chiqarishdan iborat. Ammo agrolandshaftlarning mahsuldorligini kimyolashtirish hisobiga oshirilishi ko`pincha muhitning ruxsat etiladigan ekologik me’yorlaridan oshadigan ifloslanishiga olib keladi. Yonbag`irlar hisobiga haydaladigan yerlar maydonini ko`paytirish tuproq eroziyasi jarayonlarining kuchayishiga olib keladi. Shu sababli agrolandshaftlarni optimallashtirish bo`yicha (birinchi navbatda biokimyoviy) tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatini belgilaydi.

Agrolandshaftlar uchun madaniy o`simliklarning bir yoki bir necha turidan tashkil topadigan o`simliklarning bir xilligi xos. Bu populyatsiyalarni saqlash uchun inson dastlabki landshaft komponentlarini va butun geosistemaning kuchli o`zgarishiga olib keladigan agrotexnik va meliorativ usullar tizimini amalga oshiradi.

Madaniy o`simliklar inson mavjudligining asosiy manbai bo`lishi sababli aholi va uning oziq-ovqat ehtiyojlarining ko`payishi bilan tabiiy biogeosenozlar ekinzorlar, sug`oriladigan o`tloqlar va sun’iy yaylovlar tobora siqib chiqarila boshlandi. Agrolandshaftlarda o`simliklar vodorod va kislorod, azot, fosfor, kaliy, oltingugurt, magniy, kremniy, allyuminiy birikmalarini va shuningdek,

ko`plab mikroelememtlarni iste’mol qiladi. Shu sababli agrolandshaftlarda qalin haydaladigan qatlamga, o`zlashtirish yengil bo`lgan oziqa moddalarimimg ancha katta miqdoriga, tuproq eritmalarining o`simliklarning rivojlanishi uchun qulay reaksiyasi va, shuningdek, suv, havo va issiqlik rejimlarining optimal sharoitlariga ega bo`lgan madaniylashgan tuproqlarda qishloq xo`jalik ekinlaridan yuqori va barqaror hosil olish mumkin.

Intensiv qishloq xo`jalik foydalanish birinchi navbatda tabiiy komplekslar komponentlarining o`zgarishi, qishloq xo`jalik ekinzorlari doirasida agrosenozlarga o`zgartirilishi bilan kuzatiladi.

Dehqonchilik agrolandshaftlari uchun madaniy o`simliklarning bir yoki bir necha turidan tashkil topadigan o`simliklarning bir xilligi xos. Bu populyatsiyalarni saqlash uchun inson dastlabki landshaft komponentlarini va butun geosistemaning kuchli o`zgarishiga olib keladigan agrotexnik va meliorativ usullar tizimini amalga oshiradi.

Agrolandshaftlarni ajratish va o`rganishga konstruktiv yondashuv ularni yaratishning umumiy prisiplarini ishlab chiqishni hamda tabiiy va xo`jalik sistemalari o`zaro ta’sirini tartibga solish, yerdan foydalanish jarayonida ularni boshqarish bo`yicha aniq usullarni qidirishni taqoza etadi. Bunday yondashuv landshaftlar strukturasi va uni o`zgartiruvchi xo`jalik sistemalari to`g`risidagi aniq tasavvurning zaruriyatini taqoza etadi.

Foydalanilgan adabiytlar:

1. Абдуллаев С.И. Особенности изменения природной среды в районах орошаемого землелелия. // Географические аспекты природно-хозяйственной оценки территории Кашкадарьинской области и их использование в краевед-ческой подготовке студентов. Ташкент, 1980.
2. Агроландшафт [Электронный ресурс] // Агрономический портал: [2005-2015]. URL: http://agronomiy.ru/agrolandshaft.html (дата обращения: 24.12.2015).
3. Куракова Л.И. Антропогенные ландшафты. Особенности и закономерности формирования // Актуальные проблемы изменения природной среды за рубежом. М., Изд-во Московского ун-та, 1976. Гл.V. С.92-112.
4. Николаев В.А. Концепция агроландшафта // Вестник МГУ. Сер. 5. География. 1987. №2. С.22-27.

GEOGRAFIK SISTEMALARNING XUSUSIYATLARI

Abdullayev Suyun Ismatovich,
geografiya fanlar nomzodi, dotsent

Hasanov Kozim Xudoyberdi o’g’li,
Qarshi davlat universiteti talabasi Qarshi shahri.
safarovisoq@gmail.com

Sistemalar to`g’risidagi ta’lmot filosofiyaning tabiat predmeti va hodisalarining yalpi umumiy aloqa va o’zaro ta’siri to`g`risidagi fundamental prinsiplarining ifodalaridan biridir. “Sistema” termini yunoncha *systēma* so`zidan hosil bo`lgan va o`zbek tilida “qismlardan tuzilgan butun, birikma” degan ma’noni anglatadi. Deyarli barcha ilmiy manbalarda, jumladan “O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi” va “O`zbek tilining izohli lug`ati”da “sistema” so`zi tarjima qilinmaydi. Shuningdek, deyarli barcha tabiiy fanlarda “sitema” termini qo`llanadi.

Fan barcha davrlarda sistemalarni o`rgangan va sistemali metodlardan foydalangan. Hozirgi paytda ham murakkab ilmiy muammolarning yechimida sistemali yondashuv g`oyalari va metodlari keng foydalaniladi. Butun tabiat sistemali uyushgan. Turli xil va darajadagi (fizikaviy, biologik, sotsial va b.) sistemalar mavjud. Tabiiy sistemalarning eng muhim juz’iyati ularning tuzilmasida qismlarning munosabatlari va aloqalarida namoyon bo`lishidir.

Turli sistemalarni tadqiq qilishda sistemalarning umumiy nazariyasi doirasida ishlab chiqilgan metodlar qo`llaniladi. Ilmiy tadqiqotlar metodologiyasida yangi yo`nalish bo`lgan *sistemalar umumiy nazariyasi*ning asoslari XX asrning 30-yillarida avstriya-amerikalik biolog L.fon Bertalanfi tomonidan yaratilgan. L.fon Bertalanfi o`zaro ta’sirdagi elementlar kompleksini sistema deb atagan va sistemalarni yopiq va ochiq sistemalarga ajratgan. Bu nazariya murakkab obyektlarni o`rganishga bo`lgan yangi yondashuvning va ilmiy tafakkurlarning yangi prinsiplarni ishlab chiqishga imkon beradi [1; 22-b.].

Sistemali yondashuvning metodologiyasi fanning turli sohalarida, shu jumladan geografiyada ham keng tarqaldi. Geogrfiya juda murakkab sistemalarni o`rganish bilan shug`ullanadi. Geograflar o`ziga xos murakkab sistemalar bilan ish ko`rishadi. Geografik sistemalar (geosistemalar) to`g`risidagi ta’limot geografiya fanining asosiy fundamental yutuqlaridan biri bo`lib, bu ta’limot rivojlantirish hozirgi vaqtda ham davom etmoqda.

Geografiyada sistemali yondashuvning qo`llanila boshlanishi bilan “hududiy sistema” yoki “geografik sistema (geosistema)” tushunchasi keng qo`llanila boshlandi. *Geografik sistema* geografik komponentlarning makon-zamondagi sistemasidan iborat bo`lib, bu komponentlar o`zlarining joylashuvida o`zaro taqozada bo`ladi va bir butun sifatda rivojlanadi. Geografik sistema tabiiy-ijtimoiy hosil bo`lgan universal makon-zamon sistemasi bo`lib, zaruriyat bo`lganda vujudga kelishiga ko`ra alohida tabiiy yoki ijtimoiy geosistema to`g`risida gapirilishi mumkin [4; 33-b.] Geografiyada sistemali yondashuvning amaliy qo`llanilishi XX asrning 60-yillarida yuzaga keldi hamda Yer to`g`risidagi va sotsial-iqtisodiy fanlarning sinteziga imkon berdi. Bu davrda R.J. Chorli va B.A. Kennedi, V.B.Sochava, Yu. G. Saushkin, D.L.Armand V.S. Preobrajenskiy, A. G. Isachenko, N.A. Solnsev va boshqa olimlar geografik yondashuv asosida tadqiqot olib bordilar. 80-90-yillarda geografyada sistemali tadqiqotlar A.Y. Reteyum, V.N. Solnsev, K.N. Dyakonov, N.L. Beruchashvili, A.A. Krauklis, A.Nig`matov, I.Janqabilov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida yanada ribojlantirildi [2; 6-10-б.]. “Geosistema” termini dastlab faqat tabiiy birikmalarga qo`llanildi. B.V.Sochava (1963) tomonidan tabiiy-geografik tushuncha sifatida “geosistema” termini taklif qilindi. Uning fikricha, geosistema landshaft – ekologik kategoriya bo`lib, tabiatning geografik qobiqda amal qiladigan qonuniyatlarga bo`ysunadigan o`zaro bog`liq komponentlari *geografik sistemalarni (geosistemalarni)* hosil qiladi., ya`ni “geosistema – planetar geosistema (geografik qobiq yoki butun geografik muhit)dan tortib elementar geosistema (tabiiy – geografik fatsiya)gacha bo`lgan barcha mumkin bo`lgan kategoriyadagi tabiiy birliklardir”. Geoxoralar: urochishchalar, joylar, rayonlar okruglar yoki mikro-, mezo-, makrogeoxoralarning uyushuv darajalari ajratiladi. B.Sochava tabiiy geografiya o`rganadigan barcha obyektlarni “geosistema”, deb nomladi. Uning fikricha, “geosistema alohida, o`ziga xos boshqariladigan sistemalar sinfidir, unda tabiatning barcha komponentlari bir-biri bilan o`zaro bog`liqlikka va o`zaro aloqadorlikka ega hamda muayyan darajada bir butun ob`yekt sifatida fazo bilan va kishilik jamiyati bilan o`zaro ta`sirdadir” (5; 2-, 292 -b). Dastlab faqat tabiiy birikmalarga qo`llanilgan “geografik sistema” (“geosistema) keyinroq ijtimoiy geografiyadagi sistemalar (xo`jalik sistemasi, aholi joylashuvining hududiy sistemasi, shaharlar sistemasi, rekreatsion sistema va b.) uchun ham qo`llashga harakat qilindi. Ijtimoiy geografiyda geografik sistema geografik komponentlarning makon-zamondagi sistemasidan iborat bo`lib, bu komponentlar o`zlarining joylashuvida o`zaro taqozada bo`ladi va bir butun

sifatda rivojlanadi.

Ijtimoiy geografiyada nafaqat ishlab chiqarishni, balki butun jamiyatni tashkil etishning yangi shaklini ifodalaydigan *hududiy sotsial- iqtisodiy sistema (HSIS)* tushunchasi shakllandi. Hududiy sotsial-iqtisodiy sistema deb muayyan hududda mehnatning ijtimoiy bo`linishi va integratsiyasining bo’g`ini sifatida maqsadli faoliyat ko`rsatadigan iqtisodiy va sotsial jihatdan jamiyat elementlarining samarali birikmasi tushuniladi [7; 155-b.].

Ijtimoiy geografiyada nazariy va metodologik asoslari N.N Kolosovskiy tomonidan ishlab chiqilgan hududiy ishlab chiqarish yoki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy sistemalar haqidagi g`oyalarni Yu.G.Saushkin, S.Ya. Nimmik, M.D.Sharigin, T.M.Kalashnikova, K.I.Ivanov, A.Ro`ziyev, A. Soliyev va boshqa olimlar ishlab chiqishgan va qo`llashgan [6; 71-b.].

Pirovardida tabiiy geograflar geografiyaning umumiy obyekti bo`lgan tabiiy hududiy komplekslarni (landshaftlarni), ijtimoiy geograflar esa hududiy - ishlab chiqarish komplekslarini, ayrim tarmoqlarni (yagona transport sistemasi), jahon xo`jaligini (jahon ishlab chiqarish, savdo, transport, molyaviy, axborot sistemalari va b.) o`rgana boshladilar. Aholi geografiyasida aholining hududiy sistemalari, shaharlarning sistemalari tog’risidagi tushunchalardan foydalanila boshlandi. Hududiy rekreasion sistema to`g`risidagi tushuncha rekreasiya geografiyasining, hududiy siyosiy sistemalar siyosiy geografiyaning asosiy tushunchalarga aylandi. Bir paytning o`zida kichik sistemalar tabiat elementlarini, turli texnikaviy obyektlarni va texnologik jarayonlarning o`z ichiga oladigan “tabiat – texnika” sistemasi yoki geotexsistema rasmiylashdi. Mamlakatshunoslikda ham sistemali yondashuv qo`llanila boshlandi. Muayyan kichik sinfga mansub obyektlarni tavsiflashda terminga uning tur tavsifini ifodalaydigan sifat qo`shiladi. Masalan, tabiiy geosistema, sotsial-iqtisodiy sistema va b. “Geosistema” tushunchasing barcha xilma-xil talqinlarini ularni Yer yuzasida yalpi umumiy aloqa, o’zaro taqoza va rivojlanish tamoyillariga bo`ysunadigan real mavjud sistemalar sifatida tan olinishini birlashtiradi.

Keyinroq, yuqorida ta’kidlangandek, sotsial-iqtisodiy geografiyadagi sistemalar (xo`jalik sistemasi, aholi joylashuvining hududiy sistemasi, shaharlar sistemasi, rekreatsion sistema va b.) uchun ham qo`llashga harakat qilindi. Ammo, sotsial-iqtisodiy hodisalar uchun aholi hayotiy faoliyatining barcha komponentlari va sferalarining makoniy birikmalari bo`lgan hududiy ijtimoiy sistemalar (HIS) termini qo`llaniladi. Hududiy ijtimoiy sistemalar tabiiy muhitnining konkret sharoitlarida jamiyatni makoniy uyushtirishni o`rganadigan ijtimoiy geografiya tadqiqotining asosiy predmetini tashkil etadi. Hududiy

ijtimoiy sistema orasida aloqalar qaror topgan barcha iqtisodiy va sotsial-geografik ob’yektlarning (sanoat joylari, qishloq xo`jalik korxonalari, ishlab chiqarish , sotsial va boshqa tuzilmalar) muayyan hududdagi majmuasi. Har bir hududiy ijtimoiy sistema tuzilmasi ham tabiiy, ham ijtimoiy omillar ta’siri ostida shakllangan juda murakkab hosila va nafaqat funksional tuzilmasiga ko`ra, balki hududlarining o`lchamlari bilan farq qiladi.

Shunday qilib, geografiyada “geografik sistema” tushunchasining asosiy ta’riflarining quyidagi 4 guruhi tashkil topdi: 1) tabiiy geografik hosilalar; 2) bir paytning o`zida tabiat, aholi va xo`jalik elementlarini o`z ichiga oladigan murakkab hosilalar uchun (bunday holda geografik sistemalarning butunligi xo`jalik, aholi va tabiat orasidagi to`g`ri, aks va o`zgartirilgan aloqalar bilan aniqlanadi); 3) tabiat hosilalari uchun ham, sotsial-iqtisodiy hosilalar uchun; 4) Yer to`g`risidagi fanlarni qamrab oladigan bilim sohalari barcha obyektlarini belgilash uchun foydalanish taklif qilinadi [3; 250-254-b.]. “Geosistema” tushunchasi xilma-xil talqin qilinsada, ularning barchasi geosistemalarni Yer yuzasida real mavjud bo`lgan, yalpi umumiy aloqa, o`zaro taqoza va rivojlanish prinsiplariga bo`ysunadigan sistema sifatida tan olinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Берталанфи Л. История и статус обшей теории систем.// Системные исследования. Ежегодник.1973. М., 1973. с. 20-37.
2. Nigmatov A.N. Geotizim – yagona geografik obyekt sifatida.// География ва экология фанлар тизимининг долзарб муаммолари ва уларнинг ечимлари. Республика илмий–амалий конференция материаллари. 2022 йил 13–14 апрель. Гулистон – 2022. 6-10 – b.
3. Охрана ландшафтов. Толковый словарь. Москва, “Прогресс”. 1982. - 272 с.. 250-254-b. \
4. Saushkin Yu.G. Istoriya i b metodologiya geograficheskoy nauki.(Kurs lektsiy). M., 1976. 578 c.
5. Сочава В.Б. Введеие в учение о геосистемах. Новосибирск,1976.320 с.
6. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика, амалиёт. Тошкент – Камалак – 2013. 226 б.
7. Чистобаев А.И., Шарыгин М.Д. Экономическая и социалная география // География в системе наук. Л. 1986. С. 153-158.

XORAZM VILOYATI DEHQONCHILIGIDA FOYDALANILADIGAN SUV RESURSLARINING HUDUDIY TAHLILI

Namozov Jo‘rabek Abduazizovich
Geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.f.d (PhD) Chirchiq davlat pedagogika universiteti, jurabek.n.a@gmail.com

Dushamova Shahnoza Ikrombek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya*. Maqolada Xorazm viloyati suv resurslari, ularni sarflanishi va dehqonchiligida ishlatiladigan suvlarning hududiy taqsimlanishi haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so’zlar: *Xorazm viloyati, suv resurslari, hududiy taqsimlanish, ekstensiv, intensiv, sho‘rlanish.*

Kirish. Xorazm viloyati O‘zbekiston Respublikasidagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan tumanlardan biridir. Hozirgi paytda Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligi asosini paxtachilik va g‘allachilik tashkil etadi.Polizchilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, pillachilik ham rivojlangan. Xususiy fermer, dehqon xo‘jaliklari, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat ko‘rsatadi. Viloyatda jami ekin maydoni 232,1 mingga, shundan 129,4 mingga qishloq xo’jaligi shirkatlariga (69 ming ga yer xususiy fermerlar, 33,7 ming gektar yer dehqon xo‘jaliklari) tegishli. Jami ekin maydonining 102,3 ming gektariga paxta, 86 ming gektariga don, 3 ming gektariga kartoshka, 9 ming gektariga sabzavot ekiladi. Don (asosan, bug‘doy, sholi) yetishtiriladigan maydonlar kengaydi. Xorazm viloyati mamlakatda sholi yetishtirish bo‘yicha 1 - o‘rinda turadi.Xorazm viloyatida suv bilan ta’minlashda yagona manba Amudaryo hisoblanib, u bu yerdagi barcha oqarsuvlar rejimiga o’z ta’sirini ko‘rsatadi. Amudaryoning Xorazm viloyatidanoq ibo’tgan qismi uzunligi 148 kmni tashkil qiladi.Hozirda Amudaryo suvi yildan - yilga kamayib ketmoqda. Bunga sabab Amu-Buxoro, Amu-Qarshikanallari, Afg‘onistonda Qo‘shtepa kanalining qurilayotgani, Turkmanistonning Qoraqum kanallari ko’p miqdorda Amudaryo suvining sarflayotganidir.

Asosiy qism. 1990 - 2000 yillarda suv miqdorida unchalik kamayish kuzatilmagan bo‘lsa ham,hozirgi paytda aholining suvga bo’lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Chunki viloyat aholisi yildan yilga ko‘paymoqda, aholi o‘rtasida qishloq xo‘jaligi ekinlari ko‘p ekilyapti. Natijasida sug‘orishga, kommunal xo’jalikka va boshqa tarmoqlarga kerakli suv miqdorida ma‘lum bir tanqisliklar vujudga kelgan. Suv resurslaridan foydalanish samaradaorligini

taminlashda asosiy etibor suv inshootlaridan samarali foydalanish va birlamchi suvdan foydalanuvchilarning suvini iste`molchiga yetkazib berishdagi samaradorligini oshirishga qaratish lozim.

1 - jadval

Viloyat iqtisodiyotiga ishlatilgan o'rtacha suv miqdori.

№	Tumanlar	Jami	Sho’r yuvishga	Vegetatsiya
1	Bog’ot	386,5	88,3	247,9
2	Gurlan	423,3	111,0	345,6
3	Qo’shkopir	456,1	143,0	308,4
4	Urganch	403,5	115,2	288,3
5	Xazorasp	270,8	75,5	198,2
6	Xonqa	366,5	92,4	274,1
7	Xiva	293,7	79,9	213,4
8	Shovot	403,5	115,2	288,3
9	Yangiariq	264,2	74,1	190,1
10	Yangibozor	347,9	97,4	250,5
11	Pitnak	90,1	21,6	68,5
12	Jami	3706,1	1013,6	2673,3

Manba: *Chapqirg‘oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi 2022 - yil ma’lumotlari.*

Viloyat iqtisodiyotiga ishlatilgan o’rtacha suvmiqdori bo’yicha jami suv sarflangan miqdoriga ko’ra eng yuqori ko’rsatkichi Qo’shko’pir va Gurlan tumanlariga to’g’ri keladi, chunki bu yerlarda aholisi zich joylashgan va sug’orishga ham ko’p suv sarflanadi. Eng past ko’rsatkichlar Pitnak va Yangiariq tumanlarida kuzatiladi. Chunki bu hududlarni, asosiy tuprog’I qumli tuproqlardir uyerga qancha suvchi qarsaham qumlarga singib ketadi. Sho’r yuvishga sarflangan suv miqdoriga ko’ra eng ko’p sarflangan tumanlar Qo’shko’pir va Gurlan tumanlaridir. Eng kam sho’r yuvishga sarflangan suvmiqdoriga ko’ra Pitnak,Xazorasp,Yangi ariq tumanlari oldindadir.

2 –jadval

Viloyat iqtisodiyotida ishlatilgan suv miqdori (% his.)

№	Tumanlar	Jami	Sho’r yuvishga
1	Bog’ot	10,4	8,7
2	Gurlan	11,4	10,9
3	Qo’shkopir	12,3	14,1
4	Urganch	10,8	11,3

5	Xazorasp	7,3	7,1
6	Xonqa	9,8	9,1
7	Xiva	7,9	7,8
8	Shovot	10,8	11,3
9	Yangiariq	7,1	7,3
10	Yangibozor	9,3	9,6
11	Pitnak	2,4	2,1
Viloyatda		94,55	95,44

Manba: *Chap qirg’oq Amudaryo irrigatsiya tizmlari havza boshqarmasi 2022- yil ma’lumotlari asosida mualif tomonidan tayyorlandi.*

Asosan viloyatda ishlatiladigan o’rtacha suv miqdorini foizlarda hisoblab chiqdik,bunda Bog’ot tumanida jami sarflangan suv miqdori yuqori 10,4 foiz, bu yerda sarflangan suv miqdori yuqori,bu hududda maydoni katta, aholisi zich shu sababdan ham ko’p suv ishlatilgan. Gurlan tumanida jami sarflangan suv sarflanishi 11,4 foizni tashkil qiladi. Asosan bu tumanda eng ko’p suv sarflanishi iyul oyiga to’g’ri keladi. Chunki aynan shu oyda sholi ekinining o’sish davri bo’lib eng ko’p suv shu ekinga sarflanadi. Sholi yetishtirish bo’yicha Gurlan tumani viloyatda yetakchi o’rinlarni egallagan Qo’shko’pir tumanida foydalanadigan suv miqdori 12,3 foiz tashkil qiladi. Tuman paxtachilikga ixtisoslashganligi sababli,suv resurslariga ehtiyoj yuqori. Urganch tumani hisobiga sarflangan suv miqdori 10,8 foizi to‘g‘ri keladi. Bu tuman poliz ekinlarini yetishtirish bo’yicha viloyat ichida yetakchi. Hazorasp tumani jami sarflangan suvmiqdori boshqa viloyatlarga qaraganda kamroq (7,3%). Tuprog’i qumli bo’lganligi sababli yo‘qotish yuqori. Faqat aholi yashaydigan,zich yerlarida ekin maydonlari uchun suv sarflanadi Xonqa tumanida sarflangan suv miqdori 9,8 foiz tashkil qiladi. Bu tumanda iyun, iyul oylarida ko’p suv ishlatiladi. Xiva tumanida (7,9 %) ham ko’p suv sarflangan oy iyul oyi. Eng kam sarflangan oy sentabr oyiga to’g’ri keladi. Bu yerda barcha ekinlarni yig’ishtirish mavsumi bo’ladi shu sababdan suv kam sarflangan. Shovot tumani hisobiga 10,8 foiz to‘g‘ri keladi. Suvni eng ko’p sarflangan oylar iyun iyul oylariga to‘g‘ri keladi. Tuman ham paxta yetishtiruvchi tumanlardan va bu oylarda paxtaga eng ko’p suv kerak davrdir. Shu sababdan shu oylarda suv ko’p sarflangan. Yangiariq tumanida suv sarflanishi kamroq 7,1 foiz tashkil qiladi. Tuman hududining katta qismi qumli hududdan iboratdir. Yangibozor tumani sarflangan suv miqdori 9,3 foiz tashkil qiladi. Eng ko’p suv sarflangan oylari iyun, iyul oylariga to’g’ri keladi. Pitnak tumanida sarflangan suv miqdori 2,4 foizi to‘g‘ri keladi. Bu tumanga eng kam suv sarflangan chunki hudud qumli

hududdan iborat. Viloyatda boshqa tumanlardan ko’ra ancha chekkada joylashgan. Bu tumanda ham eng ko’p sarflanadigan suv miqdori iyul oyiga to’g’ri keladi. Asosan suv poliz ekinlari uchun ko’p suv ishlatiladi.Eng kam suv sarflangan oyi sentabr oyiga to’g’ri keladi.Bu oylarda ekinlar yig’ilib yerlarga dam beriladi.Shu sababdan suv kam sarflanadi.Viloyat iqtisodiyotiga ishlatiladigan suv miqdoridan sho’r yuvishga eng ko’p suv sarflanadigan tumanlarga Urganch (11,3 %), Qo’shkopir (14,8 %), Shovot (11,3 %), Gurlan (10,9 %) tumanlari kiradi. Bu tumanlarda sho’r yuvishga ko’p suv sarf bo’lishiga sabab, maydonlarning ko’p qismiga paxta ekilishi, ekinlarni har yili almashlab ekish bo’lmasligi, sho’rga chidamli ekinlar ekilib ular quriganidan keyin tarkibidagi tuz yana tuproqqa singishi bo’lganligi sababli ko’p suv sarflanmoqda. Sho’r yuvishga kam suv sarflaydigan tumanlarga Pitnak 2,1 foiz, Hazorasp 7,1 foiz, Yangiariq 7,3 foizi to‘g‘ri keladi. Bu tumanlarda kam suv sarflanishiga sabab bu yerlarning katta qismi cho’l hududdan iborat,ekin faqat aholi zich bo’lgan joylarda ekiladi va shu sababdan shu hududlar sho’ri yuvulishiga sarflanadi halos. Xorazm viloyatida suvlarni sho’rlanishiga sabablardan biri Orol dengiziga yaqinligi va gurun suvlarining yer betiga yaqinligidadir.

Xulosa: Keyingi yillarda Xorazm viloyatida suvga bo’lgan talab tobora ortib bormoqda chunki, aholining yildan yilga ko‘payishi aholi o‘rtasida qishloq xo‘jaligi ekinlariga talab ortishi tufayli qishloq xo‘jaligi ekinlarining ko‘p ekilishidadir. Suvdan foydalanish ikki xil usulda ekstensiv va intensiv usullarda olib boriladi. Ekstensiv usul qishloq xo‘jaligidagi bor sharoitlar orqali amalga oshiriladi. Intensiv usulda fan - texnika yutuqlari, texnologiyalardan foydalanish ko‘zda tutiladi. Hozirda viloyatda ekstensiv usuldan foydalanilyapti. Natijada, 1 ga yerni sug‘orish uchun 9 - 10 ming km³ suv sarf bo’moqda. Agarda intensiv usuldan foydalanish yo‘lga qo’yilsa, ya’ni tomchilatib sug‘orish amalga oshirilsa, 1 ga yerga 1,5 ming km³ suv to‘g‘ri keladi. Bu holat bo‘yicha 6 -6,5 ming km³ suv sarf bo‘lishi oldi olinmoqda. Viloyatda kam suv sarflanishi uchun birinchisi, qishloq xo‘jaligida kam suv ishlatilib, sho’r yuvishga oz miqdorda suv ishlatilishi kerak, ikkinchisi tomchilatib sug‘orishga o‘tish kerak. Viloyat sharoitidan kelib chiqqan holda birinchi usuldan foydalanib bo’lmaydi. Chunki bu yer tuproqlari sho’rlangan, sho’ri yuvilmasa dehqonchilik yaxshi bo’lmaydi. Ikkinchi yo‘ldan foydalanilsa viloyatda o’z samarasini berishi mumkin. Sho’rlanishni oldini olish uchun yer resurslari holatini yaxshilash,hosildorlikni oshirish va muhofaza qilishishlarini bir vaqtda olib boorish kerak. Bunga yechim sifatida suv taqsimlanadigan hamda suv keladigan yo’llar ahvoli hamda

ularni qayta ishlash suvni yetkazib berishda zamonviy boshqaruv texnalogiyalardan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matkarimov M.M. Suv tejovchi va muhofaza qiluvchi texnologiyalarni qo‘llash jarayonlarini boshqarish (Quyi Amudaryo qishloq xo‘jaligi misolida). Iqti. fan. nom. ... dis. Samarqand, 2006. – 148 b.
2. Ro‘zmetov D., Matchanov M., Qalandarov U. Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligi geografiyasi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). Urganch, 2017, 168-b.
3. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari, 2021.
4. Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi ma’lumotlari, 2021.
5. G‘ulomov Y.G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi. T., “Fan”, 1959, 323 bet.
6. Chap qirg‘oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma‘lumotlari. – Urganch, 2010 - 2022 yy.
7. Иванов Ю.Н. Водные ресурсы вилоятов Узбекистана // Гидрологические исследования в Средней Азии. – Т., 2010. – С. 137-147.


TABIIY GEOGRAFIK FANLAR TIZIMIDAGI HAVZAVIY USUL VA UNING TABIAT KOMPONENTLARINING O‘ZARO ALOQADORLIGINI TADQIQ QILISHDAGI ROLI

Ibroimov Sherzod Ibroim o‘g‘li
g.f.f.d. (PhD) dotsent v.b.
CHDPU Geografiya kafedrasi
sh.ibroimov@mail.ru

Tabiiy geografik fanlar tizimidagi havzaviy usul eng ko‘p qo‘llanilib kelinayotgan usullardan biri bo‘lib, shu o‘tgan davr ichida bu usul rivojlandi va taraqqiy etdi. Agar biz V.V.Dokuchayevni genetik tuproqshunoslik va landshaftshunoslik fanlarining hamda “Tabiat zonalari haqidagi” ta’limotning asoschisi deb bilsak, u shu bilan birgalikda havzaviy usulning ham asoschisidir. V.V.Dokuchayevning ilmiy ijodini har tomonlama tahlil qiladigan bo‘lsak (I.L. Krupenikov, 1949), 1871 yil 13 dekabrda Peterburg universitetida yoqlagan nomzodlik dissertatsiyasining mavzusi: “Kachna daryosi bo‘ylab yotqiziqlarning hosil bo‘lishi haqida” deb nomlanadi. Olimning fikri bo‘yicha, Kachna daryosi havzasining yuqori qismidan quyi qismi tomon yotqiziqlarning mexanik tarkibi tartib bilan o‘zgaradi, ya’ni daryoning yuqori qismida yirik mexanik tarkibga ega bo‘lgan yotqiziqlar ustunlik qilsa, uning quyi qismida esa mayda mexanik tarkibli yotqiziqlar ko‘pdir.

Kachna daryosining havzasi bo‘yicha qazilgan razrezlarni tahlil qilib, u shunday xulosaga keladi: “Qazilgan har bir razrez yotqiziqlarning mexanik tarkibini tadqiq qilish uchun asos bo‘ldi va daryo havzasi bo‘yicha ular tartib bilan o‘zgardi”. Shunday qilib, V.V.Dokuchayev tabiiy geografik fanlar tizimidagi havzaviy usulga asos soldi va keyingi yillarda bu amaliyotga asoslangan ilmiy g‘oya uning shogirdlari hamda mashhur tabiatshunos olimlar tomonidan rivojlantirildi.

B.B.Polinov o‘z tadqiqotlarida V.V.Dokuchayevning “Havzaviy usuli” ni har tomonlama rivojlantirdi. Havzaviy usulni olim XX asrning 30-yillarida o‘zining geokimyoviy tadqiqotlarida keng qo‘lladi. Landshaftlar geokimyosi fanida havzaviy usuldan foydalangan holda o‘zining “O‘zaro bog‘liq” tahlilini ishlab chiqdi (rasm



1-rasm B.B.Polinovning daryo havzasidagi to‘g‘ri va noto‘g‘ri tanlangan aniqlagich punktlari (Perelman, 1955)

1. ---- - Suvayirgich chegarasi

2. A, B - To‘g‘ri tanlangan punktlar

3. A_1, - Noto‘g‘ri tanlangan punklar

1). A, V punktlar havzaning yuqori qismida joylashgan bo‘lib, V punktdagi landshaftning kimyoviy tarkibi A punkdagi landshaftning kimyoviy tarkibi bilan taqqoslanadi va bu ikki punktning kimyoviy aloqadorligi tahlil qilinadi. A1, V1 noto‘g‘ri tanlangan punktlar bo‘lib, ular havzaning o‘rta qismida joylashgandir, ya’ni tahlil qilinadigan punktlar doimo havzaning yuqori, o‘rta va quyi

qismlarida joylanishi kerak. Bunday olib qaraganda, tahlil qilinadigan punktlar albatta havzaning yuqori va quyi qismlarida joylanishi lozim, ya’ni V punkt A punktga nisbatan quyi joylashgan. Qisqa qilib aytganda, daryo geotizimidagi punktlarni joylashtirishda ularning havza elementlari bilan (yuqori, o‘rta, quyi) aloqadorligi hisobga olinishi shart. Olimning yozishicha, har bir havzadagi kimyoviy elementlarning migratsiyasini to‘liq o‘rganish uchun shu obyektdagi tabiat komponentlarining o‘zaro aloqadorligini va elementar landshaft guruhlarining bog‘liqligini tadqiq qilish lozim. Boshqacha aytganda, obyektdagi geokimyoviy landshaftlardagi kimyoviy elementlarning migratsiyasini havza asosida har tomonlama o‘rgangandan so‘nggina landshaftlarning dinamikasi haqidagi bilimga to‘liq ega bo‘lamiz [5]. B.B.Polinov shunday deb yozadi: “Har bir daryo havzasi ikkinchi daryo havzasidan avvalambor landshaftlarning geokimyoviy tarkibi bo‘yicha farq qiladi va bu farqni tadqiq qilishda “O‘zaro bog‘liq” tahlili alohida o‘rinni egallaydi” [6].

F.N.Milkov (1966) tabiiy geografiyadagi havzaviy usulni landshaftshunoslik faniga qo‘llash natijasida tabiatdagi oddiy paragenetik landshaft kompleksini (jar havzasi) va murakkab paragenetik landshaft kompleksini (daryo havzasi) tadqiq qiladi. F.N.Milkov shunday deb yozadi: “Daryo havzalari murakkab paragenetik landshaft kompleksini hosil qilgani holda bu havzada barcha tabiat komponentlari va landshaft birliklari tartib bilan qonunli o‘zgaradi” [4]. Boshqacha aytganda, tabiatda regional va tipologik komplekslar bilan bir qatorda paragenetik landshaft komplekslari ham mavjud bo‘lib, ularni tadqiq qilishda landshaftlar geokimyosi fanidagi “O‘zaro bog‘liq” tahlili alohida o‘rinni egallaydi. Ana shuning uchun ham “O‘zaro bog‘liq” tahlilini faqat “Landshaftlar geokimyosi” fanida emas, balki shu bilan bir qatorda “Meliorativ landshaftshunoslik”da qo‘llash ham foydadan holi emas, ya’ni landshaftlarning meliorativ holati to‘g‘ridan-to‘g‘ri havzadagi tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlari yordamida kimyoviy elementlarning migratsiyasiga bog‘liq.

Havza usuli tabiiy geografik fanlar tizimidagi gidrologiya va ayniqsa uning gidrokimyo yo‘nalishida ko‘p qo‘llaniladi. E.I.Chembarisov (1974) o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib, ba’zi daryolarning minerallashuv darajasining o‘zgarishini sug‘orish tizimi bilan bog‘liqligini tadqiq qilishda havza usulini qo‘llaydi. Olimning yozishicha, daryo havzasining oxirgi stvorida suvning minerallashuv darajasining oshishi bilan bir qatorda uning kimyoviy tarkibi ham o‘zgaradi. Shu bilan bir qatorda E.I.Chembarisov quyidagi umumiy xulosaga keladi: “Tog‘li hududlarda

suvlarning minerallashuv darajasi va uning kimyoviy tarkibi asosan havzadagi tog‘ jinslariga va tuproqlarga bog‘liq bo‘lsa, sug‘oriladigan hududlarda esa asosan sug‘oriladigan hududlarning ko‘lamiga va ularning meliorativ holatiga bog‘liqdir”.

I.N.Stepanov, E.I.Chembarisov o‘zlarining asarida sug‘oriladigan hududlarning tabiiy-meliorativ holatini tahlil qilishda havzaviy yondashuvni keng qo‘llaydi. Mualliflar daryolarning minerallashuv darajasiga va uning kimyoviy tarkibiga sug‘oriladigan hududlarning ta’sirini faqat O‘rta Osiyo misolida emas, balki shu bilan bir qatorda Ozarbayjonning sug‘oriladigan hududlari hamda AQShning Kolorado daryo havzasi misolida ham ko‘rib chiqadi. O‘zlarining xulosasida ular quyidagi fikrga keladi: “Suvlarning gidrokimyosini tadqiq qilishda havzaviy usul faqat ularning hozirgi holatini emas, balki kelajakdagi prognozini ham har tomonlama asoslab beradi” [7].

XX asrning mashhur tuproqshunos olimi V.A.Kovda ham o‘zining tadqiqotlarida havzaviy usuldan keng foydalangan. Uning fikri bo‘yicha: “Daryo vodiylari va deltalari moddalarning “geokimyoviy tuzoqlari” hisoblanib, mahalliy va umumiy geokimyoviy oqimlarni qamrab oladi” [2].

L.M.Koritniy tabiatshunos olimlarning ichida birinchilardan bo‘lib daryo havzasini geotizim sifatida tadqiq qiladi. L.M.Koritniy daryo havzasini geotizim deb tadqiqot qilishda avvalambor e’tiborni ana shu havza geotizimidagi suv rejimini belgilab beruvchi orografik va iqlim omillariga qaratadi. Olimning yozishicha: “Har bir daryo havzasi tabiatda obyektiv mavjud bo‘lgan borliq bo‘lib, uni har tomonlama o‘rganish uchun gidrologik tadqiqotlarni landshaft ta’limoti asosida olib bormoq kerakdir” [3]. Olim V.G.Glushkov (1933) asos solgan gidrologiyadagi geografik yo‘nalishni rivojlantirib, landshaft gidrologiyasiga asos solgan. L.M.Koritniy so‘nggi yillarda tabiatdan foydalanishda havzaviy usulni qo‘llagan holda daryo havzasini tabiiy asos deb qaraydi. Boshqacha aytganda, daryo havzasida joylashgan har bir tabiiy-xo‘jalik tizimining rivojlanishi avvalambor daryo havzasidagi tabiat komponentlarining va tabiiy resurslarning tizimli o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Shu bilan bir qatorda L.M.Koritniy tabiatdan havzaviy foydalanishda daryo havzasini tabiiy-xo‘jalik tizim deb qarashga va uni havzaviy kartalashtirishga ham alohida e’tibor berishni ta’kidlab o‘tadi.

O.A.Borsuk daryo havzalarini tadqiq qilishda tizimli yondashuvni qo‘llab, ularni bir nechta elementar havzalarga ajratadi. Havzaning yuqori qismidagi soy va irmoqlarning havzalarini elementar havza deb ta’kidlaydi va ular birinchi tartibli havza degan xulosaga keladi. Elementar havzalarning yig‘indisi esa

muallifning fikriga ko‘ra, murakkab tuzilishga ega bo‘lgan daryo tizimini hosil qiladi. Boshqacha aytganda, daryo tizimini tashkil etuvchi elementar havzalar oddiy tuzilishga ega bo‘lib, ularning inson tomonidan boshqarilishi ko‘p mablag‘ talab qilmaydi [1].

Adabiyotlar:

1. Борсук О.А. Системный подход к анализу речных сетей // Вопр. геогр. - М.: Мысль, 1975. - Сб. 93. - С. 107-113.
2. Ковда В.А., Егоров В.В. Оценка ландшафтов для ирригации и дренажа //Почвы аридной зоны объект орошения. – М.: Наука, 1968. С. 72-104.
3. Коритний Л.М. Бассейновая концепция в природопользовании. -Иркуск: Изд-во Институкта географии СО РАН, 2001. – 163 с.
4. Мильков Ф.Н. Парагенетические ландшафтные комплексы // Научные записки Воронежского отдела ГО СССР. – Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1966. -С. 3-7.
5. Перельман А.И. Геохимия ландшафта. - М.: Высш. школа, 1975. - 342 с.
6. Полинов Б.Б. Учение о ландшафтах. Избранные труды. – М.: Изд-во АН СССР, 1956. -751 с.
7. Степанов И.Н., Чербарисов Э.Н. Влияние орошения на минерализацию речных вод. М.: Наука, 1978. 220 с.

TOG‘ LANDSHAFTLARINI O‘RGANISHNING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI

Allayorov Ruslan Xaykal o‘g‘li
Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Qarshi shahridagi Prezident maktabi,
allayorovruslan@gmail.com

Tog‘lar azaldan ko‘plab xalqlarda mardlik, shon-shuhrat, suyanch hamda mag‘rurlik ramzi bo‘lib kelganligi bejiz emas. Chunki tog‘lardagi viqor va betakror go‘zallik hamisha insonlarni o‘ziga chorlagan. Tog‘li mintaqalardagi musaffo havo, zilol suvlar, yam-yashil o‘rmon-u yaylovlar insonlarga huzur baxsh etishi bilan birga, hamisha ularga rizq ham tuhfa etib kelgan.


Bugungi kunda tog‘li hududlarda dunyo aholisining qariyb 15 % i istiqomat qiladi. Bioxilma-xillikning yarmi tog‘larda joylashgan. Dunyo aholisining qariyb yarmining farovonligi tog‘ tizmalaridagi suv, oziq-ovqat va energiya manbalariga bog‘liq. Tog‘lar Yer yuzining deyarli 27 % ini egallaydi. Ular nafaqat tog‘li hududlarda yashovchi 1,1 mlrd tog‘ aholisining hayoti va farovonligini bevosita ta’minlaydi, balki bilvosita, quyida yashovchi milliardlab odamlarga ham foyda keltiradi[2].

Tog‘li hududlarda yashovchilarning 90 % dan ko‘prog‘i rivojlanayotgan mamlakatlarning aholisi hisoblanadi. Shu boisdan ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqlar va tog‘lar o‘rtasida o‘ziga xos etnoekologik madaniyat vujudga kelgan. Buni Nepal, Tojikiston, Peru, Boliviya kabi mamlakatlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Tog‘lar dunyodagi barcha toza suvning 60-80 % ini ta’minlaydi [3]. Shu boisdan ularni resurs sifatidagi ahamiyati ham beqiyosdir.

Tog‘li hududlar tabiiy geografik, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va hatto, ma’naviy ahamiyat va imkoniyatlarga ega[1]. Tog‘lar nafaqat tabiiy ekotizimlar, balki, an’anaviy bilimlar hamda ma’naviy qadriyatlar, tarixiy obidalar, yodgorliklar, sport va turizm maskani hamdir (1-rasm).

Tog‘lar qayta tiklanadigan energiya manbalari, jumladan, gidroenergetika, quyosh, shamol va biogaz uchun quyida joylashgan shaharlar va chekka hududlarda yashovchi tog‘lik aholi uchun muhim rol o‘ynaydi. Gidroenergetika dunyodagi elektr energiyasining qariyb beshdan bir qismini ta’minlaydi va ba’zi mamlakatlarda gidroenergetika ishlab chiqarish deyarli tog‘li hududlarda amalga oshiriladi[3].



1-rasm. Tog‘li hududlar imkoniyatining tuzilmasi.

Tog‘ va tog‘oldi landshaftlaridan xo‘jalik tarmoqlarida foydalanishni tartibga solishda tabiiy sharoitning qulay yoki noqulaylik darajasini belgilaydigan: tog‘ jinslari, relyef, tuproq, iqlim va suv resurslarini uyg‘unlikda tahlil qilish lozim. Bunda landshaft tadqiqotlari muhim hisoblanadi.

So‘nggi o‘n yilliklar mobaynida tabiatga bo‘lgan keskin ta’sirning ortishi geoekologik vaziyatni murakkab holatga olib kelmoqda. Shu bois hududlarning, jumladan, tog‘li hududlar tabiatidan oqilona foydalanish, geoekologik vaziyatlarni baholash va muammolarning oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Tog‘lar madaniy va ilmiy ahamiyatga ham ega. Shu sababli, YuNESKO ularning ko‘pchiligini Jahon merosi obyektlari va biosfera qo‘riqxonalari (mahalliy biologik xilma-xillikni saqlab qolish bilan birga barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun yechimlarni topish kerak bo‘lgan joylar) toifasiga kiritadi. Barcha biosfera rezervatlarining deyarli 60 % i tog‘ ekotizimlarida mavjud[3].

Global iqlim o‘zgarishi sharoitida bahor-yoz mavsumlarida kuchli shamol ta’sirida chang va qum zarralarining yuqoriga ko‘tarilishi va uning atmosfera qatlamlarida harakatlanishi, havoning ifloslanishi bilan tavsiflanuvchi xavfli meteorologik jarayonlarning takrorlanishlar soni ortib bormoqda. Shu boisdan tog‘ va tog‘oldi hududlarini o‘rmonlashtirish, o‘simlik qoplamining

kamayishiga ta’sir etuvchi antropogen omillarni cheklash, tabiiy muhitni tiklashga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish asosida tabiiy omillar va iqlim o‘zgarishlarining aholi salomatligiga salbiy ta’sirini yumshatish, aholining sifatli hordiq chiqarishi uchun zarur muhit yaratish hamda tog‘li hududlarning turistik jozibadorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tog‘ va tog‘oldi landshaftlarini bir butun yaxlit tabiiy hududiy majmua va tadrijiy o‘zgaruvchi geotizim sifatida qarash, tog‘larni ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy, tarbiyaviy, estetik jihatdan yuksak mavqega ega bo‘lgan tabiiy geografik obyektligini hisobga olish lozim. Tog‘larda majmuali geografik, geoekologik, biogeografik tadqiqotlarni olib borish va bunday tadqiqot natijalaridan samarali foydalanish mamlakatimiz iqtisodiyoti va jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Allayorov R.X. Janubi-g‘arbiy Hisor tog‘ va tog‘oldi landshaftlaridan foydalanish va geoekologik vaziyatni optimallashtirish. G.f.f.d. (PhD) ilm. dar. olish uchun taqdim et. diss. avt. – Samarqand, 2023. – 50 b.
2. https://www.un.org
3. http://www.fao.org

MAHALLIY GEOEKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING KELTIRIB CHIQARADIGAN OQIBATLARI

M.Ya.Radjapov
katta o’qituvchi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

G.Eshpanova
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo’nalishi talabasi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

T.R.Matmuratov
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo’nalishi talabasi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute

Резюме: *Maqolada atrof-muhitning ifloslanishi tabiat va inson faoliyati bilan bog’liq tarzda ro’y berishi mumkin bo’lgan hodisalar tahlil qilingan.*
Tayanch so’zlar: *Antropogen ifloslanish, geoekologik muammolar, sho’rlanish, deflatsiya, eroziya, landshaft, antropogen ta’sir, atrof-muhit.*

Резюме: *В статье анализируются явления загрязнения окружающей среды, связанные с природой и деятельностью человека.*
Ключевые слова: *Антропогенное загрязнение, геоэкологические проблемы, засоление, дефляция, эрозия, ландшафт, антропогенное воздействие, окружающая среда.*

Summariy: *The article analyzes the phenomena of environmental pollution associated with nature and human activity.*
Key words: *Anthropogenic pollution, geoecological problems, salinization, deflation, erosion, landscape, anthropogenic impact, environment.*

Atrof-muhitning ifloslanishi tabiat va inson faoliyati bilan bog’liq tarzda ro’y berishi mumkin. Tabiiy ifloslanishning asosiy manbalari: vulqonlar otilishi, sel, zilzila, ko’chki, suv toshqinlari, kuchli shamollar, yong’inlar kabi tabiiy jarayonlardir. Bu turdagi ifloslanish bevosita tabiiy jarayonlar bilan bogliq bo’lib, unda inson ishtiroki bo’lmaydi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi (Nyu-York shahri, 2017-yil 19-sentabr)da mintaqadagi ekologik muammo - Orol dengizi inqirozining mohiyatini lo’ndagina tarzda ta’riflab berilgan: “... Bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri - Orol halokatiga yana bir bor e’tiboringizni qaratmoqchiman Mana, mening qo’limda - Orol fojiyasi aks ettirilgan xarita. Q’ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo’q”[3.4].

Bundan tashqari O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham sohaga oid muammolar va ularning yechimlari batafsil ochib berildi: “ ... Vaholanki, O’zbekiston juda boy tabiiy resurslarga, katta iqtisodiy salohiyatga ega bo’lgan davlat. Yurtimiz zaminida oltin, kumush, mis, uran, neft, tabiiy gaz, ko’mir kabi tabiiy qazilma boyliklarning katta zaxiralari mavjud. Umuman, Mendelleyevning kimyoviy moddalar jadvalidagi barcha elementlarni mamlakatimizdan topish mumkin. Hamma gap ana shu bebaho boylikni xalqimiz manfaati yo’lida oqilona va samarali ishlata olishda[3.5].

Mahalliy geoekologik muammolarning vujudga kelishi inson xo’jalik faoliyatiga nisbatan jadalroq bo’lgan, uning tabiatga ta’siri sezilarli darajada ortgan, xususan landshaftlarda yangi texnogen bunyodkorliklar joriy etilgan, qisqasi antropogen landshaftlar faoliyati bilan bog’liqdir. Demak, yer yuzasining turli hududlarida o’ziga xos geoekologik muammolar shakllanganki, bularning ko’larni va mohiyati jihatidan mahalliy (lokal) geoekologik muammolar, deb atash mumkin. Mahalliy geoekologik muammolar dunyo bo’yicha yoki yirik hududlar bo’yicha e’tirof etilmasada, ularni bartaraf etishga e’tiborsizlik joylarda ekologik vaziyatni keng ko’lamda tarkib topishi va murakkablashishiga olib kelishi mumkin. Biroq mahalliy geoekologik muammolar tashvishi o’sha joylar tabiati va aholisi uchun ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy jihatdan jiddiydir.

Yer yuzasining namgarchilik hududlarida botqoqliklarning quritilishi, qurg’oqchil mintaqalarda yerlarning sun’iy sug’orilishi, suv omborlarini barpo etish, yaylov chorvachiligini rivojlantirish, ishlab chiqarish korxonalarining qurilishi kabi jarayonlardagi ayrim nomutanosibliklar hamda insonning ba’zi pala-partish faoliyati mahalliy (lokal) geoekologik muammolarning o’tkirlashuvi negizini tashkil etadi.

Suv omborlarining qurilishi sug’oriladigan yerlar maydonini kengaytinshda, arzon elektr quwati ishlab chiqanshda, aholi yashash manzillarini suv bilan ta’minlashda, suv yoilaridan foydalanish imkoniyatlarini orttirish va yaxshilashda hamda dam olish maskanlari tashkil etishda muhim ahamiyatga egadir. Biroq, suv omborlari katta hududdagi foydalaniladigan yerlarni ham o’z qa’riga tortadi. To’g’ondan quyida daryo suv tartibining o’zgarishi (kamayishi) oqibatida qayirdagi o’tloq va o’rmonlarning qurishi, qayir tuproqlarda mahsuldorlikning kamayishi kuzatiladi. Shuningdek, yuqori kengliklarda qurilgan suv omborlari atrofida yerlarning botqoqlashishi ro’y bersa, qurg’oqchil mintaqalarda esa bu jarayon tuproqlarning sho’rlanishiga sabab bo’ladi (buni O’zbekistonning tekislik qismidagi deyarli barcha suv omborlari

atrofida kuzatish mumkin). Mutaxas- sislarning fikricha suv omborlarning tabiiy muhitga ta’siri asosan 4 ta geotexnik tizim bosqichida namoyon boiadi: gidrometeorologik, tuproq-biologik, landshaft va ijtimoiy-iqtisodiy.

O’zbekistonda, xususan butun Markaziy Osiyoda sug’orma dehqonchilikning jadal rivojlantirilishi oqibatida 1936-1989-yillar mobaynida 168 ta antropogen kollar vujudga kelgan (Nuriddinov, 1992), ular 6344550 km^2 maydonni egallaydi. Demak, ushbu kollarning ham atrof-muhitga ta’siri bo’lishi tabiiydir. Mirzacho’lning shimoli-g’arbida joylashgan Tuzkon ko’li qadimda sho’rxok va qumli massivdan iborat bo’lib, yer osti suvlari sathi 10-20 m chuqurda bo’lgan (1970). Ko’lning paydo bo’lishi bilan yer osti suvlari sathi 1-3 m ga ko’tarildi va kuchli bug’lanish tufayli suv havzasi ta’siridagi sug’oriladigan yerlarda tuproqlar sho’rlanishga uchrab qishloq xo’jalikda foydalanishga yaroqsiz holga kelib qoldi.

Agar Markaziy Osiyodagi sho’r kollardagi tuz zaxirasining 93 % ini Sariqamish, Aydarko’l, Dengizko’l va Tuzkonda to’planganligini inobatga olinsa, bu ko’llar suvining qurishi mintaqada tuz deflatsiyasining yangi o’choqlari paydo bo’lishidan dalolatdir.

Turkmanistondagi Qoraqum kanali Amudaryodan har yili 10 km^3 atrofida suv oladi. Kanal ishga tushgandan buyon o’tgan 50 yil mobaynida cho’l hududlari tabiatida kuchli o’zgarishlar ro’y berdi, hatto ko’plab butunlay yangi tabiiy geografik majmualar hosil bo’lishiga sabab bo’ldi. Agar kanal uzunligini 1100 km dan ortiqligi, yon atrofga ta’siri 1-30 km ekanligi yuzasidan tahlii qilinadigan bo’lsa, kanalning nafaqat ijobiy, balki mintaqa uchun keltirayotgan jiddiy ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy salbiy ta’sirini ham payqash mumkin.

Qizilqumning ayrim hududlarida qorako’l qo’ylarining tartibsiz boqilishi, butalarning kesilishi, geologik qidiruv, burg’ulash va turli qurilishlar tufayli ekologik vaziyat keskinlashmoqda. Cho’l qum tuproqlarining zichligi va qovushqoqligi kuchsiz bo’lganligidan tezda harakatchan holatga keladi. Chorvani boqish tufayli ayniqsa, suv manbalari (quduqlar) atrofidagi o’simliklar kuchli o’zgarishga uchraydi, natijada qum ko’chkilariga sabab bo’ladi. Bunday holatni barcha cho’llarning vohalarga tutash hududlarida va keng maydonlarda kuzatish mumkin.

O’zbekistonda 1000 dan ortiq atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoat tarmoqlari mavjud. Lekin ularning hammasida tozalovchi inshootlarning yo’qligi, mavjudlarini yaxshi ishlamasligi oqibatida atrof-muhitga yiliga 4,5 mln. tonna atrofida zararli moddalar chiqarilib, ifloslantirlmoqda. Chunki o’sha

sanoat korxonalari chang va gazni ushlab qoluvchi va boshqa zararli moddalarni tozalovchi qurilmalar bilan faqat 50 foizigina ta’minlangandir. Buning oqibatida korxonalardan chiqayotgan azot oksidining faqat 4%, uglevodorodning 17%, uglevod oksidining 29%, oltingugurtning 33% igina ushlab qolinmoqda. Natijada respublikaimizning ba’zi shahar va aholi punkitida havoning ifloslanish darajasi sanitariya miqdoridan ortiq. Ayniqsa, kimyo sanoati mavjud bo’lgan shaharlar havosi (Chirchiq, Farg’ona, Qo’qon, Samarqand, Navoiy, Toshkent, Andijon, Bekobod, Olmaliq) ifloslangandir. O’zbekiston sanoat korxonalaridan yana yiliga 300 mln. m^3 iflos, ishlatilgan oqovalar chiqarib, tabiiy suv manbalarini ham har xil zararli moddalar bilan ifloslamoqda[1.46].

Chirchiq, Ohangaron, Surxondaryo va Qashqadaryoning lyoss bilan qoplangan yuqori terrasalarida sug’orishda ishlatilgan suvlarni dala chekkasiga chiqarilishi tufayli jar eroziyasi kuchayadi (bu jarayon egallagan maydon Toshkent vohasining o’zida 15 ming gektarga yetdi). Bu hududlardagi ekotizimlarning barqaror rivojlanishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi, oqibatda iqtisodiyot ham jiddiy zarar ko’radi. Mahalliy geoekologik muammolar faqat kanallar, suv omboriari yoki sug’oriladigan yerlar, yaylovlar va ular atrofidagina emas, balki yirik sanoat obyektlari-issiqlik elektr stansiyalari, tog’- metallurgiya korxonalari, qaziima konlar, yoqilg’i-energetika majmualari va hokazolar tufayli ham yuzaga kelishi mumkin. Demak, mahalliy geoekologik muammolar negizi tabiat, xususan landshaftlar bilan texnogen tizim (suv ombor, kanal, sanoat korxonasi va b.)ning o’zaro ta’siri va aloqasining salbiy natijasidir. Aloqalarning asosi esa suv yoki havo orqali amalga oshadi. O’zaro ta’sir va aloqadagi muvozanatning buzilishi barcha turdagi geoekologik muammolarning vujudga kelishiga imkon yaratuvchi bosh omil bo’lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy resurslardan oydalanish to’g’risida Milliy ma’ruza. –T.: Chinor ENK, 2002, 2006, 2008, 2012.
2. O’zbekiston ekologik harakati dasturi. –T., 2009.
3. Xodjimatov A.N., Alimqulov N.R., Xolmurodov Sh.A., Djurayev M.E. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» - 2020.
4. Раджапов М.Я., Ешпанова Г., Матмуратов Е.Р. Локальные геоэкологические проблемы и их последствия. – Международный научно-практический журнал «Экономика и социум». 03(118)2024.

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍNÍŃ RUDALÍ EMES MINERAL RESURSLARÍNÍŃ GEOGRAFIYALÍQ JAYLASÍWÍ

Iskenderov A.B.,
Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Tursınbaev A.K.,
Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Seydullayev A.M.
Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Aymaqlardıń ámeldegi tábiyiy ekonomikalıq potencialınan nátiyjeli paydalanıwdı esapqa alǵan halda, strukturalıq ózgerisler bazar reformaların tereńlestiriw hám ekonomikanı liberallastiriwniń eń zárúrli ústin turatuǵın baǵdarı bolıp tabıladı. Mámleket ekonomikasınıń strukturalıq ózgerislerin ámelge asırıwda onıń aymaqlıq tárepi qatnasıwı kerek. Tómen rawajlanǵan aymaqlar ekonomikasın rawajlandırıw resurs hám islep shıǵarıw potencialınan kompleks hám nátiyjeli paydalanıwdı támiyinleydi. Bul jerde islep shıǵarıw kúshlerin aqılǵa say jaylastırıw, sistemalı qolay islep shıǵarıw jáne social infrastrukturalardı jaratıw, qosımsha jergilikli hám shet el investitsiyalardı qosıw zárúr bolıp tabıladı.[4]

Rudalı emes mineral resurslar Qaraqalpaqstan respublikasınıń barlıq aymaqlarında ushırasadı. Bunıń tiykarǵı sebebi, respublika aymaǵınıń uzaq dáwirler dawamında teńiz astında bolǵanlıǵı, sonday-aq, gercin taw payda bolıw basqıshına kelip respublika aymaǵında seysmikalıq jaǵdaylardıń tásiri sezilgenligi menen baylanıslı bolıp tabıladı. Olardıń quramına mineral duzlar, fosforitler, qurılıs materialları sıyaqlılar kiredi.

Mineral duzlardıń eń iri kánleri Barsakelmes, Qarawımbet, Aqkól, Qamıslı, Menshikli sıyaqlı jerlerden tabılǵan. Olardıń kópshiligi as duzı bolıp esaplanadı.Ústirttegi Qońırat soda zavodı ushın Barsakelmes hám Qarawımbet duz kánleri tawsılmas shiyki zat deregi bolıp, bul kárxananıń uzaq jıllar dawamında úzliksiz islewin támiyinleydi.

Barsakelmes káni eń úlken duzlı kól bolıp, maydanı 1000 km^2 ge jetedi. Duz kóldiń barlıq jerinde birdey tarqalǵan. Qalıńlıǵı 25 metrge shekem jetedi. Bul jerde joqarı sapalı as duzı bar. Geologiyalıq qorı bolsa 10 mlrd. tonna dep bahalanǵan. Barsakelmes duz káni iri sanaat óndirisin shólkemlestiriw ushın

múmkinshilik jarattı. Kándegi duz jer betine shıǵıp atır, al Qońırat – Beynew temir jolınıń bul jerge jaqın ótiwi Barsakelmes duz káninen paydalanıwdı ańsatlastıradı.

Qarawımbet duz káni bolsa Qońırattıń 50 km batısında 15 km^2 maydandı iyelep jatır. Duz qatlamları jer ústine shıǵıp, onıń qalıńlıǵı 1,5-2 metrge shekem jetedi. Quramında NaCl hám magniy sulfatı bar. Qorı 30 mln. tonna shamasında bahalanǵan. Biraq, bul káni ele tolıǵı menen izertlenbegen.[5]

Fosforit kánleri Sultan Wáyis tawınıń Xojakól jaǵalawında, Xojeli qalasınıń átiraplarında, Ústirttegi Aqstumsıqta, Qaplaqırda, Qulataqırda, Aral teńiziniń qubla-batıs jaǵalarında, Qızılqumda, Shaǵaltoǵayda h.t.b. jerlerde ushıraydı. Olar Qaraqalpaqstanda por dáwiriniń senon qatlamlarında jaylasqan. Qalıńlıǵı 0,1-1,0 metrge shekem barsa, muǵdarı yaǵnıy P_2O_5 5-8%, al hár bir kub metrinde 50-280 kg fosforit degen sóz.[3]

Shaǵal toǵay káni Nókisten 20 km dey qubla-batısta jaylasqan bolıp, maydanı 33 km^2, qatlam qalıńlıǵı 0,25 m. P_2O_5 muǵdarı 12%, geypara jerlerinde 20%. Qorı shama menen 20 mln. tonna.

Xojeli káninde fosforitlerdiń qorı 1,3 mln. tonnanı quraydı. Solay etip Qaraqalpaqstandaǵı fosforitlerdiń ulıwma qorı 70 mln. tonnaǵa jetedi.

Qaraqalpaqstandaǵı fosforit kánleri geologiyalıq hám texnologiyalıq jaqtan elede tereń izertleniwi kerek.

Talk Sultan Wáyis tawında Ziynelbulaq káninde tabılǵan. Kánniń anıqlanǵan qorı A+B+C kategoriyaları boyınsha 27000 mıń tonna. Biraq talktiń bul jerde elede kóp qorların tabıw múmkin.

Granit Sultan Wáyis tawında Darwazataw hám Kókaralda eki iri kánde jaylasqan. Bul jerlerde granit almindin minerallardan ibarat bolıp, devon dáwiri slaneclerініń ishinde, jerdiń betinen 3-4 m tereńlikte jatadı. Qorı 50 mıń tonnaǵa jetedi. Granit abraziv materiallar ushın qollanıladı. Abraziv materiallar ádette joqarı qalıńlıqqa iye bolǵanlıqtan olar materiallardıń, qımbat bahalı taslardıń hám basqa materiallardıń betlerin tegislew jáne kórkemlew ushın qollanıladı.

Kvarc Sultan Wáyis tawında ushıraydı. Bul jerde kvarc tamır sıyaqlı tarmaqlanıp, 98% ke shekem sap túrinde ushırasadı. Shamalanǵan qorı 10 mln. tonnandan zıyat.

Bezew beriwshi taslar kánleri Sultan Wáyista ushırasadı. Respublikamız aymaǵında ushırasatuǵın bezew beriwshi taslardıń tiykarǵı bólegin yashma hám biryuza quraydı.

Ziynelbulaq taw káni negizinde jılına 140 mıń tonna topıraqlı joqarı quwatına iye kárxanalardı shólkemlestiriw múmkin. Bunnan tısqarı, 3 kánniń

maǵlıwmatlar bazasında bekkem magnezitlerge shıdamlı gerbishlerdi shólkemlestiriw múmkin.

Sultan Wáyis ekonomikalıq, sociallıq tárepten de zárúrli bolıp tabıladı. Izertlewler waqtında mineral shiyki ónim rezervleri tek ǵana jergilikli mútajliklerdi ámelge asırıw, bálki respublikanıń basqa regionları mútajliklerin ámelge asırıw ushın ónim islep shıǵarıw imkaniyatın beredi.[1,2]

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Искендеров А.Б. Султон-Увайс тоғи минерал ресурсларининг географик жойлашиши ва хўжаликдаги аҳамияти// Ўзбекистон География жамияти ахбороти, № 37.-Т., 2011.-Б. - 47-49.
2. Искендеров А.Б. Султон-Увайс тоғи минерал ресурсларининг географик жойлашишини ўрганиш масалалари (металли фойдали бойликлар мисолида)// Қўҳна ва навқирон география. Илмий-амалий конф.материаллари. –Т.,ЎзМУ, 2009. Б.-107-108.
3. Искендеров, А.Б., & Абдираманов, Б.С.У.(2022). ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИДАГИ ТАБИИЙ ГАЗ КОНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 335-339.
4. Искендеров,А.Б., & Длимбетов,Қ.Ж. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ НЕФТЬ-ГАЗ ТАБИИЙ РЕСУРСЛАРИДАН КЕЛАЖАК ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 21, pp. 251-254).
5. Iskenderov A.B., uli Saliyev E.P., ulı Abdiramanov B.S. SANAATTI RAWAJLANDIRIWDA TÁBIYIY SHÁRAYAT HÁM TÁBIYIY RESURSLARDIŃ POTENCIALLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 826-830.

QORAQALPOG`ISTON HUDUDIDA O`SIMLIK QATLAMINING JOYLASHISHI VA RIVOJLANISHI

M.Ya.Radjapov
katta o’qituvchi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

G.Eshpanova
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo’nalishi talabasi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

A.S.Jiyemuratov
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo’nalishi talabasi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute

Резюме: *Maqolada Qoraqalpog`iston hududidagi o`simlik qatlamining joylashishi va rivojlanishi haqida fikr yuritilgan.*
Tayanch so’zlar: *Tabiat, o`simlik qatlami, tabiiy sharoit, del`ta, tuproq qatlami, namlik darajasi, sho`rlanish darajasi, to`qay massivlari.*

Резюме: *В статье рассматривается размещение и развитие растительного покрова на территории Каракалпакстана.*
Ключевые слова: *Природа, природные условия, растительность, дельта, почвенный слой, уровень влажности, уровень засоленности, тугайные массивы.*

Summariy: *The article discusses the placement and development of vegetation cover in the territory of Karakalpakstan.*
Key words: *Nature, natural conditions, vegetation, delta, soil layer, humidity level, salinity level, tugai massifs.*

Qoraqalpog`iston hududida o`simlik qatlamining joylashishi va rivojlanishi, uning umumiy tabiiy sharoitlariga, ayniqsa bizning respublikaning tuproq qatlamining namlik va tuproqning sho`rlanish darajasiga bevosita bog`liq.[1] [2]

Amudaryo hozirgi del`tasining juda ko`p bo`limini botqoqli-o`tloqli tuproqlardagi qamishzorlar va to`qaylar egallaydi. Bu o`simliklar egallab turgan territoriya Orol dengizi qirg`og`iga tutashib, Bo`rlitov ustyurtligida joylashgan deyarli teng tomonli katta uchburchak formasiga ega.

Qamishzorlar, odatda yozda suv olib ketuvchi botiq erlarga moslashgan bo`ladi, bu joylarda qamishdan boshqa ekan, urug`, kedirlar ham keng tarqalgan.

[1] **Коровин Е.П.** Растительность Средней Азии и Южного Казахстана. Кн.I. Ташкент, АН УЗССР, 1961.
[2] **Дробов В.П.** Тугайная древесная и кустарниковая растительность Каракалпакской АССР. Мат.по произв. силам Узбекистана, вып.I. Каракалпакская АСР. Ташкент, АН УЗССР, 1950.

Zaxsiz quruq erlarga to`qay o`simliklari moslashgan bo`lib unda bo`yan, yantoq, bug`doyiq, qizil kendir, urug`, ajiriq, yulg`un, qorabaroq, sho`ralar bilan bir qatorda to`qayning yuqori yarusida to`rong`il, jiyda va tollar uchraydi.

To`qaylarning asosiy massivlari Shabboz, Boday, Nazarxon, Nurumtubek va Shortanbaylarning atrofida to`plangan. Ayrim joylarda keng maydonni egallagan yulg`unzorlar ham uchraydi.

Amudaryo del`tasining g`arbida Ustyurt, sharqida Qizilqum bilan chegaradosh bo`limlarining er osti suvlari bir qancha chuqurlikda bo`lganlikdan, bu territoriyalarga yulg`un, yantoq, quyonsuyak, temirtikanak, itsiygak o`xshash o`simliklar xarakterli.

Key words: *Water shortage, Aral Sea, hydro resources, land irrigation, environmental situation, agroclimatic resource, hydrogeological factor, water resources, climate.*

“Suv - seni na ta’ming, na ranging, na hiding bor, seni tassavur qilish ham qiyin. Seni nimaligingni bilmay turib lazzat olasan kishi. Sen nafaqat yashash uchun zarursan, sen o‘zing hayotning o‘zisan. Sening ila butun mavjudod bahra olar. Sen kuch va jismimizni qayta tiklaysan. Sening mehribonliging ila so‘ngan yurak chashmasi yana qayta eshigin ochar”.

Antuan de Sent Ekzyuperi

Hozirgi davrda insoniyat oldida turgan dolzarb muammolar ko‘p ammo ular orasida suv resurslari va ularni asrab-avaylash, oqilona foydalanish va muhofaza qilish alohida o‘rin tutadi. Insoniyat yer yuzida hayotni bardavomligini saqlab qolish uchun texnika va koinot mo‘jizalarini anglab yetishi emas, balki eng avvalo, hayot uchun zarur bo‘lgan ichimlik suvining yetarli bo‘lishi kerakligini allaqachon anglab yetgan.

Rasmiy ma’lumotlarga qaraganda, sayyoramiz aholisining uchdan bir qismi

turli mintaqalarda suv resurslariga nisbatan o‘ta og‘ir muhtojlikni boshidan kechirmoqda. Ayniqsa, Afrika, Osiyo qitalarida ichimlik suvi juda tanqis va bu qit’alarning ayrim hududlarida qurg‘oqchilik kuchaygan va u keltirib chiqarayotgan oziq-ovqat yetishmovchiligi natijasida esa millionlab insonlar aziyat chekmoqda.

2050 yilga kelib yer yuzi aholisi 9 mlrd.ga ko‘payishi bashorat qilinmoqda. Global iqlim o‘zgarishi natijasida tabiatda turli xil xavf-xatar, qurg‘oqchilik yuz berishi mumkin. Hozirgi ilm-fan shuni tan olmoqdaki, agar kelajakda oziq-ovqat mahsulotlari va tiklanmaydigan tabiiy resurslar o‘rnini boshqa usullar bilan yaratilgan mahsulotlar egallashi mumkin, ammo suvning o‘rnini boshqa biror bir mahsulot bosolmaydi. Binobarin, sayyoramizda ichimlik suvining kamayib borayotganligi o‘ta og‘ir xavflarni tug‘diradi. Bunday xavf-xatarlar esa ichimlik suvining turli xil kimyoviy birikmalar bilan ifloslanishi natijasidir.

Boz ustiga, bugungi kunda yer yuzidagi daryolarning yarmiga yaqini ifloslangan, ularning resurslari tugab bormoqda. Shuningdek, yer sharidagi botqoqliklar maydoni va ichki suv resurslari qisqarmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga qaraganda, har kuni dunyoda 6 ming bola sanitariya-gigiena qoidalariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan suv iste’mol qilganliklari tufayli barvaqt halok bo‘lmoqdalar. Hozirgi davrda ichki suv havzalari, ayniqsa, Yevropa daryolari shu qadar ifloslanganki, ular tabiiy yo‘l bilan o‘zini o‘zi tozalay olmayapti. Bunday suvlar nafaqat iste’iol uchun, balki, maishiy xizmat, turmush va sanoat ehtiyojlari uchun ham yaroqsiz bo‘lib qolmoqda.

Chuchuk suv manbalari ifloslanishining asosiy sabablari urbanizatsiya, sanoat, maishiy - kommunal xo‘jaliklari va boshqa ishlab chiqarish korxonalarining jadal rivojlanishi bilan bog‘liq. O‘g‘it va zaharli kimyoviy moddalar ishlatilgan ekin maydonlari hamda chorvachilik fermalaridan oqib chiqadigan suvlar va boshqalar shular jumlasidandir. Suv tanqisligi katta iqtisodiy qiyinchilik bilan birga aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Suvning ifloslanishi tufayli turli kasalliklar - oshqozon ichak, buyrak, jigar, qonda turli allergik xastaliklar sodir bo‘ladi. Ifloslangan suv orqali zararli gelmintlar inson organizmiga o‘tadi. Ich terlama, dizenteriya, gipatit va boshqa kasalliklar ko‘payadi. Suvda kimyoviy elementlar, birikmalarning me’yoridan ortiq bo‘lishi, ularning asta-sekin to‘planib borishiga sharoit yaratadi, natijada ayrim kasalliklarning kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra yuqumli kasalliklarning 80 foizdan ortig‘i ichimlik suv sifatining pastligi hamda suv

ta’minotida sanitar - gigienik qoidalarning buzilishlari bilan bog‘liq. Bugun dunyo aholisining 3 mlrd. ga yaqini ifloslangan suv iste’mol qilmoqda va buning oqibatida ularning deyarli 2 milliardi turli xastaliklarga chalingan. Markaziy Osiyoda suv zaxiralarining qisqarishi, ularning sifat ko‘rsatkichlarini pasayishi ham eng dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Albatta, aholining kelgusida sog‘-salomatligi, kelajagi bevosita toza ichimlik suvi bilan bog‘liq. Keyingi yillarda tog‘larga qor kam tushmoqda, muzliklar maydoni qisqarmoqda, buning ustiga tog‘ zonalaridagi suv zaxirasini to‘plovchi o‘rmonzorlar, archazorlar ayovsiz kesilmoqda.

Suv resurslari jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili ekan, istiqboldagi rivojlanish ko‘p jihatdan mavjud suv resurslari, ularning miqdori va holati, suvga bo‘lgan talab va suvdan foydalanish darajasiga, umuman olganda suvga bo‘lgan munosabat bilan bevosita bog‘liqdir. Sobiq sho‘rolar davrida suv resurslari boshqaruviga yondashuvda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish va shu bilan birga suvga bo‘lgan talabni imkon qadar to‘laroq qondirish maqsadida O‘zbekiston tomonidan ushbu masalalarga jiddiy e’tibor berilmoqda. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash borasida respublikamizda keng qamrovli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va xuquqiy asoslarini yaratish maqsadida bir qator qonunlar va hukumat qarorlari qabul qilingan.

Xalaqaro miqyosida va mamlakatimizdagi daryolarni va shu jumladan Zarafshon daryosi suvini ekologik sog‘lomlashtirish yuzasidan bir qator aniq tadbirlar ishlab chiqilgan. Daryo qirg‘og‘ida suv muhofazasi zonasini tashkil etish va jadallik bilan uni amalga oshirish, daryoga tashlanayotgan barcha oqova suvlarini nazoratga olish va ularni keskin qisqartirish, kanalizatsiya tizimlarini mukammallashtirish va shuningdek bakteriologik ifloslanishning oldini olish va ularni keskin qisqartirish shular jumlasidandir.

O‘zbekistonning suv resurslari Orol dengizi havzasining umumiy suv resurslarining faqat bir qismi hisoblanadi. O‘zbekistonda yer usti suv resurslari qo‘shni davlatlar tog‘li hududlaridan daryolar bo‘yicha keladigan hamda uning hududida shakllanadigan suv resurslaridan vujudga keladi. Bundan tashqari daryo oqimining bir qismi ichki irrigatsiya tarmoqlari orqali kelib quyulmoqda. Ichki suv resurslariga, shuningdek, O‘zbekiston hududidagi ko‘llar suvlari va muzliklardagi suv zahiralari kiradi.

Hisob - kitoblarga ko‘ra 2030 yilga borib respublikamiz aholisi 41 mln. kishiga yetishi, mavjud suv zaxiralarininig hajmi esa 20-30 % kamayishi kutilmoqda. Kelajakda aholi sonining yanada oshishi bilan yer usti va yer osti suvlaridan ichimlik suvi sifatida foydalanish yanada kuchayadi. Shu sababli ham

yaqin yillarda aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qoladi. Shaharlardan, dalalardan chiqarilayotgan ifloslangan suvlarni tozalash bo‘yicha eng ilg‘or va samarali texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish payti keldi.

Yuqorida qayd etilgan mintaqamizdagi suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha fikrimizcha quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozim. Jumladan, suv resurslari sifatini pasayib ketishidan saqlash uchun iflos tashlama (oqova) suvlar miqdorini qisqartirish va keyinchalik ularni daryo va suv havzalariga tashlanishiga barham berishidir. Bu sanoat korxonalarini suv bilan ta’minlashning yopiq siklli tizimiga o‘tishni taqozo etadi. Bu ishni amalga oshirish ancha murakkab, lekin juda muhim vazifadir. Dunyoning qator rivojlangan davlatlari shu yo‘lga o‘tmoqdalar.

Ushbu chora - tadbirlar natijasida oqova suvlarni ifloslanishi keskin darajada kamayadi. Shuningdek, ishlatilgan suvlarni tozalash usullarini takomillashtirish, shu maqsadda ko‘plab maxsus qurilmalar o‘rnatish, bu qurilmalarga yangidan yangi samarador moslamalar, texnologiyalarni kiritib borish zarur. Bundan tashqari, ifloslangan oqova suvlarning bir qismini tozalangandan keyin juda toza suv talab qilmaydigan sanoat korxonalarida foydalanishni joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон.
2. http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036
3. Аббосов С.Б. Жиззах вилояти сув ресурсларидан самарали фойдаланиш. Географиянинг минтақавий муаммолари Республика илмий-амалий конференция материаллари. Жиззах, 2017. 144-146 Б.
4. Юнусов Х., Маматова З. Трансчегаравий дарёлар ва йирик тўғонлар: тахдидлар, талофатлар ва хавфсизлик чоралари. Илмий-оммабоп тадқиқот.-Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2015. – 266 б.
5. Abdullayev, I., & Xolmirzayev, J. (2020). ЖИЗЗАХ СУВ ОМБОРИ ВА УНДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЖИҲАТЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
6. Каримов, И. Э., & Абдуллаев, И. Х. (2020). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ДЖИЗАКСКОГО ВОДОХРАНИЛИЩА. In *ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИИ, ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ГЕОЭКОЛОГИИ* (pp. 97-100).
7. Абдуллаев, И. Х., & Каримов, И. Э. (2020). ЖИЗЗАХ СУВ ОМБОРИ ТАЪСИРИ ДОИРАСИДА ТАБИИЙ-АНТРОПОГЕН

ЛАНДШАФТЛАРНИ РАЙОНЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО*, *1*(2).
8. Абдуллаев, И. Х., & Каримов, И. Э. (2021). ТУЯТОРТАР КАНАЛИНИНГ СУҒОРМА ДЕҲҚОНЧИЛИКДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ТАРИХИ. *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО*, *2*(1).
9. Каримов, И. Э., & Бурхонов, Э. К. (2022). ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИНИНГ СУВ РЕСУРСЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ГИДРОГЕН ОМИЛЛАР. *Журнал естественных наук*, *1*(2 (7)), 34-38.
10. Karimov, I. E., & Samatova, N. R. (2022). TABIIY OFATLARNING GEOGRAFIK JIHATLARI. *Журнал естественных наук*, *1*(1 (6)), 253-258.
11. Karimov, I. E., Samatova, N. R., & Burxonov, E. (2022). SELLAR HOSIL BO ‘LISHINING ASOSIY QONUNIYATLARI. *Current approaches and new research in modern sciences*, *1*(3), 8-16.
12. Каримов, И. Э. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР ОСТИ СУВЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЖИҲАТЛАРИ. *Журнал естественных наук*, *1*(2 (7)), 134-138.
13. Каримов, И. Э. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР ОСТИ СУВЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЖИҲАТЛАРИ. *Журнал естественных наук*, *1*(2 (7)), 134-138.
14. Каримов, И. (2022). ҲУДУДЛАРНИНГ ЛАНДШАФТ ЭКОЛОГИК ҲОЛАТИНИ ЎРГАНИШДА СУВ ОМБОРЛАРНИНГ ЎРНИ. *Scienceweb academic papers collection*.

Internet manbalari:

1. http://www.unwater.org/statistics_trans.html - БМТ расмий маълумотлари сайти.
2. CAWater-info - Портал знаний о водных ресурсах и экологии Центральной Азии.

AMUDARYO HOZIRGI DELTASI RELYEF STRUKTURASINI TADQIQ QILISHDA RELYEF PLASTIKASI USULINING O‘RNI

Xakimov Olimjon Nematovich
Angren shahar ixtisoslashtirilgan maktabi o‘qituvchisi
khakimov_olimjon@mail.ru

Delta geotizimlarining strukturali tahlil zamonaviy ilmiy bilishning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu tadqiqotlarning shu qadar ilmiy ahamiyatga aylanib borishida struktura kategoriyasining va ta’limotining mohiyati katta rol o‘ynaydi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, zamonaviy fanlarning bu kategoriyaga va ta’limotiga bo‘lgan talabidan kelib chiqqan holda, bu tushunchasiz obyektlarni har tomonlama tadqiq qilish, tadqiqotning muvaffaqiyatlarini amaliyotga tadbiq qilish mumkin emas. “Falsafa” qomusiy lug‘atida struktura tushunchasiga shunday ta’rif beriladi: “Struktura – sistema tashkil topishining tuzilishi va ichki formasi, bu forma mazkur sistema elementlari o‘rtasidagi barqaror o‘zaro aloqalarning birligi sifatida yuzaga keladi” (Falsafa, Qomusiy lug‘at, 2004). Bunday olib qaraganda, strukturaning mazmuni tizimlarning tashkil etuvchi elementlarning bir-biri bilan o‘zaro aloqadorligida namoyon bo‘ladi.

Struktura ta’limotida element kategoriyasi ham alohida o‘rinni egallaydi. Falsafa lug‘atida (1976) element tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Materiyaning birlamchi zarralarini bildiruvchi tushuncha, moddiy olamdagi predmetlarning xilma-xilligi ana shu zarralarning turli xil qo‘shiluvidan, kombinatsiyalaridan tarkib topadi”. Boshqacha so‘z bilan aytganda, relyef plastikasidagi elementlarning (balandliklar va pastliklar) birikuvidan turli xil maydonga ega bo‘lgan havzalar (daryo, ko‘l, kollektor va boshqa suv obyektlarining havzalari) hosil bo‘ladi. B.Rasselning fikriga ko‘ra: “Struktura doimo munosabatni taqozo qiladi, oddiy sinf (bizning tushunchamiz bo‘yicha kartalardagi oddiy konturlar) shu xolicha strukturaga ega emas” [1]. Bir so‘z bilan aytganda, har bir obyektda munosabatlarning vujudga kelishi uchun elementlarning bo‘lishi shart. Elementlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati obyektlarning strukturasini belgilab beradi. I.N.Stepanov B.Rasselning fikrini har tomonlama qo‘llagan holda V.R.Volobuyevning Ozarbayjon tabiiy meliorativ obyektlarini tadqiq qilishda tatbiq etgan relyef plastikasi usulini har tomonlama nazariy rivojlantiradi va amaliyotga keng qo‘llaydi. Relyef plastikasi kartalarida ko‘rsatilgan Yer yuzi elementlarining (balandliklar va pastliklar) o‘zaro munosabati obyektning strukturasini tashkil etadi [2,4].

“Relyef plastikasi” tushunchasi deyilganda, tanlangan masshtabdagi topografik kartalarni va aerokosmik suratlarni maxsus diqqat bilan tahlil qilish natijasida Yer yuzi tashqi tuzilishining va birikuvining aniqlanishi tushuniladi [1,4]. Relyef plastikasi usulining mohiyati topografik kartalarda hududdagi relyefning ikki asosiy elementlarini, ya’ni nisbiy balandliklarni va pastliklarni tizimli ifoda etishni talab etadi. Relyef plastikasi kartalarida balandliklarning va pastliklarning o‘zaro birikuvi Yer yuzasining tabiiy naqshlarini hosil qilgan holda, suv ayirg‘ichlarni, ekspozitsiyalarni va eng pastqam joylarni aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda, faqat relyef plastikasi kartalarida boshqa tematik kartalardan farq qilgan holda relyef tiplari emas, balki relyef strukturasi tasvirlangan bo‘ladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, har qanday relyefni to‘g‘ri ko‘rsata oladigan topografik kartalardagi gorizontal chiziqlar asosida balandliklar va pastliklar ifodalanadi.

Biz yirik masshtabli relyef plastikasi kartasining ijobiy roli haqida gapirib, shunday xulosaga kelamiz, ya’ni yirik masshtabli topografik kartalar (1:25000) asosida tuzilgan relyef plastikasi kartalari Amudaryo hozirgi deltasi relyefining haqiqiy strukturasini tadqiq qilish uchun har tomonlama ilmiy asos bo‘la oladi. Bir so‘z bilan aytganda, yirik masshtabli relyef plastikasi kartalari ilk bor 9 ta kichik deltalarni ajratishga imkon beradi, ya’ni G.V.Lopatin ajratgan Amudaryo hozirgi deltasidagi “tirik” va “avtomorf” qismlarini har tomonlama tadqiq qilish uchun yirik masshtabli relyef plastikasi kartalari asosdir. Men o‘zimning tadqiqotlarimda I.N.Stepanov asos solgan “Relyef plastikasi ta’limoti” ni rivojlantirgan holda shunday xulosaga keldim: “Delta sharoitida yer usti suv oqimining faoliyati natijasida vujudga kelgan daraxtsimon strukturadagi elementlarning (balandliklar va pastliklar) bir-biriga bo‘lgan munosabatini va aloqadorligini tadqiq qilishda relyef plastikasi usulining cheksiz rol o‘ynashi hech kimda shubha tug‘dirmasligi kerak”. Bunday olib qaraganda, relyef plastikasi kartasida ko‘rsatilgan balandliklar va pastliklar barcha hududlarda mavjud bo‘lib, bu kartalarni yaratishda topografik kartalarning asos qilib olinishi bejiz emas, ya’ni daladagi barcha tadqiqotlar topografik kartalar asosida olib boriladi va borilishi lozim. Bu yerda shuni alohida ta’kidlash lozimki, topografik kartalarda tabiatda va jamiyatda mavjud bo‘lgan barcha tabiiy obyektlar hamda iqtisodiy tarmoqlar aniq ko‘rsatiladi, ya’ni topografik kartalarning sifati mamlakat taraqqiyoti bosqichini aniq ifodalaydi. Qisqa qilib aytganda, relyef plastikasi kartalarida relyefning “rasmlari” va strukturasi aniq tasvirlanadi.

Biz relyef strukturasini tadqiq qilish deganda, delta sharoitida yer usti suv oqimining faoliyati natijasida vujudga kelgan kichik deltalarni hamda ularning

daraxtsimon shaklini o‘rganishni tushunamiz. Boshqacha so‘z bilan aytganda, yer usti suv oqimining ishi natijasida delta geotizimlarida faqat daraxtsimon relyef strukturalari hosil bo‘ladi. Biz o‘z tadqiqiotlarimizni eng avvalambor yirik topografik kartalar (1:25000) asosida tuzilgan relyef plastikasi kartalarini tahlil qilishdan boshlaymiz va buning natijasida ilgari fanga noma’lum bo‘lgan har bir kichik deltalarning barchasi garchi daraxtsimon strukturaga ega bo‘lsa ham, ammo ular bir-biridan ichki tuzilishi bo‘yicha keskin farq qiladi. Kichik deltalarning ichki tuzilishi bo‘yicha bir-biridan farq qilishi albatta ularning tabiiy-meliorativ sharoitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etadi.

Agar biz relyef strukturasini va tabaqalanishini tadqiq qilishda relyef plastikasi usulini qo‘llaydigan bo‘lsak, u bir tomondan falsafa fanidagi struktura ta’limoti va uning tabiiy geografiya fanida qo‘llanilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa relyef strukturasining vujudga kelishiga sabab bo‘luvchi yer usti suv oqimining geografik roliga alohida e’tibor beramiz. Bu o‘rinda mashhur gidrolog olim S.D.Muraveyskiyning 1948 yilda yozgan nazariy maqolasini, ya’ni “Geografik kompekslarning vujudga kelishida geografik omillarning roli” asarini eslatib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Boshqacha so‘z bilan aytganda, olim georafik komplekslarning vujudga kelishida yer usti suv oqimlariga katta ahamiyat berib, uning rolini quyidagicha ta’riflaydi: “Transportsiz, ko‘chib yurishsiz harakatning bo‘lishi mumkin emas, o‘zaro aloqadorlikning, o‘zaro ta’sirning bo‘lishi mumkin emas. Transportning mana shu muhim roli, Yer yuzasida moddalarning ko‘chib yurishi birinchi navbatda va asosan yer usti suv oqimi jarayonining zimmasiga tushadi”. Qisqa qilib aytganda, delta sharoitida ham agar yer usti suv oqimi o‘zining transport rolini bajarmaganda edi, delta geotizimi ham hosil bo‘lmagan bo‘lardi, ya’ni bu yerda yer usti suv oqimining rolini Amudaryo va uning tarmoqlari o‘ynagan.

Barcha fanlardagi kabi, tabiiy geografiyada ham eng kichik birliklarni tabiatda ajratishga va uni tadqiq qilishga katta e’tibor berganlar. Misol uchun, tabiiy geografiya fanida turli olimlarning fikrlari bo‘yicha eng kichik birliklar “fatsiya”, “mikrolandshaft”, “biogeotsenoz”, “elementar landshaft” va boshqalar hisoblanganlar. Boshqacha aytganda, ana shu kichik birliklar elementlar bo‘lib, ularning yig‘indisi tizimni, ya’ni obyektni tashkil qilganlar. XIX asrning mashhur tabiatshunos olimi F.A.Sludskiy tabiatdagi xodisani tadqiq qilishning asosiy maqsadi haqidagi shunday deb yozadi: “Murakkab hodisani oddiy elementlarga sindirish, uning mana shu elementlardan tashkil topganligini ko‘rsatish – tabiatshunos uchun hodisani tushuntirishning asosini tashkil topmog‘i kerak”.

Biz ham olimning fikrlarini har tomonlama qo‘llab quvvatlagan holda, Amudaryo hozirgi deltasida ilk bor relyef plastikasi kartasida kichik deltalarni ajratdik. Bizga ma’lumki, delta sharoitida daryo bir necha tarmoqlarga bo‘linib ketadi va suv havzalariga quyiladi. Bizning eng katta yutuqlarimizdan biri shundaki, relyef plastikasi kartalarini yirik masshtabli (1:25000) topografik kartalarda tuzganimiz bo‘ldi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, agar biz relyef plastikasi kartalarini masshtabi 1:50000 bo‘lgan topografik kartalarda tuzganda edi, bu kichik deltalar ajratilmagan bo‘lardi, ya’ni masshtabi 1:50000 bo‘lgan topografik kartalarda gorizontallar juda kam uchraydi. Ana shuning uchun ham biz masshtabi 1:25000 bo‘lgan topografik kartalardan foydalandik, ya’ni bu topografik kartalarda gorizontallar har 2,5 m dan o‘tganligi sababli biz deltaning haqiqiy relyef strukturasini ko‘rsata oldik. Bir so‘z bilan aytganda, yaratilgan relyef plastikasi kartalarining masshtabi yirik bo‘lganligi uchun ilk bor Amudaryo hozirgi deltasida 9 ta kichik deltalarni ajratdik. Ajratilgan har bir kichik deltalar Amudaryoning tarmoqlari bilan bog‘langan bo‘lib, bu kartalarning amaliy ahamiyati yildan-yilga ortib boraveradi.

Relyefning strukturasini tadqiq qilishda shuni ta’kidlash joizki, falsafa fanidagi struktura ta’limoti va shu ta’limot asosida tabiiy geografiya fanidagi relyef strukturasini tahlil qiladigan relyef plastikasi usulining nazariyasi alohida o‘ringa ega. Struktura ta’limotiga asoslangan holda relyef plastikasi usulini qo‘llashning asosiy bosqichlari har tomonlama aniq ko‘rsatilgan. Boshqacha so‘z bilan aytganda, obyektning relyef strukturasini tadqiq qilishda elementlarning (balandliklar va pastliklar) bir-biriga bo‘lgan munosabatini tadqiq qiladigan relyef plastikasi usulining nazariyasiga asoslanadi.

Adabiyotlar:

1. Анисимов И.Г. и др. Методика составления серии тематических среднемасштабных карт «Природно-мелиоративная и сельско-хозяйственная оценка Средного региона СССР». //Оценка природно-мелиоративных условий и прогноз их изменений. – Пущино: ОНТИ НЦБИ. 1977. – С. 23-93.
2. Волобуев В.Р. О научном анализе производственного опыта мелиорации засоленных земель Кура-Араксинской низменности. //Почвоведение. – 1987. -№7. – С. 86-100.
3. Лопатина Е.Б. Состояние и задачи разработки теории и методики оценки природных условий и ресурсов //Изв. АН ССР. –Сер. геогр. - 1970. -№4. –С. 45-54.
4. Степанов И.Н. Формы в мире почв.-М.: Наука, 1986.-192 с.
5. Фридланд В.М. Структура почвенного покрова. -М.: Мысль, 1972. -424 с.

DENOV TUMANI GIDRONIMLARI

N.B.Axmedov
O‘zbekiston Milliy Unversiteti magistranti
O‘zbekiston Milliy Unversiteti, Toshkent shahri
axmedovnasriddin177@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Denov tumanida mavjud bo‘lgan gidronimlar va ularning turlari, tarqalgan hududlari, gidronim ma’nolari haqida malumotlar berilgan. O‘rganilgan malumotlar asosida gidronimlar jadvali keltirilgan.*
Kalit so‘zlar*: Gidronimlar, klasifikatsiya, gidronimlar sxmatikasi, patamonimlar, limnonimlar, glyasionimlar*

Annotation: *This article provides information about the hydronyms in the Denov district, their types, distribution areas, and the meanings of the hydronyms. Based on the studied data, a table of hydronyms is presented.*
Keys Words: *Hydronyms, classification, smetics of hydronyms, patamonyms, limnonyms, glasionems.*

Suv bilan bog‘liq bo‘lgan joy nomlar **gidronimlar** deb ataladi. Okean, dengiz, daryo, ko‘l, muzlik, buloq nomlari gidronimlar deyiladi. Gidronimlar ham suvning xususiyatlariga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Daryo, ko‘l, buloq va quduqlar suvining rangi, sho‘rligi, toza (tiniq)ligi, chuqurligi va boshqa xususiyatlariga qarab har xil bo‘ladi. Insonlar o‘z dunyo qarashidan kelib chiqgan holda ularga nom beradilar va bu nomlar ularning bir-birlaridan ajratadi. Nom tanlashda ma’lum bir xususiyatlari, belgilari, joylashish o‘rni, tabiati, holatidan yoki ma’lum bir ramziy jihatidan kelib chiqiladi. O‘z navbatida gidronimlar kichik sinflarga bo‘linadi. **Potamonimlar** (yunoncha “ *potamos*”- daryo, “ **onoma**” – nom)- daryo va uning irmoqlari nomlari. Bu sinf toponimlari yer sharidagi eng ko‘p nomlardan biridir. **Limnonimlar** (yunoncha- “*limno*”- ko‘l, “*onoma*”- nom)- gidronimlarning turi, ko‘llar, suv omborlari va xovuzlarning nomlari. **Glyasionim**- toponim turi. Muzliklarga beriladigan atoqli nomdir [2].

Mutaxassislar gidronimlarni eng qadimiy toponimlar deb hisoblashadi. F.M.Murzayevning yozishicha “ gidronimlar vaqt eroziyasiga kam duchor bo‘ladi. Shu sababdan, ularni qadimiy shakli va mazmunini tiklash ancha qiyin”. Suv obyektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etganligi bois, dunyo aholisining ko‘p qismi suv obyektlari bo‘yida, sohilda yoki unga yaqin masofada yashaydi [2].

Gidronimlar aholi turar joylariga nom bo‘lib o‘tganida ular o‘rtasida ma’no va vazifa jihatidan ba’zi bir ayirmaliklar yuz beradi. Bunda ikki holatni

inobatga olish kerak. Birinchidan, suv obyekti hozirda mavjud bo‘lsa, u holda bu nom gidronim sifatida tilda keng qo‘llaniladi, uning aholi punktini ifodalashi ikkinchi darajali bo‘lib qoladi. Shunda Qaynarbuloq, Oydinbuloq deganda darhol buloq nomi tushuniladi. Ikkinchidan, nom tarkibidagi suv obyekti hozirda mavjud bo‘lmasa, vaqt o‘tishi bilaan, uning oykonimik vazifasi birinchi o‘ringa chiqadi. Bunday holatlarda nomning gidronimik ma’nosini emas, oykonimik ma’nosi yashashni davom etadi.

Denov tumani tog‘li va tog‘oldi mintaqasidagi hudud hisoblanadi. Shuning uchun bu hudud gidronimlarga unchalik ham boy emas. Hududda uchrovchi gidronimlar xalq qarashi sifatida nomoyon bo‘ladi. Xususan tuman hududida respublikamizdagi sersuv daryolardan biri Surxondaryo oqib o‘tadi. Surxondaryo, Sangardak, Qizilsuv daryolar va boshqa bir nechta jilg‘a, buloqlar mavjud. Hududning asosiy iste’moli mana shu daryolar, jilg‘alar, buloqlar orqali qondiriladi. Bundan tashqari tumanning Bobotog‘ yonbag‘ri hududlarida esa ko‘plab buloqlar, soylar mavjud bo‘lib, ular mahalliy aholi tomonidan turli nomlar bilan atalib kelinadi. Biz hududdi shunga o‘xshash nomlarning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Bobotog‘ adirliklarida ko‘plab buloqlar mavjud bo‘lib ulardan birining nomi **Buloqboshi**. Bu buloqlar aholining asosiy suv manbai sanaladi. Shu sababdan bu hududni buloqboshi den nomlashgan.

Duob- tumandagi qishloq. Fors-tojikcha du-ikki, ob- oqar suv, jilg‘a yoki daryoning irmog‘i. Duob- ikki jilg‘a, qishloq shu ikki jilg‘a qo‘shilgan joyda joylashgan. **Duoba** degan qishloq xam bor: ikki suv (daryo, jilg‘a, suv) ning dara ichidan oqib kelib, yoyiq maydonchaga tutashgan joydagi qishloq shunday atalgan. Denov shahridan shimoli-sharqda joylashgan aholi manzilgohi **Minbuloq**. Aholi yashash joyida ko‘plab kichik buloq va jilg‘alar chiqib turadi.Shuning uchun bu yerni **Mingbuloq** deb atashadi.

Xolchiyon aholi punkitidan g‘arbda, Denov shahridan shimoli-sharqda joylashgan soy nomi **Tentak**. Bu hududda erta bahor sel tez-tez sodir bo‘lib turadi.

Sariosiyo va Denov tumanlari hududidan oqib o‘tuvchi daryo nomlaridan biri **Sangardak daryosi**. Yuqorida takidlaganimizdek toshlar orasidagi daradan oquvchi daryo. U Surxondaryoga borib quliladi.

Tumanda Qizilsuv daryosidan yerlarni o‘zlashtirish va sug‘orish maqsadida odamlar tomonidan qazilgan kanalga **Yangiariq** deb atashadi. Ariqning uzunligi 5 kmdan ziyod bo‘lib, u Hazarbog‘ kanaliga borib quyiladi. Ariq tumandagi eng yirik sug‘orish inshoatlardan biri sanaladi [6].

Bobotog‘ tizmasidagi, karst yoriqlaridan chiquvchi buloqlardan biri **Oqbuloq**- Suvining tiniqligi va istemol uchun yaroqli bo‘lganligidan mahalliy aholi oqbuloq deb nomlashgan.

Fors-tojik tilidan olingan bo‘lib, “panj”-besh, “ob”-suv degan ma’noni bildiradigan so‘z **Panjob**. Bu hududda asosan tojik millatiga xos aholi ko‘proq yashaydi. Joy tumandagi Istiqllol mahallasidagi Navobod aholi punkitidagi ko‘cha nomi bo‘lib, aynan shu ko‘chaga kiraverish qismida beshta ariq mavjud. Aynan shu ariqlardan aholi yerlarni sug‘orishda foydalanadi [4].

Surxondaryo viloyatidagibalki, Uzun, Sariosiy va Denov tumanidagi eng katta daryo nomi **Surxondaryo.** Daryo nomining etimologiyasi ham hamon jumboqligicha qolayotir. Tojikcha “Qizil suv” ma’nosida bo‘lsa, *surxob* deyilishi kerak edi. Surx yoki *surxi* degan turkum urug‘i ham bor. O‘rta asrlarda, Amir Temur tarixida ham **Chag‘onrud** deb atalgan. V.V.Bartold mo‘g‘ul tilida chag‘on “oq” ekanini aytgan (ro‘d-daryo).

Sina qishlog‘ida **Sunbula** deb ataluvchi chashma mavju. Chashma boshqa chashmalardan farqi u qirqquloq o‘simligining barglari orqali tepadan pastga tomchi bo‘lib tushadi. Shu sababdan Sunbula yani tomchi deb qoyligan.

Sangardak daryosi irmoqlaridan birinng nomi **Obichinor** soyi ham tuman hududida joylashgan. Bu so‘z *obi+chinor* so‘zlaridan xosil bo‘lgan. Tojikchada *ob-suv* degan ma’noni bildiradi. Agarda biz uni tarjima qilsak suvlichinor deb tarjima qilinadi.

Bobotog‘ etagida dengiz sathidan 1400-1500 metr balandlikda Terak qishlog‘ining yuqori qismida joylashgan buloq **Tombuloq**. Buloqning qishloqning asosiy suv manbai bo‘lib, buloq atrofida yirik xarsangtoshlarni uchratamiz. Bu toshlar orasida 4-5 metr chuqurlikda joylashgan. Xarsangtoshlar qishloqdan bevosita ko‘rinib turganligi uchun buloqni shu nom bilan atashgan.

Tumandagi Yangiro‘zig‘or mahallasida joylashgan buloqlardan biri **Chashmazor** bo‘lib, hududda yer osti suvlari yer ustiga yaqin bo‘lganligi uchun bir qancha kichik chashmalar yer ustiga oqib chiqadi.

1-jadval

Denov tumanidagi gidronimlar

T.R	Gidronim nomi	T.R	Gidronim nomi
1	Buloqboshi	16	Alishirmar
2	Duob	17	Kichikdayo
3	Mingbuloq	18	Quruqsoy
4	Oybuloq	19	Qiziljarsoy

5	Oqsuv	20	Qorasuv
6	Sangardak daryosi	21	Og‘aliksoy
7	Surxondaryo	22	Obinavro‘z
8	Sunbula	23	Obikancharsoy
9	Chashma	24	Obidara
10	Qizilsuv	25	Malangur
11	Yangariq	26	Hazarbog‘
12	Kuyovsuv	27	Xayrabod
13	Obichinor	28	Tombuloq
14	Obigarm	29	Tomchisoy
15	Orol ariq	30	Qorako‘l

Manba: Muallif tomonidan to‘plangan ma’lumotlar asosida tuzildi

Quydagi jadvalda ham ko‘rinib turibdiki asosiy etibor suvning xususiyati bilan bog‘liq gidronimlar qolgan turdagi gidronimlarga nisbattan ko‘proqni tashkil etadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Denov tumanida mavjud bo‘lgan gidronimlarning katta qismi tog‘li relyef shakllariga to‘g‘ri keladi. Azaldan bu hududlarni insonlar tomonidan o‘zlashtirilgan va mahalliy xalq suvning xususiyatidan kelib chiqib ularga nom berishgan. Bugungi kunga kelib bu joy nomlarining aksariyati “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 295-son 16.10.2012 qaroriga binoan o‘rganish ishlarini olib borib, qayta nomlash maqsadga muvofiq. Chunki tuman hududida Yangiariq, Yangikanal singari gidrotoponimlarning takrorlanishini ko‘rishimiz mukin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 295-son Qarori. 16.10.2012
2. Mirakmalov M.T. Geografiyada toponimika. –T.: “ O‘qituvchi” 2008.
3. Hakimov Q. Toponimika. – T.: “ Mumtoz so‘z” 2016.
4. Nafasov T, Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati.-T.: “ Yangi asr avlodi” 2007.
5. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika-T.: “Navro‘z” 2017.
6. Denov tumani kadastr bo‘limi ma’lumoti-2021

IQLIM O‘ZGARISHLARINING SUV OBYEKTLARGA TASIRLARINING TAHLILI

Omonullayev Og’abek
Qarshi Davlat Universiteti
E-mail: *omonullayevogabek450@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xozirda butun yer yuzida harorat yildan yilga oshib boorish jarayoni. Global iqlim isishi qurg’oqchilik, oziq ovqat inqirozi, va shu kabi ekstrimal holatlar yaqin kelajakda bizni kutib turgan suv taqchilliglari va shuningdek global iqlim o’zgarishlarining O’zbekiston respublikasiga ta‘sir ko’rsatadigan bir qator salbiy oqibatlarining muommo va yechimlari keltirib o’tilgan.*
Kalit so’zlar: *Iqlimiy òzgarishlar, antropogen omillar, suv resurslari, kompleks boshqarish, plantatsiyalar, irrigatsiya.*

Аннотация: *В этой статье температура на всей Земле увеличивается из года в год. Представлены глобальное потепление климата, засуха, продовольственный кризис и подобные экстремальные ситуации, нехватка воды, которая ожидает нас в ближайшем будущем, а также ряд негативных последствий глобальных изменений климата, затрагивающих Республику Узбекистан, и пути их решения.*
Ключевые слова: *Изменение климата, антропогенные факторы, водные ресурсы, комплексное управление, насаждения, орошение.*

Abstract: *In this article, the temperature on the whole earth is increasing from year to year. Global climate warming, drought, food crisis, and similar extreme situations, water shortages that await us in the near future, as well as a number of negative consequences of global climate changes affecting the Republic of Uzbekistan, and solutions are presented.*
Key words: *Climate changes, anthropogenic factors, water resources, complex management, plantations, irrigation.*

Ma’lumki XXI asrdan boshlab suv, oltin, uran, gaz, ko‘mir va boshqa foydali qazilmalardan ko‘ra qimmatbaho xomashyo hisoblanadi. AQSH Milliy Qidiruv Kengashi taxminiga ko‘ra, yaqin 20 yil ichida xalqaro mojarolar xavfming o‘sishi aynan ichimlik va qishloq xo‘jaligi uchun suv yetishmovchiligi sababli bolishini e’tirof etishmoqda. Lekin arid hududlarda suv - hayot manbai, insoniyat turmush tarzining yaxshilanishida eng asosiy resurs boyligi hisoblanadi.[1.3-b]

2050-yilga borib olimlar Yer sayyorasi o‘rtacha haroratining 4 °C ga oshishini prognoz qilishmoqda. Bu esa quruqlikning katta qismini inson hayoti uchun yaroqsiz holga keltirib qo‘yadi. Umumiy qilib aytadigan bo’lsak insoniyat yaqin kelajakda asosi iqlim o’zgarishilari bo’lgan juda ko’p muammolar qarshisida turibdi. Bu jarayonni o’tgan asrda okeanshunos, tadqiqiotchi olim Jackques-Yves Kousteau shunday tariflagan “insoniyat kelajagda jar yoqasida turibdi”.[3.3-b]

Maxsus tekshirishlar shuni ko‘rsatdiki soni doimo o‘sib borayotgan sayyoramiz aholisini (agar uning soni 1800-yiIda - 0,9 mlrd, 1920-yili - 1,8 mlrd, 1970-yiI - 4,0 mlrd, 1990-yil - 5.2 mlrd, 2000-yil - 6.3 mlrd. bo'lgan bo‘lsa, 2050-yil - 11 mlrd.bo‘lishi kutilmoqda) oziq-ovqat bilan ta’minlash uchun 2050-yilga kelib 500 mlnga sug‘oriladigan yerlarda yuqori hosildorlikka erishish uchun dehqonchilik qilishi (hozirda bu maydon 285 mlnga yaqin yer) kerak boladi. Ammo mavjud suv boyliklari faqat 450 mln gektar yerni sug‘orishga yetadi. Bugungi kunda umumiy haydaladigan yer maydoni qariyb 1500 ming gektarni tashkii etadi. Jumladan, 1 kishiga hisoblaganda 0,25 gektarga to‘g‘ri keladi. Butun yetishtiriladigan mahsulotning 40 foizi sug‘oriladigan yerlardan olinadi. Qishloq xo‘jaligida 70 foizga yaqin daryo, ko‘1 va yer osti suvlaridan foydalaniladi, qolgan 30 foizi sanoat va maishiy xizmatda ishlatiladi. Qurg‘oqchil hududlarda 90 foiz suvlar qishloq xo‘jaligida foydalaniladi.

O‘zbekistonda 1880 yildan to hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davrda o‘rtacha yillik harorat 1,6 daraja (13, 2 dan 14,8 °C gacha) oshdi, bu global miqyosda kuzatilayotgan o‘rtacha sur’atlardan yuqoridir.

Qit’alar	**Maydoni ming km^2**	**Aholisi mln kishi**	**Daryo suv oqimi km^3**		**Aholi jon boshiga tog’ri keladigan daryoi suv oqimi, ming m^{3}\yil**	
			To’lqin (Q)	**Yer osti**	**To’lqin (Q)**	**Yer osti**
Yevropa	10500	643	3110	1065	4488	1537
Osiyo	44400	2946	13190	3410	4478	1157
Afrika	30300	572	4225	1465	7386	25661
SH.Amerika	24300	406	5060	1740	14680	4285
J.Amerika	17800	275	10380	3740	37745	13600
Avstraliya	8500	25	1965	465	78600	18600
Dunyo bo’yicha	**135800**	**4917**	**38830**	**11885**	**7897**	**2417**

Dunyo bo'yicha aholi jon boshiga to ‘g‘ri kcladigan daryo suv oqimi [141b].

Mutaxassislarning prognozlariga ko‘ra 2030-2050 yillarda mintaqada havo harorati yana 1,5-3°C ga ko‘tarilishi mumkin. O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi

oqibatlari ta’siriga ko‘proq moyil bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Global gumanitar forum ma’lumotiga ko‘ra, sayyoramizda ro‘y berayotgan iqlim o‘zgarishi yiliga uch yuz ming insonning umriga zomin bo‘lmoqda. Uch yuz million aholi uning salbiy ta’siri ostida hayot kechirmoqda. Bundan iqtisodiyotga ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Bunday global muammolar Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotiga ham o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazmoqda. Orol bo‘yidagi noxush ekologik vaziyat, buning ta’sirida kelib chiqayotgan tabiiy tangliklar, cho‘llanish muammosi bunga misoldir. [3.2-4b]

O‘lkamiz sharoitida suv resurslarining katta qismi, aniqrog‘i 90% dan ortigi irrigatsiya maqsadlarida sarflanadi. Bu sarflanish ekin maydonlari, suv omborlari, sug‘orish kanallari, kollektor zovurlar yuzasidan bo‘ladigan bug‘lanishda, yangi o‘zlashtirilgan yerlarda, yangi qurilgan suv omborlarida, kollektor-zovurlarda suvning akkumulyatsiyasidan, tabiiy botiqlarda qaytarma suvlarning yig‘ilishidan va hokazolardan iborat bo‘ladi. Bug‘lanish hisobiga bo‘ladigan sarflanishning barcha turlari doimiy jarayondir. Hisoblashlarning ko‘rsatishicha buglanishning eng katta miqdori ekin maydonlariga to‘g‘ri keladi. Kuzatish malumotlariga ko‘ra bug‘lanishning bu turi umumiy yo‘qotilgan qiymatga nisbatan Sirdaryo havzasida 46-63 foiz oralig‘ida, Amudaryo havzasida esa 30-36 foiz atrofidadir. Har ikki havzada o‘tgan asring 60-yillari boshida bu miqdor yiliga 28,3 km^3 bo‘lgan bo‘lsa, 70-yillar oxiriga kelib yiliga 47,2 km^3 ga etdi.[2.159b]

Orol dengizi havzasining barcha suv resurslari Sirdaryo va Amudaryo havzalariga tegishlidir. Mustaqil suv havzalarini (ya'ni suvi oqib chiqib ketmaydigan Amudaryoga yaqin) Qashqadaryo, Zarafshon, Murg‘ob, Tejen daryolari tashkil qiladi. Amudaryo va Sirdaryoning umumiy o‘rtacha yillik suv oqimi 115,6 km3ni tashkil etadi, shu jumladan, Amudaryo bo‘yicha - 78,5 km3 va Sirdaryo bo‘yicha- 37,1 km3ga teng. Bu daryolarning o‘rtacha ko'p yillik suv oqim miqdori kata diapazonda o‘zgarib turibdi.[1.42b]

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda 0‘zbekistonda mamlakatni barqaror rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqilgan. Unda 0‘zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirishni birdan-bir strategik maqsad bosqichi quyidagicha belgilangan: 0‘zbekistonning kelajak avlodi uchun yer-suv va boshqa tabiiy resurslaridan foydalanishni saqlash maqsadida oqilona samaradorligini oshirmoq darkor. Ish faoliyati suv bilan bog‘liq bo‘lgan muhandis-texnik xodimlarni tayyorlashda ularning suv resurslaridan mukammal foydalanish va tabiatni muhofaza qilishga

oid barcha xususiyatlarni hisobga olgan holda kelgusi barcha rejalarni amalga oshirirish maqsadga muvofiq.

Aholi ko’p va ularni extiyojlarini qondirish uchun sanoat va ishlab chiqarish zarurdir. Iloji boricha tezroq qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o’tishimiz kerak. Suv masalasini hal qilish uchun esa intensiv sug’orish tizimlaridan foydalanish, kanallar va suv inshoatlarini qattiq qoplamali qilish va bunga kerakli zarur bo’lgan asbob va uskunalarni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish kerakdir. Mavjud suv omborlarini sig’imini oshirish va yangi suv omborlar qurish lozim. Iqlim o’zgarishlarini oldini olishni, yoki uni tuxtatib qo’yishni umuman iloji yo’q. Lekin uni sekinlashtirish mumkin. Bu uchun esa cho’llarimizni bog’larga aylantirish va yurtimizdagi suv masalasini mega loyihalar orqali hal qilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.I.Valiyev, Sh.O.Muradov, B.M.Xolbayev. Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish. ToMdirilgan 2-nashri.-T.: «Fan va texnologiya», 2010, 168 bet.[3.41.42b]
2. Umumiy gidrologiya va iqlimshunoslik / o‘quv qo‘llanma:YunusovG‘.X.,Ziyayev R.R.: «Barkamol fayz media»nashriyoti, 2018-yil. - 360 bet.[159b]
3. A.I.Umirqulov IQLIM O’ZGARISHLARINING HUDUDIY TAXLILI //SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 377-385.[2.4b]
4. Karimov.I.A 0‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.,« 0 ‘zbektston», 1997.- B . 1 10-137.

SOCIALLÍQ INFRASTRUKTURANÍŃ XALÍQ TURMÍS SAPASÍNDAĠÍ ÁHMIYETI

Turdımambetov I.R.,
Berdaq atındağı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti professorı, g.i.d.

Oteuliev M.O.
Berdaq atındağı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti docenti w.a., g.i.f.d. (PhD)

Turmıs sapası sociallıq geografiyanıń eń zárúrli túsiniklerinen birine aylanıp atır. Sońǵı jıllarda kóplegen shet el mámleketlerde geograf alımlar xalıq turmıs sapasın úyreniwge bolǵan qızıǵıwshılıǵı sezilerli dárejede ósken jáne bul boyınsha sociallıq geografiya páninde arnawlı bir teoriyalıq hám ámeliy tájiriybe arttırılǵan [1, 2].

Turmıs sapasına tiyisli izertlewlerdi analiz etkende kóplegen keri teoriyalıq -stilistik qarawlarǵa dus kelinedi. Bul jaǵday, álbette, xalıq turmıs sapası quramalı, kóp qırlı hám salıstırmalı kategoriya ekenliginen derek beredi [6, 7].

Bir qansha geograflar klimat hám basqa ekologiyalıq faktorlardıń xalıq jasaw sharayatı hám turmıs sapasına tásirin úyrengen [5, 8].

Sonıń menen birge, respublikamızda da xalıq turmıs sapası máselesine tikkeley yamasa tikkeley bolmaǵan baylanıslı bolǵan ilimiy jumıslar baspadan shıǵarılǵan [3, 4].

Zamanagóy sharayatta xalıq turmıs sapası kóp tárepten sociallıqlıq infrastruktura rawajlanǵanlıǵı hám sapa kórsetkishleri menen tikkeley baylanıslı bolıp esaplanadı. Sol sebepli aymaqlar xalqınıń turmıs sapasın bahalaw processinde sociallıq infrastrukturaǵa tiyisli kriteryalarǵa bólek itibar qaratıw maqsetke muwapıq bolıp tabıladı.

Qaraqalpaqstan Respublikası sharayatında aymaqlar xalıq turmıs sapasına úy-jay-kommunal sharayat, jol-transport infrastrukturası, baylanıs, medicina, mektepge shekem hámde ulıwma orta bilim beriw, xalıqqa xizmet kórsetiw sistemasınıń jaǵdayı úlken tásir kórsetedi. Izertlew sheńberinde xalıq turmıs sapasın bahalaw kriteryalarınıń sociallıq infrastrukturaǵa tiyisli kompleksine áyne joqarıda sanap ótilgen tarawlarǵa tiyisli indikatorlar kiritiliwi maqsetke muwapıq bolıp esaplanadı. Ámeldegi statistikalıq maǵlıwmatlardan kelip shıǵıp, Qaraqalpaqstan Respublikası jáne onıń aymaqları xalqınıń turmıs sapasın

sociallıq infrastruktura rawajlanǵanlıǵı tárepinen bahalaw ushın tómendegi 19 kórsetkish tańlap alındı:

1. 1 adamǵa tuwrı keletuǵın ortasha úy-jay fondı (m^2);
2. Paydalanıwǵa tapsırılǵan jańa úy-jaylardıń ulıwma maydanı (1000 adamǵa salıstırǵanda, m^2);
3. Tábiyiy gaz benen támiyinlengenligi (%);
4. Oraylasqan ishimlik suw tarmaqları menen támiyinlengenligi (%);
5. Remontqa mútáj bolmaǵan transformator podstanciyalarınıń úlesi (jámi sanına salıstırǵanda procentte);
6. Emlewxana orınların sanı (10 000 adamǵa salıstırǵanda);
7. Ambulatoriya-poliklinika mákemeleri quwatı (bir smenadaǵı qatnawalar sanı, 10 000 adamǵa salıstırǵanda);
8. Shıpakerler sanı (10 000 adamǵa salıstırǵanda);
9. Orta medicina xızmetkerleri sanı (10 000 adamǵa salıstırǵanda);
10. 3-6 jaslı balalardıń mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemleri menen qamtıwı (procent);
11. Mektepke shekem shekemgi bilimlendiriw shólkemleriniń ortasha sıyımlılıq koefficiyenti;
12. Mekteplerdiń ortasha sıyımlılıq koefficiyenti;
13. Joqarı maǵlıwmatlı oqıtıwshılardıń jámi mektep oqıtıwshıları quramındaǵı úlesi (%);
14. Joqarı hám birinshi taypalı oqıtıwshılardıń jámi mektep oqıtıwshıları quramındaǵı úlesi (%);
15. 11-klass pitkeriwshilerdiń joqarı tálim menen qamtıwı (%);
16. Ulıwmalıq paydalanılatuǵın telefon tarmaǵındaǵı telefon apparatları sanı (hár 100 adamǵa salıstırǵanda);
17. Internet tarmaǵına jalǵanǵan xojalıqlar úlesi (%);
18. Ulıwmalıq paydalanılatuǵın avtomobil jollarınıń jámi uzınlıǵında remontqa mútáj bolmaǵan avtomobil jollarınıń úlesi (%);
19. Xizmet kórsetiw shahapshalari menen támiyinleniw dárejesi (normasına salıstırǵanda procentte).

Xalıq turmıs sapasınıń sociallıq infrastruktura kriteryaların bahalawda Qaraqalpaqstan Respublikası statistika bas basqarması, Qaraqalpaqstan Respublikası Úy-jay kommunal xızmet kórsetiw ministrligi, Qaraqalpaqstan Respublikası Xalıq bilim ministrligi, Qaraqalpaqstan Respublikası Mektepke shekemgi bilimlendiriw ministirligi, Ózbekstan Respublikası Informaciya texnologiyaları hám kommunikatsiyaların rawajlandırıw ministrligi

Qaraqalpaqstan Respublikası aymaqlıq basqarması, Qaraqalpaqstan Respublikası Den sawlıqtı saqlaw ministrligi maǵlıwmatlarınan paydalanıldı. Maǵlıwmatlar 2020-jıl juwmaqları boyınsha (2021-jıl 1-yanvar jaǵdayına kóre), bilimge tiyisli kórsetkishler bolsa 2021-2022-oqıw jılınıń bası jaǵdayına kóre alınǵan. Nókis qalası hámde awıl rayonlarınıń barlıq bahalaw kriteryaları boyınsha kórsetkishleri Qaraqalpaqstan Respublikasınıń ortasha sanına bólinip, tiyisli salıstırmalı koefficiyentler anıqlandı. Sociallıq infrastruktura rawajlanǵanlıǵına tiyisli kriteryalardıń tiykarǵı bólegi (19 dan 17 si) unamlı ózgeshelikke iye bolıp, olardıń muǵdarı qansha joqarı bolsa, aymaqtaǵı sociallıq infrastrukturanıń jaǵdayı sonsha unamlı bahalanadı.

Biraq, mektepke shekemgi bilim shólkemleri hámde mekteplerdiń ortasha sıyımlılıq koefficiyentleri unamsız ózgeshelikke iye bolǵanlıǵı sebepli usı kriteryalar boyınsha anıqlanǵan salıstırmalı koefficiyentleri ornına olardıń keri koefficiyentleri alındı.

Hámme kriteryalar boyınsha Nókis qalası hám awıl rayonları kesiminde salıstırmalı koefficiyentler hám ayırım joqarıda ayrıqsha atap ótilgen jaǵdaylarda olardıń keri koefficiyentleri anıqlanǵannan keyin, aymaqliq birlikler kesiminde 19 bahalaw kórsetkishiniń jıyındısı esaplap shıǵıldı. Bul muǵdarlıq kórsetkishten kelip shıǵıp aymaqlardıń reyting orınları belgilep alındı.

Hár bir kórsetkishtiń respublika boyınsha ortasha dárejesi 1,00 ge teńlestirilgenligi sebepli, aymaqlarǵa salıstırmalı qollanılǵan 19 bahalaw indikatorı boyınsha esaplap alınǵan salıstırmalı koefficiyentleri jıyındısı muǵdarları 19 sanı menen salıstırıldi. Jalpı kórsetkishi 18-20 aralıǵında bolǵan aymaqlarda sociallıq infrastruktura sapası orta dárejede, 18 den kem bolǵan aymaqlar – tómen dárejede, 20 dan joqarı bolǵan aymaqlar – joqarı dárejede bahalanıwına tiykar boldı.

Joqarı dárejede Nókis qalası (27,58), Xojeli (21,84), Nókis (21,22) hám Moynaq (20,05) rayonları, orta dárejede Qońırat (19,44), Taxtakópir (18,48), Shımbay (18,09) hám Qanlıkól (18,08) rayonları, tómen dárejede bolsa Kegeyli (17,69), Taxiyatas (17,49), Shomanay (17,07), Qoraózek (17,05), Beruniy (16,40), Ellikqala (15,68), Tórtkúl (14,63), Ámiwdarya (14,13) hám Bozataw (13,02) rayonları bahalandı. Sonday eken, Qaraqalpaqstan Respublikasınıń ortasha dárejesi menen salıstırılǵanda, sociallıq infrstrukturanıń rawajlanǵanlıq dárejesi regiondaǵı aymaqlıq birliklerdiń yarımınan kóbisinde (17 den 9 da) tómen bolıp tabıladı. Sonıń menen birge, Nókis qalasınıń basqa aymaqlarǵa salıstırǵanda sociallıq infrastrukturanıń rawajlanıw kórsetkishleri awıl rayonlarǵa salıstırǵanda bir qansha joqarı ekenligi anıqlandı.

Ádebiyatlar

1. Kurbanov Bekmetovich, Shukhrat and Orinbayevich, Medetbay Oteuliev. "Territorial Differences in Living Standards in Uzbekistan" Quaestiones Geographicae, vol.40, no.4, 2021, pp.63-70. https://doi.org/10.2478/quageo-2021-0038
2. Turdimambetov I.R., Oteuliev M.O., Urazbaeva S. Territorial classification of socio-economic indicators of the quality of life of the population in the region. Экономика и социум №10(113)-1 2023. 264-271 p.
3. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Oteuliev M. O. TERRITORIAL FORMATION OF THE EDUCATION SYSTEM IN IMPROVING THE QUALITY OF LIFE OF THE POPULATION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 276-279.
4. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Niyazimbetova G. CURRENT STATUS OF MEDICAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Science and education in Karakalpakstan.–2020. – 2020. – Т. 2. – С. 104-108.
5. Бекбулатова Г.А., and Авезова Н.. "РЕГИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ И РАЗМЕЩЕНИЯ СФЕР ТОРГОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ" Экономика и социум, no. 12-1 (103), 2022, pp. 461-464.
6. Бекбулатова Г.А., and Жолымбетов Б.. "ПУТИ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ" Экономика и социум, no. 12 (115)-1, 2023, pp. 969-972. doi:10.5281/zenodo.10439765
7. Ешимбетов У., Наурузбаева Г., and Дальжанов К.. "МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ АНАЛИЗА И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ИНДУСТРИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА С УЧЕТОМ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МИНЕРАЛЬНЫХ РЕСУРСОВ" Экономика и социум, no. 12 (79), 2020, pp. 532-540.
8. Ходжаева Г.А., Умаров Е.К., Алланазаров К.Ж. Демографические факторы территориальной организации производства в районах Южного Приаралья.// Актуальные проблемы современной науки, N 4, - М., 2003. с. 151-153
9. Ходжаева Г.А., Умаров Е.К., Турсынов М. Основные направления социально-экономического развития Республики Каракалпакстан// Известия Географического общество, 23-том, Т. 2003. С. 184-187.
10. Хожамуратова Р.Т., Тлеуов Н.Р., Далжанов К.О., Турсынов М. ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ БЕЗОПАСНОЙ ПИТЬЕВОЙ ВОДОЙ // Экономика и социум. 2022. №11-1 (102). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-obespecheniya-naseleniya-yuzhnogo-priaralya-bezopasnoy-pitievoy-vodoy (дата обращения: 20.04.2024).

ҚАРАҚАЛПАҚСТАН РЕСПУБЛИКАСЫНДА ХАЛЫҚҚА ХЫЗМЕТ КӨРСЕТИЎ ОРАЙЛАРЫНЫҢ АЙМАҚЛЫҚ ДҮЗИЛИСИ

Турдымамбетов И.Р.,
Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университети профессоры, г.и.д.

Узакбаев К.К.
Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты ассистент оқытыўшысы

Хызметлердиң көпшилиги анық көринистеги орайласыў өзгешелигине – яғный, хызмет көрсетиў искерлиги алып барылатуғын елатлы пункттен сыртта жасаўшы халықты өзине тартыў уқыбына ийе.

Хызмет көрсетиў орайлары (кейинги орынларда ХКО) типологиясына еки түрли қатнас бар. Биринши – ХКОын хызмет түрлери бойынша топарлаўға, екинши – орайлардың бойсыныў анализине тийкарланған. Бул еки топар бир-бирине дурыс келеди, себеби мәкемелер комплекси орай статусы менен бирдей. Айырым жағдайларда хызмет көрсетиўдиң аймақлық системасында орайдың орнын оның хызмет түрлери белгилейди. Айырым себеплерге қарағанда ўәлаят орайында көрсетилетуғын хызмет түрлери әпиўайы қалалардағыдан парықланады. Мысалы, Самарқанд қаласының тәсири тек ғана Самарқанд ўәлаяты менен шекленип қоймастан, басқа ўәләятларғада тарқалады.

Бирақ, айырым жағдайларда хызмет көрсетиўдиң аймақлық системасында хызмет көрсетиў орайы мәкемелери ҳәм орны өз ара сәйкес келмейди. Сол себепли мәкемелердиң кескин парықланыўшы түрлерине ийе ямаса хызмет көрсетиўдиң аймақлық системаларында түрли орынларға ийе ХКОлары жүзеге келеди. Мысалы, Халқабад қаласы ҳәм Ақманғыт посёлкалары халықтың жайласыўы ҳәм хызмет көрсетиўи бойынша уқсас – районлық орайлар есапланады. Бирақ, халыққа хызмет көрсетиў имканиятлары бойынша парықланады. Халқының саны 16 264 болған Халқабад районға бойсыныўшы қала болса, Ақманғыт район орайы, бирақ халық саны 10 719 адам.

Қарақалпақстан Республикасында халыққа хызмет көрсетиў орайларының аймақлық иерархиясын 6 рангқа (дәрежеге) бөлиўимизге болады (1-кесте).

ҚАРАҚАЛПАҚСТАН РЕСПУБЛИКАСЫНДА ХАЛЫҚҚА ХЫЗМЕТ КӨРСЕТИЎ ОРАЙЛАРЫ ҲӘМ ОЛАРДЫҢ ДӘРЕЖЕЛЕРГЕ (РАНГЛАРҒА) БӨЛИНИЎИ
(2024-жыл 1-январь жағдайы бойынша)


Хызмет көрсетиў орайлары дәрежеси	Елатлы пункт түри ҳәм топары	Елатлы пунктлердиң аты ҳәм халық саны (адам)
I	Ири қала (250 мың – 1 млн.)	Нөкис (336 398)
II	Орташа қала (50 – 100 мың)	Беруний (66 764), Тақыятас (52 230), Төрткүл (67 257), Хожели (75 543), Шымбай (56 462)
III	Киши қала (50 мыңға шекем)	Бостан (17 706), Қоңырат (41 980), Маңғыт (39 866), Мойнақ (14 944), Халқабад (16 409), Шоманай (15 180)
	Ири посёлка (10 мыңнан артық)	Ақмаңғыт (10 880), Алтынкөл (31 658), Кегейли (13 886), Қанлыкөл (13 660), Қараөзек (16 388), Тахтакөпир (16 737)
3. Кадиров Р.Б. Фаргона водийси вилоятлари ахолиси ва мехнат ресурсларидан самарали фойдаланиш йуллари. География фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т-2020.-78 б.
4. Ибрагимов Л.З. Аҳоли бандлиги ва унинг ўзига хос хусусиятлари . Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 46-жилд. Илмий мақолалар тўплами. - Тошкент, 2015 йил. – 233 бет
5. Embergenov N.J., Khodjaeva G.A., Allanazarov K.J. Population Growth in Republic of Karakalpakistan// Наука и образования в Каракалпакстане. Научный журнал.№2, 2017. 35-38 стр.
6. Utepova G.B. Xalıqtanıw hám ekonomikalıq geografiya tiykarları. Oqıw qollanba N: 2022.
7. Utepova G. B., Uzaqbaev A. O. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍNDA JUMÍSSÍZLÍQ MÁSELESINIŃ ÓZINE TÁN ÓZGESHELIKLERI, XALÍQTÍ JUMÍS PENEN TÁMIYINLEWDE BASLÍ WAZÍYPA HÁM IS-ILÁJLAR //RESEARCH AND EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 76-85.

8. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.
9. Ходжаева Г.А. Бекбулатова Г.А., Байрамова М.Д. Влияние демографического фактора на территориальную организацию производства в сельских районах Республики Каракалпакстан. Промышленный транспорт Казахстана. №70 (1), 2021. –с. 190-199.
10. Ходжаева Г.А., Умаров Е.К., Алланазаров К.Ж. Демографические факторы территориальной организации производства в районах Южного Приаралья.// Актуальные проблемы современной науки, N 4, - М., 2003. с. 151-153
11. Ходжаева Г.А., Умаров Е.К., Турсынов М. Основные направления социально-экономического развития Республики Каракалпакстан// Узбекистон География жамияти ахбороти, 23-жилд, Т. 2003. 184-187 б.

MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHLAR GEOGRAFIYASI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Qurbonov *Sh.B.*
O‘zMU Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi dotsenti

Pirnazarov *J.B.*
Chirchiq Davlat pedagogika universtiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtirish ko‘p jihatdan ma’muriy-hududiy birliklarning to‘g‘ri hududiy tashkil etish va boshqarishga bog‘liq.

Ta’kidlash joizki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining yirik siyosiy geografiya tarmog‘ida ma’muriy-hududiy tuzilishlar geografiyasi ham alohida o‘rin egallagan bo‘lib, u ma’muriy-hududiy birliklarning shakllanishi va rivojlanishi, son jihatidan o‘zgarishi bilan bog‘liq geografik jarayonlarni o‘rganadi. Shuningdek, ma’muriy-hududiy tuzilishlar geografiyasining vazifalari sifatida respublikamiz miqyosida quyidagilarni ajratish mumkin. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani doirasida O‘zbekiston ma’muriy-hududiy bo‘linishning kompleks hududiy va davriy tahlilini amalga oshirish; ma’muriy-hududiy bo‘linish tizimlari: funksiyalari, shakllari va o‘zgarish jarayonlarini o‘rganish; O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy bo‘linishining huquqiy asoslarini o‘rganish; ma’muriy-hududiy bo‘linishning yuqori bo‘g‘inidagi islohotlarni tadqiq etish; respublika ma’muriy-hududiy bo‘linish tizimida shahar va qishloq tumanlari to‘ridagi o‘zgarishlarni tahlil qilish; O‘zbekiston shaharlari va shaharchalari tarkibidagi ma’muriy-hududiy o‘zgarishlarni tahlil qilish; respublika viloyatlari, Qoraqalpog‘iston respublikasi va Toshkent shahri ma’muriy-hududiy bo‘linishi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Ma’muriy-hududiy tuzilishlar geografiyasining nazariy va uslubiy asoslari respublikamiz va xorijiy mamlakatlarda geograflar, tarixchilar, huquqshunoslar, siyosatshunoslar mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, ma’muriy-hududiy bo‘linishning nazariy masalalari bilan xorijiy olimlar R.F. Turovskiy, N.S. Mironenko, L.V. Smirnyagin, V.A Anuchin, A. Norton, X. Massama, A.A. Tranina, E.B. Alaeva, B.S. Xoreva, S.A. Tarxova, O.V. Shulgina, A.G. Manakova, I.I. Sigova, Yu.S. Nikulnikova, V.P. Mosunova, O.B. Glaser tadqiqotlar olib borishgan. Fransiyaning ma’muriy hududiy bo‘linishi bo‘yicha L. Miro, J. Bankal, F. Braudel, J.F. Dumont, M.V. Ozouf-Marigne, N. Verde, J.

Domenak, G. Brabant, R. Gersog, E. Kerrush, A.E. Sookie, Germaniyada mazkur mavzu bo‘yicha X. Vagner, V. Titze, A.B. Gunliks, X. Vollman, J. Dietlyain, I.M. Busigina, O.V. Vitkovskiy, I.V. Leksina, V.N. Streletskiy, V. Ernst, X. Lamping kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mamlakatimizda mazkur mavzu bo‘yicha asosan, xuquqshunoslar va tarixchilar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik jihatdan aynan ma’muriy-hududiy tuzilishlar bo‘yicha alohida dissertatsiya bajarilmagan. Bu borada faqat g.f.d., prof. Sh.Z. Jumaxanovning “Markaziy Osiyo anklav-eksklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiq etishning metodologik asoslari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi hamda Sh.B. Qurbonovning “O‘zbekiston qishloq tumanlari rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatlari” mavzusidagi dissertatsiyasida alohida ma’muriy-hududiy bo‘linishga bag‘ishlangan bob mavjud, xolos.

O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishi ham zamon va makon nuqtai nazaridan o‘zgarib borgan va o‘sha davrning siyosiy - ijtimoiy tuzimi, qo‘yilgan vazifalar, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etilishi, boshqaruv tizimini takomillashtirish kabi omillar bilan bog‘liq bo‘lgan.

O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi mustaqillik yillarida sifat jihatidan yangi - bozor munosabatlariga muvofiq keladigan bosqichga qadam qo‘ydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “Ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi” deb nomlangan to‘rtinchi bo‘lim “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi”- XVI bobi 83-moddasida O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iboratligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, 84-moddasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o‘zgartirish, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshirilishi belgilangan [1].

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining 28.08.2020 yildagi “O‘‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida” gi O‘RQ-635-sonli Qonuni qabul qilingan bo‘lib, u 8 ta bob, 47 ta moddadan iborat [2]. Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi 1-moddada belgilab qo‘yilgan.

Umuman olganda, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani nuqtai nazaridan ma’muriy bo‘linishlar muhim mazmun kasb etadi. Chunki, ular doirasida statistik ma’lumotlar to‘plash, boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan

ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hamda mamlakatning mintaqaviy siyosatini belgilash imkoniyatlari mavjud. Shu jihatdan olganda, ma’muriy-hududiy birliklarning ma’lum darajada, mumkin qadar barqaror, optimal bo‘lgani maqsadga muvofiq. Mamlakat hududi bir xil turgan sharoitda ma’muriy birliklar sonidagi davriy o‘zgarishlar (ko‘payishi yoki kamayishi) ijtimoiy, siyosiy, ma’muriy islohatlar, yangi yerlarni o‘zlashtirish, iqtisodiyotning hududiy tarkibi, aholi joylashuvi kabi sabablar ta’sirida yuz beradi. Binobarin, ma’muriy birliklarni har tomonlama, “ichkaridan” o‘rganish iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, har qanday mamlakatning umumiy iqtisodiy, siyosiy, geografik xususiyatlari aynan ana shunday yirik masshtabli tadqiqotlar asosida aniqlanadi. Shuningdek, ma’muriy birliklarning son va tarkib jihatdan tez-tez o‘zgarib turishi, har xil *“geografik o‘yinlar”* ilmiy tadqiqotlarni olib borishda, xususan, statistik ma’lumotlarni to‘plash, ularni tegishli hududlar doirasida tadrijiy o‘zgarishini qiyosiy tahlil qilishda ham qator qiyinchiliklarni vujudga keltiradi [3].

Odatda, ma’muriy-hududiy birliklar qanchalik yiriklashtirilsa, boshqaruv tizimining markazlashuviga olib keladi. Biroq, bu borada muayyan optimallik talab etiladi, chunki ularning haddan tashqari kattalashishi ham, kichraytirilishi ham maqbul emas. Fan nuqtai nazaridan yondashganda, ma’muriy hudud kichraygan sari ularning ijtimoiy (sotsial) funksiyasi oshib boradi.

Bu ierarxik tizimning yuqori pog‘onasiga ko‘tarilgan sari ijtimoiy-iqtisodiy, iqtisodiy, iqtisodiy-siyosiy, siyosiy masalalar ustuvor bo‘lib boradi. Binobarin, geografik tadqiqotlarda ma’muriy-hududiy birliklarning bunday xususiyatlariga e’tibor berish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son). https://lex.uz/docs/-6445145.
2. “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida” gi 28.08.2020 yildagi O‘RQ-635-son O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.
3. Qurbonov Sh.B. O‘zbekiston qishloq joylari geografiyasi. -T., 2021. -176 b.

ЎРТА ЗАРАФШОННИНГ РЕКРЕАЦИОН-ТУРИСТИК РЕСУРСЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ

Халилова Хуршида Тешаевна
Тошкент давлат педагогика университети “Бошланғич таълим педагогикаси” кафедраси г.ф.н. доцент
xalilovaxurshida29@gmailcom

Аннотация: *Мазкур мақолада Ўрта Зарафшон ҳавзасида рекреация ресурсларидан фойдаланиб, ҳудудларни ривожлантириш масалалари ёритилган.*
Таянч сўз ва иборалар: *табиат ёдгорликлари, ғорлар, бўлоқ сувлари, табиат музейлари, даралар, карст.*

Аннотация: *В этой статье освещены вопросы развития использующие рекреационные ресурсы, на территории бассейна реки Среднего-Зарафшана.*
Ключевые слова и фразы: *памятники природы, пещеры, родниковые воды, музеи природы, ущелья, карст.*

Abstract: *In this article, Urta Zarafshan basin Recreational resources are used and the gods issues of development and recovery were considered.*
Key words and expressions: *natural monuments, caves, springs, natural museums, gorges, karst.*

Маълумки, қаерда булоқ, сой, дарё мавжуд бўлса, дастлабки ўтроқлашган аҳоли шу атрофларда макон қўришган. Жумладан, тоғлар бағрида жойлашган зилол булоқлар-у, шарқироқ сойларга бой бўлган Ўрта Зарафшон ҳавзаси ҳудуди ҳам ана шундай жойлар сирасидандир. Шу боис ҳавзада қисқа муддатли дам олиш жойлари, дам олиш масканларни кўплиги билан Ўрта Зарафшон ҳавзаси бошқа ҳудудлардан ажралиб туради. Ушбу ҳудудда туризм инновацион аҳамият касб этади. Ҳар бир ҳудуд ўзига хос рекреация ресурслар тизимига эга. Инсон табиат ресурслардан тўғри фойдаланса жамиятнинг иқтисодий, маданий, ижтимоий тараққиётини маълум маънода таъминлайди. Ҳар қандай мамлакатда меҳнат ресурслари инсон унинг асосий бойлигидир. Шу туфайли ҳам инсоннинг соғлигини асраш давлатнинг куч-қудратли бўлишида етакчи омил ҳисобланади. Мамлакатнинг ўз фуқароларига ғамхўрлигининг ёрқин намунаси рекреацион-туристик фаолиятни илмий жиҳатдан тўғри ташкил этилишидир.

Ҳавзанинг рекреацион-туристик салоҳиятини баҳолашда, биринчи навбатда, мавжуд рекреация объектларининг миқдори ва сифатига асосий эътибор қаратилади. Бироқ, бугунги кунда республикамиз ҳудудларида

рекреация объектлари билан боғлиқ кўрсаткичлар статистикаси юритилмаётганлиги ушбу йўналишдаги ресурсларни реал баҳолаш имконини бермайди. Шу сабабли Ўрта Зарафшон ҳавзасини географик ўрни, табиий шароити, ер усти тузилиши, яъни рельефи, жанубий, шимолий ҳамда шимоли-шарқий томонларининг тоғлардан иборатлигини эътиборга олган ҳолда ҳавзада рекреация ва туристик объектларни кенг қамровли ўрганишни талаб этади.[5,6]

Ўрта Зарафшон ҳавзасининг Чақилкалон, Қоратепа, Нурота, Ғубдин тоғлари бўйлаб саёҳат қилганлар табиатнинг мўжизаларига яна бир бор иқрор бўладилар. Ҳозирги пайтда бундай жойларда қисқа муддатли дам олиш имкониятлари бўлса ҳам ундан тўлалигича фойдаланилмаяпти. Омонқўтон ҳудуди табиатининг ўзига хослиги, ёғин миқдорининг 750-950 мм ҳавзанинг бошқа жойларидан фарқ қилиб, ўсимлик дунёсининг хилма-хиллигини таъминлайди. Омонқўтон ҳавзасининг энг характерли ҳусусияти шундан иборатки, унинг иқлим ва ўсимлик дунёсини ўзига хослиги бу жойда кўплаб дам олиш зоналарини, оромгоҳлар қуриш имконини берган. Айниқса, тоғларни кўндалангига кесиб ўтиб, сой ёки сойликлар бўйлаб саёҳат ўтказиш қизиқарли бўлади. Чунки, бундай турли-туман рельеф шакллари, гидрологик элементлар тоғнинг ўзига хос «кесмаси» ёки профили бўлиб, унда қисқа муддатли саёҳат (пиёда-экскурсия) давомида турли хил табиат манзаралари, ландшафтларнинг ўзгариб бориши кузатилади

Омонқўтонсой ҳудуди рельфининг хилма-хиллиги, морфологик тузилишининг хусусиятига кўра яққол ажралиб туради. Бу ҳудудда тоғ тизмасининг йўналиши бўйлаб денудацион юзалар, карст жараёнлари, карст воронкалари ва ғорлар ривожланган. Шу билан бир қаторда сувайирғич пояслар мавжуд. Бу пояс тоғнинг энг баланд жойларини 1700 м дан 2200 м гача бўлган қисмини ўз ичига олади. Чақилкалон тоғларининг баландлиги 2500 м гача етади, силур ва девон даврида кучли ёриқланган, тоғлар сувда осон эрийдиган корбонатли жинслардан ташкил топган. Омонқўтонсой ҳавзаси Чақилкалон тоғининг ғарбий қисмида жойлашган ҳудуд ҳисобланади. Омонқўтонсой ҳавзасида Жийдасой, Булбулзорсой, Йўлсой, Майдонсой, Консой, Шохаксойлар доимий сув оқимига эга. Шуни қайд этиш лозимки, бу доимий сув оқимига эга бўлган сойларни ҳаммаси ўнг ёнбағри қалин делювиал тоғ жинслари билан қопланган ва ётқизиқлар устида ўсимликлар қалин ўсади. Шунинг учун бу ерларда доимий сувга эга бўлган минераллашган булоқлар ва чашмалар кўп.[2,3]

Бугунги кунга келиб, инсонларнинг дам олиши ва табиат қўйнида маънавий-эстетик ҳордиқ чиқаришлари, турли хил касалликларни даволаш, ўзига хос турли табиий, кимёвий хусусиятларга эга бўлган табиий омилларидан фойдаланишда Омонқўтонсой ҳавзасида рекреацион-туристик мақсадда фойдаланиш имкониятлари юқори. Шу сабабли минерал сувлардан даволаш мақсадида фойдаланиш механизмларини ишлаб чиқиш давр талаби бўлиб қолмоқда. Омонқўтон ҳудудида дам олишни самарали ташкил этишда фойдаланиладиган ҳудудларни карталаштириб, табиатни муҳофаза қилишнинг асосий йўлларини белгилаб олиб, рекреация ресурсларидан фойдаланиш усулларини кўрсатиб бериш муҳимдир. Омонқўтон ҳавзаси ландшафтига илмий асосда муносабатда бўлиш, яъни табиий ландшафт ёки табиат ёдгорликлари; жумладан, табиатнинг нодир жойлари ва ўрмонлари, Булбулзорсойдаги Лев ғори ва минераллашган булоқ сувлари ўз ҳолича сақланиши керак. Бу ўринда ҳудудда маълум даражада ижобий ишлар қилинмоқда. Чунончи, «Баҳора», «Дўстлик», «Амир Темур» ва «Юлдузча» ёзги дам олиш оромгоҳлари, “Минг арча” туристик базалари Самарқанд ва қўшни вилоятлар аҳолиси учун хизмат қилиб келмоқда.[6]

Табиатнинг ўзи яратган ноёб рельеф шакллари, жумладан, тош ҳайкаллар, алоҳида диққатга сазовор жойлар бу ҳудудларда жуда кўп. Бундай жойларни табиат музейлари дейишимиз мумкин. Табиат музейларига 1 дан то 10-15 гектар ерларни, ҳатто 5-6 м.кв ерни эгаллаган ерларни киритиш мумкин. Ҳавзада жойлашган табиат музейлари ичида энг қизиқарлиси, шу жумладан, муҳим тарихий аҳамиятга эга бўлганларидан бири ғорлар ҳисобланади. Ғорларнинг инсон ҳаётида муҳимлиги шундан иборатки, ғорлардан оқиб чиққан сувларнинг кўпчилиги ҳар хил касалликларни даволовчи-шифобахшлик хусусияти билан ажралиб туради. Шуни таъкидлаш лозимки, ғорлар иқлими ер юзидаги бирор жой иқлимига ўхшамайди. Бунинг сабаби, ғорларда турли микроблар ва бактерияларни ниҳоятда камлиги ҳамда тозалиги жиҳатидан у ўрмон ёки тоғ ҳавосига ўхшайди. Инсонлар ғорларни кўришга борганда ғор ичида ўзини жуда яхши ҳис қилади.

Карст ғорлари Чақилкалон, Қоратепа, Зирабулоқ ва Зиёвуддин тоғларида кенг тарқалган. Ғорларнинг ҳосил бўлиши учун барча табиий географик шароитлар етарли. Илмий адабиётлар таҳлили асосида тўпланган маълумотларга кўра бу ҳудудларда жами 113 та ғор бўлиб, шундан 75 таси вертикал ва 38 таси горизонтал карст ғорлари эканлиги

аниқланган. Қоратепа тоғларида 23 та, Зиёвуддин-Зирабулоқ тоғларида 19 та ғор мавжуд.[1]

Омонқўтон ғори энг қадимги ғорлардан бўлиб, бундан 35 минг йил илгари одамлар яшаган қароргоҳ ва одам ва ҳайвонлар суяклари сақланиб қолган маданий ёдгорликлардан бўлиб, Д.Н.Лев томонидан очилган. “Килси” шахта ғори киевлик олимлар томонидан 1980 йилда топилган. Бу ғорнинг чуқурлиги 1500 м дан ошади. Олимларнинг изланиши туфайли ғорларни шифобахшлиги ҳам ўрганилган. Олиб борилган текширишларда ғор ҳавоси нафас олиш йўллари билан касалланган ва қон босими ошган беморларга жуда фойдали ҳисобланади. Ғорларда даволанган кишиларнинг қон босими пасаяди ва 6-12 ойлаб ўзгармаслиги маълум бўлган.

М.Абдужабборовнинг таъриф беришича, Омонқўтон ғорининг кириш қисмининг баландлиги 4 м, узунлиги 240 м бўлиб, у уч қисмдан иборат, яъни биринчи қисми катта, ўрта қисми анча тор ва кейинги қисмлари тор йўлакчалардан иборатлиги ўтиш учун мушкул дейишган. Бундай ғорлар спелеотуризм билан шуғулланувчи сайёҳларни қизиқтириши шубҳасиздир.[1]

Масалан, Хазрати-Довуд ғорига бир йилда ўртача 500-780 мингдан кўпроқ чет эллик ва маҳаллий сайёҳлар кириб томоша қилишади. Ғорнинг узунлиги 50 м, майдони 128 м.кв. ҳажми 1152 м3 ни ташкил этади. Ғорга киришда маҳсус бетон йўлаклар ва ёритгичлар ўрнатилган. Бугунги кунда Ҳазрати Довуд ғорига борувчи йўллар қайта таъмирланди, йўлбўйи инфратузилмаси қайта қурилди, ҳудуд ободонлаштирилди. Зиёратчилар учун инфратузилма барпо этилди. Бу жойда тиббий соғломлаштириш, спорт мажмуаллари, 2 та замонавий меҳмонхона ишга туширилди.

Геоморфологик туристик объектларга Камонгарон, Вағашти, Ғўс қишлоқлари устидаги баланд тоғ чўққилари, чуқур кесилган даралар, турли шаклларга ўхшаш қоятошлар, гидрологик ёдгорликлар, шифобахш булоқлар, гўзал шаршаралар атрофида қисқа муддатли мавсумий туризмни жорий этишимиз лозим. Юқори Чинор тагидан чиқадиган булоқ ҳам ўзига хос гўзал ва такрорланмасдир. Унинг сув ҳажми 50-60 л/сек эга, бу ажойиб булоқ, унинг атрофидаги минг йиллик чинорлар нафақат Ургут тумани аҳолиси учун, балки вилоят аҳолисининг шанба, якшанба кунлари дам олиши учун жуда катта аҳамият касб этади. [4,5]

Омонқўтон ҳавзаси Самарқанд воҳасини Қашқадарё воҳаси билан бирлаштирган бу маскан жуда қадимдан энг серқатнов йўлларидан бири

бўлган. Тахтақорача довонидаги эски йўл ва иморат ҳаробалари буни исботлайди. Ўсимликлар, жумладан доривор ўсимликлар (зира, кийикўти, андиз, тоғ райҳони ва бошақалар) сайёҳлар учун катта қизиқиш уйғотади.

Ҳавзанинг текислик қисмидаги рекреация ресурслари асосан, Зарафшон дарёси ва унинг тўқайзорлари, сув омборлари, каналлар, Зарафшон қўриқхонаси ва бошқа табиий рекреация объектлари бўлиши мумкин. Зарафшон дарёси кенг ўзанда секин оқиб, Самарқанд шаҳри яқинида икки тармоққа бўлинади. Шимолий тармоғи Оқдарё (127 км), жанубий тармоғи Қорадарё (131 км). Улар Хатирчи яқинида қўшилиб, Миёнқол оролини ҳосил қилади. Бу дарё сувининг катта қисми Самарқанд ва Каттақўрғон воҳаларини суғоришига сарфланиб, Эски Туятортар ариғи орқали Сангзор водийсига, Эски Анҳор ариғи орқали эса Қашқадарё водийсига ҳам оқизиши туфайли Бухоро воҳасига етмай бормай, қуриб қолади. Самарқанд шаҳри ва унинг атрофидан оқиб ўтадиган Зарафшон дарёси маҳаллий ва мавсумий сайёҳлар учун жуда қулай, аммо кишиларни тартибсиз, табиатга беэътибор ҳолда дам олишлари сабабли баъзи бир муаммолар келиб чиқмоқда. Зарафшон дарёси суви асосида қурилган Каттақўрғон сув омбори ҳам мавсумий, қисқа муддатли рекреацияни ривожлантириш учун қулайликларга эга. [2,3]

Ўрта Зарафшоннинг текислик, тоғ ва тоғолди геотизимлари ўзига хос рекреация зоналари эканлигини, уларнинг рекреация ресурсларидан фойдаланишнинг ҳозирги аҳволини, бу ҳудудларнинг бугунги экологик ҳолати, уларнинг табиий шароитларини рекреация жиҳатидан баҳолашга имкон беради.

Ҳар қандай давлат ўзининг табиий ва тарихий бойлиги билан қудратли ҳисобланади. Ҳар бир халқ давлатининг ер ости ва усти бойликлари, улкан тоғлари ва ўрмонлари, дарё ҳамда кўллари, йирик шаҳарлар ва гўзал иншоотлари билан ўз куч-қудратини намоён этишга ҳаракат қилади. Ўрта Зарафшон ҳавзаси республикада, яъни ноёб табиат объектлари ва маданий-тарихий ёдгорликларга бой бўлган, рекреация-туризмни ривожлантириш жиҳатдан энг жозибадор ҳисобланган ҳудудда жойлашган.[2,3,4]

Ҳозирги вақтда эса Ўрта Зарафшон ҳавзасида замонавий маиший хизмат кўрсатиш соҳаларини шакллантириш, янги иш ўринларини ташкил қилиш, меҳмонхона ва дам олиш уйлари, санатория, савдо, ресторан ва бошқа объектларни қуриш ишлари амалга оширилмоқда. Масалан, Собиқ Алпомиш АЖ га тегишли ерда “Самарқанд сити” туристик комплекси,

Самарқанд эшкак эшиш канали ҳудудида Халқаро спорт-соғломлаштириш ва туристик-рекреацион мажмуа, янги меҳмонхоналар барпо этишда ҳавзанинг табиий, рекреация ва туристик ресурсларини баҳолаш зарур деб ҳисоблаймиз.

Ҳавзанинг тоғ ва тоғ олди минтақалари Ургут, Нуробод, Каттақўрғон, Қўшработ туманларида иссиқ сув асосида даволайдиган санаториялар (Нурбулоқ, Абу Али ибн Сино), тоғли ҳудудлардаги сой ва булоқ сувларининг шифобахшлиги (Ургут, Нуробод, Қўшработ), сув омборларида сузиш, чўмилиш, балиқ овлаш (Каттақўрғон, Қоратепа, Тўсинсой), каби турларни ривожлантириш имкони мавжуд. Ҳавзани бебаҳо табиати, ҳар хил касалликларни даволовчи шифобахш минерал сув манбаилари, иқлим хусусияти ва спорт-соғломлаштириш жойлари имкониятларни яратишда қулай ҳисобланади. Минтақанинг табиий шароити, ички сувлари, иқлим ва ўсимлик дунёсининг ўзига хослиги кўплаб дам олиш зоналари, соғломлаштириш оромгоҳлари қуришга шароит яратади. Махсус компонетсиз ва радонли сувлар ҳавзанинг Нуробод туманидаги “Нурбулоқ” ва “Самарқанд” соғломлаштириш масканларида фойдаланиб келинмоқда. [5]

Ушбу маъданли сув Медано (Италия), Кройснах (Германия), Алма-Дл-Драгол (Испания), Теплитсе (Югославия) сувларидан ўхшашликдан қолишмайди. Ҳавзанинг тоғли ҳудудларида эса минерал сув манбалари (Омонқўтон, Қоратепа, Чақилкалон, Оқтоғ, Нурота) топилган. Ушбу минерал сувлардан ҳозирги кунда даволаниш мақсадида фойдаланиб келинади. Шу сабабли Ўрта Зарафшон ҳавзасида аҳолини даволаш ва маданий-соғломлаштириш эҳтиёжлари учун фойдаланиладиган минерал сув манбалари атрофида даволаш манбаларининг табиий физик ва кимёвий хоссаларини сақлаш, шунингдек, уларни бузилишидан, ифлосланишидан ҳамда муддатидан илгари тугаб қолишдан асраш мақсадида санитария муҳофазаси ҳудудларини белгилаш бугунги куннинг асосий вазифалардан ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдужабборов М.А. Карст гор Южного Узбекистана. Ташкент. Фан,1990.
2. Акрамов З.М., Ракитников О.Н., Замков О.К., Шермухаммедов А.М. География сельского хозяйства Самаркандской и Бухарской областей. Часть 2. Ташкент.: АН Узбекистана. 1961.
3. Акрамов З.М. Проблемы хозяйственного освоения пустынных и горно-предгорных территорий. Т. Фан, 1974.

4. Алибеков Л.А. Ландшафты и типы земель Зарафшанских гор и прилегающие равнин. Ташкент.: Фан, 1982.
5. Бадалов Ў.Б. Ўрта Зарафшон рекреация туристик ресурслари ва улардан фойдаланишнинг асослари ва истиқболлари. Т. 2018.
6. Бадалов Ў.Б., Усмонов М.Р. Рекреация ва туризм географиясининг умумий ва хусусий жиҳатлари. Тошкент. 2011.

MARKAZIY OSIYO POYTAXT SHAHARLARINING GIPERTROFIK VA GIPOTROFIK XUSUSIYATLARI

Bayqabilov Xusnudin Mardanovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.f.d (PhD)
E-mail: xusnudin-bayqabilov@mail.ru

Annotatsiya: *ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi poytaxt shaharlarning gipertrofik va gipotrofik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada jahondagi ayrim poytaxtlarning demografik salohiyati asosida poytaxt shahar aholisi bilan mamlakat aholisi o’rtasida tarkib topgan nisbat bo’yicha poytaxtshunoslikka oid masalalar haqida so’z boradi.*

Kalit so’zlar*: gipertrofiya, gipotrofiya, shahar-poytaxtlar, standart poytaxtlar, Astana, Ashxabod, Bishkek, Dushanbe, Nukus, Toshkent.*

Kirish. Jahondagi poytaxtlar aholisi va mamlakat aholisi o‘rtasidagi nisbat asosida poytaxtlarning gipertrofik va gipotrofik xususyatlari shakllangan.

Xorijda nashr etilgan shaharshunoslikka oid turkum asarlardan foydalangan holda poytaxtlarning gipertrofiyasi (haddan tashqari juda katta) va gipotrofiyasi (haddan tashqari juda kichik) darajasini baholash deyarli imkonsiz bo’lgani uchun, biz poytaxtlarda, rasmiy shahar chegaralarida, shuningdek shahar aglomeratsiyasi ichida yashovchi mamlakat aholisi ulushining oddiy ko’rsatkichi bilan kifoyalanishimiz kerak (foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidagi ilmiy asarlar alfavit tartibida berildi). Ushbu ulush mamlakat hududining kattaligiga va uning aholisi soniga bog’liq. Poytaxtlar ro’yxati poytaxt aglomeratsiyasi yoki poytaxt (agar u shahar aglomeratsiyasiga ega bo’lmasa) aholisining kamayishi holatida tartiblashtirilgan.

Biz quyida poytaxtlar aholisi va mamlakat aholisi o’rtasidagi nisbat asosida jahondagi hamda Markaziy Osiyodagi poytaxtlarning gipertrofik va gipotrofik xususiyatlarini sharhlashni lozim topdik (1-jadval).

Asosiy qism. Poytaxt aglomeratsiyasida yoki poytaxtda yashovchi mamlakat aholisining ulushiga ko’ra barcha poytaxt shaharlar 6 turga bo’lingan. Ba’zi turlarning nomlari shartli berilgan, chunki, bu turdagi shaharlarning mohiyatiga mos keladigan atamalar shaharlar geografiyasida hali taklif qilinmagan.

1. **Shahar-poytaxtlar** (*mamlakatning butun aholisi (100%*) *shaharda yashaydi*)ga Singapur, Gibraltar, Vatikan shaharlari kiradi.

2. **Supergipertrofik poytaxtlar**ga (*ularda yoki ularning aglomeratsiyalarida mamlakat aholisining 35-99% yashaydi*) Valetta (Malta), Reykyavik (Islandiya), Yerevan (Armaniston), Paramaribo (Surinam), Seul (Janubiy Koreya), Bayrut (Livan), Kopengagen (Daniya), Riga (Latviya) kiradi.

Supergipertrofiyalashgan poytaxtlar, qoida tariqasida, kichik kontinental va yarim kontinental mamlakatlarda, shuningdek, kichik orollar mamlakatlarida– masalan, Urugvay, Paragvay, Gayana, Barbados, Yamaykada joylashgan.

3. **Gipertrofik poytaxtlar**ga (*mamlakat aholisining 23-35 %i poytaxt yoki poytaxt aglomeratsiyasida yashaydi)*, masalan, Ulan-Bator (Mo‘g‘uliston), Afina (Gretsiya), Tallin (Estoniya), Bog‘dod (Iroq), Tokio (Yaponiya) **Bishkek** (Qirg’iz Respublikasi) kiradi.

4. **Kam gipertrofik poytaxtlar**ga (*mamlakat aholisining 14 % dan 23 % gacha bo’lgan qismi poytaxt yoki poytaxt aglomeratsiyasida yashaydi*), masalan, Gavana (Kuba), Mexiko (Meksika), London (Buyuk Britaniya), Manila (Filippin), Parij (Fransiya), **Ashxabod** (Turkmaniston), **Nukus** (Qoraqalpog’iston) kiradi.

5. Aholisi mamlakat aholisining kattaligiga nisbatan mutanosib bo‘lgan **standart poytaxtlar**ga (*mamlakat aholisining 7 % dan 14% gacha bunday poytaxtlarda yoki poytaxt aglomeratsiyalarida yashaydi*) Kinshasa, Madrid, Damashq, Amsterdam, Pxenyan, **Toshkent** (O’zbekiston), **Dushanbe** (Tojikiston) Kobul, Nayrobi, Buxarest, Moskva, Sana, Dakka, Jakarta kiradi.

6. **Gipotrofik poytaxtlar**ga (*mamlakat aholisining 7% % dan kamrog’i yashaydi*) Kiyev, Rim, Varshava, Katmandu, Berlin, Anqara, Pretoriya, Addis-Abeba, Ottava, Xanoy, Vashington, **Astana** (Qozog’iston), Bern, Dehli, Kanberra, Brazilia, Pekin, Dodoma, Islomobod, Abuja kiradi. Oxirgi guruhga poytaxtlarning ikkita toifasi: yangi qurilgan (ular standart iqtisodiy funksiyalarni rivojlantirmaydi; ular unchalik ko‘p emas: Abuja, Belmopan, Brazilia, Kanberra, Islomobod, Vashington), shuningdek shaharlar iyerarxiyasida 3-4-o‘rinlarni egallagan yoki siyosiy funksiyalari hududiy jihatdan bo‘lingan poytaxtlar kiradi.

Aholisi juda ko’p bo‘lgan mamlakatlar aholisida poytaxtlarning ulushi juda past: Xitoy (Pekin), Hindiston (Dehli), Indoneziya (Jakarta).

Ko’p markazli hududiy tuzilishga ega bo’lgan mamlakatlarning poytaxtlari Germaniya, Niderlandiya, Shveytsariya, Hindiston va Xitoy unchalik katta ta’sirga ega bo‘lmaydi.

Ammo poytaxtlarning gipertrofiyasi g’oyib bo’lgan yirik imperiyalarning sobiq poytaxtlariga xosdir, ular o’z sarhadlarining katta qismini yo’qotishi natijasida butun mamlakat aholisiga nisbatan mutanosib bo’lgan sobiq poytaxt yangi, qisqartirilgan, chegaralarga nisbatan juda yirik bo’lib qoldi. Bunday poytaxtlarga Yevropa mamlakatlarida joylashgan: Avstriyadagi Vena, Daniyadagi Kopengagen shaharlari mansub.

1-jadval*

Markaziy Osiyodagi poytaxt shaharlarning gipertrofik va gipotrofik xususiyatlari

№	Poytaxt shaharlar aholisi	Poytaxt aholsining mamlakat aholisiga nisbati %
1	Astana (1mln 136 ming)	Mamlakat aholisi 19 mln 879 003 kishi 5,7%
2	Ashxabod (1mln 50 ming)	Mamlakat aholisi 7 mln 57 841 kishi 19,8%
3	Bishkek (1mln 88 ming)	Mamlakat aholisi 6 mln 550 ming kishi 28,7%
4	Dushanbe (950 ming)	Mamlakat aholisi 10 mln 129 ming kishi 9,3%
5	Nukus (336,5 ming)	Mamlakat aholisi 2 mln 2 668 kishi 14,6%
6	Toshkent (3 mln 40 ming)	Mamlakat aholisi 36 mln 990 128 ming kishi 9,1%

Jadval ma’lumotlari X.M.Bayqabilov tomonidan tuzilgan.

Ushbu jadval asosida Markaziy Osiyodagi poytaxt shaharlarning mamlakat aholisiga nisbati bo’yicha quyidagi 4 turga bo’linadi:

- **Gipertrofik poytaxtlar**ga **Bishkek** shahri (Qirg’iz Respublikasi) (28,7%) kiradi;
- **Kam gipertrofik poytaxtlar**ga **Ashxabod** (Turkmaniston) (19,8%) va **Nukus** (Qoraqalpog’iston) (14,6%) shaharlari kiradi;
- Aholisi mamlakat aholisining kattaligiga nisbatan mutanosib bo‘lgan **standart poytaxtlar**ga (mamlakat aholisining 7 dan 14% gacha bunday poytaxtlarda yoki poytaxt aglomeratsiyalarida yashaydi) **Toshkent** (O’zbekiston) (9,1%), va **Dushanbe** (Tojikiston) (9,3%) shaharlari mansub;
- **Gipotrofik poytaxt**ga **Astana** (Qozog’iston) (5,7%) shahri kiradi.

Xulosa. Shunday qilib, jahon poytaxtlarini 100% deb qabul qiladigan bo’lsak, dunyoning aksariyat poytaxtlari 64 % gipertrofiyalangan, 20% gipotrofiyalangan va atigi 16 % mamlakatning umumiy aholisiga nisbatan uyg‘un (standart poytaxtlar) ulushga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акматалиев Т. Строительство новой столицы: позитивное влияние на экономическое развитие страны // Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана. №9, 2016. – С. 80.
2. Все столицы мира / Авторы-сост: О.В.Зыкина, Л.А.Бурлуцкая, Г.А.Гальперина, Н.В.Иванова. – М.: Вече, 2004. – 592 с. (илл 16).
3. Все столицы мира: Популярный справочник / Авт-сост. Л.Е.Еремина. – М.: Дрофа, 2001. – 304 с.

4. Замятин Д.Н. Феномен/ноумен столицы: историческая география и онтологические модели воображения / Д.Н.Замятин // Перенос столицы: исторический опыт геополитического проектирования. – М. Институт всеобщий истории РАН, 2013. – С. 103-105.
5. Лаппо Г.М. Рассказы о городах. – М.: Мысль, 1976.
6. Лаппо Г.М. Города на пути в будущее. – М.: Мысль, 1987.
7. Лаппо Г.М. География городов. – М.: Владос, 1987.
8. Маергойз И.М. Географическое учение о городах. . – М.: Наука, 1987.
9. Перцик Е.Н. География городов (геоурбанистика). – М.: Высшая школа, 1991.
10. Пивоваров Ю.Л. Современная урбанизация. . – М.: Статистика, 1976.
11. Россман В. Столицы: их многообразие, закономерности развития и перемещения / В.Россман. – М. Изд-во Института Гайдара, 2013. – 336 с.
12. Салиев А. География городов республик Средней Азии. Т., 1980, с – 64.
13. Солиев А.С. География городов республик Средней Азии, Часть-1. – Т., 1980, Часть-2. – Т., 1984.
14. Сулейманов Р.Х. К периодазация и типология древних и средневековых городов Средней Азии // Археология Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 93-96.

Ájiniyaz atındağı
NÓKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
NMPI
1934

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ АЙРИМ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Ешимбетов У.Х.
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти доценти, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Қорақалпоғистон Республикаси қишлоқ хўжалиги табиий шароит хусусиятига кўра сунъий суғорма деҳқончилик, сут-гўшт йўналишидаги қорамолчилик ва экстенсив чўл яйлов чорвачилиги асосида шаклланган.

Термик ресурсларга бой, лекин табиий намланганлик даражаси кам бўлган мазкур ҳудудда қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштириш фақатгина сунъий суғориш орқали амалга оширилади. Қорақалпоғистоннинг ягона сув манбаи Амударё ҳисобланади. Қишлоқ хўжалиги экинларини суғоришда дарёдан сунъий суғориш тизимлари чиқарилган. Уларга: Пахта-арна, Дўстлик (олдинги Қизкеткен), Суенли-Параллел, Бўзатов, ўнг қирғоқ Туямўйин магистрал, Қиличниязбой-Назархан, Қуванишжарма, Кегайли каби йирик суғориш магистрал тизимлари шунингдек, туманлар ва хўжаликларора суғориш иншоатларини киритиш мумкин.

Республика қишлоқ хўжалигида пахта хомашёси, шоли, пилла, буғдой, қизилмия илдизи, полиз, сабзавот маҳсулотлар, мева, картошка, узум, қоракўл териси, сут, гўшт ва тухум етиштирилади. Бу маҳсулотлар қайта ишлаш саноат корхоналари билан биргаликда ягона агро саноат мажмуасининг шаклланиши ва ривожланишига замин яратади. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, юқорида келтирилган қишлоқ хўжалиги экинларидан пахта хомашёси, шоли, қизилмия илдизи ва қоракўл териси товар аҳамиятга эга. Шунингдек, қишлоқ хўжалигининг минтақавий хусусиятларидан яна бири Қорақалпоғистон географик жойлашувига кўра нафақат Ўзбекистон, балки бутун дунёда пахтачиликнинг энг шимолий чегарасида жойлашган.

Қорақалпоғистонда деҳқончилик ва чорвачиликнинг деярли барча тармоқлари, айниқса пахтачилик, шоличилик, қоракўлчилик ва сут-гўшт чорвачилиги тараққий этган. Кейинги йилларда боғдорчилик, сабзавотчилик ва асаларичиликни ривожлантиришга алоҳида эътибор берилмоқда. Бугунги кунда полиз ва сабзавот экинлари ҳар бир деҳқончилик билан шуғулланадиган хўжаликлар ер майдонларининг бир қисмини эгаллаган. Бу экин турларини ривожлантириш ер фондининг энг


қимматли қисми – суғориладиган экин майдонларидан фойдаланишга асосланган. Суғориш учун яроқли ерларнинг умумий майдони 1,6 млн. га дан ортиқ [3].

Минтақа қишлоқ хўжалиги иқтисодиётнинг муҳим тармоғи сифатида, енгил ва озиқ овқат саноат тармоқларини қишлоқ хўжалиги хомашё ресурслари билан таъминлаш билан бир қаторда, қишлоқ аҳолисининг даромад манбаи ҳисобланади. Унинг улушига ЯҲМ 29,6 фоизига тенг. (2022 й.).

Қишлоқ хўжалиги таркибида чорвачилик тармоғи нисбатан устунликка эга. Ялпи маҳсулот ҳажмида чорвачилик улуши 47,7 фоизга, деҳқончилик 45,1 фоизга тенг бўлган (2022 й.). Чорвачилик айниқса, деҳқон ва томорқа хўжаликларида ривож топган.

Қорақалпоғистонда қишлоқ хўжалигини ривожлантириш мақсадида олиб борилаётган ислоҳатлар тармоққа молиявий ресурс ва субсидиялар ажратилмоқда. Жумладан, 2022 йили аграр соҳага (деҳқончилик, чорвачилик, овлаш ва уларга хизмат кўрсатиш) 1397,7 млрд. сўм инвестиция киритилган. Бу миқдор жами киритилган инвестициянинг 19,7 фоизига тўғри келган. Бу кўрсаткичлар 2017 йил 233,2 млрд. сўм ёки 8,3 фоизга тенг бўлган (1-диаграмма). Инвестицияларнинг асосий манбалари хорижий инвестициялар ва кредитлар ҳисобидан киритилмоқда.

Мазкур ҳудуд 2022 йилда Ўзбекистондаги жами қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг салкам 4,0, пахтанинг 6,6, донли экинларнинг 3,9, буғдойнинг 2,8, картошканинг 2,7, сабзавотнинг 2,9, полизнинг 7,2, мева, резаворларнинг 2,1, узумнинг 0,6, гўштнинг 4,4, сутнинг 3,7, тухимнинг 4,8, қоракўл терисининг 7,2 ва пилланинг 3,3 фоизини етиштириб берган. Бу мавжуд имкониятлардан анча паст ҳисобланади.



1-диаграмма. Иқтисодиёт тармоқларига киритилган инвестициялар ҳажмида қишлоқ хўжалигининг улуши

Диаграмма Қорақалпоғистон Республикаси статистика бошқармаси маълумотлари асосида тузилган.

Мамлакатда аграр соҳада олиб борилаётган ислоҳотлар натижасида минтақа қишлоқ хўжалигида ҳам таркибий ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Статистик маълумотларни таҳлил қилиш асосида тузилган 1-жадвалдан кўриниб турибдики, сўнги йилларда минтақа қишлоқ хўжалиги экин майдонлари таркибида донли экинлар асосан, буғдой экин майдонлари кўпаймоқда.

1-жадвал

Қорақалпоғистон Республикаси қишлоқ хўжалиги экин майдонлари таркиби ва унинг ўзгариши, минг га ҳисобида

Экин майдонлари	1995	Улуши фоизда	2000	Улуши фоизда	2010	Улуши фоизда	2020	Улуши фоизда	2022	Улуши фоизда
Жами экин майдони	395,8	100	337,4	100	265,8	100	263,7	100	283,1	100
Шундан: буғдой	19,9	5,0	38,9	11,5	66,7	25,1	62,0	23,5	62,4	22,1
Шоли	92,0	23,2	60,1	17,8	30,1	11,3	27,9	10,6	18,8	6,6
Пахта	145,5	36,8	129,8	38,5	101,0	38,0	87,5	33,2	108,8	38,4
Картошка	2,0	0,5	1,8	0,5	5,6	2,1	6,8	2,6	7,0	2,5
Сабзавот	8,1	2,0	7,3	2,2	6,8	2,6	16,3	6,2	17,4	6,1
Полиз	6,8	1,7	7,2	2,1	5,9	2,2	11,8	4,5	12,6	4,5
Озуқа экинлари	105,7	26,7	54,9	16,3	35,9	13,5	23,6	8,9	17,1	6,0
Бошқа экинлар	2,6	0,7	21,5	6,4	13,8	5,2	27,8	10,5	39,0	13,8

Жадвал Бектемиров К.К. Устойчивое развитие регионов экологического кризиса: методология и инструментарий применения в Приаралье. Т.: Фан. 2006. С.73., Қорақалпоғистон Республикаси статистика бошқармаси ва Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги 2019-2022 (Т.: 2023) маълумотлари асосида тузилган.

Аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлашга қаратилган ислоҳотлар натижасида полиз, сабзавот, картошка экин майдонлари, токзор ва боғ майдонлари ҳам кўпайиб борган. Шу вақтнинг ўзида пахта ва чорва учун озуқа экин майдонлари камайганлигини кузатиш мумкин. Айниқса, озуқа экинлари таркибида беда майдонлари кескин камайиб кетди. Пахта экин майдонларининг камайишига қарамасдан экин майдонлари таркибида етакчилик қилмоқда.

Адабиётлар:

1. Eshimbetov, U., Oteuliev, M., Baltabaev, O., Khudaybergenov, Y., & Uzakbaev, K. (2024, March). Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 510, p. 01040).
2. Бектемиров К.К. Устойчивое развитие регионов экологического кризиса: методология и инструментарий применения в Приаралье. Т.: Фан. 2006. 166 с.
3. Ешимботов У.Х., Раджапов М.Я., Атамуратов И.А. Қишлоқ хўжалиги ривожланишининг минтақавий ўзига хос хусусиятлари. «Фан ва жамият». Нукус. 2022. №2. 38-40 бетлар.
4. Ешимбетов У.Х., Узақбаев К.К. Ўзбекистоннинг кескин экологик минтақасида қишлоқ хўжалиги таркибини такомиллаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида). Нукус: «AVANGARD-BASPA». 2022. 144 бет.
5. Ешимбетов У. Х., Салиев Е. П., Атамуратов И. А. ПРОБЛЕМЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И УКРЕПЛЕНИЕ КОРМОВЫХ РЕСУРСОВ В ПУСТЫННЫХ ЗОНАХ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН //Экономика и социум. – 2023. – №. 1-2 (104). – С. 241-244.
6. Ешимбетов У.Х. Сув ресурслари танқислиги шароитида Қорақалпоғистонда деҳқончилик тармоқ таркибидаги ўзгаришлар. «Иқлим ўзгариши шароитида арид ҳудудлар сув ресурслари: муаммолар ва уларнинг ечимлари» Тошкент, 20 октябрь 2023 йил.
7. Ешимбетов У.Х. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. «ZAMONAVIY GEOGRAFIYA: INNOVATSION RIVOJLANISHINING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI» *xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2023-yil 27-28-oktyabr)*
8. Ешимбетов У.Х. Қорақалпоғистон Республикаси чорвачилик тармоқлари таркибидаги баъзи ўзгаришлар. «Жанубий Оролбуйи гидрологик ва гидроэкологик муаммолари: бугун ва келажаги» республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. (Нукус ш., 2023 йил 25-26 апрел).
9. Ешимбетов У.Х. Қорақалпоғистонда пахтачилик ва дончилик ривожланишининг баъзи хусусиятлари. Материалы международной научно-практической конференции «Инновационные основы сельскохозяйственных и биоэкологических исследовании в регионе приаралья» 17 марта 2023 года, г. Нукус Часть I, III.
10. Ешимбетов У.Х. Қорақалпоғистон Республикасини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш стратегиясининг устувор йўналишлари. «Hududiy rivojlanish: tendensiyalar, xatarlar va strategiyalash» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (2024 yil 10 fevral) Toshkent – 2024.

11. Медетуллаев Ж. Проблемы комплексного освоения земель. Нукус. Каракалпакстан. 1976.
12. Ходжаева Г.А., Умаров Е.К., Турсынов М. Основные направления социально-экономического развития Республики Каракалпакстан// Узбекистон География жамияти ахбороти, 23-жилд, Т. 2003. 184-187 б.

KEGEYLI RAYONÍNÍŃ AYÍRÍM DEMOGRAFIYALÍQ ÓZGERISLERI

Eshimbetov U.X.,
Ájiniyaz atındağı NMPI docenti, e.i.f.d. (PhD)

Atamuratov I.A., Maxsetbaev N.B.
Geografiya hám ekonomikalıq bilim tiykarları tálim baǵdarı studenti

Regionlıq ekonomika pániniń tiykarshılarınan biri U.Ayzart pikirinshe, ol yáki bul aymaqtıń xojalıǵı quramalı jumbaq bolıp, onı sheshiwde áyne xalıq buwınınan baslaw kerek. Haqıyqattanda, xalıq quramalı sociallıq-ekonomikalıq kategoriya bolıp, onıń menen islep shıǵarıw «basınan aqırına shekem» ajıralmas baylanıslı. Sebebı miynet resurslarısız islep shıǵarıw bolmaydı, islep shıǵarıw bolsa xalıq ushın kerek; materiallıq hám ruwxıy baylıqlardı jaratıwshıda, olardı tutınıwshıda tiykarınan usı xalıq, yaǵnıy adamlardıń málim aymaqtaǵı birligi esaplanadı.[1]

Kegeyli rayonı xalqı 2024-jıl 1-yanvar jaǵdayına boyınsha 74,8 mıń adamnan kóbirek. Bul kórsetkish 2019-jıl 1-yanvar jaǵdayına 88,0 mıń adamdı quraǵan. Sol jıllar ishinde 83,7 payızqa azayǵan. Xalıq sanınıń azayıwına sebep Qaraqalpaqstan Respublikası Ministrler Keńesiniń №304 «9» sentyabr 2019 jıl qararı menen Qaraqalpaqstan Respublikasınıń Kegeyli rayonı quramındaǵı “Bozataw” qalashası, “Erkindárya”, “Qusqanataw”, “Aspantay” APJ ları Bozataw rayonına ótkerilgen. Rayon quramındaǵı Júzimbaǵ APJ, Jalpaqjap APJ quramınan tazadan shólkemlestirilgen Iyshan qala APJ, Kókózek APJ larına ótkerilgen.

Analiz qılınıp atırǵan jıllar dawamında xalıq sanınıń kóbeyiwi aymaqlarında túrlishe bolǵan. Onı 1-kestede kóriwimiz múmkin. Mısal ushın, Abat APJ, Abat mákán MPJ, Aqtuba APJ, Baxıtlı MPJ, Gújim terek MPJ, Jılwan jap MPJ, Mádeniyat MPJ, Qum shungil APJ, Quyashlı MPJ ósken.

Kegeyli rayonında xalıqtıń tıǵızlıǵı 1 km2 81,3 adamǵa teń. Bul kórsetkish Qaraqalpaqstan Respublikasında 12 adamǵa tuwra keledi. Kegeyli rayonında

[1] Солиев А.С. хәм басқалар. Минтақавийиқтисодиёт. Т.: Университет. 2003. 78 б.

1-keste

Rayon xalqı aymaqlar kesiminde ózgeriwi

Kegeylirayonınıń hákimshilikaymaqları	Xalıq sanı 01.01.2019	Aymaqlardıń úlesi, % da	Xalıq sanı 01.01.2024	Aymaqlardıń úlesi, % da	Ósiw páti	Maydanı	Tıǵızlıǵı
Abat APJ	5752	6,5	5930	2,0	103,1	106 km^2	55,9
Abat mákán MPJ	3623	4,1	4202	5,2	116,0	0,42 km^2	10,0
Aspantay APJ	1921	2,2	-	-	-	-	-
Aqtuba APJ	7005	8,0	7258	8,8	103,6	131,98 km^2	52,2
Baxıtlı MPJ	3875	4,4	4827	7,1	124,5	2,54 km^2	1900,3
Erkindarya APJ	6022	6,8	-	-	-	-	-
Gújim terek MPJ	3943	4,5	4180	6,6	106,0	2,29 km^2	1825,3
Iyshan qala APJ	-	-	5378	7,9	-	81,32 km^2	62,3
Jańabazar APJ	5472	6,2	4898	7,2	89,5	102,14 km^2	47,9
Jalpaq jap APJ	9286	10,5	6227	9,2	67,0	224,67 km^2	24,4
Jılwan jap MPJ	4012	4,5	4114	6,0	102,5	0,87 km^2	4728,7
Júzim baǵ APJ	9036	10,3	4262	6,3	47,2	64,2 km^2	66,4
Kók ózek APJ	-	-	3140	4,6	-	105 km^2	28,5
Mádeniyat MPJ	3805	4,3	4003	5,4	105,2	1,19 km^2	3363,9
Nurlı bostan MPJ	3311	3,8	2791	3,5	84,2	1,29 km^2	797,4
Qazanketken APJ	5286	6,0	-	-	-	-	-
Qum shungil APJ	6507	7,4	6598	9,8	101,4	93,63 km^2	59,9
Quyashlı MPJ	3795	4,3	4017	6,0	105,8	1,32 km^2	37,9
Qusqanataw APJ	1987	2,3	-	-	-	-	-
Xalqabat MPJ	3410	3,9	2994	4,1	87,8	1,14 km^2	2626,3
Jámi	88048	100	74819	100	84,9	920 km^2	81,3

Keste Kegeyli rayonınıń 2018-2023 jıllardağı pasportı tiykarında dúzildi.

APJlar ortasında Júzimbaǵ APJ birinshi orında al eń pás kórsetkish Jalpaq jap APJǵa tuwra keledi.

Xalıq punktleri sanı 130, 8 máhálle hám 8 awıllıq puxaralar jıyınına bólingen.

2024-jıl maǵlıwmatları boyınsha rayon xalqı úlesi respublika xalqınıń 3,7 payızın, qala xalqınıń 3,1 payızın hám awıl xalqınıń 4,3 payızın iyelegen. Bul kórsetkish 2022-jıl mas ráwishte 3,8, 3,1, 4,4 payızǵa teń bolǵan (2-keste).

2-keste


Kegeyli rayonı xalqınıń Qaraqalpaqstan Respublikasındağı úlesiniń ózgeriwi

(1-yanvar jaǵdayına, mıńadam)

Hákimshilikaymaqları	2022-jıl			2024-jıl		
	Jámi xalıq sanı	Qala xalqı	Awıl xalqı	Jámi xalıq sanı	Qala xalqı	Awıl xalqı
Qaraqalpaqstan Respublikası	1 948,5	954,3	994,2	2002,7	978,2	1024,5
Kegeyli rayonı	73,6	29,7	43,9	74,8	30,3	44,5
Rayon úlesi, %	3,8	3,1	4,4	3,7	3,1	4,3

Keste Qaraqalpaqstan Respublikası Statistika basqarması maǵlıwmatları tiykarında dúzildi.


Rayon ulıwma xalıqınıń 2024-jıl 1-yanvar jaǵdayı boyınsha 40,5 payızı qalalarda, 59,5 payızı awıllarda jasaydı (1-diagramma).



2024-jıl 1-yanvar jaǵdayına rayon qalahámawılxalqıquramı*(payızda)*

Diagramma Kegeyli rayonınıń 2021-2023 jıllardaǵı pasportı tiykarında dúzildi


Qala xalıqınıń 54,3 payızı Xalqabat qalasında, 45,7 payızı Kegeyli qalalashasında jasaydı (2-diagramma).



2-diagramma. Kegeyli rayonı qala xalqınıń bólistiriliwi.

Diagramma Qaraqalpaqstan Respublikası Statistika basqarması maǵlıwmatları tiykarında dúzildi.

Kegeyli rayonı xalqı tiykarınan tábiyiy ósiw jolı menen kóbeyip atır. Bul faktordıń róli hámme waqıtta joqarı bolǵan hám xalıq sanı ósiwiniń birden-bir deregi bolıp esaplanadı. Atap aytqanda, 2023-jıldıń yanvar-dekabr aylarında Kegeyli rayonında tuwılǵanlar sanı 1434 balanı, ólgenler sanı 404 adamdı quraǵan hám 2019-jıldıń sol dáwirine (1373 bala) salıstırǵanda 61 ǵa kóbeygen. 2023 jıl tuwılıw koefficiyenti 19,2, ólgenler 5,4 hám tábiyiy ósiw 13,4 promilleni quradı Bul kórsetkishler 2017-jıl mas ráwishte 18,9, 5,5, 13,4 promillege teń bolǵan (3- Diagramma). 2017-2023-jıllar aralıǵında rayon xalqınıń tábiyiy ósiwi respublika kórsetkishinen tómen bolǵan.



3-diagramma. Qaraqalpaqstan Respublikası hám Kegeyli rayonı xalqınıń tábiyiy kóbeyiwi.

Diagramma Qaraqalpaqstan Respublikası Statistika basqarması maǵlıwmatları tiykarında dúzildi.

Rayon xalqınıń kóbeyiwinde sırtqı migraciyanıń tásiri joq. Máselen, 2023-jılı kóship ketkenler 787 adam, al kelgenler 351 adam, migraciya saldosı minus 436 adamdı quraǵan. Bul kórsetkish 2022-jıl mas ráwishte 638, 286 hám 352 adamǵa teń bolǵan (3-keste). Kóship ketkenlerdiń tiykarǵı bólimi Qazaqstan

Respublikası hám Nókis qalasına kóship barǵan. Respublika boyınsha jámi kóship ketkenlerdiń 5 payızı, kelgenlerdiń 4,2 payızı rayon úlesine tuwra keledi.

3-keste


Yanvar-dekabr aylarında xalıqtıń migratsiya kórsetkishleri (adam)

	Kelgenler		Ketkenlar		Migratsiya saldosı	
	2022-j.	2023-j.	2022-j.	2023-j.	2022-j.	2023-j.
Qaraqalpaqstan Respublikası	**7 754**	**8 399**	**13 270**	**15 875**	**-5 516**	**-7 476**
Kegeyli rayonı	286	351	638	787	-352	-436
Qaraqalpaqstan Respublikasındağı úlesi, %	3,7	4,2	4,8	5,0	-	-

Diagramma Qaraqalpaqstan Respublikası Statistika basqarması maǵlıwmatları tiykarında dúzildi.

Jámi xalıqtıń 51,3 payızın erkekler (38,3 mıń adam), 48,7 payızın hayallar (36,5 mıń adam) quraydı. Jaslar sanı (18-30 jas)-17718; Hayal-qızlar (30-55 jas)-18847. Demek, Kegeyli rayonında erkekler sanı hayallar sanınan qaraǵanda kóbirek ekenin kóriwimiz múmkin.

Rayonda jasaytuǵınjámi xalıqtan qaraqalpaqlar -86,4 payızdı, ózbekler -1,2 payızdı, qazaqlar -9,4 payızdı hám basqa milletler 3 payızdı quraydı. (4-diagramma).



(4-diagramma).Rayon xalqınıńmilliyquramı (payızesabında)

Diagramma Kegeyli rayonınıń 2023 jıldaǵı pasportı tiykarında dúzildi

Ádebiyatlar:

1. Солиев А.С. хәм басқалар. Минтақавийиқтисодиёт. Т.: Университет. 2003. 78 б.

2. Саъдуллаев А. Демографическое развитие Приаралья (Узбекской часть). Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд. эк. наук. – М., 1991. – 22 с.
3. ЕМБЕРГЕНОВ НАУРЫЗБАЙ ЖАНАБАЕВИЧ. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АҲОЛИСИНИНГ ЎСИШИ ВА ЖОЙЛАНИШИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР., 11.00.02 - Иқтисодий ва ижтимоий география.,География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган
4. Qaraqalpaqstan Respublikası Statistika basqarması
5. Kegeyli rayonınıń 2018-2023 jıllardaǵı pasportı
6. Ходжаева Г.А., Умаров Е.К., Турсынов М. Основные направления социально-экономического развития Республики Каракалпакстан// Узбекистон География жамияти ахбороти, 23-жилд, Т. 2003. 184-187 б.

SAKRAL GEOGRAFIYANING PREDMETI XUSUSIDA

Abdullaev Suyun Ismatovich,
Geografiya fanlar nomzodi, dotsent

Safarov Isoq Bozor o’g’li,
Qarshi davlat universiteti.
Geografiya kafedrasi o’qituvchisi.
E-mail: safarovisoq@gmail.com

Qadim davrlardayoq vujudga kelgan geografik tasavvurlarning negizida sakral tasavvurlar turadi. Tarixiy jarayonlarga noan’anaviy qarash uchun ilmiy muomalaga “sakral” (lot. *sacer* yoki *sakri* - muqaddas, tabarruk, ibodat, sig`inish, marosim, ilohiy, sirli) tushunchasi kiritilgan[3]. Qadimdan mavjud bo`lgan sakrallik (muqaddaslik) tushunchasi va sakral tasavvurlar Yerda oqil insonning mavjudligi bilan chambarchas bo`g`liq. Umuman qadrlanadigan obyektlarning toifasi va majmuasi sifatidagi sakrallik inson psixikasining, xususan inson idrokining muayyan xususiyatlari tufayli shakllanadi. Bundan tashqari, sakrallik ayrim kishilarning ham, hamjamiyatning ham sotsial-psixologik ehtiyojlariga xizmat qilishi lozim.

Sakral obyektlar qadimdan bir hududda yashaydigan urug`lar, qabilalar, xalqlarning yoki juda katta hududdagi qardosh xalqlarning a‘zolari uchun birlashtiruvchi rolni bajargan. Urug`larning sakral joylari oddiy birlashtiruvchi obyektlar bo`lgan va ular qadim davrlardan buyon aholi manzilgohlari yaqin-atrofida joylashgan, keyinroq esa aholi manzilgohlarida markaziy o`rin tutgan tabiiy obyektlar bo`lgan. Urug`larning muqaddas joylari hududida urug`ning tabarruk yodgorliklari saqlangan.

So`ngi yillarda turli tabiiy va gumanitar fanlar tutashuvida ilmiy izlanishning ko`pdan-ko`p yangi yo`nalishlari yuzaga kelmoqda. O.Shabliy (1993) diniy jabhaning geografyaviyligini isbot qilgan holda ”sakral geografiya” terminini qo`llaydi[4] Sayyoramizdagi bunday meroslarni o`rganish va asrash yangi integral ilmiy yo`nalishni - sakral geografiyani *(sacred geography, сакральная география)* shakllantirdi. P.V.Shukanovning fikricha, sakral – falsafiy – ilmiy yondashuvlarni tahlil va sintezi asosida sakral geografiya konkret tarixiy va geografik makonda Borliqning muqaddas-an’anaviy namoyon bo`lishini o`rganadi. Sakral geografiyaning umumiy obyekti yagona sakral makonning tarkibiy qismi sifatidagi geografik qobiq; turli kuchlar va ularga mos keladigan jarayonlar, hodisalar va ruhiy-ma’naviy va axborot-energetik sajiyadagi muqaddas obyektlar sakral geografik tadqiqotning predmetli o`ziga xosligidir [5]. Sakral geografiya geografiyaning madaniyatshunoslik, tarix

(arxeologiya) va boshqa fanlarning tutashuvida shakllangan tushuncha va ilmiy yo`nalish bo`lib, uning o`rganish predmetini yer yuzasining an‘anaviy tabiiy komponentlari emas, balki an’anaviy fizikaviy komponentlariga ega bo`lgan geografik makon, aniqrog`i geografiyaning belgilar-simvolik jihatlari yoki sakral landshaftlar tashkil etadi. Sakral geografiyaning shakllanishi sosial-gumanitar sohada makoniy burilish deb nomlanadigan XX asrning so`ngi choragida olimlarning e’tibori zamon kategoriyasini tadqiq qilishdan makonni yangicha ”o`qish”ga o`tish bilan bog`liq bo`ldi.

Geografiya fanlari tizimida rivojlanayotgan sakral geografiya integral ilmiy yo`nalish sifatida ko`pgina mamlakatlarda sekin-asta tadqiqotning alohida, mustaqil sohasiga aylanib bormoqda, sakral geografik tadqiqotlar esa tobora dolbzarblashmoqda.

Jahonning deyarli barcha xalqlarida qadim zamonlardan buyon sakral (muqaddas va mu’tabar) qadamjolar maqomiga ega bo`lgan obyektlari mavjud. Bunda shaxsning axloqiy-ma’naviy holati, uning ehtiyoji va ularni qondirish muhim ahamiyatga ega. Insonning ilmiy-nazariy va amaliy faoliyatining bu jihatlarini sakral-ilmiy yondashuvdan foydalanish kontekstida, sakral-geografik bilimlarni shakllanishi misolida o`rganish maqsadga muvofiq (Shukanov, 2012).

Insoniyat tog`lar va daryolarga, g`orlarga, toshlarga, daraxtzorlarga, yo`llarga, buyuk kishilar hayoti bilan bog`liq bo`lgan joylarga va qabristonlarga, kreatsiya joylariga, o`lim bilan bog`liq bo`lgan voqealar sharafiga qo`yilgan haykallarga, kitoblarga, qadimiy inshoatlar xarobalariga, ibodatxonalarga va boshqa madaniy, tarixiy va tabiiy meros yodgorliklariga ***“sakral joylar”*** maqomini beradi. Shuningdek, ajdodlar kulti, davlat hokimiyati, ijodiy geniallik (va genial bo`lgan shaxslar), bilim (ayniqsa mistik tushunchadagi bilim), tabiatning buyukligi, jangovor qahramonlik, madaniyat namoyon bo`ladigan joylar bilan bog`liq obyektlar ham muqaddaslik maqomiga ega bo`lishi mumkin. Sakral joylarni ziyorat qilish niyati, turli diniy marosimlar va amallarni o`z ichiga oladigan diniy amaliyotdir. Shunday qilib, sakral maqomga ega bo`lgan geografik obyektlar jumlasiga benazir kishilarning hayoti va tarixiy voqealar bilan bog`liq joylar, memoriallar, madaniy qadriyatlar (muzey, kutubxona), mashhur tabiiy urochishalar, nufuzli o`quv yurtlari va boshqa joylarn ham qaralishi mumkin.

Geografik nuqtai nazardan sakral joylar diniy funksiyani bajaradigan tabiiy-antropogen geosistemalar bo`lib, ular birinchi navbatda insoniyatning diniy ehtiyojlari bilan bog`liq bo`lgan, shuningdek aholining muayyan toifasiga mansub kishilarning bunday joylar bilan munosabatda bo`lishga intilishishiga

sabab bo`ladigan ziyorat qilinadigan obyektlardir. Hududiy hosilalarning bunday toifasi insoniyat rivojlanishining har bir bosqichda mavjud bo`lgan ”sakral joylar” tushunchasiga to`g`ri keladi va barcha hozirgi dinlarda mavjud.

Sakral geografiya – turli geografik obyektlar, muayyan sotsial-madaniy borliqqa, aynan sakrallik toifasiga ega bo`lgan geografik makonning o`zaro nisbati to`g`risidagi bilimlar tizimidir. Sakrallik tushunchasi eng avvalo din va uning bevosita mistikiga taalluqli tomoni bilan bog`liq. Muqaddaslik deyarli hamma vaqt transtsedentlik, mistik va sir bilan bog`liq[2].

Sakral geografiyada obyektlarning turlari, ularning geografik o`rni, paydo bo`lishining tarixi, va bu obyektlar bilan bog`liq bo`lgan hozirgi an‘analar o`rganiladi. Sakral geografiya – sayyoramizdagi sakrallik toifasidagi muayyan obyektlarning o`zaro munosabatini aniqlash to`g`risidagi bilimlar tizimi bo`lib, u diniy tizimlardagi hududiy tasavvurlar shakllanishining qonuniyatlarini o`rganadi. Sakral geografiyaning o`rganish obyektlari – turli xalqlar va dinlarning kishilari muqaddas deb hisoblaydigan barcha joylar va narsalardir. Ular – xudo irodasi bilan biror-bir hodisa sodir bo`lgan joylar, barcha zamonlar va kultlarning buyuk avliyolari va ularning safdoshlari dafn qilingan joylar, yo`qolgan dinlarning muqaddas joylari, ko`p yillik ziyorat va zohidlik (tarki dunyochilik) obyektlari, shuningdek kuch joylari deb atalmish joylarda tabiatning ko`rinmas kuchlari yaratgan unikal landshatlardir [1].

Sakral geografiya – tabiat va madaniyatning birgalikdagi fenomeni, kishilar ziyorat qiladigan tabarruk va muqaddas hududlarning birikmasidir. Quruqlik va suvning qismlari, qurilishlar va mahalliy kishilar ongida muqaddaslik sajiyasiga ega bo`lgan narsalar shunday joylardir. Sakral joylar ziyorat qilish fenomeni mamlakatda keng tarqalgan ritual amaldir. Sakral geografiya - tabiiy, madaniy va tarixiy merosning alohida qadrlanadigan va muqaddas obyektlari to`g`risidagi tarixiy - geografik bilimlar tizimi.

Sakral geografiya – sayyoramizdagi muqaddaslik toifasidagi muayyan obyektlarning o`zaro munosabatini aniqlash to`g`risidagi bilimlar tizimi bo`lib, u diniy tizimlardagi hududiy tasavvurlar shakllanishining qonuniyatlarini o`rganadi. Uning o`rganish obyektlari – turli xalqlar va dinlarning kishilari muqaddas deb hisoblaydigan barcha joylar va narsalardir.

Sakral geografiyaning o`rganish obyektlarini turli xalqlar va dinlarning kishilari muqaddas deb hisoblaydigan barcha joylar va narsalar tashkil etadi. Ular – xudo irodasi bilan biror-bir hodisa sodir bo`lgan joylar, barcha zamonlar va kultlarning buyuk avliyolari va ularning safdoshlari dafn qilingan joylar, yo`qolgan dinlarning muqaddas joylari, ko`pyillik ziyoratgohlar va zohidlik

(tarki dunyochilik) obyektlari, shuningdek kuch joylari deb atalmish joylarda tabiatning ko`rinmas kuchlari yaratgan unikal landshatlardir.

Sakral geografiyaning o`rni dinning jamiyatdagi roli bilan belgilanadi. Shu sababli fanning bu tarmog`i madaniy geografiya va xizmat ko`rsatish geografiyasi oralig`ida turadi. Sakral geografiya madaniy geografiyaning bo`limlaridan biri deb hisoblash qabul qilingan. Sakral geografiyaga doir yozilgan ishlarning ko`pida u mazmuniga ko`ra batamom kulturologik soha bo`lib, badiiy ijodiy, diniy san’at va diniy falsafa, madaniy-tarixiy tadqiqotlarni sintez qiladi. Zero, dinning o`zi insoniyat ma’naviy madaniyatning eng muhim jabhalaridan biri hisoblanadi, uning mavjudligi (faoliyati) – bu dastavval ishlab chiqarish va sakral xizmatlarni iste’moli.

Geografiya fanlari tizimida rivojlanayotgan, tabiiy, madaniy va tarixiy merosning alohida qadrlanadigan va muqaddas obyektlari to`g`risidagi tarixiy – diniy - geografik bilimlar tizimi bo`lgan sakral geografiyaning vazifalariga muqaddas, alohida qadrlanadigan joylarni, kishilarning muayyan hamjamiyati nazarida ilohiy ahamiyat kasb etadigan diniy yodgorliklarni, muayyan hududda (mamlakatda) diniy vaziyatning shakllanishining tarixiy-geografik jihatlarini, makoniy tasavvurlarning ayrim turlarini (sistemalarini) – diniy tizimlaridagi tasavvurlar shakllanishining qonuniyatlarini o‘rganish kiradi. Unda sakral obyektlarining har xil turlari, ularning joylanishi, paydo bo‘lish tarixi va xalqlar hayotidagi ahamiyati, shuningdek ular bilan bog‘liq diniy-marosim amallarining tizimi o‘rganiladi.

Sakral meroslarni o`rganish va asrash bilan shug`ullanayotgan sakral geografiyaning vazifalaridan biri – ichki ziyorat va bilish turizmini rivojlantirish, vatanparvarlikni tarbiyalash, kishilarning salomatligini va ma’naviy hayotini yaxshilashdan iborat. Turli mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqotlar sakral geografiyani o`rganishning istiqbolli ekanligini ko`rsatmoqda.

Adabiyotlar

1. Abdullayev S.I., Жанкабилов I.X., Назаров M.G. Сакрал география - янги интеграл илмий йўналиш // Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 49-жилд.- 81-85-б.
2. Лавренова, О. А. Культурный ландшафт: от Земли к Космосу. Ноосферная концепция В. И. Вернадского и понятие культурного ландшафта // Биосфера. Электронный научный журнал. – 2003. – № 2. – Режим доступа: http://www.ihst.ru/~biosphere/03-2/ Lavren.htm
3. Латино-русский словарь. – М., 1976. – 891 с.

4. *Шаблий, О. И.,* Висьтак А. И. Сакральная география: становление и проблемы развития // Проблемы территориальной организации общества: тезисы докл. науч. конф. – Пермь, 1993. – С. 27–28.
5. Щуканов П. Сакрально – наукові основи освітнього процессу. – Полтава. 2012. - № 3 (122). –С. 3-6.

ЗОМИНСУВ ҲАВЗАСИНИНГ АЛОҲИДА МУҲОФАЗА ҚИЛИНАДИГАН ҲУДУДЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Ғозиева Матлуба Тургуновна
Жиззах политехника институти қошидаги академик лицей директори
matlubagaziyeva@gmail.com

Ғўдалов Миркомил Равшанович
Жиззах давлат педагогика университети География ва иқтисодий билим асослари кафедраси мудири, доцент
MirkomilGudalov78@gmail.com

Аннотация: *Мазкур мақолада, Зоминсув ҳавзасида алоҳида муҳофаза қилинадиган ҳудудларда, хусусан Зомин миллий табиат боғида табиат ва экотуризм масалаларининг ўзаро уйғун ҳолда ривожлантириш масалалари ўрганиб чиқилган.*

Калит сўзлар: *Зоминсув ҳавзаси, алоҳида муҳофаза қилинадиган ҳудудлар, Зомин миллий табиат боғи, маҳаллий ва хорижий туризм, рекреация фаолияти, Табиат солномаси.*

Annotation: *In this article, the issues of harmonious development of nature and ecotourism in the specially protected areas of the Zamin basin, in particular, in the Zamin National Nature Park, are studied.*

Key words: *Zaminsuv basin, specially protected areas, Zamin National Nature Park, domestic and foreign tourism, recreation activities, Nature Annals.*

Зоминсув ҳавзаси табиати ранг-баранг ва бетакрордир. Зоминсув ҳавзасини бошқа ҳавзалар билан таққосланганда ҳам табиатини нисбатан яхши сақланиб қолгани билан ажралиб туради. Бунинг асосий сабаби, ҳавзада Зомин миллий табиат боғи ва Зомин қўриқхонасининг жойлашганлиги ва қолаверса, ўрмон хўжаликларини хам борлиги боис - антропаген таъсирларга кам учраганлигидир.

Зоминсув ҳавзасининг умумий майдони 1173,8 км^2 бўлиб, шундан 1144,5 км^2 муҳофаза қилинадиган ҳудудларга тўғри келади. Бу алоҳида муҳофаза қилинадиган ҳудудлар, ҳавзанинг 705 метрдан то 4033 метргача бўлган баландлик минтақаларига тўғри келади (1-жадвалга қаранг).

1-жадвал

Зоминсув ҳавзасида муҳофаза қилинадиган ҳудудлар ҳақида маълумотлар

т/р	муҳофаза қилинадиган ҳудудлар	майдони, га	майдон, фоиз	денгиз сатҳидан баландлиги, м
1	Зомин миллий табиат боғи	23429,2	20	1300-4033


2	Зомин қўриқхонаси	26921,0	24	1760-3561
3	Зомин ўрмон хўжалиги	64106,2	56	705-2400
	Жами:	3	100	

Зомин миллий табиат боғи – Зомин тоғ-ўрмон минтақасида қишки спорт турлари маркази, спорт соғломлаштириш мажмуаси тарзида 1976 йил 8 сентябрда ташкил этилган. 1978 йилда “Ўзбекистон халқ боғи” номи берилган. 1993 йилдан бошлаб Зомин миллий табиат боғи деб аталади.

Зомин миллий табиат боғи ҳудуди қўриқхона, рекреация ва бошқа тарздаги зоналарга бўлинади. Зомин миллий табиат боғининг қўриқхонага айлантирилган зонасида давлат қўриқхоналари учун назарда тутилган режим ўрнатилган. Бу зонада ҳар қандай хўжалик, рекреация фаолияти юритиш тақиқланади. Юқори ташкилот томонидан тасдиқланган дастур асосида олиб борилган илмий тадқиқот ишлари бундан мустасно.

Зомин миллий табиат боғининг рекреация зоналари табиий объектлар ва мажмуаларнинг ҳолатига қараб турли режимдаги участкаларга бўлиниши мумкин, маҳаллий ва хорижий туризм билан шуғулланишга, аҳолини соғломлаштириш мақсадида фаолият кўрсатишга рухсат этилади.

Миллий табиат боғининг майдони 23429,2 га бўлиб, 15336,2 га қўриқхона, 8025 га рекрация ва 62 га ҳудуди хўжалик мақсадида фойдаланиш учун ажратилган (1-расмга қаранг).



1-расм

Зомин миллий табиат боғининг зоналарга бўлиниши

Зомин миллий табиат боғи Туркистон тоғининг шимолий ёнбағирида, Зоминсув ҳавзасида, хушманзара ва хилма-хил вертикал ландшафт минтақаларидан ташкил топган. Ноёб ва типик ландшафтлар

билан бирга арча ўрмонлари экологик тизимларнинг бир бутунлиги, бу ҳудудда антропаген омиллар кам, ҳатто таъсир этилмаган табиий комплексларнинг кўплиги миллий табиат боғини ташкил этишга асосий сабаб бўлди.

Зомин миллий табиат боғи тасарруфига Зомин тоғлари, Помир ва Олой тоғ тизмаси, жумладан, Туркистон тизма тоғлари ғарбий қисмининг шимолий тармоқлари киради. Зомин тоғлари унчалик баланд эмас. Шимолий қисми денгиз сатҳидан 1000 метр, жанубий қисми эса 4033 метргача баланд. Тўғри, бу тоғларда на абадий қорлар бор, на музлик бор. Лекин шунга қарамай, унинг беқиёс манзаралари туристларда ижобий таъсурот қолдиради.

Шундай қилиб, Зомин миллий табиат боғи Туркистон тизмасининг шимолий ёнбағирида жойлашиб, унинг ғарбий чегараси Ғўралашсой ва Бойқўнғирсой сойларининг сув айирғичидан ўтади. Бу чегара Бахмал ва Зомин туманларининг чегаралари бўлиб ҳам хизмат қилади. Шимолий чегараси Зоминсув ва Еттикечув сойларининг қуйилиш жойидан, Дуғоба қишлоғи параллелидан ўтади. Шарқий чегараси Ўзбекистон ва Тожикистон Республикалари давлат чегарасига тўғри келади. Жанубий чегараси эса Тожикистон давлат чегараси, яъни Туркистон тизмасининг сув айирғичи орқали ўтади.

Зомин миллий табиат боғи ҳудуди ва унинг буфер зонасида бир неча қишлоқлар жойлашган. Жумладан, миллий табиат боғининг шимолида Еттикечув, Қоронғисой, Тоғтерак, Ўриклисой, жанубида Қашқасув ва Қизилмозор қишлоқлари бор. Миллий табиат боғи билан Зомин туман маркази орасидаги масофа – 49 км. Миллий табиат боғига энг яқин темирйўл станцияси Даштобод ўртасидаги масофа – 62 км.

Зомин миллий табиат боғи ҳудудининг асосий қисми ўртача баландликдаги тоғлар эгаллаган. Бу ердаги кўплаб тизма тоғлар тор ва чуқур, баъзан 700 метргача етадиган даралар билан алмашиниб туради. Тоғларнинг тик қояли ёнбағирларида шамол ҳосил қилган ажойиб шакллар, сизот сувлари туфайли вужудга келган ғорлар бор.

Тоғ минтақасида дарахтлардан арчазорлар кенг майдонни эгаллайди. Арчазорлар асосан 3000 м баландликкача бўлган жойларда кўпроқ учрайди. Арчанинг қуйидаги уч тури - Зарафшон (ўрик арча) арчаси, ярим шарсимон (саур арча) ва Туркистон (қора арча) арчаси ўсади. Арчазорлар кўпроқ нисбатан қурғоқчил ва тошлоқ ерларда учрайди ва аста-секин ўсиб,

бўйи 20 метргача етиб, минг йилдан ортиқ яшайди. Арчазорлар тагида эса ҳар хил ўтлар ва буталар ўсади.

Энг яхши арчазорлар унумдор, сернам, тупроқли, ясси тоғ ёнбағирларида учрайди ва уларнинг йиллик фитомаҳсулдорлиги 220 т/га ни ташкил этади. XX-асрга қадар Зоминсув ҳавзасида арчазорлар алоҳида муҳофаза қилинмаганлиги ва улардан қурилиш материаллари ҳамда ўтин сифатида аёвсиз фойдаланиш натижасида, айниқса, Еттикечув ҳавзасида арчазорлар майдони камайиб, арчалари сийраклашиб кетган.

Ҳавзадаги арчазорларни илмий ва амалий жиҳатдан ўрганиш мақсадида, Кўлсой бўйида Ўрта Осиё ўрмон хўжалиги институтининг илмий таянч пункти ташкил қилинган. Бу таянч пунктида ўрмончилик илмий текшириш институти 1929 йилдан буён илмий кузатиш ва тажрибалар олиб бормоқда.

Зомин миллий табиат боғида ландшафтлар муҳофазасининг илмий асосларини ишлаб чиқиш, ноёб ва йўқолиб бораётган ўсимлик ва ҳайвон турларини таҳлил қилиш ва тегишли тадбирларни амалга оширишга қаратилган, ҳудуддаги ҳайвонот ва ўсимлик дунёси асосий турларининг ҳисоботини юритилмоқда.

Зомин миллий табиат боғи “Табиат солномаси”ни тасдиқланган дастур бўйича илмий тадқиқот ишлари олиб борилади. Илмий тадқиқот ишларининг натижалари “Табиат солномаси” нинг тегишли бобига киритилмоқда. Ўсимликлар дунёсини инвентаризация қилиш бўйича Зомин миллий табиат боғида 75 оилага мансуб 440 туркум ва 1107 тур ўсимликлар аниқланди.

Зомин миллий табиат боғининг 2023 йилдаги “Йиллик ҳисобат”ларида, Ўзбекистон “Қизил китоб” ига киритилган 25 турдаги ўсимликлар муҳофаза қилиниши қайд қилинган (2-жадвалга қаранг).

2-жадвал

Зомин миллий табиат боғида Ўзбекистон “Қизил китоб”ига кирган ўсимликлар рўйхати

№	Ўзбекча номи	Русча номи	Лотинча номи
1	Айиқтовондошлар	Лютиковые	Ranunculaceae
2	Оқ парпи	Аконит таласский	Aconitum talassicum Popov.
3	Бурчоқдошлар	Бобовые	Fabaceae
4	Кнорринг астрагали	Астрагал Кнорринг	Astragalus knorringianus Boriss.
5	Пуфак астрагал	Астрагал тонкопузырчатый	Astragalus leptophysus Vved.
6	Белолипов астрагали	Астрагал Белолипова	Astragalus belolipovii Kam ex

			F.O. Khass
7	Соябондошлар	Зонтичные	Apiaceae (Umbelliferae)
8	Сумбул ковраки	Ферула мускатная	Ferula sumbul (Kauffm.) Hook.f.
9	Федченко ковраги	Ферула федченковская	Ferula fedtschenkoana Koso-Pol.
10	Лоладошлар	Лилейные	Liliaceae
11	Қардошли лола	Тюльпан родственный	Tulipa affinis Botschantz.
12	Чангчиситукли лола	Тюльпан волосистотычиночный	Tulipa dasystemon Regel
13	Корольков лоласи	Тюльпан Королькова	Tulipa korolkowii Regel
14	Савринжондошлар	Безвременниковые	Colchicaceae
15	Кесселринг савринжони	Безвременник Кесселринга	Colchicum kesselringii Regel
16	Ширачдошлар	Асфоделиевые	Asphodelaceae
17	Нор ширач	Ширач мощный	Eremurus robustus Regel
18	Яшилгулли ширач	Ширач зеленоцветный	Eremurus chloranthus Popov
19	Қоқиўтдошлар	Астровые	Asteraceae
20	Шубҳали каррак	Кузиния сомнительная	Cousinia haesitabunda Juz.
21	Жиззах карраги	Кузиния джизакская	Cousinia dshisakensis Kult.
22	Шилвидошлар	Жимолостные	Caprifoliaceae
23	Ғалати учқат	Жимолость странная	Lonicera paradoxa Pojark
24	Ялпиздошлар	Ясноткovые	Lamiaceae
25	Сархуш бозулбанг	Зайцегуб опьяняющий	Lagochilus inebrians Bunge

Зомин милий табиат боғи ҳудудида биологик хилма-хиллигини сақлаш ва уларнинг турларини ўрганиш бўйича илмий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Миллий табиат боғида сут-эмизувчиларнинг 30 тури, судралиб юрувчиларнинг 14 та, қушларнинг 102 та тури мавжуд бўлиб, шундан 4 та тур ҳайвонлар (Тянь-шань қўнғир айиғи, Туркистон силовсини, қор қоплони ва тоғ архари), 6 та тур қушлар Ўзбекистон “Қизил китоб” ига киритилган.

Ҳозирги вақтда Зомин миллий табиат боғида қуйидаги тадқиқот ишлари олиб борилмоқда:

- ўсимликлар фенологиясини ўрганиш;
- фойдали ўсимликларни аниқлаш ва гербарий тайёрлаш;
- доривор ўсимликлар ва уларнинг тарқалиш жойларини, захирасини аниқлаш ва харитада белгилаш;
- кенг тарқалган ўсимлик оилаларини аниқлаш;
- камёб ва йўқолиш арафасидаги ўсимлик турларини аниқлаш;

- ҳайвонлар фенологиясини ўрганиш;
- муҳофаза остига олинган ҳайвон турларини ўрганиш;
- рекрацион зоналарда инсон ва табиат муносабатлари мониторингини доимий равишда олиб бориш;
- экосўқмоқ йўналишларини аниқлаш ва схематик карталарини ишлаб чиқиш.

Зомин миллий табиат боғида дарахт ва буталарни кесиш (дарахтларни соғломлаштириш мақсадида кесиш бундан мустасно), мол киритиш, бегона шахсларнинг кириши, кимёвий ўғит препаратлар қўллаш, ерларни ижарага бериш, геологик қидирув ишларини олиб бориш, ем-хашак тайёрлаш, ов қилиш, балиқ тутиш, ёввойи ҳайвон ва паррандаларнинг маконига путур етказиш қатъиян ман этилади.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Alibekov L.A. Zomin milliy bog‘i va geoekologik muammolar yechimining geografik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013 y.
2. Ғозиева М.Т. “Зомин” туристик-рекреацион зонаси ва уни ривожлантириш йўллари. O‘zbekistonda geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish yo‘llari. Respublika ilmiy–amaliy konferensiya. Jizzax. 2023-yil 4-noyabr
3. G‘o‘dalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish: muammo va yechimlar. Guliston 2021 y
4. G‘o‘dalov M., G‘oziyeva M. Ways to develor modern ecoturism in the Zamin basin. International engineering journal for research & development. Vol – 5, Issue – 7, 2020 India.
5. Ходжаев Б.А, Ҳазратқулов Ҳ. Ҳ. Зомин миллий табиат боғида табиатни муҳофаза қилишнинг илмий-амалий аҳамияти. Ўзбекистонда географик тадқиқотлар: Инновацион ғоялар ва ривожланиш йўллари мавзусидаги Республика илмий–амалий конференцияси материаллари Жиззах, 2023.

SHO‘RKO‘L KO‘LINING REKREATSIYA VA TURISTIK IMKONIYATLARI

Namozov Jo‘rabek Abduazizovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.f.d.(PhD), dotsent

Nurqobilova Yulduz Bahrom qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada Dehqonobod tumani Konsoy qishlog’ida joylashgan shifobaxsh dam olish maskani hisoblangan, aholiga Sho’rko’l nomi bilan tanilgan ko’l haqida batafsil to’xtalib o’ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.*
Kalit so’zlar: *Konsoy qishlog’i, Sho’rko’l, Xo’jaipok ota, Jayrabuloq bulog’i, Jaynoqota ziyoratgohi, tuz kon.*

Resume*. The article focuses on the lake known as Shorkol, which is considered a healing resort located in the village of Konsoy, Dehkhanabad district, and analyzes its characteristics in detail.*
Key words*: Konsoy village, Sho'rkol, Khojaipok father, Jairabulok spring, Jainoqota shrine, salt mine.*

Kirish. Qashqadaryo viloyati o’zining tabiiy geografik sharoitiga bog’liq holda bir qancha turdagi tabiiy rekreatsiya obyektlariga, xususan, gidrologik resurslarga boyligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Hisor tog’ining janubiy-g’arbiy tarmoqlarida shifobaxsh suvlar, ko’hna archalar, go’zal sharsharalar va ziyoratgoh joylar yurtimizning betakror ekoolamiga ega ekanligidan dalolat beradi. Mazkur resurslardan dam olish va davolanish maqsadlarida samarali foydalanishni tashkil etish uchun ularni ilmiy amaliy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda, viloyatda rekreatsiya va turizm sohasi jadal rivojlanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda Dehqonobod tumanining Konsoy qishlog’ida joylashgan Sho’rko’l ko‘li ham muhim rekreatsiya va turizm obyektlaridan biri hisoblanadi[1].

Asosiy qism. Konsoy qishlog’i undan oqib o’tuvchi shu nomdagi soy atrofida aholining joylashishi natijasida shakllangan, ya’ni Konsoy - Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi soy. Kichik O‘radaryoning chap irmog‘i. Boysun tog‘lari yon bag‘irlaridan boshlanuvchi 20 ga yaqin irmog‘i bor. Uzunligi 30 km, havzasining maydoni 247 km². Mavsumiy qor va yomg‘ir suvlaridan to‘yinadi. Yilliq o‘rtacha suv sarfi 0,35 m³/sek. Bahorda suvi ko‘payadi, yozda esa kamayib, Kichik O‘radaryogacha yetib bormaydi uning suvi sug‘orishga sarflanadi. Konsoy daralari va chashmalari qadimdan mashhur

bo’lib kelgan. Qip-qizil daralar kishini o’ziga maftun etadi. Bu daralarga kirish Qoradahna qishlog’idan boshlanadi (“dahna” so’zining ma’nosi ko’pchilikka tanish qop-qora tepa yoki qirlar). Qishloq ana shunday tepa va qirlardan iborat bo’lganligi bois joy Qoradahna deb nomlanadi. Qishloqning janubida Jayrabuloq deb nomlangan buloq bor. Buloqdan pastlikda kata g’or bo’lib, ichiga chiroq yoqib kirish mumkin. Mahalliy xalq g’orning bir uchi Qoriz darasiga olib chiqadi deb aytishadi. Buloq yonida Jaynoqota deb nomlangan katta ziyoratgoh bo’lib, bu yerga Xolmurod ismli yigitning qabri bor, deyishadi”. Xolmurod esa odamlarni birlashtirib, bosqinchilarga qarshi kurashgan va ularni mag’lub qilgan. Ana shundan keyin bosqinchilar qishloqqa qadam qo’yishmagan” degan rivoyatlar bor [2].

Sho’rko’l haqida rivoyatlar juda ko’p. Ko’l tarixini o’rganish maqsadida tuman yozuvchisi Toshqulov Karim tomonidan yozilgan “Dehqonobod - obod yurtim” kitobida keltirilgan ma’lumotlar bilan ham tanishib chiqildi. Unda rivoyat qilishlaricha, bir oq tuya sho’rko’lga kirib g’oyib bo’lgan va Oqbosh tog’i etagidagi Ko’ktepa otada bir ko’rinish berganu yana Sarg’ay ota tog’iga chiqib, Xo’jaipok otaga borib g’oyib bo’lgan deyiladi. Bundan tashqari juda ko’p shifobaxsh madanlar tarqalgan. Xo‘jaipok ota nomli Sho‘rko‘lga o‘xshash ziyoragoh mavjud bo‘lib, lekin ikkisi tarkibi jihatidan farq qiladi. Xo‘jaipok ota ziyoratgohi suvi kaliy tuzli, Sho‘rko‘l esa natriy tuzli ko‘l hisoblanadi. Sho‘rko‘lga borish yo‘lida u sharshara bo‘lib oqib tushadigan Sharsharota ziyoragohi ham bor. Ushbu ziyoragohga kasallar, farzandi yo‘q oilalar tashrif buyuradilar. Sho’rko’l suvi tarkibida shifo beruvchi madanlar ko’p. Yoz oylarida bu yerga shifo istab keluvchilar bilan gavjum bo’ladi. Bu buloqdan shifobaxsh o’ziga xos bo’lgan oq tuz aralashli suv chiqib turadi va buloq atrofida kichik (taxminan bo’yi 50 metr, eni 50 metr) ko’lni hosil qiladi. Bu yerda tuz koni borligi sababli ko’l suvi kishilarni ko’tarib turadi. Tuzlardan aholi kundalik ehtiyoji maqsadida foydalanishadi. Sho’rko’l suvi tarkibida natriy, xlor kabi moddalar ko’p. Ko’lning suvi sho’r bo’lsa-da, ko’plab kasalliklarga davo bo’ladi. Cho’milgan tanaga yig’ilgan tuz badanni o’ziga xos “massaj” qiladi. Ayniqsa, issiq balchig’iyanda foydali. Balchiqda ko’pi bilan 15-20 daqiqa turish mumkin. Bu shifo maskaniga shifokor maslahati bilan davolanish maqsadga muvofiqdir. Bu yerda suvda cho’milib, balchiqqa tushgan insonlar teri-tanosili va boshqa ko’plab har xil bo‘g‘im og‘riqlari, qon tomir, har xil ichki a’zo kasalliklari va boshqa shunga o’xshash kasalliklarga davo topish uchun boradilar[3]. Ko‘l atrofida tashrif buyuruvchilar uchun Xo‘jayi Sof ota nomli ziyoragoh mavjud bo‘lib, ziyoratchilar tomonidan alohida ahamiyat kasb etib

kelmoqda. Sho’rko’lga asosan qo’shni Surxondaryo, Samarqand, Buxoro va shu bilan bir qatorda respublikamizning barcha viloyatlaridan kishilar kelib shifo topadilar. Lekin bu ko’l haqida hech bir manbalarda biron bir ma’lumot keltirilmagan. Faqatgina tumandagi ayrim yozuvchi, shoirlarning ayrim kitoblarida oz bo’lsa-da ma’lumot uchratishimiz mumkin. Shu paytgacha ko’l hududi ilmiy tomonlama biron marta ham o’rganilmagan. Ammo xo’jalikda nafaqat hudud aholisi balki mamlakatimiz, qo’shni Qozog’iston va Qirg’iziston hududidan ham dam oluvchilarning tashrif buyirishi e’tiborni tortadi. Tashrif buyurgan bemor-u dam oluvchilarga faqatgina Sho’rko’lning sho’r suvlari shifo bo’lib qolmasdan, u yerning toza havosi ham kishilar dardiga shifo vazifasini o’taydi.

XULOSA

Hozirgi kunda ko’l hududi xususiy tadbirkor tomonidan xususiylashtirgan holda ko’l atrofida kichik bo’lsada dam oladigan xonalar tashkil etilgan, lekin bu dam oluvchilar ehtiyojini qondirmaydi. Sho’rko’l hozirgi kunda turistlar ham diqqat e’tiborini jalb etayotganligi bois uning atrofida turistlar uchun mehmonxona tashkil etish, ular uchun kerakli sharoitlarni yaratish, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanishlari uchun savdo rastalarini ham tashkil etish maqsadga muvofiq bo’ladi deb o’ylayman. Mana necha yildirki bu ko’l insoniyatga xizmat qilib kelmoqda, lekin masalaning ikkinchi tarafi ham bor. Ko’l insonlarga foyda keltirib, ularning dardlariga shifo bo’layotgan bo’lsa, insonlar tomonidan ko’l atrofidagi jonli tabiatga salbiy ta’sirlar ham yo’q emas, albatta. Ko’l hududida rekreatsiya resurslarini joylashtirishda uning atrof muhitiga zarar yetkazmaslik chora tadbirlarini ham inobatga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dehqonobod tumani suv iste’molchilari uyushmasi ma’lumotlari.2018-2022.
2. Ravshapov P. "Qashqadaryo viloyati geografiyasi". Qarshi.1993.
3. Toshqulov K."Dehqonobod - obod yurtim". Qarshi, 1998.
4. https://www.qashstat.uz/uz/
5. www.vikipediya.uz

O`ZBEKISTONDA KO`LLAR TIZIMIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRIShNING AHAMIYATLARI

Abdiramanov Jangabay Bektursınovich
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti katta o`qituvchi
e-mail: abdiramanov64@mail.ru

Usmanov Mashrab Rustamovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti g.f.f.d. (PhD)
e-mail: mashrabusmonov79@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sudoch`e va Aydar-Arnasoy ko`llar tizimining shakllanishi, Aydar-Arnasoy ko`llar tizimida turizmni tashkil etish, ekoturizm, turistik marshrutlarni rivojlantirish imkoniyatlari oid ma`lumotlar keltirib o`tilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *Sudoch`e va Aydar-Arnasoy ko`llar tizimi, turizm, dunyo ornitologlari, ekoturizm, “qulay oraliq” zona, ov turizmi, arab sayyohlari, turizm marshrutlari, botel va flotel mehmonxonalar.*

Аннотация: *В данной статье представлена информатсия о формировании озера Судочья и Айдаро-Арнасойской озерной системы, организации туризма в Судочья и Айдаро-Арнасойской озерной системе, экотуризма, возможностях разработки туристических маршрутов.*

Ключевые слова: *Озера Судочье и Айдар-Арнасойская озерная система, туризм, орнитологи мира, экотуризм, зона «комфортной дали», охотничний туризм, арабские туристы, туристические маршруты, лодочные и флотилийные гостиницы.*

Annotation: *In this state, information is presented on the formation of the Aydaro-Arnasoy lake system, the organization of tourism in the Aydaro-Arnasoy lake system, ecotourism, and the development of tourism routes.*

Key words: *Sudoch`e and Aydar-Arnasoy lake system, tourism, ornithologists of the world, ecotourism, "comfortable distance" zone, hunting tourism, Arab tourists, tourism routes, boat and flotilla hotels.*

Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo’jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o’zining munosib o’rniga ega bo’lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo’yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Chunki mamlakatimiz jahon sivilizatsiya o’choqlaridan biri sifatida, o’zining asori-atiqalari bilan mashhurdir. Bizning madaniyatimiz dunyo xalqlari san’at, arxitektura, shaharsozlik va ko’pgina sohalarga o’lkan hissasini qo’shgan. Tarixda ma’lumki, mintaqaning rivojlanishida ma’lum darajada turizmning ham hissasi bo’lgan. Chunki, mamlakatimiz «Buyuk ipak yo’li» markazida joylashgan, shuning uchun savdo-sotiq va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy

aloqalar rivojlangan bo’lib, ulardan tushgan daromatlar mamlakat xazinasiga katta ulush qo’shgan.

1971 yil 2 fevralda suv va botqoq hududlar to`g`risidagi xalqaro konventsiya imzolandi. 1997 yildan boshlab ushbu sana jahon suv va botqoq hududlarni muhofaza qilish kuni sifatida keng nishonlab kelinmoqda. Ushbu xalqaro konventsiyaga 160 dan ortiq mamlakat a`zo. 2001 yil 30 avgustda O`zbekiston ham ushbu konventsiya a`zosi bo`ldi.

Qoraqalpog‘istondagi Sudoche ko‘llar tizimi “Ramsar” konvensiyasining xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan suv-botqoq hududlari ro‘yxatiga kiritildi. Bungacha Dengizko‘l (2001), Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi (2008) hamda To‘dako‘l va Quymazor suv omborlari (2020) mazkur ro‘yxatdan joy olgan.

Qoraqalpog‘istondagi Sudoche ko‘llar tizimi xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan suv-botqoq hududi deb belgilandi, deya xabar bermoqda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi matbuot xizmati.

“Ramsar” konvensiyasi rasmiy saytida chop etilgan maqolada Sudochening 1960-yillarda dunyodagi to‘rtinchi yirik ko‘l hisoblangan Orol dengizining ko‘rfazi bo‘lgani ta’kidlangan. Ko‘l hududida zich qamishzorlar, butalar, sho‘rxoklar va saksovullar mavjudligi, qolaversa, yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan hayvonlar yashashi qayd etilgan. [1.8-10]

Yurtimizning betakror tabiati, turfa manzaralarga boy so`lim go`shalari har qanday odamni maftun etadi.

Nukusdan taxminan 150 km uzoqlikda, Mo'ynoq tumanida, mahalliy aholi "Suvi duchchi" (o'zbekchasiga "suvi chuchuk") deb atagan, xaritalarga Sudochye nomi bilan kiritilgan ko'llar tizimi bor. U yerga boradigan to'g'ri va tekis yo'l yo'q, shu bois masofani bosib o'tishga 4 soatcha vaqt ketadi.

Sudochye ko‘li – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanidagi ko‘l. Orol dengizining janubi-g‘arbida. G‘arbiy qirg‘og‘i Ustyurtning Sharqiy chinkiga tutash, qolgan tomonlari Amudaryo deltasi bilan chegaradosh. Ko‘lning maydoni va tarkibidagi tuz miqdori tez tez o‘zgarib turadi. Chunki, Amudaryo va kanallardan ortgan suvlar ko‘lga kelib quyiladi.

Ilgari Sudochye Amudaryoning *Raushan* va *Priemuzyak* kanallari orqali to‘ldirilgan va kanal orqali Orol dengiziga ulangan. Ko‘lning suv yuzasi maydoni 350 km² ga, uzunligi 250 km ga, o‘rtacha kengligi 15 km va o‘rtacha chuqurligi 2 m ga yetdi. Suvning minerallashuvi 0,6-1,7‰ oralig‘ida o‘zgarib turadi. Sudochye yarim anadrom baliq turlari uchun urug‘lanish joyi bo‘lib xizmat qilgan. Ko‘lda 2000 tonnagacha baliq ovlangan.

Aydar, Arnasoy va Tuzkon ko`llari birlashgan joyda hosil bo`lgan Aydarko`l ko`llar tizimi kattaligi jihatdan Markaziy Osiyoda to`rtinchi o`rinda turadi. Aydarko`l ma`muriy jihatdan Jizzax va Navoiy viloyatlari hududida joylashgan bo`lib, uning shimoliy hududi qisman Qozog`iston Respublikasini ham o`z ichiga oladi. Nurota tog` tizmalarining shimoliy etagida joylashgan ko`lning shimoliy qirg`oqlari sharqiy Qizilqumgacha tutashib ketgan.

Maydoni 3702 kvadrat kilometr, uzunligi 350 kilometrdan ortiq, kengligi 40 kilometrga etadigan ko`lning o`rtacha chuqurligi 10-12 metr, chuqur joylari 26-30, hatto 40 metrga ham boradi. Undagi suv hajmi respublikamizdagi barcha suv omborining suv hajmidan ikki barobar ko`p.

Mutaxassislarning fikricha, qish mavsumida ko`llarda ilmiy turizmni rivojlantirish Respublika ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti uchun nihoyatda istiqbolli soha hisoblanadi. Boisi, Sudochye va Aydarko`l Markaziy Osiyoda qushlarning uchib o`tuvchi yo`lida joylashgan bo`lib, noturistik mavsumda yuzlab qushlar bu erga qishlov uchun uchib keladi. Bu, o`z navbatida, jahon ornitologlarining ham qiziqishiga sabab bo`lishi mumkin.

Samarqand, Buxoro va Xiva shahalarida sayyohlar asosan tarixiy obidalar va xalq amaliy san`ati namunalari bilan tanishsa, Sudochye va Aydarko`l bo`yida O`rta Osiyo ko`chmanchi xalqlarining an`anaviy hayot tarzi, cho`l tabiati va go`zalliklari bilan tanishish imkoniyati yaratilgan. Bu sayyohlarga O`zbekiston hududida turizmning turli shakllari bilan tanishish imkonini beradi. Tuya minish va o`tovda tunab qolish kabi xizmatlar sayyohlar orasida kundan-kunga ommaviylashib bormoqda. Dam olishning bunday turi - sayyohlarga insoniyatning qadimiy turmush tarzi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Cho`l o`rtasida maxsus qurilgan, an`anaviy kigiz va kashtalar bilan bezatilgan, bunday o`tovlarda barcha qulay sharoitlar yaratilgan bo`lib u erda sayyohlarni iliq kutib olishadi. Shuningdek bu erda mehmonlar ko`chmanchi xalqlarning an`anaviy taomlarini tatib ko`rishlari mumkin.

Sayyohlarni Sudochye, AAKT va uning atrofidagi ekoturistik hududga kelib-ketishlarini hisobga olish, turizmni rivojlantirishdagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Sudochye va AAKT atrofida infratuzilmani yaxshilash, ya`ni yo`llar qurish va ta`mirlash, mehmonxona va kempinglar barpo etish hamda servis xizmatini yo`lga qo`yishga ham katta e`tibor qaratilmoqda. Ko`l sohilida mehmonxonalar qo`rishda joyning tabiiy geografik xususiyatlarini ham hisobga olish lozimdir. Mehmonxonalar qurishda, ko`l va mehmonxona o`rtasidagi “qulay oraliq” zonani topa olish lozim. Buning uchun er osti suvlari sathi ko`tarilib ketmaydigan, kechasi esa ko`ldan shamol esganda ko`l chivinlarini

etib kela olmaydigan o`ziga xos tabiiy geografik o`ringa ega bo`lgan “qulay oraliq” zona topish muhimdir.[3.4]

Sudochye va AAKT va uning atrofidagi ekoturistik hududining tabiatini tomosha qilish va belgilangan hududda ov qilish maqsadida arab sayyohlari yilda 2 marotaba (bahor va kuz faslida) doimiy ravishda dam olishga kelmoqda. Arab sayyohlarini bu hududga qiziqishiga, ko`l va cho`l manzaralarining o`zaro uyg`unligi hamda qushlar olamiga boyligi, qolaversa bahor va kuz faslida issiq mintaqalarga uchuvchi qushlarni Sudochye va AAKT orqali xarakatlanishini kuzatish va ba`zi bir ruxsat berilgan qushlarni ov qilishi ham doimiy ravishda kelishiga sabab bo`lmoqda.

Sudochye va AAKTda sayyohlarga yuqori darajada xizmat ko`rsatish uchun suvda suzib yuruvchi botel va flotel mexmonxonalar tashkil qilish g`oyalarini o`ylab ko`rish va ularni amalga oshirish muhimdir. Ko`lga kelgan sayyohlar suvda suzib yuruvchi botel yoki flotel mexmonxonalarda dam oladigan bo`lsa o`ziga xos egzotik huzur bag`ishlaydi. Shu o`rinda botel va flotel mehmonxonalar haqida ma`lumot berib o`tamiz. Botel - unchalik katta bo`lmagan suvdagi mehmonxona. Jihozlangan qulayliklarga ega bo`lgan kema. Flotel - suzib yuruvchi mehmonxona kemasi. Suvdagi ulkan otel, maxsus jihozlangan bo`ladi. Qulay nomerlardan tashqari, yaxshi dam olish uchun qulaylik yaratilgan, vaqtinchalik ofisdan foydalanish, operativ vosita aloqalari: telefon, kseroks, faks va boshqa xizmatlar ko`rsatiladi.[3-4]

Xulosa qilib aytiladigan bo`lsak viloyatning tekislik, tog`oldi va tog`li mintaqalari gidrografik ob`ektlarining turistik imkoniyatlari ancha qulayligini hisobga olib, baliq ovlash va cho`milib hordiq chiqarish hamda qadimiy gidrotexnik inshootlarni ko`rish kabi yo`nalishlarni yo`lga qo`yish maqsadga muvofiq. Yuqorida ko`rib o`tilgan turizm turlaridan tashqari Sudochye va Aydar Arnasoy ko`llar tizimida yana bir necha turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

- Sudochye va Aydar Arnasoy ko`llar tizimida turli xil suv sporti turlarini yo`lga qo`yish va musobaqalar tashkil qilish;

- Sudochye va Aydar Arnasoy ko`llar tizimida sohilida baliq va baliqli taomlardan iborat bo`lgan gastro turizimni shakllantirish;

- Sudochye va Aydar Arnasoy ko`llar tizimining shimoli-sharqiy qirg`oqlaridagi qumli cho`llarida barxanlar osha xalqaro avtopoygalarni o`tkazish;

- Sudochye va Aydar Arnasoy ko`llar tizimi atrofidagi cho`llarda keng tarqalgan tuyalardan ham sayyohlarni sayr qilish va tuya suti bilan davolashni yo`lga qo`yish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanov, M. R. (2021). The Prospective Of The Development Of Ecotourism In Jizzakh Region. *Journal of Geography and Natural Resources*, *1*(01), 8-10.
2. Komilova, N. K. (2021). TOURIST DESTINATION AS AN OBJECT OF RESEARCH OF SOCIAL AND ECONOMIC GEOGRAPHY.*Psychology and Education Journal*, *58*(1), 2058-2067.
3. Usmanov M.R., Abdiramanov J.B. “Aydar-Arnasoy ko’llar tizimida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari». FAN va JAMIYAT №3. Ilmiy-uslubiy jurnal ISSN 2010-720X. Ilim hám jámiyet. №3. 2023. 51-52 betlar. https://journal.ndpi.uz/
4. Abdiramanov J.B., Usmanov M.R. Қорақалпоғистон республикасида экотуризмни ривожланишининг бази бир географик жиҳатлари. «O‘zbekistonda geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish yo‘llari» Respublika ilmiy–amaliy konferensiya MATERIALLARI. 129-133 betlar. Жиззах 2023.

JAHONDA EKOLOGIK TURIZM RIVOJLANISHINING REGIONAL TAHLILI

Mirislomov Mirdavlat Miraziz o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
mirdavlatmirislomov57@gmail.com, +998999932305

Namozov Jo’rabek Abduazizovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, g.f.f.d., dots.
jurabek.n.a@gmail.com, +998933550425

Annotatsiya: *Maqolada ekoturizmni rejalashtirish, tartibga solish, qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va monitoring qilish bo‘yicha faol siyosat olib borayotgan va muhim tabiiy salohiyatga ega mamlakatlar tajribasi ko‘rib chiqiladi Turli mamlakatlarda mavjud bo‘lgan tizimli yondashuvlar va ilg‘or tajribalarni “to‘g‘ri yechim” sifatida tavsiya etish mumkin, chunki ular ekoturizm barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qanday hissa qo‘shishini ko‘rsatadi*

Kalit so‘zlar: *Ekologik turizm, iqtisodiy barqarorlik, milliy bog‘, qo‘riqxona, park-rezervat, modellar.*

Abstract: *The article examines the experience of countries with significant natural potential that have an active policy on planning, regulation, support, promotion and monitoring of ecotourism. Systematic approaches and progress in different countries or experiences can be recommended as "the right solution" because they show how ecotourism can contribute to the achievement of sustainable development goals*

Key words: *Ecological tourism, economic stability, national park, reserve, park-reserve, models.*


Turizm jahonning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiyoti tarkibida tez rivojlanayotgan va salmoqli o‘rinni egallaydigan tarmoq bo‘lib, unda ekologik turizm innovatsion yo‘nalish sifatida jadal rivojlanayotgan yo‘nalishga aylandi. Ekologik turizm tabiat bilan kishilarning uzviy bog‘liqligi va bevosita muloqotini rivojlantirishga va tabiatda huzur-halovat, madad quvvat, bilim, tashkil etuvchilarga esa katta daromad olishga, umuman ekologik iqtisodiy barqarorlik va muvozanatni saqlagan holda faol dam olishga asoslanadi, an'anaviy ko‘ngil ochish, maishiy komfort (qulaylik) esa ikkinchi o‘ringa tushadi. Unda yuqori darajada xizmat ko‘rsatadigan mehmonxonalar o‘rnini oddiy chodir, uy-mehmonxona va kempinglar, tabiat qo‘ynida dam olish, sayoxat qilish egallaydi. Bugungi kunda ekologik turizm jadal rivojlanib borayotgan turizm yo‘nalishlarining biridir. Bu sohaning jahon turizm industriyasidagi ulushi 4%, ekoturizm xizmatlaridan olinadigan daromad esa 55 mlrd. AQSh dollarini tashkil qiladi [1].

Jahonda ekoturizmni rivojlantirishda yagona, ya’ni universal, har bir davlatning tabiiy va iqtisodiy sharoitiga mos keladigan model hozirgacha ishlab chiqilmagan. Lekin ko‘plab davlatlarda ekoturizmni rivojlantirishning tayanch hududlari sifatida milliy bog‘ (park) va qo‘riqxonalar qabul qilingan. Milliy parklar – faoliyati tabiiy landshaft va biologik xilma-xillikni saqlash funksiyalarini bajarish bilan birga rekreasiyani rivojlantirishga qaratilgan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar. Hozirgi vaqtda dunyoda 3 mingdan ortiq milliy bog‘lar bor [3].

Ko‘p hollarda milliy bog‘lardan ekoturizmda foydalanishda xususiy moliyaviy ta’minot qo‘llanilmoqda. Ekoturizmning prinsiplariga binoan, ekoturist tabiat bag‘rida dam olganligi uchun minimal xaq to‘laydi. Hozirda milliy bog‘lar hududida ekoturizm sohasidagi pullik xizmatlar jahonning 30 dan ortiq davlatlarida rivojlanmoqda. Dunyo bo‘yicha milliy bog‘larning yillik daromad hajmi 1 mlrd. AQSh dollaridan oshadi. Milliy bog‘lardan ekoturizmda foydalanishdan Kanada har yili 250 mln dollar, AQSh esa 870 mln dollar foyda topmoqda (Хайитбоев Р). Yaponiyaning milliy bog‘lariga har yili 316 mln. xorijiy va ichki ekoturistlar tashrif buyuradi [1].

Tabiiy go'zalligi bilan ajralib turadigan mamlakatlarda turizm ko'pincha milliy bog'larni yaratishning asosiy sababidir. Masalan, Kosta-Rika o'z hududining 30 foizini qo'riqxona deb e'lon qildi. Bu mamlakatda turizm yetakchi daromad manbai bo‘lib, yiliga 650 million dollarga etadi. Janubiy Afrikada ekoturizm rentabellik bo'yicha olmos qazib olishdan keyin ikkinchi, Alyaskada esa neft qazib olishdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Keniyaning milliy bog‘lardan foydalanishdan yillik daromadi 450 million dollarga yetadi [5]. Italiya Davlat Statistika Instituti (ISTAT) ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yil oxiriga kelib Italiyada 9718 ta qishloq dam olish muassasalari ro'yxatga olingan, bu 2017-yilga nisbatan 14,7% ga o'sgan. Ushbu fermer xo'jaliklarining 45% Italiyaning shimoli-sharqida, asosan Bolzano provinsiyasida (27,6%) joylashgan. Qishloq turizm ob'ektlarining 24% Italiyaning markaziy mintaqalarida to'plangan, ularning aksariyati Toskanada (15%) to'plangan. Qishloq turizmi Italiyaning janubida va orollarda kam uchraydi [3].

Hozirgi vaqtda milliy bog‘larning 5 ta modeli bor: Amerika, Yevropa, Osiyo, Avstraliya hamda park-rezervat modellari.



(1-rasm. Milliy bog‘larning modeli) [1]

Milliy bog‘larning Amerika modelida muhofaza etiladigan hududlarning juda kattaligi bilan xususiyatlanadi. Grenlandiyadagi “Grenlandiya” (maydoni 70 mln. ga), AQShdagi “Alyaska” (maydoni 7,3 mln. ga), Kanadadagi “Bud-Baffalo” (maydoni 4,4 mln. ga), Botsvanadagi “Markaziy Kalaxari” (maydoni 5,2 mln. ga), Mongoliyadagi “Gobi” (maydoni 5 mln. ga), Rossiyadagi Kolima (maydoni 3 mln. ga) milliy bog‘lari ushbu modelga mos muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning misollari hisoblanadi.

Bu modeldagi dastlabki milliy bog‘ Amerika Qo‘shma Shtatlarida 1872 yilda tashkil etilgan, hozirda dunyoga mashhur Yellouston milliy bog‘i hisoblanadi. AQSh va Kanadada milliy bog‘larning maydonlari tobora kengayib bormoqda. Hozirgi paytda Kanada hududining 12 foizi milliy bog‘larga to‘g‘ri keladi (Александрова А.Ю). Bu erda milliy bog‘lar davlat tasarrufida bo‘lib, ba'zi xollarda yirik korporasiyalarga ijaraga beriladi, lekin shunda ham milliy bog‘ tabiati muhofazasini nazorat qilish huquqi davlat hokimiyatida saqlanadi [4].

AQShda milliy bog‘larni moliyalashtirish juda baland. Milliy bog‘larni saqlash uchun federal hukumat ham, shtatlar ham mablag‘ ajratadi. Bunga qo‘shimcha bo‘lib xususiy mulkdorlar ham mablag‘ qo‘shishadi (milliy parklardagi rekreasiya xizmatlarining yarmi xususiy sektorda). Shuning uchun ham Shimoliy Amerikadagi milliy bog‘lar dunyodagi eng boy milliy bog‘lardir.

Milliy bog‘larning Yevropa modeli. Evropadagi dastlabki milliy bog‘ 1909-yilda Shvesiyada tashkil etilgan. Ammo bu modeldagi muhofaza etiladigan hududlarning tipik namunalari Buyuk Britaniyada tashkil qilingan bo‘lib, ayrim hollarda milliy bog‘larning Evropa modeli ingliz model deb ham ataladi. Bu modeldagi milliy bog‘lar aholisi zich joylashgan hamda shaharlashuv darajasi juda yuqori bo‘lgan G‘arbiy Evropa davlatlari va Yaponiyada keng tarqalgan [5].

Bu modeldagi milliy bog‘larning asosiy xususiyatlari hududiy jihatdan kichikligi, erlarining katta qismi xususiy mulkda ekanligi, boshqaruv jarayonida mahalliy hokimiyat va o‘zini-o‘zi boshqarish tuzilmalarning keng ishtiroki, rekreasion funksiyalarining birlamchiligi hamda qo‘proq mahalliy (atrofdagi) sayyohlarga xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashganligidan iborat. G‘arbiy Evropa va Yaponiyadagi milliy bog‘larning moliyalashtirish va rentabellik darajasi ekoturistlar oqimi kattaligi hisobiga ancha yuqori.

Rezervat-park modelining rivojlanish konsepsiyasi o‘ziga xos mazmunga ega. Bu modeldagi milliy bog‘larni moliyalashtirish davlat hisobidan amalga oshirilmasdan, ekoturistlarga pullik xizmat ko‘rsatish hisobiga amalga oshiriladi. Bu modeldagi milliy bog‘larning faoliyatining bosh prinsipi o‘zining ichki imkoniyatlar va resurslarga tayanishdir. Bu model XX asr o‘rtalarida shakllanib, hozirda rivojlanayotgan davlatlar, ayniqsa Afrika va Karib havzasidagi mamlakatlarda keng tarqalgan. Milliy bog‘larga kirish chiptasining bahosi ancha past, shuning uchun ham xizmatlaridan turistlar (ayniqsa xorijiy davlatlardan tashrif buyuradiganlari) juda ko‘p foydalanishmoqda [6].

Milliy bog‘larning Osiyo modeli hozirgi vaqtda shakllanish bosqichida. Osiyodagi milliy bog‘larning aksariyat qismi Tailand, Shri-Lanka, Bangladesh, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Filippin va Koreya Respublikasi kabi davlatlarda joylashgan. Aholi zichligining yuqoriligiga qaramay, Osiyo davlatlarida milliy bog‘larning soni ko‘payib, yer fondi kengayib bormoqda. Koreya Respublikasidan tashqari, aksariyat Osiyo mamlakatlarida milliy bog‘lar davlat tasarrufida va moliyalashtirilishi, asosan davlat zimmasida. Ammo moliyalashtirish miqdori xattoki Afrikadagi ko‘pchilik milliy bog‘larga nisbatan pastroq. Odatda, milliy bog‘larni moliyalashtirishga xorijiy sarmoyalardan foydalanilmaydi. Milliy bog‘larning moliyaviy ahvoli Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyodagi yangi sanoatlashgan mamlakatlar, ya'ni Koreya Respublikasi, Malayziya va Tailandda eng yuqori darajada bo‘lmoqda. Osiyodagi milliy bog‘larga tashrif buyurayotgan sayyohlarning soni borgan sari ortib bormoqda va ayrim davlatlarda (birinchi navbatda, Tailandda) Karib davlatlarining darajasiga yaqinlashdi. Osiyo modelidagi milliy bog‘larning yana bir xususiyati ularning faoliyatiga katta miqdordagi ishchi kuchining jalb qilinganligi bilan tavsiflanadi. Demak, Osiyo davlatlaridagi milliy bog‘lar iqtisodiy jihatdan yuksalishga tomon rivojlanib bormoqda. Milliy bog‘larning Osiyo modelida boshqa modellarning turli qirralarini mujassam qilishga bo‘lgan intilish kuzatilmoqda.

Milliy bog‘larning Avstraliya modeli. Avstraliya Ittifoqi ekologik turizmni o‘ziga xos tamoyillarga asoslangan holda tashkil qila turib, jahonda ekologik turizmni rivojlantirayotgan etakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Avstraliyada milliy bog‘lar hududida ekoturizmni rivojlantirish ishlari puxta asoslangan federal hamda hududiy rejalar orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladi. Bunda federal hukumat shtatlar va hududlarning takliflarini hisobga olgan holda qarorlarni qabul qiladi. Eng muhimi shundaki, ekologik turizmni tashkil qilishda mahalliy (aborigen) aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hisobga olinadi va ekoturistik xizmatlarni amalga oshirish to‘liq ularga topshiriladi. Bu holat mahalliy aholining ish va daromad manbai bilan ta'minlash, kichik qishloqlarning infratuzilmasini modernizasiya qilish muammolarini hal qilishga ko‘maklashadi [7]. So‘nggi o‘n yillikda ekoturizm o‘z rivojlanishining katta bosqichini bosib o‘tdi. Tabiiy hududlarga tashrif buyurish, mahalliy xalqlar madaniyati, turmush tarzining o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishish, yovvoyi tabiatni kuzatishga qiziqish ortib bormoqda, bu esa butun dunyo bo‘ylab ekoturizm loyihalari sonining ko‘payishiga olib keldi. Turli iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlar hukumatlari o‘z hududlarida ekoturizmni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqmoqda va bu jarayonni izchil qo‘llab-quvvatlamoqda.

LITERATURE

1. Бишоп К.,Грин М., Филипс А. Модели национальных парков / К. Бишоп, М. Грин, А. Филипс - М.: Изд. ЦОДП, 2000. – 213 с.
2. Xayitboev R. Ekologik turizm. – Samarqand, 2010. – 60 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2-dekabrdagi “Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4861-sonli Farmoni.
4. Ердавлетов С.Р. География туризма: история, теория, методи, практика. - Алмати, 2000. – 336
5. Александрова А.Ю. Международний туризм: учебник. - М.: Аспект Пресс, 2002. - 470 с
6. Maksanova L., Guseva E., Baast Oyungerel, Ayusheeva S., Munkueva V. International experience of ecotourism development: Country specifi cs and common approaches. In: Bulletin of the Moscow Regional State University, Series: Natural Sciences, 2019, no. 2, pp. 54–66. DOI: 10.18384/2310-7189-2019-2-54-66
7. Рудакова Современное состояние и перспективы развития мирового экотуризма // Проблемы экономики. 2009. №2 (9). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennoe-sostoyanie-i-perspektivy-razvitiya-mirovogo-ekoturizma

ҚАРАҚАЛПАҚСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ ТУРИЗМ ТАРАЎЫНЫҢ ҲӘЗИРГИ РАЎАЖЛАНЫЎ БАҒДАРЫ, ШЕТ ЕЛЛЕР МЕНЕН БИРГЕ ИСЛЕСИЎИ

Отенов Нариман Турдымуратович
Әжинияз атындағы НМПИ. Нөкис қаласы
E-mail otenov.nariman@mail.ru

Туризм – бүгинги күнде дүньяның көпшилик мәмлекетлериниң социал – экономикалық, мәдений ҳәм сиясий искерлигиниң жетекши тараўларынан бирине айланды.

Саяхат етиў тек ғана заўық яки ойын – күлги болып қалмай, инсанның руўхый ҳәм интелектуаллық талапларын қандырыў, физикалық күшин тиклеў ҳәм раўажландырыў менен байланыслы болған инсан өмириниң ажыралмас бөлегине айланып бармақта.

Халықаралық туризм – саяхат ҳәм жолаўшы тасыў хызметлерин қосып есаплағанда дүнья хызметлер экспортының 29 % қурайды. Дүньяда туризм экспорт объекти ретинде нефть, химия, азық – аўқат өнимлери ҳәм санааттан кейинги төртинши орынды ийелейди, ал көпшилик раўажланып атырған мәмлекетлерде болса биринши орында турады.

Дүнья жүзлик туризм шөлкеминиң 2019 жылғы туризм экспорты ҳаққындағы мағлыўматы дерек: (World Tourism Organization, UNWTO).

№	Мәмлекет	туризм экспорты %
1	Макао	87,6%
2	Палау	86,3%
3	Мальдивы	85,3%
4	Гренада	84,3%
5	Антигуа и Барбуда	84,3%
6	Аруба	82,0%
7	Сент-Люсия	81,3%
8	Сент-Винсент и Гренадины	76,3%
9	Сан-Томе и Принсипи	73,2%
10	Багамы	70,4%
11	Доминика	68,5%

Мәмлекетимизде де барлық тараўлар қатарында туризмди раўажландырыўға да айрықша итибар қаратылып, бул бағдарда кең көлемли жумыслар әмелге асырылмақта.

Нәтийжеде кейинги жылларда туризм экономиканың стратегиялық тармақларынан бири ретинде жеделлик бенен раўажланбақта. Тараў алдында турған турған бир қатар машқалалар сапластырылыўы нәтийжесинде унамлы көрсеткишлерге ерисилди.

2022-жылы республикамызға келген сырт елли туристлер саны 2021 жылға салыстырғанда 2 есеге көбейди ҳәм 50 мыңды қурады.

Ишки туристлер саны да 2021-жылға салыстырғанда 3 есеге өсип, 600 мыңды қурады.

2016-жылда Қарақалпақстанда тек ғана 18 жайластырыў орыны болған болса, бүгинги күнде олардың саны 5 есеге артып улыўма 94 ке жетти. Соннан: мийманханалар 28, шаңарақлық қонақ үйлери 43, хостеллер 23, олардағы орынлар саны 2 мыңды қурайды.

Бүгинги күнде 54 туроператор ҳәм турагентлер республикамыз ҳәм шет еллик туристлерге хызмет көрсетпекте.

Инвестиция бағдарламалары ҳәм де қосымша инвестиция жойбарлары шеңберинде 2022-жылы Туризм ҳәм оған жолдас хызмет көрсетиў тараўларында 60 жойбар иске түсирилди ҳәм 111 млрд. 169 млн. сўм инвестиция қаржылары өзлестирилди.

Арал бойы машқалалары, оларды сапластырыў ҳәм де регионда туризмди раўажландырыў бойынша кең көлемли жумыслар бойынша дүнья жүзлик жәмийетшилигин жақыннан таныстырыў, шет мәмлекетлери, халықаралық шөлкемлер грантлары ҳәм инвесторлары қаржыларын аймаққа тартыў бойынша Германия халықаралық бирге ислесиў шөлкеми (GIZ) тәрепинен туризм стратегиясын ислеп шығыў, үгит нәсият материалларын таярлаўда ҳәм аймақтың тур компанияларының халықаралық туризм ярмакаларында қатнасыўын тәмийнлеў мақсетинде 300 мың евро грант ажыратылды. Усының менен бирге, жойбар шеңберинде Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университетинде туризм лабораториясы ашылды. (2023 жыл май айында ашылған).

Республикамызға туристлерди еледе көбирек тартыў мақсетинде «НаврУЗ», «Миллий ат ойынлары», «Стихия», «Арал балықларынан 99 түрли тағамлар», «Мойнақ ҳәм Аралдың қайта тиклениўи», «Муйнак ралли» сыяқлы илажлар өткерип келинбекте.

Қарақалпақстан Республикасының туризм потенциалын ен жайдырыў мақсетинде Россия Федерациясының «РОССИЯ 24» ҳәм «РЕН ТВ», Башқуртстан Республикасының орайлық телеканаллары, Қазақстан Республикасының «ХАБАР 24» телеканалы, соның менен бирге АҚШтың «The Washington Post» газетасының журналистлери ушын Қарақалпақстанға пресс-тур шөлкемлестирилип хүжжетли фильм, репортажлар таярланды ҳәм де мақалалар жәрияланды.

2022-жылдың 23-25-ноябрь күнлери Қазақстан Республикасының Ақтаў қаласында Қарақалпақстан Республикасы ҳәм Қазақстан Республикасының туризм тараўындағы рәсмий ўәкиллери ҳәм де исбилерменлик субъектлери арасында ушырасыў шөлкемлестирилди.

2023-жылдың 7-9-март күнлери Германияның пайтахты Берлин қаласында «ITB BERLIN 2023» халықаралық туризм ярмаркасында Қарақалпақстан Республикасы делегациясы ағзалары қатнасып Қарақалпақстанның туристлик потенциалы кең үгит-нәсият етилди.

«Aral Dream» халықаралық PR бағдарламасы шеңберинде 2022-жыл 17-18-май күнлери Францияда өткерилген 75-Канн халықаралық кино фестифалы шеңберинде «Aral Dream» бағдарламасының презентациясы өткерилди.

Жуўмақлап айтқанда Қарақалпақстанда туризм тараўын еле де раўажландырыў ушын Өзбекистан Республикасының Президентиниң 2023 жыл 26-апрельдеги ПҚ-135-санлы «Республиканың туризм потенциалын жедел раўажландырыў ҳәм де жергиликли ҳәм шет елли туристлер санын жәнеде асырыўға тийисли қосымша ис-илажлар туўрысындағы» қарары бойынша бир қанша жумыслар исленбекте ҳәм бул ис-илажлар еле де даўам етеди.

Пайдаланылған дереклер:

1. Өзбекистан Республикасының Президентиниң 2023 жыл 26-апрельдеги ПҚ-135-санлы «Республиканың туризм потенциалын жедел раўажландырыў ҳәм де жергиликли ҳәм шет елли туристлер санын жәнеде асырыўға тийисли қосымша ис-илажлар туўрысындағы» қарары.
2. Дүнья жүзлик туризм шөлкемининиң 2019 жылғы туризм экспорты ҳаққындағы мағлыўматы (World Tourism Organization, UNWTO) https://www.unwto.org
3. Қарақалпақстан Республикасы Туризм ҳәм мәдений мийрас министрлиги мағлыўматлары 2022-2023 жыллар ушын.

ТУРИЗМНИҢ РАЎАЖЛАНЫЎЫНДА И.В.САВИЦКИЙ АТЫНДАҒЫ КӨРКЕМ ӨНЕР МУЗЕЙИНИҢ ӘҲМИЙЕТИ

Бахтиярова Шахина Дәнияр қызы
Базарбаева Зулайха Умиджон қызы
Әжинияз атындағы НМПИ. Нөкис қаласы ГҳЭБТ 4б курс студентлери

Илимий басшы: **Отенов Нариман Турдымуратович.**
E-mail otenov.nariman@mail.ru

Қарақалпақ халкы өзиниң миллий мәденияты, әжайып көркем өнери, классикалық әдебияты, үрп әдетлери ҳәм дәстүрлерине ийе. Ғәрезсизлик шарапаты менен Қарақалпақстанда әййемнен киятырған көплеген қәдириятлар тикленип, тарийхый орынларға үлкемиз тәбиятына шет елли адамларды қызығып туристлердиң саны жылдан жылға артпақта**.** Усындай туристлердиң ең көп келип тамашалайтуғын орны бул И.В.Савицкий атындағы Қарақалпақстан мәмлекетлик көркем-өнер музейи болып табылады.

1966-жыл Қарақалпақ мәмлекетлик үлке таныў музейи тийкарында мәмлекетлик көркем-өнер музейи шөлкемлестириўшиси ҳәм оның биринши директоры И.В.Савицкий өзи профессионал художник болыўына қарамастан археология илими менен қатты қызығыўшы инсан еди. Себеби ол XX әсирдиң елиўинши жылларының басында бизиң үлкемизге келиўинде усы археология себепши болған, анығырақ айтқанда профессор С.П.Толстов басшылығында 1937-жылдан берли Қубла Арал бойында ислеп атырған Хорезм археологиялық экпедициясының художниги сыпатында келген. И.В.Савицкий Әмиўдәрьяның төменги жағалаўлары, Арал теңизиниң Қубласындағы әййемги ҳәм орта әсирлердеги естеликлерди биринши көрген күнинен-ақ бул үлкениң тарийхына, тәбиятына ашық болып қалған ҳәм өзиниң қалған өмирин бизиң жеримиз бенен биротала байланыстырған. И.В.Савицкий қолы босаған ўақытта археологиялық естеликлерге барыўға, олардың көринислерин қағазға түсириўге, мүмкиншилиги болса археологиялық қазыў жумысларына қатнасыўға ҳәрекет еткен. Ол топлаған көпшилик естеликлер картиналары бүгинги күни Қарақалпақстанның ҳәм баска қалалардың музей залларын безеп турыпты. Соның менен бирге И.В.Савицкий 1966-жылы көркем-өнер музейин шөлкемлестирген биринши күнлеринен баслап усы музей қапталында археологиялық топар топлап үлкемиздиң әййемги ҳәм орта

әсирлердеги естеликлерин изертлеў жумысларын алып барыў менен шуғылланды. Бул исте оған С.П.Толстов басшылығында ислеп атырған Хорезм археолого-этнографиялық экпедиция ағзалары менен Өзбекстан Илимлер академиясы Қарақалпақстан филиалы қәнийгелери жақыннан жәрдем берди.

И.В.Савицкийдиң ислеген мийнети Өзбекистан ҳүкимети тәрепинен жоқары баҳаланып 2002 жылда биринши президент И.А.Каримов тәрепинен “Буюк хизматлари учун” ордени менен қайтыс болғанынан кейин сыйлықланды.

Савицкий баркулла музейде тек ғана жергиликли халық емес, бәлким пүткил дүнья искусствоны сүйиўшилер келип көриўин қәлер еди. Бүгинги күни оның усы арзыў әрманы әмелге асты.

Мәмлекетимиз ғәрезсизликке ерисиўи менен музейге дүньяның түрли жерлеринен Европа, Америка, Азия, ҒМДА еллеринен, АҚШ, Австралия ҳәм басқада жерлерден туристлер ағымы келип көрмекте. Музей коллекциясындағы ең жақсы дөретпелер Россия, Германия, Франция, Италия, Голландия, АҚШ, Австралия еллеринде көргизбелерде қойылды.

2017-жылы 5-апрельде Өзбекистан Республикасы Президенти Ш.М. Мирзиёев Россия Президенти В.В.Путин менен Москвада ушырасыўда музейдиң Москва қаласындағы «Сокровища Нукуса» атлы шөлкемлестирген көргизбесин барып көрди.

Ҳәзирги ўақытта «Нөкис музейи дослары клубы» шөлкемлестирилген ҳәм бул клуб ағзалары турли еллердеги атақлы адамлар есапланады.

Халықаралық пресса өз мақалалары ҳәм көрсетиўлеринде музей ҳаққында айтып өтпекте. Музей YUNESKO менен биргеликте шөлкемлестирген «Хорезмниң Алтын жүзик» саяхат бағдары объектлери қатарына киреди. Өзбекистанның ең көп баратуғын музейлериниң бири сыпатында тән алынған ҳәм 2011 жылда мәмлекетимизде өзине саяхатшыларды актив тартқаны ушын «Саяхатшылар итбарын тартқан музей» дипломы менен сыйлықланды.

Өзиниң шөлкемлескенине алпыс жылдан аслам дәўирди өз ишине қамтыған музей айрықша болып есапланады. Себеби халқымыздың, елимиздиң тарийхын усы музейде әййем заманлардан бүгинги күнге шекемги басып өткен узақ дәўирин көзиңиздиң алдынан өткериўиңизге болады. Археолог алымлардың дала изертлеўлери ўақтын да да тапқан

әжайып табылмалары усы музейге алып келип қойылған ҳәм ол даўам ете береди.

«Саҳрадағы Лувр» деген атқа ийе пайтақтымыздағы И.В.Савицкий атындағы мәмлекетлик көркем өнер музейи ҳәзир өзиниң 90-мыңнан асламырақ бай көргизбелерине ийе. Музейде Россия ҳәм Туркстанның авангард және поставангард көркем өнер үлгилери, Қарақалпақстанның безеў буйымлары, әййемги Хорезмниң археологиялық экспонатлары музейдиң тийкарын қурайды. Қәнигелер менен жәҳән баспа сөзи ўәкиллериниң баҳлаўынша. Бул музейдеги топламлар Азия материгиндеги ең жақсы, ең бийбаҳа коллекциялар саналады. Бул авангард топламлары саны ҳәм көлеми бойынша жәҳәнде Санкт-Петербург қаласындағы Рус авангарды коллекциялары топланға Рус музейинен кейин екинши орында турады.

Жуўмақлап айтқанда музейдиң туризмди раўажландырыўдағы әҳмийетиниң бир мысалы ретинде усы 2024-жылы Италияның Флоренция қаласындағы жылына бир миллион адам баратуғын XVI әсирде тийкар салынған Уффици галереясында, И.В.Савицкий атындағы Мәмлекетлик көркем-өнер музейиниң көргизбесиниң шөлкемлестирип атырғанлығын айтып өтсек болады. 2023-жыл январь айында Уффици галереясы директоры Айке Шмидт ҳәм «Мәденият ҳәм искусстваны раўажландырыў фонды»ның атқарыўшы директоры Гаянэ Умерова арасындағы шәртнамаға қол қойылды.

Пайдаланылған дереклер:

1. Г.Хожаниязов, О. Юсупов, Үлке таныў музейиниң тарийхынан //Жас ленинши газетасы, 17-май 1988.
2. 05.04.2017 Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан
3. «Газета.uz» 2023-жыл 12-январь
4. http://museum.kr.uz/

ШАҲАРЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИНГ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ

Узакбаев К.К.,
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти ассистент ўқуитувчиси

Турғанбаев Д.Н.
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти талабаси

Шаҳарлар истисно сифатида тавсифланган сўз ва иборалар кам эмас. Масалан: «Шаҳарлар – инсон фаолиятининг ажралмас қисмидир», «Шаҳарлар бутун ривожланиш тарихида инсоният цивилизацияси томонидан яратилган нарсаларнинг энг яхшисидир», «Шаҳарлар – инсониятнинг маънавий устахоналари», «Шаҳар – маданиятнинг энг кучли ва мукаммал тимсолларидан бири», «Шаҳарлар тараққиёт двигателидир» [21].

Рус иқтисодий географи А.И.Алексеев таъкидлаганидек “шаҳар одамларнинг катта консентрацияси, кўп қаватли бинолар, юқори тирбандлик” [16]. Деҳқончилик ва чорвачиликка керак маҳсулотларни ясайдиган ҳунармандлар қатлами пайдо бўлгач, ҳунармандлар мавзелари пайдо бўлиши оқибатида қишлоқлар йириклашиб дастлабки шаҳарлар пайдо бўла бошлади. Кейинчалик шаҳарларда саноат корхоналари, ижтимоий инфраструктура объектлари пайдо бўлди.

Ижтимоий инфратузилма шаҳар аҳолисининг турли хил хизмат турлари – таълим, даволаш, дам олиш, озиқ-овқат ва саноат маҳсулотларини сотиб олиш, поябзал ва кийим-кечак тикиш, маиший техника, квартираларни таъмирлаш ва ҳоказоларга бўлган эҳтиёжларини қондиришга қаратилган. Аҳолига кўрсатиладиган хизматлар турлари жуда кенг, шунинг учун бу соҳада кўплаб тармоқлар мавжуд. Хизмат кўрсатиш муассасалари ва корхоналарининг шаҳар ҳудуди бўйича тақсимланиши шаҳар аҳолиси томонидан ташриф буюриш тезлигига (частота) ва хизматларнинг хусусиятига боғлиқ. Кундалик хизмат кўрсатиш объектлари турар-жой маҳаллаларига иложи борича яқинроқ бўлса, даврий талаб қилинадиган хизматларни кўрсатадиган муассасалар ва корхоналар тез-тез ташриф буюриладиган жойлар яқинида жойлашган. Маданий инфратузилма объектлари – театрлар, концерт ва кўргазма заллари, музейлар, шунингдек, энг йирик савдо мажмуалари, марказий бозорлар

шаҳарнинг марказий қисмида жойлашади.

Шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларига кўра ижтимоий ва маданий-маиший хизмат кўрсатиш муассасалари ва корхоналари тармоғини ташкил этилишини ижтимоий хизмат кўрсатишнинг қарор топган тизимларига мувофиқ тарзда, яшаш жойида ижтимоий хизмат кўрсатиш билан таъминланганлик даражасини ҳисобга олиб лойиҳалаштиришзарур.

Ижтимоий ва маданий-маиший хизмат кўрсатиш тизимининг ташкил этилиши қуйидагиларни таъминлаши керак:

- хизматларни олиш учун маблағ, куч ва вақтни энг кам сарфлаган ҳолда хизмат кўрсатишнинг оммавий ва якка тартибдаги турларининг тўлиқ комплексини;

- шаҳарсозлик ривожланишининг ҳар бир босқичида хизмат кўрсатиш даражасини изчил тарзда секин-аста оширилиб боришини;

- жамоат ва хусусий хизмат кўрсатишнинг янги усуллари, шакллари ва турларини жорий этиш ва уларни янада такомиллаштириш.

Шаҳарларда аҳолига таълим, тиббий, савдо, мадаъний-маиший хизмат кўрсатиш муассасалари ва корхоналарини географик жойлаштириш муҳим бўлиб, Шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларида [22] аниқ кўрсатиб берилган (1-жадвал).

Қуйидагии жадвалдан маълумки шаҳарларда болалар мактабгача муассасаларига борадиган болаларнинг уйлари, боғчадан ўртача 300 метр узоқликда жойлашиши зарур. Шаҳарнинг чекка 1-2 қаватли турар-жой бинолари жойлашган туманларида эса бу оралиқ 500 метргача боради.

1 –жадвал

ШАҲАРЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ МУАССАСАЛАРИ ВА КОРХОНАЛАРИНИНГ ХИЗМАТ КЎРСАТИШ РАДИУСИ

Муассасалар ва корхоналар	**Хизмат кўрсатиш радиуси, м**
	шаҳар
Умумий турдаги болалар мактабгача муассасалари	300
Худди шундай, кам зичликда 1-2-каватли турар-жой биноларида	500
Умумтаълим ўқув юртлари: 1 босқич – бошланғич синфлар	300-500
II босқич – V-IX синфлар	500-750
Ҳордиқ ва жисмоний-соғломлаштиришфаолияти учун мўлжалланган бинолар	200-500

Маҳалла марказлари (жамоат идоралари, яшаш жойи ёнидаги ҳордиқ жойлари)	150-300
Савдо, умумий овқатланиш ва маишийхизмат корхоналари: Маҳаллий аҳамиятга эга марказлар кундалик қатнов	300-500
Даврий қатнов (жумладан ноозиқ-овқат дўконлари, бозорлар)	1000-1500
Дорихоналар, сут ошхонаси тарқатиш пунктлари, алоқа бўлимлари, банкфилиаллари	500
Шу каби, кам зичликда 1-2-каватликурилмаларда	600-800
Поликлиникалар ва филиаллари (қишлоқжойларда: амбулаториялар, фельдшер-акушер пунктлари)	800-1500
Туман аҳамиятидаги жисмоний-спорт марказлари	1000-1500

Бошланғич синф ўқувчиларининг мактабга қатнаш оралиғи 300 дан 500 метргача, юқори синф ўқувчиларники эса 500-750 метр бўлиши кўзда тутилган. Ҳордиқ ва жисмоний-соғломлаштириш фаолияти учун мўлжалланган бинолар 200-500 метр, маҳалла марказлари (жамоат идоралари, яшаш жойи ёнидаги ҳордиқ жойлари) 150-300 метр, савдо, умумий овқатланиш ва маиший хизмат корхоналари: маҳаллий аҳамиятга эга марказлар кундалик қатнов 300-500 метр, даврий қатнов (жумладан ноозиқ-овқат дўконлари, бозорлар) 1000-1500 метр, дорихоналар, сут ошхонаси тарқатиш пунктлари, алоқа бўлимлари, банк филиаллари 500 метр, поликлиникалар ва филиаллари (қишлоқ жойларда: амбулаториялар, фельдшер-акушер пунктлари) 800-1500 метр, туман аҳамиятидаги жисмоний-спорт марказлари 1000-1500 метр радиусда бўлиши Шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларида назарда тутилган.

Кўрсатилган хизмат кўрсатиш радиуслари болаларнинг махсус ва соғломлаштириш муассасалари, болалар ясли-боғчалари ва ихтисослаштирилгантаълим мактаблари (тиллар, математика ва бошқалар), гимназиялар, лицейлар ва ҳоказоларга тегишли эмас.

Шаҳарларда хизмат қурсатиш муассасалари ва корханаларини жойлаштириш шаҳар аҳолисининг фаровон турмушини кафолатлаши билан бирга, шаҳарнинг кўркига кўрик қўшади. Ишчилар ва уларнинг оила аъзоларининг қулай дам олиши, тиббий, таълим хизматларига бўлган эҳтиёжларини ўзи учун қулай жойдан олишига ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. Kurbanov Bekmetovich, Shukhrat and Orinbayevich, Medetbay Oteuliev. "Territorial Differences in Living Standards in Uzbekistan" Quaestiones Geographicae, vol.40, no.4, 2021, pp.63-70. https://doi.org/10.2478/quageo-2021-0038
2. Iskenderov, A. B., Uzaqbaev, Q. K., Sharibaev, A. M., & Djanabaev, I. B. (2019). Turizm hám rekreaciyalıq geografiya” páninen oqıw-metodikalıq qollanba. *Nókis-2019*, *128*.
3. Turdimambetov, I., Joldasov, A., Iskenderov, A., & Uzaqbaev, Q. (2022). Qaraqalpaqstannm ekonomikaliq ham socialliq geografiyasi.
4. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Oteuliev M. O. TERRITORIAL FORMATION OF THE EDUCATION SYSTEM IN IMPROVING THE QUALITY OF LIFE OF THE POPULATION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 276-279.
5. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Niyazimbetova G. CURRENT STATUS OF MEDICAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Science and education in Karakalpakstan.–2020. – 2020. – Т. 2. – С. 104-108.
6. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari." *Fan va jamiyat* (2022).
7. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Xaliqqa xizmet ko'rsetiw tarawlari ekonomikasinin'geografiya ilimindegi orni." *Fan va jamiyat* (2019).
8. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Geografiya boyinsha mag'liwmatnama." *NMPI baspaxanası* (2017).
9. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Qaraqalpaqstan Respublikasin ekonomikaliq rayonlastiriwdin'geografiyaliq tiykarlari." *Fan va jamiyat* (2023).
10. Turdimambetov I.R., Oteuliev M.O., Urazbaeva S. Territorial classification of socio-economic indicators of the quality of life of the population in the region. Экономика и социум №10(113)-1 2023. 264-271 p.
11. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Oteuliev M. O. TERRITORIAL FORMATION OF THE EDUCATION SYSTEM IN IMPROVING THE QUALITY OF LIFE OF THE POPULATION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 276-279.

12. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Niyazimbetova G. CURRENT STATUS OF MEDICAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Science and education in Karakalpakstan.–2020. – 2020. – Т. 2. – С. 104-108.
13. Uzakbaev K. K., Jaksımuratov A. B., Turǵanbaev D. N. ÚSH SEKTORLÍ EKONOMIKA TÚSINIGI HÁM ONÍŃ KEMSHILIKLERI //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 655-658.
14. Xodjaeva G.A., Dauletbaeva D.D. QORAQALPOG ‘ISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AHOLISINING O ‘SISH DINAMIKASI. "Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Toshkent, 15-16 aprel, 2022. 364-368 b.
15. Алексеев А.И. География сельской местности. М., 1989, - 173 с.
16. Алексеев А.И. Многоликая деревня: (населения и территория). – М.: Мысль, 1990. – 266 с. 11 с.
17. Алексеев А. И., Ковалев С. А., Ткаченко А. А. География сферы обслуживания: основные понятия и методы. – 1991. 117 с. 46 с.
18. Бекбулатова Г.А., Абленова А.Б., О некоторых методах географических исследований сферы обслуживания населения, Промышленный транспорт Казахстана, 2017. №2-2 (55)135-140.
19. Бекбулатова Г.А., Нурбаева А., Основные факторы развития и размещения торгового обслуживания "Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(103) 2022.
20. Бекбулатова Г.А., Авезова Н., Региональные аспекты организации развития и размещения сфер торгового обслуживания, "Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(103) 2022.
21. Лаппо Г.М. География городов. Учеб. пособие для геогр. ф-тов вузов. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1997. – 480 с.; илл. – ISBN 5-691-00047-0.
22. ШНҚ 2.07.01-03* “Шаҳарсозлик. Шаҳар ва қишлоқ аҳоли пунктлари ҳудудларини ривожлантириш ва қурилишини режалаштириш” / Ўзбекистон Республикаси Давлат Архитектура ва қурилиш қўмитаси – Тошкент, 2009-177 б.
23. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.
24. Узакбаев К. К. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ

КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 845-857.

25. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.

FERTILITY RATE IN UZBEKISTAN IN THE 20TH CENTURY AGAINST THE BACKGROUND OF SOCIO–DEMOGRAPHIC FACTORS

Saidova Zebuniso Amanullayevna,
Geography Lecturer National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Tashkent,
E-mail: saidovazebuniso00@gmail.com

The earliest information about the demographic situation of Central Asia, including Uzbekistan, dates to the second half of the 19th century. More accurate statistical data for Uzbekistan became available in the first half of the 20th century because of the 1926 All-Union Population Census.

There was a decrease in the fertility trend in 1897-1940. [1] This is due, to a certain extent, to the influence of some primarily demographic and socio – economic factors. The age-sex structure of the population is of particular importance for the birth rate.

Statistical information on the age structure of the population in Uzbekistan appeared in the first half of the 20th century. By this period, the proportion of the working age population (men 16-60 years old, women 16-54 years old), as well as children (0-15 years old) was high, while the elderly (men 61 years old and older, women 55 years old and older) were fewer [2]. This is primarily due to the high birth rate (45-47%), as well as the low average life expectancy of the population (32-33 years) [3]. It should also be noted that the civil war (1918-1923), famine, and epidemics had a negative impact on the age structure of the population.

Between 1924 and 1939, Uzbekistan experienced positive changes in its socio-economic conditions. As a result, the proportion of the elderly population rose to 9.0% by 1939, marking a 2.1% increase from 1926.

From 1939 to 1959, significant shifts occurred in the age structure of the population: the shares of children and the working-age group declined, while the elderly population’s share grew further. These changes were attributed to a reduction in the birth rate and the challenging living conditions during the war years. The war’s direct impact (1949-1945) on the demographic processes of the republic began with disruptions in the gender and age structure of the population. In 1939, there were 936 women for every 1,000 men in Uzbekistan. Over time, this disparity lessened, and by 1959 the ratio of men to women was 1000:1083, in 1970 it was 1000:1054, in 1979 it was 1000:1037, and by 1089 it was 1000:1026. Archival data indicates that 49.3 thousand marriages were

recorded in the republic in 1940. This number fell to 33.6 thousand in 1942, to 22.1 thousand in 1943, to 24.7 thousand in 1944, and to 26.7 thousand in 1945. The number of marriages returned to the 1940 level only in 1947, with 49.9 thousand marriages registered [4]. These factors, along with other wartime hardships, led to a decline in the birth rate and an increase in mortality. In 1940, there were 224.3 thousand births. By 1944, this figure had dropped to 69.0 thousand, and the number of deaths that year exceeded the number of births, reaching 73.3 thousand. These changes disrupted the natural population dynamics. In 1945, the total fertility rate was 15.7% lower than in 1940, and the natural population growth rate was 11.8 per thousand.

By the 1970s, the age structure of Uzbekistan’s population had significantly changed during the post-war period. Families were restored, new families emerged, and as a result, the birth rate increased. Consequently, the proportion of children in the general population rose. The birth rate in the region returned to its previous level in 1952. However, by 1979, the age structure of the population had shifted. Data from the 1979 census revealed a decrease in the proportion of children, while the proportion of the working-age population increased. This change was attributed to a decline in the birth rate observed since 1979. Consequently, the population’s reproduction rate decreased. In the 1950s and 1970s, the Republic’s population grew annually by 3.5%, whereas in the 1970s and 1980s, it grew by 2.9%, and in the 1980s and 1990s, by 2.6% [5].

In addition to demographic processes, the level of education and employment of women plays a crucial role in the birth rate trend in Uzbekistan. The educational level of the population is one of the main factors influencing fertility. As the educational level, especially among women, increases, the birth rate tends to decrease. This trend has been observed both nationwide and in specific regions.

Uzbekistan made significant strides in public education during the post-war years. An essential indicator of comprehensive educational growth was the graduation of specialists and the training of qualified workers across various educational institutions:

- In 1988, 41.5 thousand people graduated from higher educational institutions, which was 12.5 times more than in 1940.
- Secondary educational institutions saw 93.4 thousand graduates, a remarkable increase of 27.5 times compared to 1940.
- 294.6 thousand people received full secondary education, marking a 5.6-fold increase from 1960.

A significant increase in graduates from secondary schools of all types, technical schools, universities, and other educational institutions has contributed to an overall rise in the education level of the entire population. In 1959, there were twenty-one people with higher education per thousand employed individuals aged 15 years and older, and thirty-six people with secondary specialized education. However, by 1989, these numbers had increased significantly to 92 and 150, respectively. [6]

The 1989 census data objectively reflects the achievements and improvements in the educational level of both urban and rural populations in the republic. Specifically:

- In 1989, compared to 1959, among the urban employed population aged 15 years and older, the number of individuals with higher education, specialized secondary education, and full secondary education had increased by more than three times.
- For rural populations, the corresponding indicators were 8.1 times for persons with higher education, 6.0 times for secondary specialized education, and 8.4 times for complete secondary education. [7]

Of particular note are the great achievements in raising the educational level of women in Uzbekistan. In 1988, the number of women among students in higher educational institutions was 46%, while in secondary specialized educational institutions, it was 52%. The employment of female specialists with higher and secondary specialized education in the national economy also increased. Their numbers grew from 107.2 thousand in 1960 to 816.0 thousand in 1987, representing a 7.6-fold increase. Specifically, the growth was 8.2 times for higher education and 7.2 times for secondary specialized education. As a result, the proportion of women among the total number of specialists with higher and secondary special education rose from 45% in 1960 to 50% in 1988. [8]

The significant changes in the education level of women and the entire population of the republic directly impacted fertility and natural population reproduction. Women’s education plays a particularly crucial role in family dynamics. The highest birth rates in both urban and rural areas occur among women with secondary and incomplete secondary education. Conversely, women with lower primary education have lower birth rates than those with incomplete secondary and secondary education. This trend is partly since most women with lower primary education are older. Additionally, women who received secondary specialized and higher education tend to have 1.5-2 times

fewer children in their families compared to women with primary and lower primary education. Furthermore, during the study period, the birth rate was influenced by the ethnic composition of the population in cities.

According to the results of a survey conducted in the population laboratory (TashGU, 1988), higher and secondary specialized education had the greatest impact on the birth rate in rural settlements. With an increase in the educational level of women, there was a decrease in the birth of children in high priority. Among the women surveyed, 12.7% were women with higher education, 11.6% with specialized secondary education, 50.3% with secondary education and 25.4% with incomplete secondary and primary education. These figures were 19.5; 25.7; 28.3; 26.5% in the city, respectively.

In urban settlements, the birth of children in large families (with seven or more children) has significantly decreased. This trend is also confirmed by survey data from 1988. Among surveyed Uzbek women with higher education, those with 7-10 or more children accounted for 2.1%, while those with secondary special education had 6.4%, those with secondary education had 8.0%, and those with incomplete secondary education had 17.8%. A similar reduction in large families was observed across almost all educational groups in the city. Consequently, the increase in the educational level of the population, especially among females, contributed to a certain extent to the decrease in the birth rate in Uzbekistan. [9]

Literature:

1. Population and economy. M., 1967. p. 85
2. Burieva M. R. Fertility in Uzbekistan. Tashkent, 1991. pp. 52-55.
3. See [2].
4. Mullyajanov I. R. Demographic development of the Uzbek SSR. Tashkent, 1991. p. 167
5. Results of the All-Union population census of 1970. Vol. 2. M., 1972. pp. 28-29.
6. National economy of the Uzbek SSR in 1971. Tashkent, 1972. p. 13
7. Social development and standard of living of the population of the Uzbek SSR. Tashkent, 1990. pp. 193-194.
8. The national economy of the Uzbek SSR in 1989. Tashkent, 1990. p. 106.
9. Egamberdiev A., Reproduction of labor resources in rural areas of Uzbekistan. – Tashkent, 1972. – p. 36.

QURILISH INDUSTRIYASINI JOYLASHTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI GEOGRAFIK OMILLARNING BA’ZI JIHATLARI

O. X. Abduraxmonov
Namangan davlat universiteti stajyor-o`qituvchi

Qurilishni rivojlanish jarayoni yangi turar-joy va savdo obyektlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish zarurati bilan bog‘liq. Aholi sonining ko'payishi bilan uy-joy, maktab, shifoxona va boshqa ijtimoiy va savdo ob'ektlariga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Bu o‘z navbatida ko‘pgina shaharlar va viloyatlar infratuzilmasini, jumladan, yo‘llar, ko‘priklar, tunnellar va boshqa jamoat tuzilmalarini yangilashi keraklini taqozo etadi. Qurilish iqtisodiyotning rivojlanishi va odamlarning hayot sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy tarmoqlardan biri bo‘lib qolmoqda va u kelajakda ham dolzarb va talabchan bo‘lib qoladi.

Qurilish – kishilik jamiyatiga xos texnologik va umummadaniy merosning cheksiz va bexad keng sohasidir. Qurilish industriyasi moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va milliy iqtisodiyotni kompleks rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, barcha iqtisodiyot jabhalarining poydevorini tashkil qiladi. Chunonchi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun infratuzilma elementlarini barpo qilish; sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun avvalo korxonani qurib, foydalanishga topshirish; transport xizmatini tashkil etish uchun transport yo‘llarini o‘tkazish; xizmat ko‘rsatishni amalga oshirish uchun ham, albatta, dastlab muassasani qurish lozim bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, mazkur soha mamlakat milliy iqtisodiyotining asosi hisoblanadi [1; 5-b.].

Shuningdek, qurilishning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va yetakchi rol o‘ynashiga yana bir sabab shuki, u aholining katta qismini ish bilan ta’minlaydi, fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyotning jadallashishiga, ijtimoiy mehnat unumdorligining o‘sishiga imkon yaratadi.

Qurilish, moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i sifatida, avvalo, ishlab chiqariladigan mahsulotning ko‘chmasligi, o‘lchamlarining kattaligi, serqirra va murakkabligi bilan bog‘liq o‘ziga xos bir necha xususiyatlarga ega. Qurilish mahsuloti ko‘p mehnat va kapital sarf-harajatlarni talab qiladi, uni ishlab chiqarish sikli uzoq muddatli bo‘lib, uni ishlab chiqarishga soat yoki daqiqa emas, balki oylab, hatto yillab vaqt talab qilinadi. Qolaversa, qurilishda qo‘llaniladigan asbob-uskunalar va mehnat predmetlari o‘ziga xos turda va tarkibda bo‘lishidan tashqari, ular harakatlanuvchi ham bo‘ladi.

So‘nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti ta’siri ostida qurilish ishlab chiqarishida tubdan sifat o‘zgarishlari yuz bermoqda. Qurilish ishlab chiqarishining xarakteri ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Og‘ir qo‘l mehnati yirik va mayda mexanizatsiya vositalari tomonidan tobora siqib chiqarilmoqda. Quruvchi-montajchilarning qurilish maydonlaridagi mehnati industrial mehnatning bir turiga aylanib bormoqda. Qurilish ishlab chiqarishining texnik jihozlanganlik darajasi ortgani sayin, jonli mehnat sarflari kamayib, yengillashib boradi. Bundan tashqari, uning unumdorligi ortadi, qurilishning muddatlari qisqarib, sifat jihatdan takomillashadi [1; 15-b.].

Jahon bo‘yicha geografik o‘rniga bog‘liq holda hududlar tabiiy sharoitining xilma-xilligi, geologik va geomorfologik tuzilishining o‘ziga xosligi, seysmik jihatdan turlicha xususiyatlarga ega ekanligi sababli qurilish va binokorlik majmualari bir-biridan farq qiladi. Chunonchi, qurilish industriyasining tashkil etilishida quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

– ***geografik o‘rin omili*** qurilish rejalashtirilayotgan hududning suv havzalariga yaqin yoki uzoqligi, geosinklinal yoki platformali mintaqalarda joylashishi, yer usti tuzilishi, ob-havo elementlarining taqsimlanishini belgilab beradi. Mazkur jihatlarga monand ravishda qurilish ishlari amalga oshiriladi;

– ***geologik omil*** tog‘ jinslarining mexanik tarkibi, suv o‘tkazuvchanlik xususiyati, tuproq turlarining o‘ziga xosligi orqali namoyon bo‘ladi. Inshootlarni loyihalash va qurilish ishlarini tashkil etishda mazkur omilni inobatga olmaslik natijasida obyekt qurib bitkazilganidan so‘ng salbiy oqibatlar yuzaga kela boshlaydi. Xususan, shaharning asosi mustahkam bo‘lishi zarur. Agar inshootlar asosi g‘ovak, yumshoq va suvda erib ketadigan tog‘ jinslaridan iborat bo‘lsa, bino qurilganidan so‘ng ular o‘pirilishlar, cho‘kishlar natijasida ishdan chiqishi mumkin. Mabodo, shahar asosi suv tekkanda shishib ketadigan gillardan iborat bo‘lsa, binolarda yoriqlar paydo bo‘lib, yaroqsiz holga kelib qolishi mumkin [2; 36-b.]. Masalan, o‘tgan asrning 70-yillarida Zarafshon shahri qurilganda 5–10 m chuqurlikda suv tekkanda tezda shishib ketadigan gillar borligi hisobga olinmagan. Oqibatda shahar qurilib, suv olib kelinganidan so‘ng, gillar shishib, 5–9 qavatli binolarning devorlarida yoriqlar paydo bo‘lib, ularning ba’zilari yaroqsiz holga kelib qolgan;

– ***seysmik faollik omili*** yer po‘stining barqarorligi (platformalar) yoki geosinklinalligi orqali namoyon bo‘ladi. Chunonchi, seysmik faollikka moyil bo‘lgan hududlarda tuproq turi, qurilish materiallari, konstruktiv dizayn va seysmik qurilish qoidalariga rioya qilish hisobga olinadi hamda binolarning xavfsizligi va chidamliligini ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar qo‘llaniladi.

Avvalo, yer silkinishini va binolar duch kelishi mumkin bo‘lgan boshqa seysmik xavflarni baholash uchun tarixiy zilzila ma'lumotlari, tektonik yoriqlar o‘tgan zonalar va geologik sharoitlarni tahlil qilish orqali seysmik xavfni baholash amalga oshiriladi; strukturaviy yaxlitlik, poydevor dizayni va mavjud binolarni qayta jihozlash qoidalarini o‘z ichiga olgan qurilish normalari ishlab chiqiladi; binoning konstruktiv yaxlitligini oshirish uchun temir-beton, po‘lat karkaslar va boshqa seysmik chidamli materiallar va usullardan foydalanib strukturaviy dizayn ishlab chiqiladi; tebranish paytida egilishning oldini olish uchun mustahkam poydevor tizimi ishlab chiqiladi; seysmik kuchlarni yumshatish uchun strukturaviy elementlarni mustahkamlash, kesish devorlarini qo‘shish yoki taglik izolyatorlarini o‘rnatish orqali eski binolar zilzilaga chidamliligini oshirish uchun qayta jihozlanadi va hokazo. Bularning barchasi hududning o‘ziga xos qurilish usullarini aniqlab beradi [4].

Jumladan, Yaponiya, Filippin, Indoneziya kabi davlatlar hamda Shimoliy va Janubiy Amerikaning g‘arbiy qirg‘oqbo‘yi hududlari kabi Tinch okean “olovli halqa”sida qurilish loyihalarida seysmik faollik omili to‘liq inobatga olinadi va binolar qurilishida elastik materiallardan foydalaniladi. Islandiya va Sitsiliyada vulqon harakatlari inob.atga olinsa [2; 29-b.], boshqa faol hududlarda imkon qadar qurilish ishlari kattaroq fundamentga ega binolar ko‘rinishida bunyod etiladi;

– ***relyef omili*** hududning qurilish strukturasini belgilab beradi. Chunonchi, tog‘li hududlarda nishab barqarorligi, tuproq eroziyasi, materiallar va transport vositalaridan foydalanish imkoniyati, kuchli qor yog‘ishi yoki qor ko‘chkisi kabi ekstremal ob-havo sharoiti hamda o‘zgaruvchan geomorfologik tuzilma va iqlimga bardosh bera oladigan me’moriy dizaynlarni hisobga olishni talab qiladi. Aytish joizki, tipik tog‘li mamlakatlarda (Nepal, Butan, Qirg‘iziston, Tojikiston) temiryo‘l va havo transport infratuzilmalarini qurish imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi. Qolaversa, tog‘li hududlardagi aholi uylarini ko‘pincha tosh, yog‘och va loy kabi mahalliy materiallardan foydalanadi. Chunki bunday xomashyolar tog‘li hududlarda osongina topiladi va iqlimdagi noqulayliklarda izolyatsiya vazifasini bajaradi. Masalan, Nepal, Butan, Shimoliy Hindiston va Kavkaz hududlarida tosh va yog‘och asosiy qurilish xomashyolari hisoblanadi. Peru, Boliviya va Ekvador kabi And mamlakatlarida esa tosh bilan birgalikda loydan yasalgan paxsa g‘isht katta ahamiyatga ega.

Tekislik mintaqalarida qurilishni amalga oshirish tuproqning barqarorligi, drenaj, suv toshqini xavfini baholash, shamolning kuchi va mahalliy qurilish qoidalarini o‘z ichiga oladi. Hududlarning tabiiy sharoitiga bog‘liq holda,

tekislik mintaqalarida har xil materiallardan foydalaniladi. Jumladan, Janubi-sharqiy Osiyo kabi tropik mintaqalarda bambuk o‘zining mustahkamligi, moslashuvchanligi va barqarorligi tufayli mashhur qurilish materialidir. Bambukdan yasalgan uylar yengil va yuqori namlik darajasiga bardosh beradi. Indoneziya, Keniya va Janubiy Amerikaning ba'zi mamlakatlari tabiiy izolyatsiya xususiyatlari tufayli tom yopish uchun quritilgan palma barglari, somondan foydalanadi. Afrika (Mali, Niger, Chad) va Osiyoning tekislik zonalaridagi (Kampodja, Bangladesh) sust rivojlangan mamlakatlarda loy, qum, somon va suv aralashmasidan tayyorlangan materiallar energiya tejamkor va yaxshi issiqlik izolyatsiyasi vazifasini bajargani bois, mahalliy qurilishda an’anaviy tarzda foydalaniladi. Demak, hududning relyefi va u bilan bog‘liq tarzda tarkib topgan xomashyolar asosida qurilish ishlari ko‘proq tashkil etiladi. Zamonaviy inshootlarni loyihalashda ham mazkur omil katta rol o‘ynaydi;

– ***iqlim omili*** yer sharidagi ma’lum hududning harorat, namlik, yog‘ingarchilik, shamol harakati va boshqalar kabi ob-havo elementlari materiallarni tanlash, izolyatsiyalash, isitish chora-tadbirlarini ko‘rish, havoni tozalash va binolarni loyihalashga ta'sir qiladi. Binobarin, qutbiy mintaqalarga yaqinlashgan sayin bino va inshootlarning sovuqqa chidamligiga ko‘proq e’tibor qaratilsa, kontinental tropik zonalarda yuqori darajadagi harorat va namlik koeffitsiyentining pastligiga moslab qurilish ishlari amalga oshiriladi. Masalan, muzlash harorati betonning yorilishiga olib kelishi mumkin, yuqori harorat esa asfalt qoplamalarining ishlashiga ta'sir qilishi mumkin. Haroratning o‘zgarishiga bardosh beradigan tuzilmalarni loyihalash ekstremal iqlim sharoitlari bo‘lgan hududlarda juda muhimdir. Yog‘in kam yog‘adigan o‘lkalardagi binolarning tom qismi yassi ko‘rinishda qurilib, ayrim hollarda suvni to‘playdigan moslamalar o‘rnatilgan bo‘ladi. Hududdagi yog‘ingarchilik miqdori va chastotasi qiyaliklarning barqarorligiga, yo‘llarning drenajlanishiga va inshootlarning eroziyasiga ta'sir qilishi mumkin. To‘g‘ri drenaj tizimlari, gidroizolyatsiya choralari va eroziyaga qarshi kurash usullari yog‘ingarchilik yoki qor yog‘ishi yuqori bo‘lgan hududlarda muhim ahamiyatga ega. Yuqori namlik darajasi mog‘or paydo bo‘lishi, metall komponentlarning korroziyasi va qurilish materiallarining yomonlashishi kabi namlik bilan bog‘liq muammolarga olib kelishi mumkin [6; 112-b.]. To‘g‘ri shamollatish, namlik to‘siqlari va gidroizolyatsiya choralari nam iqlim sharoitida tuzilmalarning shikastlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun muhimdir. Shu jihatdan, qurilish ishlari va infratuzilma loyihalarida iqlim omilini hisobga olgan holda, muhandislar va arxitektorlar turli iqlim sharoitlari keltirib chiqaradigan qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan va

uzoq muddatli chidamlilik va barqarorlikni ta'minlaydigan bardoshli tuzilmalarni loyihalashlari mumkin;

– ***ekologik omil*** so‘nggi yillarda zamonaviy bino va inshootlarni loyihalashda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Mazkur omil tabiiy resurslar, ekotizimlar, biologik xilma-xillik, havo va suv sifati, energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va barqarorlik kabi ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi. Qurilish faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini boshqarish va oqibatlarini yumshatish orqali barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni minimallashtirish dolzarb hisoblanadi. Qurilish faoliyati chang emissiyasi, shovqinlilik darajasi va kimyoviy moddalarining tarqalishi orqali havo va suv ifloslanishini keltirib chiqarishi mumkin. Tabiatga salbiy ta’sirni kamaytirish uchun qayta tiklanuvchi ekologik “toza” quvvat manbalariga o‘tish va ulardan foydalanish yuqori samara beradi. Shuningdek, shahar hududlari havoning ifloslanishi, suv tanqisligi, chiqindilarni boshqarish va yashil maydonlarni yo‘qotish bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda [7]. Yashil infratuzilma, jamoat transporti, energiya tejovchi binolar va chiqindilarni qayta ishlashga ustuvor ahamiyat beradigan barqaror shaharsozlik amaliyoti ekologik toza shaharlarni yaratishga yordam beradi. Keyingi yillarda ushbu omilni inobatga olgan holda quyosh (AQSh, Fransiya), shamol (Daniya, Niderlandiya, Germaniya), qalqish (Fransiya, Kanada, Xitoy) va geotermal (Islandiya, AQSh, Rossiya) resurslaridan unumli foydalanish uchun elektr stansiyalari barpo etilib, iste’molga tobora ko‘proq yo‘naltirilmoqda. Bunday inshootlar barpo etilishi natijasida qurilish asrida tub burilishlar amalga oshirilmoqda;

– ***xomashyo omili*** hududda tarqalgan qurilish materiallari bilan bog‘liq. Marmar, granit, sement, flyuorit, ohaktosh, qum, shag‘al va qurilishbop boshqa toshlarning mavjudligi qurilishning tashkil etilishi va ularning xossalariga bog‘liq tarzda obyektning tannarxiga ta’sir ko‘rsatadi [5; 212-b.]. Masalan, Rossiya o‘rmonlar, mineral rudalar, tosh, qum va loy kabi ulkan tabiiy resurslarga ega. Bu resurslar yog‘ochdan tortib to sementgacha bo‘lgan keng turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Kanadada esa turli qurilish toshlari va metallardan keng foydalaniladi, arxitektura dizayniga katta urg‘u beriladi. Turkmaniston kabi ayrim cho‘l iqlimli mintaqalarda shaharlar oq marmardan bunyod etilsa, shisha ishlab chiqarish yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda oynadan go‘zal me’morchilik obidalari barpo qilinadi;

– ***transport omili*** transport vositalari va infratuzilmaning mavjudligi materiallar va jihozlarni yetkazib berish logistikasiga ta'sir qiladi, bu esa o‘z navbatida qurilish muddati va narxiga ta'sir qiladi. Transport geografik o‘rni qulay hududda qurilishi rejalashtirilgan turarjoy binolarining narxi iqtisodiy geografik o‘rni noqulay mintaqalardagi narxdan keskin farq qiladi, sanoat korxonalarini transport yo‘llari yaqiniga joylashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va hokazo. Demak, qurilish sohasida transport infratuzilmasining o‘rni katta ahamiyat kasb etadi. Shanxay, Tokio, Seul, Nyu-York kabi aholisi yuqori darajada konsentratsiyalashgan megapolislarda millionlab aholiga ommaviy transportdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash zarurati tufayli jadal qurilish va muhandislik yechimlarini talab qiluvchi ulkan metro tizimlari, tezyurar temir yo‘llar va ustma-ust avtomobil yo‘llari zich quriladi [3].

Katta qismi dengiz sathidan pastda joylashgan o‘ziga xos geografiyasi tufayli Niderlandiyada dengiz transporti va qirg‘oq dambalari tizimini mukammallashtirish ishlari olib boriladi. AQSh, Rossiya, Braziliya, Avstraliya kabi yirik mamlakatlarda uzoq masofalar va turli iqlim sharoitlari tufayli transport qurilish sanoatida asosiy rol o‘ynaydi. Bu esa avtomobil yo‘llari, ko‘priklar, temir yo‘llar, aeroportlar va jamoat transporti tizimlari tarmoqlarini qurish va ta’mirlashda yaqqol namoyon bo‘ladi, yo‘l yoqalarida motel, hostel, kemping kabi inshootlarning qurilishiga ham zamin yaratadi;

– ***demografik omil*** qurilishni loyihalash va barpo etishda eng katta ahamiyat kasb etadi. Chunki aholining soni, tarkibi va hududiy tarqalishi qurilish ishlarini tizimli amalga oshirishni taqazo etadi, aholi sonining prognozi orqali istiqboldagi muassasalarni barpo etish bo‘yicha rejalar ishlab chiqiladi. Aholi soni ko‘p bo‘lgan mamlakatlarda turarjoy binolari, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari, ishlab chiqarish korxaonalari, infrastruktura elementlarini joylashtirish juda murakkab bo‘lsa, aholi soni oz, ammo maydoni katta (Mongoliya, Namibiya) davlatlarda qurilish ishlari ko‘proq gorizantal tarzda amalga oshiriladi. Aholining diniy va milliy-etnik xususiyatlari alohida obyektlar – masjid, ibodatxona, sinagoga, qariyalar va bolalar mehribonlik uylari kabilarni joylashtirishda ham muhim rol o‘ynaydi;

– ***iqtisodiy va siyosiy barqarorlik omili*** mamlakatning rivojlanish holati, geosiyosiy vaziyati orqali namoyon bo‘ladi. Strategik ahamiyatga ega hududlarda shunga mos inshootlar (harbiy bazalar, neytral transport koridorlari) joylashtiriladi. Ayniqsa, harbiy jihatdan qudratli mamlakatlarda (AQSh,

Rossiya, Xitoy) harbiy sanoat markazlari, maxsus poligonlar tashkil etilgan bo‘lib, ularning arxitekturasi va loyihalanishi boshqalardan keskin farq qiladi.

Umuman olganda, qurilish ishlarini amalga oshirishda yuqoridagi kabi ko‘plab omillar inobatga olinadi. Shu bilan birgalikda, malakali ishchi kuchi va texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati ushbu tarmoqda beqiyos bo‘lib, barcha mamlakatlarda asosiy o‘rinda turganligi bois alohida tahlil qilinmadi. Qurilish industriyasida belgilab qo‘yilgan normalarga to‘la rioya etish, hududning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini chetda qoldirmaslik muhandislik inshootlarining uzoq vaqt, sifatli xizmat qilishiga asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonov M.A. Qurilish klasterini tashkil etish va rivojlantirishning hududiy xususiyatlari (Namangan misolida). Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertasiyasi avtoreferati. Namangan: 2022. – B.28.
2. Rafiqov A., Vahobov H., Qayumov A., Azimov Sh. Amaliy geografiya. [O‘quv qo‘llanma]. –T.: Sharq, 2010. –B. 28-48.
3. Isayev A.A. Transport geografiyasi. [Uslubiy qo‘llanma]. –T.: Mumtoz so‘z, 2019. – 151 b.
4. Yuldashev O., G‘ulomova G., Axmedov I., Zokirov D. Bino va inshootlar xavfsizligi. [Darslik]. –T.: 2017 –B.302.
5. O’zbekiston milliy atlasi. II-jild / Mas’ul muharrir: A.Abduvaxitov. –T.: «Kartografiya» ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi, 2020. –B. 212.
6. Mahmudov A.I., Safarov X.Z., Achilov O.R., Muydinjanovna Y.D. Inshootlar qurilishi tadqiqoti va materiallar tahlili //Academic Research in Educational Sciences. Volume 3. Special Issue 2. 2022. [Electronic resource]. URL: file:///C:/Users/user/Downloads/inshootlar-qurilishi-tadqiqoti-va-materiallar-tahlili.pdf 16.04.2024
7. Жумаханов Ш.З., Тошпулатов А.М. Географические и геополитические факторы внешней политики Узбекистана // [Electronic resource]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/geograficheskie-i-geopoliticheskie-faktory-vneshney-politiki-uzbekistana

GEOGRAFIYALÍQ OBYEKT ORNÍN BELGLEWSHI TOPONIMLER

Saliyev E.P, Jumatov J.B.
Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

markazi qulayligi va shinamligi bilan alohida ajralib turadi. Ko'plab dam olish maskanlari, mehmonxonalar; " Yusufxona", " Piramida", "Layner", " Green Sanyon Uzbekistan", " Nebesa" va boshqalar.

"HUMSON- BULOQ " - Ugom tog‘lari bag‘rida joylashgan humson - buloq dam olish maskani. Baland qoyalar orasidan zilol suv oqib o'tadi. Bu yerda shifobaxsh mineral tarkibga ega buloq suvi mavjud. Buloq suvi toshlar orasidan sizib chiqib keladi. Ushbu buloq suvi bir qancha kasalliklarga shifo bo‘lib, xususan, oshqozon ichak kasalliklarida qo‘llaniladi. ushbu dam olish maskani nafaqat hordiq chiqarish balki, davolanish maqsadida ham mashhur. Kislorodga to‘yingan toza va musaffo havo yurak, qon- tomir, nafas olish organlari, asab tizimi kasalliklarini davolashda muhim ahamiyatga ega.

"NEFRIT " ko‘li - Bo‘stonliq tumani hududida Toshkentdan 160 km uzoqlikda 1227 m balandlikda joylashgan. Chuqurligi 8-10 m atrofida. Ugom - Chatqol milliy bog‘ hududiga kiradi. "Urung‘och" deb ataladigan ushbu ko‘l uyg‘urchadan "Yorqin Nefrit "deya tarjima qilinadi. Ushbu zilol suvli ko‘l atrofidgi tog‘lar bilan o‘ralgan tabiatni o‘zida aks ettiradi . Yuqori Urung‘och ko‘li ham mavjud bo‘lib, bir -biridan kattaligi o‘lchami jihatidan farq qiladi. Yuqori Urung‘och ko‘li bir xususiyati suvi qurib qolmaydi hamda feruza rangli zilol suvi tovlanib turadi. Unga nisbatan kichik bo‘lgan Nefrit ko‘li suvi bahorning aprel - may oylarida tog‘dagi qorlarning erishi orqali to‘ladi. Yilning boshqa faslida esa qurib qoladi. Nefrit ko‘li sohilida go‘zal tog‘ tabiati landshaftini, billur ko‘llar, alp o‘tloqlari, qorli cho‘qqilar, kanyon va sharsharalarni uchratish mumkin. Bu yerda piknik, sayr qilish, dam olish, ko‘lni tetiklantiruvchi dam oldiruvchi suvlarida suzish mumkin.

Bugugi kunga kelib, dam oluvchilarni jalb qiluvchi asosiy omil bu uning xushmanzara tabiati va uning xilma-xilligidir. Sababi, O‘zbekiston iqlimi ob-havosi yil davomida dam olish va ekoturizmni rivojlantirish uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Jumladan, geografik o‘rni qulay, tabiiy sharoiti va ekoturistik imkoniyatlari xilma-xil bo‘lgan, sanoat rivojlangan va aholi zich yashaydigan Toshkent viloyatida ekoturlarga talab yuqori. Ayniqsa Bo‘stonliq tumani ekoturistik salohiyati bilan viloyatning boshqa tumanlaridan ajralib turadi.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, ekologik muammolar ko‘lami kundan kunga ortib borayotgani sir emas. Ayniqsa, Atmosfera havosi isishi ya'ni issiqlik samarasi muammosi global ekologik muammo hisoblanadi. Ozon qatlamini yemirilishi asosiy sababi sanoat korxonalari va transportdan chiqayotgan freon gazlari turli xil chiqindilar havo tarkibiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ozon

qatlamini yemirilishi har bir organizmga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Havoning ifloslanishi ya'ni havo tarkibida chiqindi va chang miqdorining ortishi aholi salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Poytaxtimiz Toshkent shahri havo tarkibi ifloslangaligi bo‘yicha dunyo mamlakatlari orasida yetakchilik qilmoqda. Bunga asosiy sabab hozirgi texnika va texnologiyalar va ishlab chiqarish davri hisoblanib ko‘plab sanoat korxonalari tashkil qilingani ayniqsa metallurgiya korxonalari va ulardan chiqayotgan freon gazlari havo tarkibiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga poytaxtda aholi soni bilan birga transport vositalari soni ham ortib bormoqda. Havoni eng katta ifloslovchi moddalar avtotransport vositalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Toshkent shahrida atmosferadagi zararli tashlanmalarning 93% avtotransport vositalari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Bu kabi omillar o‘z - o‘zidan aholi salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday og'ir ekologik sharoitda inson turli xil kasalliklarga chalinishi, ularda allergiyani paydo qilishi va hatto o‘limga olib kelishi mumkin. Havoning yomon sifati asosan, tananing nafas olish tizimi va yurak-qon tomir tizimiga ta’sir qiladi. Shu kabi bir qancha omillar aholining tog‘li hududlar tomon oshiqishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, bu kabi holatni Toshkent shahridan Toshkent viloyati tog‘li tumanlari tomon aholi migratsiyasi keskin ortishiga sabab bo‘ldi. Ya'ni bunda ekologik jihatdan o‘z hayotlariga havf tug‘iladigan joylardan kishilarning ko‘chib ketishi tabiiy holdir.

Shu o‘rinda aytish kerakki, ekologik muammolar haddan tashqari og‘irlashib ketayotgani zaminida tabiatni o‘zini o‘zi tiklash kuchi pasayotgani, uning resurslari kamayib borishi, atrof -muhit ifloslanib, zaharlanib borayotganligi yotadi. Shuning uchun ta'lim - tarbiya tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uzviylikni ta'minlashda barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Rekreatsion hududlarga bo‘lgan ehtiyoj yiliga 20-30 % ga ortib bormoqda. 2020- yildan beri rekreatsion turizm iqtisodiyotning asosiy strategik yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Xulosa; Bo‘stonliq tumani o‘zining maftunkor sof va musaffo toza havoli tabiati bilan, dam oluvchilar uchun ajoyib maskan. Shuningdek, O‘zbekistonda kurortologiya sohasida ham ushbu tog‘ tabiatli maskan alohida e’tiborga sazovordir. Mineral suvlar, kislorodga boy tog‘ havosi, buloqlar, har xil dorivor o'simliklar va boshqalar sog‘liqni tiklashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Xulosa o‘rnida aytish kerakki, eng muhimi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatga antropogen omillar ta’sirini kamaytirish, tashrif buyuruvchilarda ekoturistik salohiyatni oshirish zarur. Tabiat va jamiyat

o‘rtasidagi uzviylikni ta'minlashda, ekoturistik ong madaniyatini shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanov M. R. "Turizm geografiyasi" (o‘quv uslubiy qo‘llanma) – Samarqand, 2015 y 144 bet.
2. Shomurodova Sh,G`., Sharipov Sh.M Chorvoq erkin turistik zonasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik asoslari. Monografiya. – T.: “Universitet”, 2022.
3. Risbayeva.Z “Bo‘stonliq qutlug’ qadamjolari”. 2023.
4. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari. 2023 y
5. Wikipediya.org

ГЕОАХБОРОТ ТИЗИМЛАРИ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ КАРТОГРАФИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Аббасов Субхон Бурхонович
г.ф.д. профессор СамДУ

Ибрагимов Ўткир Нурмамат ўғли
г.ф.ф.д, ҚМИИ

Эшмаматов Элшод Дилшод угли
СамДУ докторанти

Ёрмаматов Шохбоз Зафар угли
СамДУ докторанти

Ҳозирги замон картографиясини геоахборот тизимларсиз тасаввур қилиш қийин. Кейинги йилларда карталарни яратишнинг “қоғозли” деб аталган одатдаги технологияси билан бир қаторда геоахборот тизимдан (ГАТ) фойдаланган ҳолда карталар яратишнинг компьютерли технологияси шиддат билан ривожланмоқда.


Оддийроқ қилиб айтганда, ГАТга табиат ва жамият объектлари ҳамда ҳодисалари ҳақидаги географик топографик, ер ресурслари ва бошқа картографик ахборотларни йиғиш, уларга ишлов бериш, компьютер хотирасида сақлаш, янгилаш, таҳлил қилиш, қайта ишлашни таъминловчи автоматлаштирилган дастурий мажмуа деб таъриф бериш мумкин(1)

Карталарни тузишда замонавий методларни қўллаш табиатда бўлаётган жараёнларни кузатиб боришда ва таҳлил қилишда асосий ўринларни эгаллайди, чунки, замонавий методларда маълумотларнинг киритилиши, уларни қайта ишлаш жараёни тез кечади (4) Ҳозирги кунда географик ахборот тизимлари ёрдамида карталарни тузиш, дала тадқиқотларини олиб бориш ва ишлаб чиқаришда Arc/Gis, MapInfo, ArcView, Win GIS, PHOTOMOD, Geo Draw, Geo Graph каби график дастурлардан кенг фойдаланилмоқда. География ахборот тизимлари (ГАТ) дастурларида картографик материаллар яратиш турли усулларда амалга оширилади. Бизни ўраб турган географик муҳитнинг 3D ўлчамли моделлаштиришга жадал тарзда ўтишда ГАТ, автоматлаштирилган лойҳалаш тизимлари (АЛТ), 3D дастурий воситалар муҳим аҳамиятга эга. Буларни, картографик тасвирларни ҳосил қилишда қўллаш мумкин, аммо бунинг учун керакли илмий-услубий ва технологик ечимларни ишлаб чиқиш лозим. Ҳозирда 3D ўлчамли картографик тасвирларни яратишда учта мустақил ва айни пайтда бир-бирига боғлиқ бўлган кузатиш обеъктларини ажратиш мумкин: ҳар бир белгиланган тавсифларнинг сифат

ва миқдор кўрсаткичларини, уларнинг бир бирига таъсирини ва 3D картографиянинг мезонларини ишлаб чиқиш лозим.


3D ўлчамли шаклда объект ҳақида маълумот борлиги сабабли, шу модел бўйича автоматик равишда унинг сонли тавсифларини аниқлаш имконияти бўлади. 3D ўлчамли картография иккита мустақил жараённи ўз ичига олади. Биринчи жараён жойнинг уч ўлчамли рақамли моделининг барча объектларини, жумладан шартли белгиларнинг уч ўлчамли системаси, генерализация, рангли ва таркибий безакларни ўз ичига олади. Вертикал генерализация ноанъанавий ҳисобланади. Шунга кўра горизонтал масштаб бошланғич масштаб ҳисобланади ва у хаританинг қай даражада аниқ бўлиши лозимлигига қараб танлаб олинади. 3D ўлчамдаги карталаштиришнинг 2-босқичи рақамли картографик модел тузиш ва картографик моделларни визуаллаштиришдан иборат. Ана шулар 3D карталар тузишнинг шаклан янги тасаввурларини вужудга келтиради. Шу тариқа 3D ўлчамли фазо параметрларини алоҳида горизонтал ва вертикал проекцияларнинг параметрларига ўтиш мумкин, бу иш функционал аниқлашни сезиларли даражада соддалаштиради. Харита яратишнинг бу техналогияси, сезиларли даражада универсаллашган ва жуда тез ривожланаётган инсон фаолиятининг барча соҳаларини қамраб олаётган жараёндир. Қуйида турли дастурлар ёрдамида уч ўлчамли моделлар яратишни қараб чиқамиз.

Рельефнинг уч ўлчамли моделини MapInfo дастурларида яратиш учун ўзаро бирлаштирилган суратларга мутлақ баландлиги маълум бўлган нуқталар танланади ва уларнинг мутлақ баландлиги берилади. Сўнгра улар ўзаро тўғри чизиқлар билан туташтириб чиқилади. Улар ёрдамида релъефни уч ўлчамли моделини яратишдан ташқари горизонталларни автоматик тарзда ўтказиш ҳам мумкин.



1-расм. MapInfo дастурида баландликлар тармоғини ўтказиш.


Тузилган рақамли электрон карталарнинг маълумотлар базаси яратилади. Маълумотлар базасига картадаги объектлар ҳақида маълумотлар жадвал шаклда киритилади ва сақланади.




2-расм. Яратилган баландликлар тармоғи асосида 3D модел яратиш

Маълумотлар базасини яратиш учун картографик, фонд ва статистик маълумотлар асос бўлади. Шу билан бирга дала шароитида йиғилган маълумотлардан ҳам фойдаланилади.

Жараённинг сўнгги босқичида харита легендаси тузилади, нашр қилинади. Бундай карталарни ArcGIS дастурини қўллаб ҳам яратиш мумкин.



3-расм. ArcGIS дастурида МЗМ маълумотларидан 3D модел яратиш асоси.



4-расм. ArcGIS дастурида яратилган визуал 3D модел.

Шунингдек, ҳозирги кунда турли географик жараёнларни 3D ўлчамли моделларини яратишда қўлланиладиган бир қатор универсал дастурлар пакетлари ҳам мавжуд.

Юқорида келтирилган график дастурлар талабаларнинг картографик компетентликни шакллантиришда муҳим педагогик дастурий восита бўлиб хизмат қилади.

Бу борада Ҳ.Б.Никадамбаеванинг фикрига кўра, талабаларнинг картографик компетентликни шакллантириш учун ижодий-изланувчанлик

қобилиятларини шакллантириш, ривожлантириш, педагогик-психологик хусусиятларини эътиборга олиб ўқитиш, талабаларни дарс жараёнида фаоллаштириш, ўзлаштириш даражаларини кўтариш билан бирга маъруза ва амалий машғулотлари самарадорлигини ошириш муҳим муаммолардан ҳисобланади. Бундай таълим-тарбия жараёнини ташкил этишда талабалардаги билиш фаолиятининг энг юқори даражасини таъминловчи, уларнинг мустақил ижодий фикрлай олиш қобилиятларини ривожлантирувчи ўқитиш воситалари, шакл ва услубларини тўғри танлаши муҳим аҳамиятга эга (2)

Н.Н.Баранский “дарс ўқитувчи томонидан талаба онгида барпо этилаётган бинонинг ғиштидир” деб бежизга айтиб ўтмаган. Ҳар бир дарс машғулоти билимларни мустаҳкамлаш ва кўникмаларни шакллантирадиган бирон бир янгилик бериши, айни вақтда олдин ўрганилган билимларга суяниш ва сўнгида ўрганиладиган мавзулар учун таянч бўлиб хизмат қилиши зарур (3)

Юқорида қайд этилган фикрларга асосланган ҳолда талабаларда картографик компетентликни шакллантиришга мўлжалланган маъруза ва амалий машғулотларни ташкил этишда қуйидаги амалий дастурларни, электрон таълим ресурсларни ва интерфаол методлардан фойдаланишни тавсия этамиз (.1-жадвалга қаранг).

1-жадвал

Маъруза ва амалий машғулотларда компьютернинг амалий дастурлари, электрон таълим ресурслар ва интерфаол методлардан фойдаланиш бўйича тавсиялар

T/p	**Мавзулар**	**Тавсия этилаётган амалий дастурлар ва электрон таълим ресурслар**	**Тавсия этилаётган интерфаол методлар**
	Маъруза машғулотлари		
1.	Карта ва бошка картографик асарлар. Картага таъриф. Умумгеографик ва мавзули карталарни элементлари. География атласлар.	MapInfo амалий дастур ва тақдимотли дастурлар	Ақлий хужум. Чархпалак.
2.	Картани математик асоси. Ер эллипсоиди. Масштаблар. Картографик проекциялар хақида тушунча, уларни турлари, проекцияларни таснифи. Проекциялар танлаш. Дунё, яримшарлар, материклар ва давлатлар карталари учун проекциялар.	3D Terrain амалий дастур ва мультимедиали иловалар	Квест. Елпиғич.
3.	Картографик тасвирлаш усуллари.	ArcGIS амалий дастур	Квест. Веб-квест.

	Картографик белгилар, уларни функцияси ва қўлланилиши. Тасвирлаш усуллари: белгилар, тенг чизикдар, сифатли ранг ва бошқалар. Шкалаларни ишлаб чиқиш, ҳар хил тасвирлаш усулларини биргаликда қўллаш. Рельефни тасвирлаш усуллари хақида тушунча.	ва видео лавҳалар	
4.	Картографик генерализация. Генерализацияни моҳияти, омиллари, турлари ва йуллари. Пунктларда, чизикдарда ва майдонларда тарқалган ходисаларни генерализация килиш.	Arc/Gis амалий дастур ва тақдимотли дастурлар	Ақлий хужум. Case-Study.
5	География карта ва атласлар ва уларни типлари. География карталарни тайёрлаш усуллари. Карталар дастури, картани тузиш таҳрир қилиш. Умумгеографик, мавзули ва махсус карталарни лойихалаш усуллари.	MapInfo амалий дастурлар видео маърузалар	Муаммоли. Елпиғич.
6	Карталардан фойдаланиш. Карталардан фойдаланиш хақида тушунча. Карталардан фойдаланишни асосий усуллари. Картографик тадқиқот усули.	ArcView амалий дастур ва видео маърузалар	Чархпалак. Қарорлар шажараси.
7	География карта ва атласларни таҳлил килиш ва баҳолаш. Карталарни математик асоси. Мазмунини тўлиқлигини таҳлил қилиш. Информация хажмини баҳолаш ҳақида. Карталарни жихозлаш сифатини баҳолаш. География атласларни таҳлил қилиш ва баҳолаш.	Win GIS амалий дастур ва тақдимотли дастурлар	6х6х6. 3х4. Ақлий хужум.
	Амалий машғулот		
1.	Умумгеографик ва мавзули махсус карталарни элементларини ўрганиш	PHOTOMOD амалий дастур	Веб-квест. Кластер.
2.	География глобус ва у билан ишлаш.	Geo Draw амалий дастурлар	Case-Study Инсерт
3.	Тўғри бурчакли цилиндрик проекцияни оддий усулда чизиш.	Geo Graph ва AutoCAD амалий дастурлар	Б\БХ\Б жадвали. Кластер
4.	Қутбий азимутал ва конусли проекцияни оддий усулда чизиш	CorelDRAW ва AutoCAD амалий дастурлар	Венн диаграммаси ББББ.

5.	Картографик тасвирлаш усуллари; Белгилар усули, сифатли ранг усули, чизикди белгилар усули, изолиния усули.	Photoshop амалий дастур	Блиц. Кластер.
6.	Картографик тасвирлаш усуллари; Таянч нуқталар усули, ареаллар усули, харакатдаги белгилар усули, бир жойга тегишли карта-диаграммалар усули.	AutoCAD амалий дастур	Case-Study. Венн диаграммаси
7.	Картографик тасвирлаш усуллари; микдорли фон усули, картодиограмма усули.	Win GIS амалий дастур	Квест. Блиц.
8.	Умумгеографик карталарни ўрганиш, таҳлил қилиш ва баҳолаш	ArcView амалий дастур	Веб-квест. Чархпалак.
9.	Мавзули карталарни ўрганиш, таҳлил қилиш ва баҳолаш. Қайси картографик усуллардан фойдаланилганлигини аниқлаш.	Win GIS амалий дастур	ФСМУ. Елпиғич.
10.	Мавзули карталар учун картографик тасвирлаш усулларини танлаш.	PHOTOMOD амалий дастур	Қарорлар шажараси. Чархпалак.

Дарс учун мўлжалланган технологик харита профессор-ўқитувчидан ўз бурчига масъулият билан ёндашувни, ижодий фикрлашни талаб этади ва ҳар бир машғулот, мавзу, профессор-ўқитувчининг ўзига хос хусусиятга эга бўлган, талабанинг эҳтиёжидан келиб чиққан, маълум бир мақсадга йўналтирилган, олдиндан лойиҳалаштирилган, ижобий натижа беришга кафолатланган ижодий асари бўлиши лозим

Педагогик маҳорат билан олиб борилган маъруза талабаларни амалий машғулотларда, мустақил билим олишларида ҳамда ўқув ва қўшимча адабиётлар билан ишлашларида татбиқ этиш учун зарур бўлган назарий билимлар, тавсиялар ва йўлланмалар билан қуроллантиради. Маъруза машғулотларининг асосий мақсади ўқув машғулоти давомида талабаларда янгича тасаввурлар, тушунчалар, қонуниятлар, ғоялар ҳақида билим бериш, олдинги маъруза машғулотларида талабалар эгаллаган билим, кўникма ва малакаларини янада мустаҳкамлаш, ривожлантириш, тарбиявий-амалий аҳамиятга эга бўлган ишларга йўналтиришдан иборат

Шу боис, тадқиқот доирасида картографияга оид фандан

тайёрланган технологик харитани ва компьютернинг график дастурлари, электрон таълим ресурслар ва интерфаол методларни интеграциялаш асосида маъруза машғулотини ташкил этиш методикасини тавсия этамиз.

2-жадвал.

Мавзу: Картани математик асоси.

1. Ўқув машғулотнинг ўқитиш технологияси.

Талабалар сони: 58	*Вақти:* 2 соат
Ўқув машғулот шакли ва тури	Назарий-янги билимларни эгаллаш бўйича ўқув машғулот.
Ўқув машғулот режаси	1. Ер эллипсоиди. 2. Масштаблар. 3. Картографик проекциялар хақида тушунча, уларни турлари, проекцияларни таснифи. 4. Проекциялар танлаш. 5. Дунё, яримшарлар, материклар ва давлатлар карталари учун проекциялар.
Машғулотнинг мақсади: Картография фанининг мақсади, вазифалари, илмий-тадқиқот усул, муаммо ва фаннинг жамиятдаги ўрни, унинг қонуниятларига оид компетентлигини шакллантириш.	

Педагогик вазифалар	*Ўқув фаолиятининг натижалари:*
Ўқув предметига кириш	Ўқув предметининг таркибини ифодалайди.
Ўқитиш методлари	Ахборотли-маъруза, тушунтириш, намойиш.
Ўқитиш воситалари	Мавзу маърузаси матни, 3D Terrain амалий дастури, мультимедиали иловалар, видео кўзгу.
Фойдаланиладиган интерфаол методлар	Квест. Елпиғич.
Ўқув фаолиятининг ташкил этиш шакллари	Оммавий, жамоавий.
Ўқитиш шарт-шароити	Техник воситалар билан таъминланган аудитория
Қайтар алоқанинг усул ва воситалари.	Оғзаки назорат: савол-жавоб, тезкор сўров, баҳо тизими асосида баҳолаш.

3-жадвал.

2. Ўқув машғулотнинг ўқитиш технологик харитаси

Фаолият босқичлари	*Фаолият мазмуни*	
	Профессор-ўқитувчи	*Талаба*
I-босқич. Мавзуга кириш (5 дақиқа).	***1.1. Ташкилий бошланиш.*** Талабалар давомати ва машғулотга тайёргарлигини текширади. ***1.2. Мавзуга кириш.*** Фан бўйича ўтиладиган мавзулар билан таништиради, уларнинг узвийлиги ҳақида маълумот беради.	Диққат қиладилар, тинглайдилар, ёзадилар.
II. Асосий босқич (60 дақиқа).	***Ўқувчилар билимини фаоллаштириш.*** 2.1 Таянч билимларини аниқлаш ва ривожлантириш мақсадида “Квест” технологияси ёрдамида муаммоли вазиятлар ҳосил қилади . Янги ўқув материал баёни.	Тушунчаларни эркин фикр орқали билдиради. Тинглайдилар.

	2.2. Машғулотни режа бўйича тушунтиради, ҳар бир режани ниҳоясида умумлаштиради. Жараён мультимедиали иловалар ёрдамида намойш этилади ҳамда 3D Terrain амалий дастуридан фойдаланиб жараён ва ҳодисаларни ҳосил қилишни ўргатади. 2.3. Мустаҳкамлаш учун саволлар берилади.	
III. Мавзуни мустаҳкамлаш босқич (10 дақиқа).	“Елпиғич” методидан фойдаланиб мавзу мустаҳкамланади.	Фаол иштирок этади. Ўз фикрини баён этади.
IV. Якуний босқич (5 дақиқа).	Мустақил бажариш учун топшириқлар берилади: 3D Terrain амалий дастуридан фойдаланиб Ер эллипсоидини чизиш, дунё, яримшарлар, материклар ва давлатлар карталарини чизиш.	Мустақил равишда топшириқларни бажаради.

Амалий мазмундаги мустақил таълим топшириқларни бажариш жараёнида талабалар географик билимларини такомиллаштиришлари, компьютернинг амалий дастурлари имкониятларидан янада чуқурроқ фойдаланишлари билан бирга, олдиндан тайёрланган маълумотларга мурожаат қилиш, хариталар билан ишлаш каби билим ва малакаларни эгаллайдилар, шунингдек ўз касбий фаолиятларида компьютер дастурлари имкониятларидан самарали фойдаланишлари учун ҳам замин яратилади. Топшириқларни бажаришга оид методик ишланма ва тавсиялардан талабаларнинг фойдаланиши натижасида вақтни тўғри тақсимлай оладилар ҳамда тез суръатда вазифаларни бажаришга эришадилар(2) Бунинг натижасида талабаларнинг картографик компетентлигини шакллантиришга эришилади.

Фойдаланилган Адабиётлар Рўйхати:

1. Лебедев В.Н. Модульное обучение в системе профессионального дополнительного образования // Педагогика. 2005. – №4. – С. 60-66.
2. Никадамбаева Ҳ.Б. «Ўзбекистон табиий географияси» фанини ўқитишда компьютер технологияларидан фойдаланиш методикаси (олий таълим мисолида) // Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2012. – 223 б.
3. Баранский Н.Н. Методика преподавания экономической географии. – М.: Учпедгаз, 1960. – 123 с.
4. Берлянт А.М. Картоведение. – М.: Аспект Пресс, 2004. – 720 с.

GEOGRAFIYA TA’LIMI JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

R.T.Gaypova
pedagogika fanlari nomzodi, docent Ajiniyoz nomidagi NDPI, geografiya o`qitish metodikasi kafedrasi, Nukus shahri,

Z.M.Turdibekova
assistent o`qituvchi, Ajiniyoz nomidagi NDPI, geografiya o`qitish metodikasi kafedrasi

Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash -doimiy taraqqiyot va modernizatsiyalashning eng asosiy shartidir. Bugungi kunda butun dunyoda ta`lim tizimini tubdan yangilash jarayoni kechmoqda. Chunki hozirgi ta`lim tizimida faqat o`qituvchining o`rgatgani bilan cheklanib qoladigan o`quvchilarni tayyorlash maqsad bo`lmay qoldi. Negaki, har qanday kuchli tafakkur ham dunyodagi cheksiz hodisalarning barchasini qamrab olalmaydi. Bundan tashqari tafakkur orqali egallangan bilimlar faqat standart holatlardagina foydalanishga mo`ljallangan bo`ladi. Shuning uchun ham yoshlarni mustaqil izlanuvchan, maqbul va erkin fikr bildira oladigan, dunyoqarashi keng, tegishli qaror qabul qila oladigan qilib tarbiyalash kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Hozirgi davrda, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o`qitishning ilg`or innovatsion tizimlari va pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Pedagogik texnologiyalarni hislati shundaki, unda qo`yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o`quv jarayonni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg`ulotlarning muvaffaqiyatli o`tishining 80 foizi ta`lim jarayonini to`g`ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog`liqdir.

O`quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta`lim mazmunini, ta`lim maqsadi, kutilayotgan natijani aniq belgilash, ta`lim metodlari, shakllari va vositalarini to`g`ri tanlash, o`quvchi va talabalarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholashni real mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg`ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni samarali amalga oshirish va bir-biri bilan uyg`unlashuviga e`tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ta`lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo`lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda talabalar faqat tayyor

bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan, interaktiv metodlardan to`liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo`lib fikrlashdan iborat, ya`ni u pedagogik ta`sir etish usullari bo`lib, ta`lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Kelajakda ta`lim taraqqiyotining haqqoniy harakatlantiruvchi kuchi sifatida o`qituvchi faoliyatini yangilashda, ta`lim-tarbiya jarayonini maqbul (optimal) qurishda, ta`lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo`llash zarurati katta ahamiyatga ega.

O`qituvchining innovatsion faoliyati xususiyatlarini o`rganib chiqqan pedagogik olim-mutaxassislar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik kontseptsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba - sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o`zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo`llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko`rsata olishlik;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o`z sharoitiga moslashtirib borish.

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma`noda ta`lim jarayoniga kirib keladi. Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad - o`qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o`z ustida ishlash ko`nikmasi va malakasini shakllantirish, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg`ulotlarni o`tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Geografiya darslarining ta`limiy va tarbiyaviy maqsadlarini to`g`ri va aniq ishlab chiqish darsning samaradorligini belgilab beradi. Dastlab darsni ta`limiy maqsadlari ishlab chiqiladi. Buning uchun: geografik borliq, voqea va hodisalar haqida tasavvurlar, ilmiy tushunchalar, tamoiyillar, qonuniyatlar shakllantiriladi; asosiy ilmiy ma`lumotlar va bilimlar takrorlanadi va mustahkamlanadi; geografik ko`nikma va malakalarni o`zlashtirish ta`minlanadi va takomillashtiriladi; umumiy ko`nikmalarni shakllantirish davom ettiriladi (javoblarni rejalashtirish, darslik bilan ishlash, qo`shimcha adabiyotlar bilan ishlash va hokazo); dunyo-qarash, g`oyaviy-siyasiy, ahloqiy va

kasbga yo`naltirilgan bilimlarni o`zlashtirish; mehnat va estetik tarbiya berish; o`quvchilarni taffakurini, qiziquvchanligini rivojlantirishdan iborat.

Geografiya fani o`qituvchisining ijodiy etukligi talabalarni tarbiyalash sifati uchun o`z kasbi oldidagi pedagogik ma`suliyatini anglashi, ta`lim –tarbiya vazifalarini hal etishga samarali yondashishi, o`z mahoratni doimo rivojlantirib borishi va talabalarda ijodiy geografik qobiliyatini har tomonloma rivojlanishiga yordam berishini namoyon etadi.

“...O`quvchilardagi ijodiy faoliyat esa o`quvchilarni muammoli savollarni echishga o`rgatadi. Ijodkorlarsiz o`quvchining bilimiga qiziqishi deyarlik mavjud bo`la olmaydi” [4.56.]

Bilimlarni bunday o`zlashtirish usulini hech bir darslik yaki ustoz o`rgata olmaydi, faqat o`quvchilar muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida izlanadi va muammolar echimini topadi.O`quvchilarni ijodiy va mantiqiy fikr yuritishga o`rgatish, aqliy faoliyat usullarini egallashga, ularda ilmiy, tanqidiy-tahliliy, mantiqiy fikr yuritish ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga olib keladi. Ma`lumki, har bir fanning o`ziga xos xususiyatlari va masalalari mavjud. Talabchan, izlanuvchan, yangilikka intiluvchan va ijodkor o`qituvchi esa, uning echimlariga javob izlaydi. Demak, muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o`quvchilarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob`ekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko`nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi. Muammolli o`qitish - o`quvchilarning muammoli taqdim etilgan ta`lim mazmuni bilan faol o`zaro bog`lanishini tashkil etadi. Bu jarayonda o`quvchi ilmiy bilimining ob`ektiv zidliklari va ularning echimlariga yaqinlashadi, fikrlarin bildirishga, bilimlarin ijodiy o`zlashtirishga o`rganadi.

Muammoli o`qitish ijodiy faoliyatini hamda unga ehtiyojini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo`lib, bu jarayonda o`quvchilar ijodiy fikrlashning rivojlanishi an`anaviy o`qitishdagiga nisbatan jadalroq bo`ladi. Lekin muammoli o`qitishning bu funktsiyasi oshishi uchun o`quv jarayoniga muammolarning tasodifiy majmuasini kiritish etarli emas. Muammolar tizimi bilimning mazkur sohasiga xos muammmolarining asosiy turlarini qamrab olishi kerak.

“Geografiya ta`limini rivojlantirishda mavzular bo`yicha qanday muammoli darslar tarkibi muammoli vaziyat hosil qilish, quyilgan muammoning o`quvchilar tomonidan anglanishi muammoning quyilishi, ma`lum vositalarni qo`llash zarurligini oldindan belgilab olish maqsadga muvofiq ” [1.95]

O`qituvchi tomonidan pedagogik ta`sir ko`rsatishning eng muqobil varianti yordamida, fikr yuritish qonuniyatlariga tayangan holda, o`quvchilarning bilimlarni o`zlashtirish jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilish ehtiyojini qondirish maqsadiga yo`naltirilgan, shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga aytiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, geografiya fani o`qituvchisi darsda o`rganiladigan mavzuning ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funktsiyalarini hisobga olgan holda qaysi texnologiyadan foydalanishni ilmiy-metodik asosda tanlagandagina ko`zlangan maqsadga va samaradorlikka erishadi.

Adabiyotlar:

1. Tursinbaevna, Gaypova Roza, Turdibekova Zamira Muzapparovna, and Koshkinbaeva Mekhriban Turganbaevna. "THE IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING GEOGRAPHY." *International Journal of Pedagogics* 3.10 (2023): 53-56.
2. Gaypova R. T., Jamalatdinova N., Nasirova D. GEOGRAFIYA TALIMINDE MASHQALALIOQITIWDINORNI HAMAHMIYETI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 22. – С. 34-36.
3. Tursinbaevna G. R. et al. The use of interactive methods on the topic of geographic shell and its properties //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 8. – С. 145-149.
4. Xodjaeva G. A., Gaypova R. T., Turdibekova Z. M. Talabalarning ijodiy geografik qobiliyatini rivojlantirishda muammoli tálim texnologiyalardan foydalanish //Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг ахборотномаси. – 2023. – Т. 1. – С. 59.
5. Вахобов Х; Гайпова Р.Т.Турсунов М. Географияны оқытыў методикасы Нукус «Билим» баспасы 2010ж. 207 б.
6. Даринский А.В. География ўқитиш методикаси (Педагогика институти талабалари учун ўқув қўлланма) Т.: «Ўрта ва олий таълим» 1984й.
7. Душина И.В;Понурова Г.А.Методика преподавание географии Москва-1996 192стр.
8. Гайпова Р., Турдыбекова З., Байрамова А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1037-1041.
9. Қурбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси. Урганч 2001й.
10. Лернер И.Я. Развитие мышления школьников в процессе обучения истории: Пособие для учителей- М.Просвещение, 1992.
11. Понурова Г.А. Проблемный подход в обучении географии в средней школе- М.Просвещение, 1991.

12. Ходжаева Г.А., Жиемуратова Г.Ө. География сабақларын оқытыўда өзбетинше тапсырмаларды пайдаланыўдың әҳмийети.// Илим ҳәм жәмийет, №2,2020. 66-68 б.
13. Ходжаева Г.А., Жиемуратова Г.О. География пәни сабақларында аўызеки методтан пайдаланыўдың әҳмийети // Вестник Каракалпакского государственного университета, №3, 2021. 85-88 стр.

GEOGRAFIYA PÁNIN OQÍTÍWDA TÁLIM-TÁRBIYA HÁM GEOGRAFIYALÍQ MÁDENIYAT KÓNLIKPELERIN RAWAJLANDÍRÍW USÍLLARÍ

R.T.Gaypova
pedagogika ilimleri kandidatı, docent, Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı, Nókis qalası

S.Ó.Xojanov;
G.Eshpanova
Geografiya hám ekonomika bilim tiykarları tálim baǵdarı talabaları, Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Házirgi zaman talapları tiykarında geografiya tálimin shólkemlestiriw processii, onıń sapası hám nátiyjelegin arttırıw, olardı dástúrli tálim túrinen jas áwladtı ılayıqlı qáliplestiriw hám rawajlanıwın támiyenlewshi oqıtıw hám tárbiyalaw baǵdarın shólkemlestiriwde paydalanıwdıń tolıq imkanın beredi. Demek, házirgi oqıwshı keń kóz-qarasqa iye bolıwı zaman talabı esaplanadı.

Jámiyetimizdegi jedel pát penen rawajlanıp atırǵan ózgerisler, bilimlendiriwdegi reformalar bul tarawdıń aldına jańadan-jańa mashqalalardı qoyıp atır, olardıń qatarında geografiya páninde nelerdi oqıtıw hám qalay oqıtıw kerek?-degen mashqala salmaqlı áhmiyetke iye.

Oqıtıw processi bul-jıllar, ásirler dawamında belgili bilimler jıynaǵı uǵımın óz ishine alsa, házirgi waqıtqa kelip bilimlendiriwdiń belgili áwlad turmısında eskirip barıwı, onı jańalawǵa bolǵan mútájliklerdiń seziliwi- geografiyaǵa da úlken wazıypalardı qoyıp atır.

Oqıwshı dóretiwshiliksiz, onıń bilim hám kónlikpelerin iyelew processi qıyın boladı, olarda bilimge bolǵan qızıǵıw derlik bar bolmaydı joqarıdaǵı faktorlardı qollaw hám taǵı basqalar.

1. Bilim hám kónlikpelerdi ańlı ráwishte ózine sińdiriw hám este saqlap qalıwı.

2. Bilim hám kónlikpeni úyreniw jaǵdayların qollay alıwı.

3. Iyelengen bilim kónlikpelerdi ámelde dóretiwshilikte qollay alıwı. Bilim iyeley alıw metodlarınıń hárbir metodların iyelegen halda ǵana, olardıń hárbirine sáykes tálim metodların qollaǵanda ǵana ol puxta iyelenedi. [2.206.]

Hár bir insannıń jetik rawajlanıwı ushın tárbiyanıń áhmiyeti ulken. Oqıwshınıń hár tárepleme kamalǵa jetiwi, bul onıń ayrım qábiletleri hám sezimleriniń jetisiwi eken. Demek, jas áwladtı beligili bir maqset jolında hár

tárepleme ósiriw, onıń ańı hám minez-qulqın qáliplestiriw processi dep esaplaymız.

Házirgi waqıtta, tálim-tárbiya aqıllı, ádepli, miynet suygish, bilimli, salamat, kewli taza, hár tárepleme ruxıy jaqtan azıqlanǵan, oziq oylı, náwqıran áwladtı qáliplestiriw kózde tutıladı.

Joqarı mádeniyatlı adamlardı tárbiyalaw eń aldın mektepten baslanıwı kúndelikli turmısımızdan bilse boladı. Bunıń ushın aldın anıq maqsetke baǵdarlanǵan tárbiya sistemasın islep shıǵarıw dáwirimizdiń eń tiykarǵı máselesleriniń biri esaplanadı. Mektep geografiyası hár tárepleme joqarı mádeniyatlı adamlardı tárbiyalaw hám qáliplestiriwde úlken imkaniyatlarǵa iye. Usı kúnge shekem geografiya táliminde geografiyalıq mádeniyattı qáliplestiriw menen baylanıslı bolǵan izertlewler házirgi waqıtta kóplegen jumıslar alıp barılıp atır.

Oqıtıwshı balalarǵa mádeniyat haqqında baslanǵısh túsinikler berip, olarda mádeniyat elementlerin qáliplestirip barıwı lazım. Bunıń ushın oqıtıwshınıń ózi mádeniyat tanıwshılıq bilimlerin iyelegen hám olardı pedagogikalıq ámeliyatında qollana alatuǵın bolıwı kerek. Ádebiyatlarda «mádeniyat» túsinigide túrli talıqlanǵanlıǵı sebepli mádeniyat túsinigine táriyip berip ótemiz.

Mádeniyat – jámiyettiń islep shıǵarıw, sociallıq hám ruwhıylıq turmısta qolǵa kiritilgen jetiskenlikleri bar. Qanday da bir social topar, klass yaki xalıqtıń málim dáwirde qolǵa kiritken sonday jetiskenlikleri dárejesi deyiledi. Bul táriyip rus tilindegi «kul`tura» túsiniginiń sózlik mazmunına tán latın tilindegi «kul`tura», yaǵnıy jetistiriw, tárbiyalaw rawajlandırıw, rawajlandırıw mánisinen alınǵan bolıp, konkret jámiyettiń belgili dáwirinde erisken ruwxıylıqtı, qısqası turmıs tárizin kórsetedi. Biziń pikirimizshe, qaraqalpaq tilindegi «mádeniyat» túsinigi rus tilindegi «kul`tura» túsiniń mazmunın bermeydi. Adamnıń hár bir háreketi yaki iskerligi mádeniyat dárejesine kóteriliwi múmkin. Mısalı ushın, adamnıń júris-turısı, sóylewi yaki xojalıq júritiwi basqalardı zawıqlantırsa, bul onıń sol jumıslardı mádeniyat dárejesine kótergenligin bildiredi.

Demek, tálim-tárbiya processi úlken áwlad tárepinen óz bilim hám tájriybelerin ósip kiyatırǵan jas áwladqa úyretiwden ibarat bolıp, bul process, tiykarınan insan ómiri ushın zárúr xabarlardı áwladtan-áwladqa jetkizip beriwdi ámelge asırıladı.

Oqıwshılarǵa mádeniyat haqqında baslanǵısh túsinikler berip, olarda mádeniyat elementlerin qáliplestirip barıwı kerek. Bunıń ushın oqıtıwshınıń ózi

mádeniyat tanıw bilimlerin iyelegen hám olardı pedagogikalıq ámeliyatta qollay alatuǵın bolıwı kerek.

Sózliklerde, mádeniyat-jámiyettiń islep shıǵarıw, sociallıq hám ruwhıy turmısında qolǵa kiritilgen jeńisler birigedi.

Latın tilinde «kul`tura», yaǵnıy jetistiriw, tárbiyalaw, rawajlandırıw mánisinen alınǵan bolıp, konkret jámiyettiń belgili dáwirde erisken ruwhıylıǵın, qısqası, turmıs tárizin belgileydi. Biziń pikirimizshe, ózbek tilinde «mádeniyat» túsinigi, rus tilindegi «kul`tura» ataması bizdegi turmıs tárizine, yaǵnıy «mánaviyat» degen túsinikti kóbirek súwretleydi.

Mádeniyat-insannıń iyelegen bilimleri hám payda qılǵan tájiriybelerine tiykarlanǵan bilim háreketleri yaki miynet iskerligi óniminiń payda bolǵan nárseler basqalarda zawıq oyata alatuǵın sociallıq hádiysesi esaplanadı.

Insannıń hár bir háreketi yaki iskerliginiń ónimi mádeniyat dárejesine kóteriliwi múmkin. Mısalı ushın, adamnıń júris-turısı, sóylewi h.t.b, bul onıń usı jumısların mádeniyat dárejesine kótergenligin bildiredi.

Joqarı mádeniyatlı adamlardı tárbiyalaw eń aldın mektepten baslanıwı kúndelikli turmısımızdan bilse boladı. Bunıń ushın aldın anıq maqsetke baǵdarlanǵan tárbiya sistemasın islep shıǵarıw dáwirimizdiń eń tiykarǵı máselesleriniń biri esaplanadı.

Mektep geografiyası hár tárepleme joqarı mádeniyatlı adamlardı tárbiyalaw ham qáliplestiriwde úlken imkaniyatlarǵa iye.

Ulıwma geografiyalıq mádeniyatqa tiyisli bilim hám kónlikpelerdi qáliplestiriw eki baǵdar boyınsha alıp barılıwı mumkin.

1. Geografiyalıq mádeniyat túsinigi hám ol menen baylanıslı pánler járdeminde qáliplestiriw.

2. Tek ǵana geografiyanıń ózine tán bolǵan bilim hám kónlikpelerin qáliplestiriw.

Mektep geografiyası tek ǵana geografiyalıq bilim hám kónlikpelerdi qáliplestiriw menen, balki oqıwshılarda geologiyalıq, kartografiyalıq ekonomikalıq, ekologiyalıq, bilim hám kónlikpelerdi qáliplestiriwge xızmet qıladı.

«Mádeniyat-insannıń iyelegen bilimleri hám payda qılǵan tájiriybelerine tiykarlanǵan bilim háreketleri yaki miynet iskerligi óniminiń payda bolǵan nárseler basqalarda zawıq oyata alatuǵın sociallıq hádiysesi esaplanadı» [3.64.]

Ekologiyalıq mádeniyat, ekologiyalıq sana, ekologiyalıq tárbiya, ekologiyalıq pikirlew sıyaqlı bir qansha túsinikler bar, olar hám geografiya tálimi processinde tez-tez ushırap turadı. Ayırım geograf-metodistler

geografiyalıq mádeniyat túsinigin zárúr geografiyalıq bilim hám kónlikpelerdi iyelew dep túsinedi .

Geografiya páni oqıtıwshıları yaki metodistler geografiyalıq mádeniyat qáliplestiriwde geografiya táliminiń psixologiyalıq tiykarları jetekshi bolıwı kerek dep esaplaydı. Hár qıylı jastağı oqıwshılardıńgeografiya tiykarların puxta iyelew hámde pikirley alıw qábileti, qubılıslardiń oqıwshı jasına sáykes keliwi neler tásir etiwin anıqlaw sıyaqlı mashqalalar payda boladı.

Geografiyalıq mádeniyattı qáliplestiriwde oqıwshınıń tayarlıǵı, oqıtıwshınıń abıroyı, oqıwshılar jámáati, oqıwshılar aktivligi mekteptegi ortalıq sıyaqlı hám úlken rol oynaydı. Demek, tálim processi bir pútin sistemaǵa iye. Onıń nátiyjeli shıǵıwı hár qıylı faktorlarǵa baylanıslı. Bunı ilimpazlar hár qıylı túsindiredi hám analizleydi.

Ádebiyatlar:

1. Tursinbaevna, Gaypova Roza, Turdibekova Zamira Muzapparovna, and Koshkinbaeva Mekhriban Turganbaevna. "THE IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING GEOGRAPHY." *International Journal of Pedagogics* 3.10 (2023): 53-56.
2. Gaypova R. T., Jamalatdinova N., Nasirova D. GEOGRAFIYA TALIMINDE MASHQALALIOQITIWDINORNI HAMAHMIYETI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 22. – С. 34-36.
3. Tursinbaevna G. R. et al. The use of interactive methods on the topic of geographic shell and its properties //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 8. – С. 145-149.
4. Xodjaeva G. A., Gaypova R. T., Turdibekova Z. M. Talabalarning ijodiy geografik qobiliyatini rivojlantirishda muammoli tálim texnologiyalardan foydalanish //Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг ахборотномаси. – 2023. – Т. 1. – С. 59.
5. Вахобов Х; Гайпова Р.Т.Турсунов М. Географияны оқытыў методикасы Нукус «Билим» баспасы 2010ж. 207 б.
6. Даринский А.В. География ўқитиш методикаси (Педагогика институти талабалари учун ўқув қўлланма) Т.: «Ўрта ва олий таълим» 1984й.
7. Душина И.В;Понурова Г.А.Методика преподавание географии Москва-1996 192стр.
8. Гайпова Р., Турдыбекова З., Байрамова А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1037-1041.
9. Зиёмуҳаммадов Б. Педагогика. Т.; 2006. 109 б.
10. Қурбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси. Урганч 2001й.
11. Лернер И.Я. Развитие мышления школьников в процессе обучения истории: Пособие для учителей- М.Просвещение, 1992.

12. Понурова Г.А. Проблемный подход в обучении географии в средней школе- М.Просвещение, 1991.
13. Ходжаева Г.А., Жиемуратова Г.Ө. География сабақларын оқытыўда өзбетинше тапсырмаларды пайдаланыўдың әҳмийети.// Илим ҳәм жәмийет, №2,2020. 66-68 б.
14. Ходжаева Г.А., Жиемуратова Г.О. География пәни сабақларында аўызеки методтан пайдаланыўдың әҳмийети // Вестник Каракалпакского государственного университета, №3, 2021. 85-88 стр.

GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA DARSDAN TASHQARI ISHLARINING AHAMIYATI VA ROLI

R.T.Gaypova
pedagogika fanlari nomzodi, docent, Ajiniyoz nomidagi NDPI, geografiya o`qitish metodikasi kafedrasi

Atadjanova Lobar Inayat qizi,
Qodirboyeva Nigora Alisher qizi
Ajiniyoz nomidagi NDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta`lim yo`nalishi 3-kurs talabalari

Respublikamizda geografiya ta`limida ham boshqa fanlar qatori yangi–yangi o`zgarishlarni olib kirdi. Hozirgi kunda maktablarda geografiya fanini o`qitish mazmuni o`zgarib, boyib bormoqda. Uni chuqur o`rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`tilayotgan darslar o`quvchilarni hayotga mehnatga tayyorlashga qaratilgan. Buning uchun ta`lim jarayoni va ta`lim uslublarini shuningdek, darsdan tashqari ishlarining turlari va qo`llanish usullarining faoliyatlarini aktivlashtirish, olgan bilimlardan amalda ijodiy foydalanishga alohida e`tibor berish zarur. Zamonaviy maktabning asosiy vazifalardan biri – o`quvchilarni mehnatsevar, qilingan mehnatni qadrlaydigan qilib tarbiyalashdir.

“...Darsdan tashqari ishlarning **asosiy maqsadi** quyidagilardan iborat: o`quvchilarni tabiatni tushunish va tabiatni sevishga o`rgatish; o`z yashab turgan joyi haqida bilimlarini chuqurlashtirish; o`quvchilarni tabiiy muhit haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish; o`quvchilarga geografiya faniga qiziqish uyg`otish; o`quvchilarni geografiya tadqiqot usullari bilan tanishtirish va h.k.” [1.338.]

O`quvchilarni tabiatni tushunish va tabiatni sevishga o`rgatish geografik to`garaklarda, geografik kechalar, geografik haftalar va sinfdan tashqari ishlarda olib boriladi. Unda o`quvchilar o`qituvchini topshirig`iga binoan tabiat haqida turli ilmiy ommabop va badiiy adabiyotlar bilan tanishadi. Mazkur adabiyotlar bilan tanishish va berilgan topshiriqlarni bajarish davomida ularda tabiatning asosiy tarkibiy qismlari, tabiatni qo`riqlash haqida bilimlar shakllanadi.

Tabiat va tabiatni sevish bo`yicha berilgan topshiriqlarda qo`riqxonalar, milliy bog`lar, buyurtmalar, yo`qolib ketgan va yo`qolish arafasida turgan

hamda himoya qilinadigan o`simlik va hayvonlar dunyosi, noyob tabiat yodgorliklari haqida ma`lumotlar muhim o`rin tutadi. [1.339.]

Sinfdan tashqari ishlar ichida geografiya o`lkashunosligi to`garaklari keng tarqalgan.O`quvchilarning o`z o`lkalarini o`rganish jarayonida nafaqat geografiya balki, tarix, biologiya, adabiyot, iqtisod fanlariga oid bo`lgan bilimlarni ham egallaydidlar. [2.191.]

O`zi yashab turgan joy haqida bilimlarni chuqurlashtirish darsdan tashqari ishlarni bajarishda o`tkazilishi mumkin. Buning uchun o`qituvchi quyidagi yo`nalishlar bo`yicha ma`lumotlar to`plashni o`quvchilarga topshirmog`i lozim:

- yashab turgan joyni tabiiy geografik sharoiti haqida,
- geografik joylashgan o`rni, geologik tuzilishi; foydali qazilmalari;
- rel`efi, iqlimi, ichki suvlari;
- tuprog`i, hayvonot dunyosi;
- joyning iqtisodiy geografik sharoiti haqida;
- iqtisodiy geografik o`rni;
- tabiiy resurslari;
- aholisi;
- xo`jaligi (sanoati, qishloq xo`jaligi),
- transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari;
- rekratsion va turistik ob`ektlari.

Bu yo`nalish bo`yicha o`quvchilar alohida – alohida topshiriqlar berishi mumkin. Joyning tuprog`i, o`simligi va hayvonot dunyosi haqida ma`lumotlar bo`lmasa o`quv sayohatlari davomida yig`ilgan ma`lumotlardan foydalanish mumkin. Mazkur maqsadni bajarish davomida o`quvchilar o`z yashayotgan joyi haqida bilimlarni yanada chuqurlashtirishadi.

**Maktab o`quvchilarni tabiiy muhit haqidagi bilimlarini rivojlantirish**. O`quvchilarni o`zi yashab turgan atrof-muhit va tabiat haqida, ulka geografik sharoitini o`rganish jarayonida tabiiy muhit haqida tasavvurlari yanada kengayadi va rivojlanadi. Tabiatni asosiy tarkibiy qismlarini (litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera) o`rganish davomida o`quvchilarni tabiiy muhit haqida tasavvurlari kengaya boshlaydi.

Geografiya faniga o`quvchilarda qiziqish uyg`otish. Geografiya to`garagida, geografik kechalarda va boshqa darsdan tashqari ishlarda geograf sayoh va olimlar, buyuk geografik kashfiyotlar, materiklarni kashf qilish tarixi, xalq xo`jaligini rivojlanishida geografiyani o`rni haqida ma`lumotlarni o`rganish davomida o`quvchilar geografiya faniga bo`lgan qiziqish ortib boradi.

O`qituvchilarni geografik tadqiqot usullari bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur ishlarni ham asosan geografiya to`garagida olib boriladi. Unda turli xil geografik tadqiqotlar haqida to`garak a`zolari ma`lumotlar tayyorlab ular asosida ma`ruzalar tayyorlashadi.

Darsdan tashqari ishlar quyidagilarni amalga oshirish imkon beradi:

- o`quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borishga imkon beradi;
- darsdan tashqari ishlarda o`quvchilar o`z yashash joyining tabiati, xo`jaligi va aholisi haqida chuqur bilimlarga ega bo`lishadi.
- darsdan tashqari ishlar orqali o`quvchilarda vatanparvarlik hamda chuqur bilimlarga ega bo`lishadi.
- shuningdek, ularda vatanparvarlik hamda vatan bilan fahrlanish tuyg`ularini shakllanishiga imkon beradi;
- darsdan tashqari ishlar olingan bilimlarni hayot bilan bog`lashga nazariy bilimlarni buyuk O`zbekistonni buyuk davlatga aylantirish amaliyoti bilan bog`lashga imkon beradi;
- darsdan tashqari ishlar o`quvchilarni kasbiy va mehnatga tayyorlashga imkon beradi, ularda mustaqillik xususiyatlarini shakllantiradi. Bunday ishlar to`garak ishlarini olib borishda, muhim amaliy tadbirlarni, tajriba va eksperementlarni o`tkazishda amalga oshiriladi;
- darsdan tashqari ishlar o`quv ishlari bilan chambarchas bog`langan. Chunki sinfdan tashqari ishlarda o`quvchilarni geografik bilim va ko`nikmalari yanada chuqurlashadi;
- darsdan tashqari ishlar maktabdan tashqari ishlar bilan chambarchas bog`langan. Mazkur bog`liqlik ushbu ishlarni olib borish shaklida mazmunida va metodlarida ifodalanadi. Maktabdan tashqari ishlarni darsdan tashqari ishlardan farqi ular maktabdan tashqi tashkilotlar tomonidan uyushtiriladi va amalga oshiriladi (yoshlar uyi, yosh turistlar uyushmalari va x.k).

Darsdan tashqari ishlari o`quvchilarni bilish faoliyatini rivojlanishida, mustaqil ishlarni ko`nikmalarni shakllantiradi, o`quvchilarni tabiatga va o`z Vataniga muhabbat ruhida tarbiyalashda, o`quvchilarni o`z Vatanlarini yutuqlaridan faxrlanish tuyg`ularini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, shuning uchun darsdan tashqari ishlarni maqsadi va vazifalari aniq ishlab chiqilsa ularni samarasi juda yuqori bo`ladi.

Xulosa qilib shuni aytish joyizki, darsdan tashqari ishlar o`quvchilarning geografiya fani bo`yicha egallagan bilimlarini chuqurlashtiradi va kengaytiradi, mavzu mohiyatini qiziq qilib o`zlashtirishini ta`minlaydi, izlanuvchilikka, hozirjavoblikka o`rgatadi, ilmiyi dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil

fikrlashga o`rgatadi, barkamol shaxs shakllanadi. Shuningdek, geografiya darslarida darsdan tashqari ishlardan foydalanish o`quvchilarni nafaqat ilimiy dunyoqarashini shakllantirib qolmasdan balki ularning odob-ahloqiga va ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Tursinbaevna, Gaypova Roza, Turdibekova Zamira Muzapparovna, and Koshkinbaeva Mekhriban Turganbaevna. "THE IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING GEOGRAPHY." *International Journal of Pedagogics* 3.10 (2023): 53-56.
2. Gaypova R. T., Jamalatdinova N., Nasirova D. GEOGRAFIYA TALIMINDE MASHQALALIOQITIWDINORNI HAMAHMIYETI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 22. – С. 34-36.
3. Tursinbaevna G. R. et al. The use of interactive methods on the topic of geographic shell and its properties //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 8. – С. 145-149.
4. Xodjaeva G. A., Gaypova R. T., Turdibekova Z. M. Talabalarning ijodiy geografik qobiliyatini rivojlantirishda muammoli tálim texnologiyalardan foydalanish //Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг ахборотномаси. – 2023. – Т. 1. – С. 59.
5. Вахобов Х; Гайпова Р.Т.Турсунов М. Географияны оқытыў методикасы Нукус «Билим» баспасы 2010ж. 207 б.
6. Даринский А.В. География ўқитиш методикаси (Педагогика институти талабалари учун ўқув қўлланма) Т.: «Ўрта ва олий таълим» 1984й.
7. Душина И.В;Понурова Г.А.Методика преподавание географии Москва-1996 192стр.
8. Гайпова Р., Турдыбекова З., Байрамова А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1037-1041.
9. Қурбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси. Урганч 2001й.
Bir xil ishlaydigan ikkita bir - biriga o‘xshagan o‘qituvchini topish qiyin. O‘qituvchini hamkasbdek ishlashga majbur qilish kerak emas. Ilg‘or o‘qituvchilar tajribasini targ‘ib qilish, yaxshi o‘qituvchilar darsiga kirish, pedagogik mahorat ustalarining ishlari bilan tanishib o‘z uslubini takomillashtirish lozim. O‘qituvchining mehnati ijodiy mehnat. Har qanday ijodiy ishlarda bo‘lgani kabi pedagog ishida ham hamma vaqt muvaffaqiyat bo‘lavermaydi. Ba’zida o‘qituvchilar yaxshi tayyorgarlik ko‘rilgan dars bir sinfda muvaffaqiyatli o‘tilib boshqasida barbod bo‘lgani ham uchrab turadi. Bunda o‘qituvchi nimanidir hisobga olmagan, qiyomiga etkazmagan. O‘quvchilarga bilish, kashf etish, quvonchni bag‘ishlash uchun darsni takomillashtirish yo‘llarini zo‘r berib qidirish kerak.

Biz har bir o‘qituvchining o‘z ta’lim berish uslubi borligini nazarda tutib, o‘qituvchiga dars o‘tish, darsdan tashqari ishlar olib borish yuzasidan o‘z tavsiyalarimizni beramiz. O‘qituvchilar albatta ijodiy ishini boyitishda tanlab olib foydalanadilar.



1-rasm. Kasbiy kompetentlikka ega mutaxassis.

Yuqoridagi fikrlar barchasi o‘qituvchining kasbiy kompetentligi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik shuningdek quyidagi holatlarda nomoyon bo‘ladi [3].



2- rasm. Pedagog kasbiy kompetentligini rivojlantirish.

Pedagog kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o‘z ustida ishlashi va rivojlantirishi muhim ahamiyatga ega. O‘z - o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlili qilish va o‘zini baholash orqali aniqlanadi.

Geografiya o‘qituvchisini o‘z ustida ishlashi

1. Geograf kasbiy faoliyatiga oid BKMlarni takomillashtirib borishi;
2. Faoliyatiga tanqidiy va ijodiy yondashishi;
3. Kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;

4. Ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
5. Salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
6. Ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish;

Geografiya o‘qituvchisini o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Bugungi kunda geografiya o‘qituvchisi o‘z kasbi nuqtai nazaridan doimo yutuq va kamchiliklarini aniqlashi; Geografni bugungi kun bilan hamnafas bo‘layaptimi kamchiliklarini bartaraf etish uchun aniq qarorga kelishi; Qarorlari asosida amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo‘llarini izlash; Xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka harakat qilish; Qabul qilingan qarorni izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ишмуҳамммедов Р. Таълимда инновация. – Тошкент: “Фан”, 2010.
2. Қурбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси.Урганч 2001.
3. Муслимов Н, Усманбаева М, Сайфуров Д, Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Тошкент – 2015 й.
4. Таможная Е.А., Смирнова М.С., Душина И.В. Методика обучения географии. Москва, Юрайт - 2016
5. Tursinbaevna, Gaypova Roza, Turdibekova Zamira Muzapparovna, and Koshkinbaeva Mekhriban Turganbaevna. "THE IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING GEOGRAPHY." *International Journal of Pedagogics* 3.10 (2023): 53-56.
6. Gaypova R. T., Jamalatdinova N., Nasirova D. GEOGRAFIYA TALIMINDE MASHQALALIOQITIWDINORNI HAMAHMIYETI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 22. – С. 34-36.
7. Xodjaeva G. A., Gaypova R. T., Turdibekova Z. M. Talabalarning ijodiy geografik qobiliyatini rivojlantirishda muammoli tálim texnologiyalardan foydalanish //Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг ахборотномаси. – 2023. – Т. 1. – С. 59.
8. Гайпова Р., Турдыбекова З., Байрамова А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1037-1041.

BO’LAJAK GEOGRAFIYA O’QITUVCHILARINING DIDAKTIK KOMPETENTSIYASINI MUSTAQIL TA’LIM JARAYONIDA TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Abdimurotov Oybek Uralovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Geografiya kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD)
Telefon: +99890 999 00 89
Email: o.abdimurotov@cspi.uz

Iqtisodiyotimizni erkinlashtirish yo’liga kirib borayotgan mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish, unga rivojlangan mamlakatlarning ilg’or texnologiyalarini joriy etish va yanada takomillashtirish, talabalarni mustaqil faoliyat yuritishga o’rgatish, milliy qadriyatlarimizni singdirgan holda ta’limni tashkil etish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Hozirgi sharoitda talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish muammosi juda dolzarb bo’lib bormoqda. Chunki, fanlarni o’rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt hajmidagi auditoriya mashg’ulotlarining ulushi kamayib mustaqil ta’limning ulushi aksincha ortib borishini taqozo etmoqda.

Ta’lim sohasida bo‘layotgan har bir o‘zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta’sir qilishiga shubha yo‘q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta’lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo‘lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish – talaba faoliyatining ta’lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o‘qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Ta’lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta’lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim.

Olib borilgan tahlillar natijasida, hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning asosiy qismi mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishning an’anaviy, ya’ni ilgari qo‘llanilgan usullarini yaxshi o‘zlashtirib olishgan (mustaqil ish, referat, esse), lekin ular o‘qitishning yangi interfaol texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanmayaptilar. Ya’ni mustaqil ta’limlarni aynan kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirish, mashg‘ulotlarini loyihalash, AKT laridan va internet tarmog‘idan ta’limiy maqsadlarda foydalanish, rolli o‘yinlar, amaliy o‘yinlar, kompyuter o‘yinlari, mustaqil bilim olish va boshqa interfaol usullar talabalarda kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini oshiradi.

M.A. Choshanovning “Didaktika va injeneriya” nomli kursining maqsadini “talabalarda zamonaviy ta’lim nazariyalarini mobil bilish, ta’lim metodlarini egallashga hamda rivojlangan tanqidiy fikrlashga qaratilgan kasbiy-diaktik kompetentlikni shaklantirish” sifatida belgilaydi [9]. Didaktik kompetentlikning mohiyati I.G. Shamsutdinova tomonidan “didaktik qarorlarni operativ, asosli va bexato qabul qila olish, didaktik vazifani yechishning eng qisqa yo‘lini topa bilish, u yoki boshqa sharoitlarga mos metodlar, usul va vositalarni tanlay olish” qobiliyati ko‘rinishida ta’riflanadi [10].

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida yangi ta’lim standartlariga o‘tish munosabati bilan malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarga bir qator talablar qo‘yilmoqda, shunga ko‘ra biz tadqiqotimiz jarayonida aynan didaktik kompetensiyani shakllantirishga e’tiborga oldik.

Xususan, kompetensiya so‘zini mazmun mohiyati va komponentlarini o‘rganishda biz pedagogikaning mustaqil tarmog‘i bo‘lgan didaktikaning mazmunini tadqiqotimiz doirasida tahlil qildik.

Bizning nazarimizda, mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning didaktik kompetensiyasini interfaol ta’lim metodlari asosida takomillashtirish borasidagi muammolar quyidagilardan iborat:

- talabalarda mustaqil ta’lim jarayonida didaktik kompetensiyani interfaol ta’lim metodlari asosida takomillashtirish masalasi hali maxsus o‘rganilmaganligi, mazkur pedagogik jarayondagi ahamiyatga molik masalalarning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilmaganligi;
- talabalarga geografiya ta’limini o‘rgatishda mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi va texnologiyasi bo‘yicha ta’lim beradigan o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollanmagani, o‘qitishning faol usullaridan, fanlararo bog‘liqlik va o‘zaro aloqadorlikdan samarali foydalanilmayotganligi;
- talabalarga geografiya ta’limini o‘rgatishda mustaqil ta’limni tashkil etish texnologiyasi hamda nazariy va amaliy ta’limda mustahkam integratsiyaning shakllanmaganligi;
- talabalarga kelgusi faoliatlarida didaktik kompetensiyaning ahamiyatini tushuntirish borasida ishlar olib borilmasligi;
- mustaqil ta’limni olib borishda interfaol metodlarni qo‘llash ko‘nikmalari shakllanmaganligi;
- mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarning juda kam yaratilganligi, mustaqil ta’limni tashkil etishda yo‘riqnomalar

mazmuni eskirganligi va boshqalar.

Oliy ta’lim tizimi rivojining bugungi bosqichida mustaqil ta’lim sifatini ta’minlash dolzarb masalalardan biridir. Talabalarga mustaqil bilim olishi uchun shart-sharoitlarni yaratish, bu borada aniq vazifalarni shakllantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish, ta’lim resurslarini raqamlashtirish, eng samaralisini tanlash, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zlarining o‘quv faoliyati va mustaqil ta’lim jarayonlarini tartibga solish zarur. Ushbu natijaga erishish mustaqil ta’lim tarkibiga mustaqil ta’lim strategiyasini kiritish bilan bog‘liq.

Tadqiqotlarimiz jarayonida talabalarga geografiya ta’limini o‘qitishda mustaqil ta’lim samaradorligini ta’minlashga qaratilgan quyidagi pedagogik va didaktik shart-sharoitlar aniqlashtirildi:

1. Moddiy-texnik shart-sharoitlar (o‘quv auditoriyalari, geografik asbob va uskunalar, globus va xaritalar), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompyuter, nusxa ko‘chirish qurilmalari, videoproyektor va hokazolar).
2. O‘quv-metodik meyoriy hujjatlar sifati (Davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari, zamonaviy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, metodik tavsiyanomalar, qo‘shimcha maxsus adabiyotlar, ko‘rgazmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar).
3. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati.
4. Ijtimoiy va o‘quv-texnologik muhit (o‘qituvchilar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalar va o‘qituvchilarning o‘zaro munosabatlari mazmuni, yo‘nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar).
5. O‘quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo‘lga qo‘yilganligi.

Keltirib o‘tilgan pedagogik shart-sharoitlardan tashqari mustaqil faoliyat strategiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda nafaqat fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, balki talabalarning sermahsul o‘quv faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning turli usullarini o‘zlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Bunga turli xil ta’lim strategiyalarini qo‘llash orqali erishiladi.

Mustaqil ta’lim strategiyalaridan o‘quv faoliyatining boshqa sub’ektlari bilan hamkorlikda foydalanish talabaga tanlangan strategiyalarning ma’lum bir o‘quv vazifasini amalga oshirishda qanchalik samarali ekanligini anglash, ularning samaradorligini kuzatib borish, o‘qituvchidan baho olish, agar kerak bo‘lsa, refleksiv tahlilni o‘tkazish imkonini yaratadi.

Shunday qilib, faoliyatli yondashishga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil

etish, bizning fikrimizcha, o‘quv jarayoni sub’ektlarining tashqi va ichki faoliyati mustaqil ta’lim strategiyasini shakllantirish uchun asos bo‘lgan shart-sharoitlardan biri bo‘lishi lozim. Shuni ta’kidlash kerakki, mustaqil ta’lim uchun strategiyalarni shakllantirish mashqlarida mustaqil ta’lim faoliyati tabiati doimiy ravishda boshqariladigan, qisman o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan va talabalar tomonidan boshqariladigan holatga o‘zgarishi mumkin. Shunday qilib, mustaqil ta’limni tashkil etishga faol yondashish, uning maqsadi mustaqil ta’lim strategiyasini o‘zlashtirish, talabalarni o‘z ta’limotlarining faol sub’ekti pozitsiyasiga qo‘yishdir. Bizning fikrimizcha, talabalarning faolligi va mustaqilligini ta’minlaydigan o‘quv jarayonini konstruksiyalash mustaqil ta’lim strategiyasini shakllantirishning yana bir didaktik sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda oliy ta’lim tizimi rivojining bugungi bosqichida mustaqil ta’lim sifatini ta’minlash dolzarb masalalardan biridir. Talabalarga mustaqil bilim olishi uchun shart-sharoitlarni yaratish, bu borada aniq vazifalarni shakllantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish, ta’lim resurslarini raqamlashtirish, eng samaralisini tanlash, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zlarining o‘quv faoliyati va mustaqil ta’lim jarayonlarini tartibga solish zarur. Ushbu natijaga erishish mustaqil ta’lim tarkibiga mustaqil ta’lim strategiyasini kiritish, talabalarga geografiya ta’limini o‘rgatishda mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonida interfaol o‘qitish metodlari, kompetensiyaviy yondashuvning mazmuni, mohiyati, soha olimlarining bo‘lajak mutaxassislarning mustaqil ta’limni tashkil etishning takomillashtirishga oid qator ishlarini o‘rganib ularni ta’lim jarayoniga keng targ’ib qilish lozim. Shuningdek, mustaqil ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish orqali mustaqil ta’limning mazmun-mohiyatini takomillashtirish, talabalarning metodik hamda didaktik kompetensiyalarini rivojlantirish, individual qiziqishlarini qondirish, talabalarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish, axborot manbalari bilan mustaqil ta’limlash ko‘nikmasini oshirish, talabalarning o‘quv yutuqlarini doimiy tashqi va ichki nazoratni ta’minlash vazifalarini hal etishga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdimurotov O.U. Improving the Methodology of Working with a Map in the Process of Organizing Independent Education in Geography Courses. Journal of Pharmaceutical Negative Results, Volume 13, Special Issue 3, 2022. pp. 1725-1729.
2. Abdimurotov O.U. The importance of using information technologies in geography education within the conditions of the credit module system.

Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, Volume 3, 2022. pp. 262-267.
3. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etish shakllari. “Pedagogika” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023. 4-son. 289-293-b.
4. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilariga mustaqil ta’limni tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida. “Ta’lim, fan va innovatsiya” jurnali 2023. 6-son. 106-110 b.
5. Abdimurotov O.U. Geografiya darslarida mustaqil ta’limni tashkil etishda modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi. “Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў” илимий-методикалық журнал. 2023. 6/4-сан. 72-81 b.
6. Abdimurotov O.U. Geografiya darslarida mustaqil ta’limni tashkil qilishda interfaol metodlardan foydalanish. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11. Issue-10. 2023. 1337-1345-b.
7. Abdimurotov O.U. Talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini rivojlantirish mexanizmlari. “Zamonaviy biologiyaning dolzarb muammolari: yechimlari, istiqbollari va o‘qitishda fan-ta’lim integratsiyasi” xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi ilmiy ishlar to‘plami. Chirchiq, 26-27-oktyabr 2023-yil. 370-374-b.
8. Abdimurotov O.U. Geografiyani o’qitishda mustaqil ta’limnining o’rni va ahamiyati. “Globallashuv jarayonida innovatsion ta’lim va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Termiz, 27-may 2023-yil
9. Чошанов М.А. Дидактическая инженерия: анализ и проектирование обучающих технологий. – Блумингтон; Индиана, 2009.
10. Шамсутдинова И.Г. Дидактическая компетентность учителя // Высшее педагогическое образование в России: материалы международ. науч.-практ. конф.: в 2 ч. – М., 1997. – Ч. 1. Б. 222.

GEOGRAFIYALÍQ TÁLIMDE EKOLOGIYALÍQ BILIM HÁM MÁDENIYATTÍ QÁLIPLESTIRIWDIŃ ÓZGESHELIKLERI

Abdiramanov Jangabay Bektursınovish
Ájiniyaz atındağı NMPI. Geografiya oqıtıw metodikası kafedrası. Úlken oqıtıwshı

Hár bir xalıqtıń tábiyattı paydalanıwda, onı qorǵawda ásirler boyı qáliplesken ózinshelik dástúrleri, isenimleri, úrp-ádetleri bolatuǵınlıǵı belgili. Bul ákeniń qanı menen, ananıń súti menen áwladtan-áwladqa úzliksiz ótip otıratuǵın bahalı qásiyet.

«Adam –tábiyattıń ajıralmas bólegi» demekshi, musılman xalıqlarınıń dástúrinde «Jer-Ana» degen egiz túsinik qáliplesken. Jerdi óz anasınday kóriw, al anasın kúndey qasterlew – milliyligimizdıń isenimine áyyemnen kirgen dástúr. Sebebi, xalqımızda «Ana Watan» degen bir awız sóz arqalı babalarımız tuwǵan jerge, tábiyatqa degen jıllı muxabbatın, húrmetin bildirgen.

«Adam –tábiyattıń ajıralmas bólegi» demekshi, musılman xalıqlarınıń dástúrinde «Jer-Ana» degen egiz túsinik qáliplesken. Jerdi óz anasınday kóriw, al anasın kúndey qasterlew – milliyligimizdıń isenimine áyyemnen kirgen dástúr. Sebebi, xalqımızda «Ana Watan» degen bir awız sóz arqalı babalarımız tuwǵan jerge, tábiyatqa degen jıllı muxabbatın, húrmetin bildirgen.

Biraqta dúnyadaǵı shiyinlenisken ekologiyalıq máseleler adamdardıń tirishilik ortalıǵına degen kózqarasın bir qansha ózgertip jiberdi. Tezlik penen rawajlanıp atırǵan zamanda jańa innovaciyalıq texnologiyalar, jańa jámiyetlik institutlar, óndiris orınları payda boldı. Bul faktordı adamlardıń turmıs keshiriw jaǵdayınıń transformaciyaǵa ushırawı menen, sáykes talap dárejesiniń artıwı menen baylanıstırıwǵa boladı. Keleshekte adamlar ekologiyalıq apatshılıqtan qalay qutılıwdı emes, kerisinshe onıń ekologiyalıq-mádeniy áqıbetlerin qalayınsha jeńilletiwge boladı degen sorawlardıń jawabın izley basladı.

Jergilikli ekologiyalıq máseleler – jasawshılardıń tirishilik etiw dástúriniń ózgesheliklerine baylanıslı payda boladı. Demek jergilikli qorshaǵan ortanıń jaǵdayı, ózgesheligi, tábiyat nızamlıqları menen qubılısları ásirler boyı sol aymaqta jasaytuǵın adamlarǵa ǵana anıq túsinikli. Olardıń tirishilik etiw nızamı, dástúri, isenimleri sol aymaqtıń tábiyiy, geografiyalıq ózgesheligi tiykarında qáliplesedi. Sonlıqtan ekologiyalıq bilim menen mádeniyattı qáliplestiriwde hár millettıń etnoekologiyalıq ózgeshelikleri esapqa alınıwı kerek.

Ekologiyalıq bilim shaxs penen, onıń hár qıylı minez qulqı hám qásiyetleri menen organikalaq baylanısta boladı. İlimiy ádebiyatlarda «ekologiyalıq mádeniyat» túsinigine kóplegen túsinik, anıqlamalar berilgen.

E.V.Girusovtıń pikirinshe, ekologiyalıq mádeniyat-jámiyettiń materiallıq hám ruwxıy bahalılıqlardıń birligi, sonday-aq, tábiyiy ortanı saqlawǵa baǵdarlanǵan háreketlerdiń birligi.[1]

Solay etip, mádeniyattıń mánisin insannıń ózinshelik materiallıq hám ruwxıy talapqa jeteleytuǵın iskerlikke baylanıslı payda bolatuǵın ónim dewge de boladı. Ekologiyalıq mádeniyattı qáliplestiriw mashqalası boyınsha alıs hám jaqın shet ellik alımlardıń qırıqtan aslam miynetlerinde qarastırılǵanda onıń quramalı hám hár qıylı ekenligine isenimimiz arttı.

Alımlardıń pedagogikalıq oy-pikirleri boyınsha, «ekologiyalıq mádeniyat» - ulıwma dúnya júzlik mádeniy rawajlanıwınıń quramlıq bólimi hám reti kelgende keleshekte insaniyattıń rawajlanıwına tásir etetuǵın ómirdegi barlıq ulıwma áhmiyetli ekologiyalıq mashqalalar menen sıpatlanadı. Bul anıqlamada ózgeshe názer awdaratuǵın jaǵday–«ekologiyalıq mádeniyattıń» jeke milliy yamasa milletler aralıq dárejede emes, pútkil dúnya júzlik sheńberdegi insaniyatqa tásir qılatuǵın mashqalalar qatarında sıpatlanıwında bolıp tabıladı.[3]

Solay etip, jeke shaxstıń ekologiyalıq mádeniyatın qáliplestiriwde insan menen tábiyattıń ekologiyalıq baylanısınıń eki jolı kórinedi, olardıń fiziologiyalıq hám psixologiyalıq baylanısı insan densawlıǵına tásir etedi. Bul baylanıstıń buzılıwı sońınan fiziologiyalıq hám psixologiyalıq ádetleriniń teń salmaqlılıq bioritmlik óz ara qatnaslardıń buzılıwına ákelip soǵadı da, usınnan insan menen tábiyattıń óz ara baylanısı buzıladı. Olardıń qaytadan dúziliwi tábiyattıń bir tegis kórinisin qálpina keltiredi, psixikalıq hám fiziologiyalıq sistemaǵa ákeledi. Ruwxıy adamgershilik–estetikalıq baylanıslar insannıń ruwxıy dúnyasına tásir etedi.

Ekologiyalıq bilim beriw Ózbekstan Respublikasınıń ǵárezsizliginiń dáslepki jıllarında ulıwma bilim beretuǵın mekteptiń ekologiyalıq bilim beriwge baylanıslı is-háreket baǵdarlaması menen kontsepsiyasında anıqlanǵan.[2] Ekologiyalıq bilim beriw dep jeke insannıń ilimiy bilimler dizimi menen ámeliy iskerligin, ózin-ózi uslaw, xızmet etiwge baylanıslı baǵdar alatuǵın iserliklerin, qorshaǵan sotsiallıq-tábiyiy ortalıqqa juwapkershilikti qáliplestiretuǵın bilim menen tárbiya beriw, rawajlanıwdıń úzliksiz processi dep kórsetilgen.

Dúnyalıq ekologiyalıq jaǵdaylardıń máselelerine arnalǵan izertlewlerde házirgi zamanǵı jámiyet penen tábiyattıń óz ara qatnasıǵınıń ózgesheligine tómendegiler kiredi:

- antropogenli tásir etiw ornı bolıp jer sharınıń barlıq salası-qattı, gazlı, suw, biotoplıq, kosmoslıq salaları esaplanadı;

- ekologiyalıq qarama-qarama qarsılıqlar barlıq jer sharın qamtıydı;

- insaniyattıń háreketi dúnyalıq kólemdegi kóplegen tábiyattıń teń salmaqlıǵına tásir etedi.

Usınnan kelip shıǵıp Watan, tuwǵan jer tábiyatın qorǵaytın tárbiyalı, tártipli, mádeniyatlı shaxstı rawajlandırıp, qáliplestiriw wazıypası alǵa qoyıldı.

Ekologiyalıq máselelerdi sheshiwde bilim jetkiliksiz, sonlıqtan da jeke shaxsta insan menen tábiyattıń sáykesli qarım-qatınasın támiyinleytuǵın ekologiyalıq mádeniyat bilimdi belsendilikke, anıq iskerlikke baǵdarlaytuǵın qural xızmetin atqaradı.

Usıǵan baylanıslı XX-ásirdiń ekinshi yarımında ekologiyalıq mádeniyatqa tárbiyalawdıń oǵada zárúr ekenligi belgili boldı. Ol bir jaǵınan orta mekteplerde ekologiyalıq bilimniń engiziliwine, al, ekinshi jaǵınan ekologiyalıq keskinlesiwdiń tereńlesip qorshaǵan ortalıqtaǵı teń salmaqlıqtıń buzılıwına baylanıslı boladı.

Ekologiyalıq bilim- tábiyiy qorshaǵan ortalıq penen qarım-qatnastaǵı insan tirshiliginiń miyrası bolıp qalatuǵın taza turmıs qálpine, turaqlı sotsiallıq, ekonomikalıq rawajlanıwına, eldiń hám hár bir insannıń ekologiyalıq bilimi menen tárbiyası dárejesine baylanıslı qáliplesedi.

Ekologiyalıq bilim - hárbir jámiyetdeǵı ulıwma mádeniyattiń eń áhmiyetli elementteriniń biri bolıp tabıladı, sebebi sociallıq is-háreket turaqlı qorshaǵan ortanıń turmıs keshiriw talapları menen baylanıstı boladı. Yaǵnıy ekologiyalıq mádeniyat sociallıq fenomen retinde jámiyet hám tábiyattıń óz ara qarım – qatınasın retlew zárúrligin keltirip shıǵaradı.

Ekologiyalıq bilim túsinigine berilgen anıqlamalardı túsiniwde olardıń mazmunı menen baslı ideyalarına qaray birneshe baǵıtta qarastırılǵanlıǵın kórsetedi: ekologiyalıq mádeniyat– ulıwma mádeniyatlıqtıń bir bólimi; ekologiyalıq mádeniyat insanlardıń tábiyat penen qarım–qatnasları haqqındaǵı qáliplesken dúnyatanıwı, isenimi, túsinikleri, bilimi, iskerligi, bahalıq baǵdar dizimi; ekologiyalıq mádeniyatqa–insannıń ómirlik belsendiligi; ekologiyalıq mádeniyat insannıń tábiyattı teoriyalıq, materiallıq-praktikalıq, ruwxıy baylıqtı iyelewi hám jańartıwdaǵı mazmunlı kúsh-quwatınıń ólshemi, iskerligiiniń jıyındısı; ekologiyalıq bilim –insannıń tábiyat penen ǵana emes, sotsiallıq–tariyxıy ortalıq penen, biosfera menen óz ara háreketlesiwi bolıp tabıladı.

Demek, ekologiyalıq bilim ekologiyanı tanıp-biliwi, minez-qulıq, júris-turıs sıpatı negizinde tábiyatqa súyispenshilik penen qarap, saqlay biliw degendi túsindiredi dewge de boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Беркунова Л.А. Экологическая культура в аспекте становления ценностей современного общества. Дис. М. 2004 – с. 4.
2. Gaypova R.T. J.Abdiramanov.Innovatsion texnologiya: Zamonaviy geografiya O’zbekiston geografiya jamiyati Axboroti 32 – jild 144-146 b.
3. Жақсыбеков Ә.С. Экологиялық мәдениет. Алматы, 2009. 33 б
4. Рафиков А.А. Геоэкологик муаммолар.Т.:Ўқитувчи. 1997.
5. Ходжаева Г.А., Жиемуратова Г.Ө. География сабақларын оқытыўда өзбетинше тапсырмаларды пайдаланыўдың әҳмийети.// Илим ҳәм жәмийет, №2,2020. 66-68 б.
6. Ходжаева Г.А., Жиемуратова Г.О. География пәни сабақларында аўызеки методтан пайдаланыўдың әҳмийети // Вестник Каракалпакского государственного университета, №3, 2021. 85-88 стр.

GEORAFIYA SABAQLARÍNDA ELEKTRON OQÍW MATERIALLARÍNAN PAYDALANÍWDÍŃ ÁHMIYETI

Nurlanov A.S.,
Dawletbaev D.
Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikaliq institutı

Geografiya pánler sistemasında tábiyaat hám jámiettiiń óz-ara baylanısta rawajlanıwınıń kompleksli, kóp qırlı hár tárepleme uyreniwshi pánlerden esaplanadı. Geografiyalıq qabıqta júz beretuǵın litosfera plitalarınıń jıljıwı, materiklarning payda bolıwı, tawlardıń kótriliwi, klimat poyaslarinıń tarqalıwı, landshaftlardıń qáliplesiwi, topıraq, ósimlik hám haywanot dúnyasınıń payda bolıwı rawajlaniwi sıyaqlı tábiyiy geografiyalıq processler uyreniledi.

Geografiya pánin oqıtıwda oqıtıwshı teoriyalıq bilimlerdi beriwde tábiyiy geografiyalıq processlerge sıpatlama berip, hár qanday gipotezalar, dálillerdi tek kartalarǵa tiykarlanǵan halda awızsha bayanlaydi. Studentler bolsa temanı ózbetinshe ózlestiriw processinde iyelegen teoriyalıq bilimlerin ámeliyatqa nátiyjeni ámelde qollanıwda qıyın jaǵdayǵa túsip qaladı.

Bul bolsa óz gezeginde kompyuter texnologiyaları, mul'timediya quralları tiykarında lekciyalar shólkemlestiriwdi rawajlandırıw, elektron sabaqlıqlar, elektron oqıw metodikalıq támiynat resurslarınan oqıw processinde nátiyjeli paydalanıp studentler aktivligin asırıwdı olardıń internet arqalı axbarot resurslarınan paydalanıw qábiletin rawajlandırıp jetilistiriwdi talap etedi.

Oqıwshılardıń bilim sapasınıń nátiyjeliligin asırıwda oqıw protsesinde qollanılatuǵın texnikalıq hám kórgizbeli qurallardıń áhmiyeti joqarı. Kórgizbeli qurallar oqıwshılardıń dúnya qubılısların kóz aldına keltiriwi hám fantaziyasın baytıwǵa keń múmkinshilik jaratadı. Ullı chex pedagog alımı Yan Amos Kaminskiydiń “Mıń márte esitkennen bir márte kórgen abzal” degen pikiri házirgi zaman pedagogikası rawajlanıwında óz áhmiyetin joǵaltpaǵan.

Geografiya tábiyiy pánler quramına kirgenligin itibarǵa alǵan halda kórgezbelilikke bay bolǵanlıǵı sebepli de, joqarıda belgilengen elektron sabaqlıq, elektron oqıw metodikalıq támiynat resursları hám maǵlıwmatlar banki pánniń rawajlanıwinda júdá úlken orındı iyeleydi.

Geografiya páninen sabaq alıp barılatuǵın oqıw bólmelerinde barlıq kerekli kórgezbeli qurallar, kartalar, taw jınısları hám minerallar, ósimlik, topıraq kollektsiyalari, hawa-rayın baqlaw ushın kerekli meteorologiyaliq ásbap -úskeneleri, bunnan tısqarı texnikalıq qurallarınan, oqıw filmlerin kórsetiw ushın televizor, videomagnitafon hám kinoproektor, ekranda geografiyalıq suwretli

proektsiyalardı kórsetiw ushın diaproektorlar hám kadaskoplar, tábiyiy processlerdi kórsetiwshi hár qıylı modeller bolıwı zárúr.

Ókiniw menen aytamız kerek házirgi geografiya oqıw bólmelerinde kópshilik ko'rgizbeli qurallar hám texnikalıq ásbap-úskenelerdiń jetispewshiligi sebepli teoriyalıq shınıǵıwlar karta hám prezintatsiya usılında suwret hám tekst formasında alıp barılsa, ámeliy shınıǵıwlarda tábiyǵiy proseslerdi baqlaw, hawa rayın baqlaw, orınlardağı ólshew hám tájiriybeler ótkeriw qusaǵan ámeliy kónlikpelerdi payda etetuǵın shınıǵıwlar texnikalıq qurallar menen ólshew ásbap-úskenelerdiń joqlıǵı sebepli ótkerilmey atır.

Kompyuter programmalarında sonday programmalar bar olar járdeminde materik hám okeanlardıń, teńiz hám kólning kolemin ólshew, tawlardıń biyikliklerin ólshew, klimattı, relefti, landshaftlardı modellestiriw múmkinshiligi júzege keledi, animatsion roliklerde jer betinde suwdiń úlken aylanıwı, litosfera plitalarınıń dúgisiwi, taw payda boliwining tiykarǵı basqıshların, tábiyiy geografiyalıq processlerdi, tábiyatta júz berip atırǵan zárúrli ózgerislerdi olardıń háreketlerin úzliksiz baqlaw múmkinshiligi tuwıladi. [2.47]

Onıń ushın birinshi náwbette oqıtıwshı hám studentler kompyuter texnologiyalarınıń zamanagóy programmalarınan paydalanıw sawatxanlıǵi joqarı bolǵanda ǵana múmkinshiliklerden tolıq paydalana alıwı múmkin.

Geografiya sabaqlarında kompyuterden paydalanıw tek ǵana oqıtıwshınıń waqtın tejep qalmay studentlerdiń sabaqtı anıq kóz aldına keltirip kórip yaqsiraq túsiniwlerine járdem beredi. Sebebi kompyuter texnologiyası járdeminde sabaq procesi dawamında teoriyanı ámeliyatqa baylanıstırıp alıp barıwǵa keń sharayat jaratıladı.

Studentler ushın úyinde sabaqlıq aqırındağı sorawlarǵa juwap tawıp otırǵannan kóre, axborot resurs oraylarında jámáát bolıp jańa temanı taǵı bir bara qaytarıp, ózlestirip, bekkemlep, óz pikirlerin erkin bildirip, gruppalaslariniń pikirlerine húrmet penen qarap, kópshilik penen wazıypalardı óz betinshe orınlawına múmkinshilik jaratıladı.

Studentler ushın kompyuter arqalı sorawlarǵa juwaplardı tabıw kóp waqıttı almaydı hám qolaylı. Kompyuter járdeminde studentler bilimin bahalaw avtomatikalıq túrde atqarıladı, bul bolsa birinshiden waqtın tejese, ekinshiden studenttiń atqarǵan jumisına ob'ektiv baha beriledi.

Studentler elektron sabaqlıqlar, derekler hám elektron oqıw materialları támiynatına, Internet tarmaǵına kirip pánge tiyisli jańa ádebiyatlardan, ilimiy hám metodikalıq jurnallardan, kúndelik axbarot-resurs dáreklerinen qosımsha maǵlıwmatlardı, jańa kiritilgen kartalardı ızlep tabıwı, tábiyatqa tikkeley baqlaw

jolı menen maǵlıwmat toplawı, olardı saralaw, tártipke hám sistemaǵa salıp qoyıwı, analiz etiwi, nátiyjelerin prezintatsiya slaydları járdeminde dálillep beriwi múmkinshiligine iye boladı.

Geografiya tálimine kompyuter texnologiyaların engiziw studenttiń intellektuallıq qabıliyetin jetilistiriwge, bilim hám kónlikpelerin úzliksiz rawajlandırıwǵa, házirgi zaman talaplarına juwap bere alatuǵın joqarı mamanliqtaǵı geograf qániyge bolıp jetilisiwine sharayat jaratadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Олий таълим. Меъёрий-ҳуқуқий ва услубий хужжатлар тўплами.-Тошкент. Истиқлол, 2004.-511б.
2. Никадамбаева Ҳ.Б. Ўзбекистон табиий географияси фанини ўқитишда компютер технологияларидан фойдаланиш методикаси. Тошкент. 2015 й.
3. Ходжаева Г.А., Жиемуратова Г.Ө. География сабақларын оқытыўда өзбетинше тапсырмаларды пайдаланыўдың әҳмийети.// Илим ҳәм жәмийет, №2,2020. 66-68 б.
4. Ходжаева Г.А., Жиемуратова Г.О. География пәни сабақларында аўызеки методтан пайдаланыўдың әҳмийети // Вестник Каракалпакского государственного университета, №3, 2021. 85-88 стр.

ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИ ВА УНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Турсунов Хасан Тургунович,
г.ф.н., доцент
Чирчиқ Давлат педагогика университети,
География кафедраси
Чирчиқ шаҳри, E-mail: khasant@mail.ru

Табиий муҳитга антропоген таъсир оқибатда дунё бўйлаб юз бераётган салбий глобал ўзгаришлар жаҳон жамоатчилигини жиддий ташвишга солаётгани хеч кимга сир эмас. Ер юзидаги ҳар бир экотизим ва глобал экотизим-биосферада ҳам ўз ўзини тиклаш жараёнлари давом этишига қарамасдан иқлим тизимидаги ўзгаришлар, табиий фалокатлар-денгиз ва кўлларнинг қуриши, қурғоқчилик, тошқинлар, зилзила ва вулқон отилишлари, эпидемияларнинг сони ва миқёсларининг мислсиз ортиб кетиши “табиат-жамият” тизимида жиддий инқироз кузатилаётганидан дарак беради. Агар яқин ўн йиликлар ичида инқрознинг олди олинмаса сайёра миқёсида экологик фалокат реал воқеликка айланиши мумкиндир.

БМТнинг Барқарор ривожланиш концепцияси жамиятни экологик ва иқтисодий инқирозларни хамжихатликда юмшатиш ва бартараф этишни амалга ошириш дастурларини ишлаб чиқиш ва ҳаётга татбиқ этиш имкониятини берди.

2015 йил Нью-Йоркда бўлиб ўтган БМТнинг“*Барқарор ривожланиш мақсадлари*” Саммитида қабул қилинган “**Дунёни қайта тузиш: 2030 - йилгача глобал ривожланиш дастури**”нинг 17 та мақсадлари ичида 4-мақсади:”*Умумқамровли сифатли ва адолатли таълимни барча учун бутун ҳаёти давомида олиб боришни рағбатлантирувчи ўқитиш*”ни йўлга қўйиши алоҳида аҳамиятга эгадир.

География таълим ўқувчи ва талабаларга сайёрамиздаги экологик вазиятлар ва уларни юмшатиш ҳамда оптималлаштириш, ресурслардан оқилона фойдаланиш, инсонларнинг ҳаёт муҳитни ифлосланишдан сақлаш бўйича зарур геоэкологик билимларни бера олиши мумкиндир. Айнан география таълими нафақат жонли ва жонсиз табиатдаги салбий ўзгаришлар, балки сайёравий экологик инқирознинг иқтисодий, демографик, геосиёсий, маданий, этник, аҳлоқий ва бошқа жиҳатлари, уларнинг ҳудудий фарқлари хақидаги зарурий билимларни бериши мумкиндир. Ривожланган мамлакатларда XX асрнинг 70-йилларида бошланган ҳаётнинг барча сохалари, шу жумладан таълимни ҳам “экологиялаштириш” ижобий натижаларни берди. Атроф-муҳитни

соғломлаштириш, биологик хилма-хилликни сақлаш, муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар майдонларини кенгайтириш, аҳолининг экологик онги ва маданиятини шакллантириш, фуқаролик жамятини кучайтиришда БМТнинг “XXI асрга кун тартиби” муҳим хужжатини ҳаётга татбиқ этиш, кейинги экологик таълим ва барқарор ривожланиш учун таълим бўйича ўтказилган ўн йилликлар давомида ривожланган давлатлар аҳамиятли ютуқларга эришдилар. “Яшил иқтисодиёт”, “Яшил энергетика” сохасида ҳам, атроф-муҳит ҳолатини яхшилаш бўйича технологиялар борасида ҳам улар пешқадам ҳисобланадилар ва уларнинг тажрибаларини ўрганиш ва ҳаётга татбиқ этиш муҳим аҳамиятга эгадир.

География таълимни экологиялаштириш шу куннинг энг долзарб вазифаларидан ҳисобланади ва бу борада маълум саъи-харакатлар амалга оширилмоқда. Лекин шуни таъкидлаш лозимки, ҳозиргача Ўзбекистонда экологик таълимни биологлар, асосан биоэкологик ёндашиб, амалга оширмоқдалар. География қобиқ, ер қобиқлари, Ер юзи ахолиси ва ундаги жараёнлар, дунёдаги мамлакатлар, уларнинг ранг-баранг табиати, халқлар, миллатлар, элатлар, уларнинг яшаш тарзи, қадриятлари; табиат ёдгорликлари, муҳофаза этиладиган ҳудудлар, денгиз, океан, дарёлар, иқлим, об-ҳаво; шахар ва қишлоқлар, ландшафтлар, геотизимлар, табиий ресурслар ва улардан оқилона фойдаланиш ва бошқаларни ўрганадиган, иқтисодий билим асосларини берадиган география таълимини янада *экологиялаштириш* фақат ижобий натижаларни бериши шубҳасиздир.

Замонавий география турли туман табиий, иқтисодий, сиёсий маълумотлар асосида илмий хулосалар чиқарувчи, умумлаштирувчи, илмий прогнозлаштирувчи фанга айланди[1.6].

Сўнгги йилларда бозор иқтисодиётига ўтиш жараёнидаги иқтисодга эга бўлган Ўзбекистонда “Таълим тўғрисида”ги қонунига зарур ўзгартиришлар киритилиб, қайта қабул қилинди.

Ўзбекистон Республикасида Экологик таълимни ривожлантириш концепцияси “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича *Ҳаракатлар стратегиясида* белгиланган вазифаларни сўзсиз амалга ошириш, республика ҳудудларидаги экологик муаммолар ечимига таълим тизимини жорий қилиш билан ҳисса қўшиш, ўсиб келаётган ёш авлоднинг экологик саводхонлигини ошириш, экологик онги ва экологик маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш, экологик таълим ва тарбия жараёнини

самарали ташкил этиш мақсадида[3]” 2019 йили 27 майда, 434-сон Вазирлар Махкамасининг Қарори билан қабул қилинган.

Концепциянинг асосий мақсади ўсиб келаётган ёш авлодда экологик билим, онг ва маданиятни шакллантириш ҳамда ривожлантириш, экологик таълим-тарбия жараёнини самарали ташкил этиш, шунингдек, экология соҳасидаги илм-фанни жаҳоннинг илғор инновацион технологияларини жалб этган ҳолда янада такомиллаштиришдан иборат[3].

Ўрта мактабда зарур геоэкологик компетенцияларни шакллантириш ва олий мактабда уни ривожлантириб, келгувси мехнат фаолиятида актив экологик позицияни эгаллайдиган, рақобатбардош, билимли ёшларни тайёрлашда география таълими ролини янада ошириш географларнинг асосий вазифаларидан бири бўлиши лозимдир.

Инновацион технологиялар географик таълим сифатини оширишда муҳим аҳамиятга эгадир. Таълимда инновацион технологиялардан самарали фойдалаиш учун ўқув муассасаси Ахборот коммуникацион технологиялар(АКТ) билан етарлича таъминланган бўлиши, педагоглар улардан унумли фойдалана олишлари керакдир. Ҳозирда аксарият ўрта мактабларда ва айрим олий таълим муассасаларида инновацион технологиялардан фойдаланиб дарс ўтиш шароитлари талабга жавоб бермайди. Асосан мультимедия ёрдамида, тақдимномалар ёрдамида дарс ўтиш ўрта ва олий таълим тизимида кенг тарқалган. Видеофильмлардан фойдаланиш, видеодарслар ташкил қилиш ҳам географик таълим самарадорлигини янада оширади. Ўқувчи ва талабалар билан биргаликда видеоклип, қисқа видефильмлар тайёрлаш ҳам аҳамиятга моликдир.

Ўрта таълим ва олий таълимда географик фанларни ўқитишда Лойихалар услидан самарали фойдаланиш мумкин[2]. Лойихалар усули ўқувчилар томонидан бирор бир муаммони ечишга қаратилган бўлади. Бунда ўқувчилар томонидан турли Лойиҳалар ёзилади, ўқувчилар турли ролларни бажарадилар. Лойиҳаларни амалга оширишда АКТлардан фойдаланиш ўқувчиларга кучли мотивация беради.

Олий ўқув юртларида Геоинформацион тизимлардан фойдаланиш географик ҳодисаларни моделлаштириш, карталарни яратиш имкониятини беради. Талабалар ландшафтлардаги ўзгаришлар, аҳолининг тақсимланиши, иқлим омиллари, транспорт тармоқлари ва бошқаларни ўрганишлари мумкиндир.

Масофавий ўқитиш ва онлайн курслар географик фанларни ўзларига қулай вақтларда ўрганиш имкониятини беради.

Ижтимоий тармоқлар ёрдамида ўқувчи ва талабалар бошқа географлар билан билимларини ўртоқлашишлари, махсус форумларда қатнашишлари мумкиндир.

Ушбу ва бошқа ва инновацион технологиялардан фойдаланиш географик таълимни янада қизиқарли, жозибадор ва самарали бўлишини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Нигматов А.Н. Табиий география ва геоэкология назарияси. Т.: “Наврўз”., 2018-220 бет.
2. Мосин В.П. Использование современных педагогических технологий на уроках географии. Инновации в фундаментальных и прикладных географических исследованиях. Материали Республиканской научно-практической конференции(14-15 октября 2022 г.) Ташкент. -стр.358-360
3. Ўзбекистон Республикасида экологик таълимни ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 27 майдаги 434-сон қарори.-Lex.uz

GEOGRAFIYA FANIDAN OLIMPIADALARNI TASHKIL QILISH MASALALARI

Karakulov Nurbol Maidanovich
dotsent v/b., Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika unversiteti, geografiya va uni o’qitish metodikasi kafedrasi,
nkaraqulov@mail.ru

Usmonova Gulnora Eshmatovna
Toshkent shahar Yashnobod tumani 61-maktab geografiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada geografiya fanidan xalqaro olimpiada tashkil qilish tarixi, maqsad, vazifalari va uning o’ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek maqolada O’zbekistonda geografiya fanidan xalqaro olimpiada o’tkazish bo’yicha muammolar o’rganilgan hamda tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: X*alqaro olimpiada, geografiya, Xalqaro geografik ittifoq, iqlim o’zgarishi, amaliy ishlar, multimedia test, dala ishlari.*

Annotation. *This article studies the history of the organization of the International Olympiad in Geography, its goals, objectives and features. The article also discusses the problems of holding an international Olympiad in geography in Uzbekistan and makes recommendations.*

Key words: *International Olympiad, geography, International Geographical Union, climate change, practical work, multimedia test, field work.*

Umumiy o‘rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o‘quvchilari o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish o’quvchilarning sinfdan tashqari ishlar tarkibiga kirib, bilimli va iqtidorli o‘quvchilarni saralab olishda katta xizmat qiladi.

Bugungi kunda o’quvchi-yoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, sifatli bilim olishga va ilm-fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan rag‘batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida O‘zbekistonimiz dovrug‘ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash maqsadida 2019-yil 3-mayda PQ-4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tuzilmasida fan olim-piadalari bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash departamenti tashkil etildi. Departament bugungi kunda fan olimpiadalarini tashkil etishda faol ish olib bormoqda.

Bizga ma’lumki fan olimpiadalari o’quvchilarning iqtidorini va bilimini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek olimpiadalar quyidagi vazifalarni o’z ichiga oladi:

a) o‘quvchi yoshlarning iste’dodi va ijodiy qobiliyatini namoyon qilish va rivojlantirish;

b) fanlardan olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqur o‘rganishga qiziqishlarini oshirish;

c) kelajakda o‘quvchilarni o`zlari qiziqqan kasbini to‘g’ri tanlashida ko‘maklashish.

Umuman olganda O’zbekistonda vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan Nizomga ko‘ra, maktab o‘quvchilari o‘rtasida umumta’lim fanlari bo‘yicha quyidagi olimpiadalar tashkil etiladi:

- asosiy olimpiada;
- qo‘shimcha respublika olimpiadalari;
- onlayn olimpiada;
- nufuzli xalqaro olimpiadalar;
- mintaqaviy xalqaro olimpiadalar.

Jumladan, asosiy olimpiadalar tegishli fanlardan 4 bosqichda quyidagi muddatlarda o‘tkaziladi:

1-bosqich — maktab, akademik litsey va kasb-hunar maktablar miqyosida sentabr oyida;

2-bosqich — tuman (shahar) miqyosida oktabr oyida;

3-bosqich — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida noyabr oyida;

4-bosqich — respublika miqyosida barcha fanlardan mart-may oylarida.

Iqtidorli o’quvchilarni aniqlash va ularning bilimini oshirishda respublika olimpiadalaridan tashqari xalqaro olimpiadalarning o’rni ham kattadir. Mamlakatimizda geografiya fanidan xalqaro olimpiadada qatnashish imkoniyati 2021 yilda paydo bo’ldi. 2021-yil 9-sentabrda Vazirlar Mahkamasining 562-qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda boshqa fanlar qatori, geografiya fani bo‘yicha bir qator yangiliklar bor ekanligi, ko‘p sonli geograflarni xursand qildi. Geografiya fani bo‘yicha 10-11-sinflar o‘rtasida fan olimpiadasining tashkil etilishi, eng asosiysi, Xalqaro olimpiadalar ro‘yxatiga geografiya fanining kiritilishi, geografiya faniga qiziquvchi yoshlar va ularning ustozlari uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi. Geografiya fani bo’yicha xalqaro olimpiadasiga o’quvchilarni saralash 2024 yilda boshlandi. 2024 yil geografiya fanidan xalqaro olimpiadaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar

va Toshkent shahri bosqichi 27 fevral kuni tashkil etildi. Bu bosqichda 100 dan ortiq iqtidorli o’quvchilar qatnashib, o’z hududida dastlabki uchta o’rinni egallagan 42 ta g’oliblar respublika bosqichida qatnashish uchun yo’llanma oldi. Respublika bosqichida 1,2,3,4 o’rinlarni egallagan to’rtda o’quvchi xalqaro geografiya fan olimpiadasida qatnashish imkoniyatiga ega bo’ladi. Geografiya (iGeo) fanidan O’zbekiston terma jamoasi 2024 yilda birinchi marta qatnashadi. Barcha fanlardan nazorat turlari, shakllari, baholash mezonlari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. IGEO— har yili o‘tkaziladigan xalqaro geografiya fan olimpiadasi bo’lib, 16 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan milliy geografiya olimpiadalarining eng yaxshi ishtirokchilari o‘rtasida o‘tkaziladi. Olimpiadada qatnashish uchun o’quvchilar o’z mamlakatlarida saralash bosqichida qatnashib, yuqori o’rinlarni olish talab etiladi. Uning formati geografiya bo‘yicha o‘tkaziladigan Respublika olimpiadalaridan farq qiladi. Xalqaro Olimpiada uch qismdan iborat: yozma test, multimediya testi va kuzatishni talab qiluvchi, kartografik tasvir va geografik tahlilga asoslangan dalada bajariladigan amaliy ish. Ularning har biri testlar va topshiriqlar mazmunidan kelib chiqib ball asosida baholanadi. Multimediya testiga umumiy ballning 20%, javobi yoziladigan testga 40% va amaliy ishga 40% beriladi. O’quvchilarga barcha test va topshiriqlar ingliz tilida beriladi va ular faqat ingliz tilida javob yozishlari kerak.

Xalqaro olimpiadada o’quv yurtlarida ingliz tilida o'qimagan o’quvchilar uchun qo’shimcha vaqt beriladi. Masalan yozma test qismida ingliz tilida o'qigan o’quvchilarga 150 minut berilsa, ingliz tilida o'qimagan o’quvchilar uchun 180 minut ajratiladi. IGEO birinchi navbatda ishtirokchilarning geografiya haqidagi tushunchalarini, bilimlarini shuningdek, bu bilimlarni amalda tabiiy-geografik va iqtisodiy maqsadlarda qo‘llash qobiliyatini sinovdan o‘tkazadi.

Xalqaro olimpiadaning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- yoshlarda tabiiy-geografik va ekologik tadqiqotlarga faol qiziqishni rag'batlantirish;
- yoshlarda iqtisodiy-geografik va ijtimoiy-geografik tadqiqotlarga faol qiziqishni rag'batlantirish;
- yoshlar o‘rtasida geografik bilim, ko‘nikma va qiziqishlarning sifatiga e’tibor qaratish orqali geografiyaning o‘rta maktablarning o‘quv predmeti sifatidagi ahamiyatiga ijobiy hissa qo‘shish;
- turli mamlakatlar yoshlari o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish va bunda xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro do’stona aloqalarga hissa qo‘shish.

Xalqaro olimpiadalarda qatnashgan o’quvchilar o’z bilimlarini mustahkamlab, ko’nikma va malakalarga ega bo’lib, albatta katta tajriba to’playdi. Shuningdek davlatimiz tomonidan ular e’tirof etilib, munosib taqdirlanadilar.

Masalan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq nufuzli xalqaro olimpiadalarda oltin medalni qo‘lga kiritgan o‘quvchilarga BHMning 500 baravari (165 mln so‘m), ustoziga 450 baravari (148,5 mln so‘m); kumush medal uchun — o‘quvchi BHMning 300 baravar miqdori (99 mln so‘m), ustoziga 250 baravar (82,5 mln so‘m), bronza medal uchun bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari (66 mln so‘m), ustoziga 150 baravar (49,5 mln so‘m) pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Bundan tashqari, Xalqaro olimpiada g‘oliblari OTMlarga imtiyoz bilan grant asosida o‘qishga qabul qilinib, keyinchalik ta’lim muassasalarida o‘qituvchi bo‘lib faoliyat yuritadigan taqdirda lavozim maoshiga 150 foiz har oylik ustama oladi. Ma’lumki, O‘zbekiton yoshlar mamlakati. Davlatimiz siyosati ham har tomonlama yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilganini barchamiz guvohimiz. Bugungi kunda ta’lim sohasida yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlardan samarali foydalanib, o’quvchi yoshlar o’z imkoniyatlarini va bilimlarini xalqaro olimpiadalarda sinab ko’rishlari mumkin bo’ladi.

Xalqaro geografiya olimpiadasi Xalqaro geografiya ittifoqi (IGU) homiyligida, olimpiada ishchi guruhi orqali o‘tkaziladi.

1994-yilda Pragada bo‘lib o‘tgan Xalqaro geografik Ittifoq Kongressida Polsha va Niderlandiya geograflari 15 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar uchun Xalqaro geografiya tanlovi (IGEO) yoki olimpiada g‘oyasini ilgari surdilar. Birinchi IGEO 1996-yilda Niderlandiyaning Gaaga shahrida beshta ishtirokchi davlat ishtirokida o‘tkazilgan.

2012 yilgacha olimpiadalar har ikki yilda bir marta o‘tkazib kelinardi. O'tgan yillarda bir qancha hududiy olimpiadalar o'tkazildi. Jumladan, Markaziy Yevropa mintaqaviy geografiya olimpiadalari va 2007, 2009 va 2011 yillarda o‘tkazilgan Osiyo Tinch okeani mintaqaviy geografiya olimpiadalari.

XGI 2012-yilgi Kyoln Kongressi va 2016-yilgi Pekindagi Kongress oralig‘ida har yili mintaqaviy konferentsiyalar o‘tkazishga qaror qildi. Har yili o’kazilgan olimpiadalar Kioto (2013), Krakov (2014), Tver (2015), Pekin (2016), Belgrad (2017), Kvebek (2018) va Gonkongda (2019) bo'lib o'tdi. 2020 yilda Covid-19 pandemiyasi tufayli olimpiada o’tkazilmadi. Shuningdek pandemiya davrida 2021 (Istanbul) va 2022 (Parij) yillarda olimpiada onlayn

tarzda o'tkazildi. 2023-yil avgust oyida Indoneziyaning Bandung shahrida yana IGEO o’quvchilar ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Ishtirokchi davlatlar barcha besh qit'adan tashrif buyurdi.

Xalqaro geografiya olimpiadasi bugungi kungacha 19 marta tashkil qilindi.

Navbatdagi XX Xalqaro geografiya olimpiadasi Irlandiyada 2024-yilning 19-24-avgust kunlari Xalqaro geografik Ittifoqning Maxsus olimpiadalar guruhi shafeligida bo‘lib o‘tadi.

Olimpiada tadbirlari Maynooth shahri, Maynooth universiteti va Dublindagi Trinity College kollejida bo'lib o'tadi.

IGEO da to'rt nafar talabadan iborat mamlakatlar terma jamoalari va ularning ilmiy rahbarlari qatnashishlari mumkin.

Xalqaro geografiya olimpiadasi uch qismdan iborat: yozma test, multimediya testi va kuzatishni talab qiluvchi, kartografik tasvir va geografik tahlilga asoslangan dalada bajariladigan amaliy ish. Dastur shuningdek, jamoalar tomonidan poster taqdimotlari, madaniy almashinuvlar va o’quvchilar bilan tanishish va mezbon shaharni o'rganish uchun vaqtni o'z ichiga oladi.

Yozma javob testi va Multimedia testidagi savollar asosan quyidagi mavzular asosida tanlanadi:

1. Iqlim va iqlim o'zgarishi
2. Xavf va xavfni boshqarish
3. Resurslar va resurslarni boshqarish
4. Ekologik geografiya va barqaror rivojlanish
5. Relyef shakllari, landshaftlar va yerdan foydalanish
6. Qishloq xo'jaligi geografiyasi va oziq-ovqat muammolari
7. Aholi va aholi o'zgarishi
8. Iqtisodiy geografiya va globallashuv
9. Rivojlanish geografiyasi va fazoviy tengsizlik
10. Shaharlar geografiyasi, shaharni qayta tiklash va shaharsozlik
11. Turizm va turizmni boshqarish
12. Madaniy geografiya va mintaqaviy o'ziga xosliklar

O’quvchilar uchun zarur ko'nikmalar:

- xarita bilan ishlash ko'nikmalari
- tekshiruv, izlash malakalari
- grafika qobiliyatlari (tasvirlar, fotosuratlar, statistika, grafiklarni o'qish, tahlil qilish va sharhlash)

Multimedia testlarida rasm, karta, grafik kabi tasvirli savollardan tashqari, video va audio topshiriqlar ham beriladi.

Amaliy ish mashqlari quyidagilardan iborat:

1. Kuzatish va xaritalash
2. Qo'shimcha ma'lumotlar yig'ish, shu jumladan, dala ishlari sohasida fazoviy muammolarni tahlil qilish
3. Fazoviy reja yoki xaritani o'z ichiga olgan taklifga olib keladigan muammoni hal qilish mashqlari

Xaritalash mashqlari quyidagilardan iborat:

1. Kuzatish; 2. Kuzatilgan hodisalarni nomlash; 3. Xaritadagi hodisalarning o‘rnini aniqlash; 4. Tegishli grafik belgilardan foydalanish; 5. Xarita legendasidagi hodisalarni tasvirlash, masshtab va orientirlashdan foydalanish.

Xulosa o’rnida shuni takidlash kerakki, o‘quvchi-yoshlarning iste'dodi va ijodiy qobiliyatini aniqlash, ularni rag‘batlantirish, o‘quvchilarda o‘zlari tanlagan fanlar va ixtisosliklarni chuqur o‘rganishga qiziqishlarini oshirish, kelajakda kasblarni to‘g‘ri tanlashiga ko‘maklashish maqsadida fanlar bo’yicha olimpiadalar tashkil etiladi. Ular esa o’z navbatida kelajakda malakali kadrlar safini ko’paytirib, mamlakatimiz rivojiga va taraqqiyotiga o’z xissalarini qo’shishlariga ishonamiz.

Adabiyotlar:

1. Таможняя Е. А. Методика обучения географии : учебник и практикум для вузов / Е. А. Таможняя, М. С. Смирнова, И. В. Душина ; под общей редакцией Е. А. Таможней. — Москва : Издательство Юрайт, 2024.
2. Qurbonniyozov R., Geografiya o’qitish metodikasi, Xorazm,2001
3. Mo’minov O. A. Geografiya ta'limi metodikasi. T. «O’qituvchi» 1986
4. Botirovich, J. A., Maidanovich, K. N., & Izzatullo, A. O. (2022). The designing of the educational process on the base of innovative technologies. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *11*(11), 364-369.
5. Karakulov, N. M., Amanbayeva, Z. A., Sultanova, N. B., & Xidirov, M. S. (2019). Development of tourism in Uzbekistan. *European science review*, *1*(1-2), 13-15.
6. Matnazarov, A., Sultanova, N., Janzakov, A., & Karakulov, N. (2022). Morphological Types of Uzbekistan Mountain Glaciers and their Present Condition. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2512-2518.

Internet manbalar:

1. http://www.geoolympiad.org/fass/geoolympiad/2024/index.shtml
2. https://geografiyaurduolimp.wordpress.com/olimpiada-nizomi/
3. http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/Xalqaro-geografiya-olimpiadasi.htm
4. https://daryn.kz/
5. https://geography.olympiad.ch/en/

VIRTUAL TÁLIM SHARAYATÍNDA BOLAJAQ GEOGRAFIYA OQÍTÍWSHÍLARÍNÍŃ METODIKALÍQ TAYARLÍǴÍ

Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna
Ajiniyaz atındağı NMPI 13.00.02 – Tálim hám tarbiya teoriyasi hám metodikası geografiya qánigeligi boyınsha doktorantı
tajibaevaxurshida15@gmail.com

Pedagogika tarawın jańa basqıshqa kóteriw, tarawdıń qánigelerin tayarlawdıń mazmunı hám usılın innovaciyalarǵa tiykarlanǵan halda qayta qurıwdı talap etedi. Onıń ushın pedagogika tarawında bolajaq oqıtıwshılar tayarlaw sistemasınıń mazmunı, dásturleriniń strukturalıq dúzilisin mámleket tálimniń usı buwını aldına qoyǵan talapları tiykarında jetilistiriw kerekligin kórsetip atır.

Bolajaq geografiya oqıtıwshıların innovaciyalıq jantasıw tiykarında pedagogikalıq ámeliyatın jetilistiriw texnologiyası joqarı tálim mákemeleri aldındağı zárúrli wazıypalardan biri bolıp tabıladı. Búgin mámleketimiz tálim sistemasında innovciyalıq texnologiyalarǵa tiykarlanǵan tálim-tárbiya sistemasın jetilistiriw, onıń milliy tiykarın bekkemlew, social aktiv hám maman básekige shıdamlı kadrlar tayarlawdı jáhán standartları dárejesine shıǵarıw aktual máselelerden biri bolıp tabıladı. Bilimlendiriw tarawındağı sapa ózgerisleri hám joqarı nátiyjelilik olardıń jáhán tálim talapları menen sáykesligi hám bolajaq geografiya oqıtıwshılarınıń keleshektegi miynet xızmetlerinde ózlestirgen kompetenciyaları qaysı dárejede ámeliyatta qollanılıp atırǵanlıǵına baylanıslı.

Ózbekstan Respublikası joqarı tálim sistemasın 2030 jılǵa shekem rawajlandırıw koncepciyasında joqarı tálimdi sistemalı reformalawdıń ústin turatuǵın baǵdarların belgilew, zamanagóy bilim hám joqarı ruwxıy -etikalıq pazıyletlerge iye, ǵárezsiz pikir júritetuǵın joqarı maman kadrlar tayarlaw procesin sapa tárepinen jańa basqıshqa kóteriw, joqarı tálimdi modernizaciyalaw, aldıńǵı tálim texnologiyalarına tiykarlanǵan halda social tarawdıń hám ekonomika tarmaqların rawajlandırıw wazıypası belgilep qoyılǵan.[1] [1]Búgingi kúnde virtual tálim sharayatında bolajaq geografiya oqıtıwshılarınıń metodikalıq tayınlıǵınıń házirgi jaǵdayı tálim sisteması kadrlar tayarlaw milliy modeliniń eń zárúrli buwını retinde qaralıp atırǵanlıǵı bolajaq

[1] Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2019-jıl 8-oktyabrdağı “Ózbekstan Respublikası joqarı tálim sistemasın 2030 jılǵa shekem rawajlandırıw koncepciyasın tastıyıqlaw” haqqındağı PF-5847-sanlı Pármanı.

geografiya oqıtıwshıların innovaciyalıq pedagogikalıq iskerlikke tayarlawdıń ilimiy tárepten izertlewdiń tekǵana múmkinshiliklerin jarattı, usı waqıtta, bunı teoriyalıq hám de ámeliy aktual wazıypaǵa aylantırdı. Tálim-tárbiya processinde innovaciyalıq tálim texnologiyalarınan paydalanıw oqıtıwshılardan arnawlı bir tayarlanıw, innovaciyalıq pedagogikalıq iskerlikke tayarlaw zárúrshiligin keltirip shıǵaradı. Bul zárúrlik pedagogikalıq kadrlardı tayarlaytuǵın joqarı tálim mákemelerinde shólkemlestiriletuǵın tálim-tárbiya procesi, atap aytqanda, bolajaq geografiya oqıtıwshılarınıń pedagogikalıq psixologiyalıq, ilimiy-metodikalıq tayarligına tiykar bolatuǵın oqıw kursların oqıtıwda innovaciyalıq ortalıqtı jaratılıwın metodikalıq kózqarastan analiz etiw, social -pedagogikalıq, didaktik shárt-shárayatların jaratıw usı processtiń natiyjeliligin arttırıwdıń ilimiy-metodikalıq tiykarların islep shıǵıwdı talap etedi. Pedagogikalıq kadrlardı, atap aytqanda, pán oqıtıwshıların innovciyalıq pedagogikalıq iskerlikke tayarlawda olardıń ilimiy-metodikalıq tayınlıǵın qáliplestiriw procesine innovciyalıq texnologiyalardı qollanıw usı processtiń natiyjeliligin arttırıwǵa tiykar boladı. Sonıń menen birge, bolajaq geografiya oqıtıwshılarınıń metodikalıq tayarlıǵın qáliplestiriwde innovaciyalıq texnologiyalarınan paydalanıw arqalı tálim jaǵdayınıń nátiyjeliligin arttırıw ushın olardı innovaciyalıq pedagogikalıq iskerligine tayarlaw basil maqset qılıp belgilewdi talap etedi.

Bolajaq geografiya oqıtıwshıların innovacion pedagogikalıq iskerligine tayarlawdıń pedagogikaliq shárt-sharayatları, mazmunı, kórinisi, metodı hám usılların islep shıǵarıw hám ámeliyatqa eńgiziwden ibarat.

Bolajaq geografiya oqıtıwshısın innovacion pedagogikalıq iskerlikke tayarlaw degende, onıń ilimiy, teoriyalıq, psixologiyalıq, pedagogikalıq, ilimiy-metodikalıq tayarlıǵı, siyasiy hám ruwxıy-etikalıq jetiskenlik dárejesi birlesken halda túsiniledi. Oqıtıw sistemasın jetilistiriwdiń tiykarǵı shárti bolsa kóbinese tálim shólkemlerinde tayarlanıp atırǵan qánigelerdiń bilim dárejesi, ilimiy kóz qarasınıń qálipleskenligi, sonıń menen birge káspine tán bolǵan kónlikpe hám tjiriybeleriniń jıyındısınan ibaratlıǵı menen belgilenedi. Sonıń ushın bolajaq geografiya oqıtıwshıların innovaciyalıq pedagogikalıq iskerlikke tayarlawdıń ilimiy-metodikalıq tiykarların islep shıǵıw ámeliyatqa engiziw mashqalanıń aktuallıǵın belgileydi.

Sol maqsette, oqıtıw formaları, usılları hám quralların anıqlaw, olardan metodikalıq sistema retinde tabıslı paydalanıw arqalı keleshekte geografiya oqıtıwshıların kásiplik tayarlıǵına erisiw múmkin boladı. Izertlev dáwiri dawamında geografiya oqıtıwshıların kásiplik pedagogikalıq oqıw shólkemine

tayarlıq dárejesin asırıw tártibi engizildi, universitette, institut ámeliyattıń pedagogikalıq, didaktik, metodikalıq shárt-shárayatları mazmunı, qóllanbalar hám formaları anıqlandi. Usınıń menen birge, geografiya oqıtıwshıların kásiplik pedagogikalıq tálim dárejesin asırıwdıń strukturalıq bólimleri, derekleri, qóllanbaları, milliy usılları da qollap -quwatlandı.

Atap aytqanda, geografiya oqıtıw metodikası lekciya hám laboratoriya shınıǵıwlarında innovaciyalıq texnologiyalardan paydalanıw, laboratoriya shınıǵıwlarında studentler tárepinen orınlanatuǵın oqıw tapsırmalarınıń beriliwi, ózbetinshe bilimlendiriwde studentlerdiń bilim hám kónlikpeleriniń dóretiwshilik penen qollanılıwına imkaniyat jaratılıwı bolajaq geografiya oqıtıwshılarında metodikalıq tayarlıǵın qáliplestiriw hám usı tayarlıqti arttırıw ushın zárúrli bolǵan pedagogikalıq shárt-sharayatınıń payda bolıwına tayarlaydı.

Pedagogika joqarı tálim mákemelerinde shólkemlestiriletuǵın tálim-tárbiya procesine innovaciyalıq texnologiyalardı qosıwda tómendegi didaktik maqsetlerdi kózleydi:[2[2]]

- tálim-tárbiya procesin shaxsqa jóneltiriw, onıń Mámleket tálim standartları menen belgilengen bilim, kónlikpe hám ilimiy tájiriybesin qosıw ;

- pedagog kadrlardı kásiplik-pedagogikalıq tayarlıqqa, metodikalıq tayarlıqqa tayarlaw, olardı innovciyalıq pedagogikalıq tayarlıqlarǵa tayarlaw ;

- tálim beretuǵınlardı innovciyalıq texnologiyalar arqalı támiyinlengen aktivlerge qosıw hám olardı tálim hám tálimdiń social subyektlerine aylandırıw ;

- tálim beretuǵınlardı kásiplik-tárbiya texnologiyaları menen támiyinlengen social hám pedagogikalıq tayarlıqqa tayarlaw ;

- pedagog kadrlardı kásiplik-tálim hám tálimdiń social subyektlerine tayarlaw.

Innovaciyalıq texnologiyanıń tiykarǵı mánisi tálimde studentlerdi qızıqtırıp oqıtıw hám bilimlerdi tolıq ózlestiriw bolıp tabıladı. Joqarıda keltirilgen oqıwlardıń tabıslı sheshimi oqıtıwshılardıń kásiplik-pedagogikalıq tayınlıǵı dárejesine tikkeley baylanıslı boladı. Bul process óz gezeginde geografiyanıń social orının asıradı hám kadrlar tayarlawda nátiyjeli nátiyjege iye boladı.

Juwmaq ornında aytıp ótiwimiz zárúr, bolajaq geografiya oqıtıwshısın kásiplik qáliplestiriw mashqalasın ózbetinshe, bir putin halda úyreniliwi bul máseleniń aktual pedagogikalıq mashqala kórinisinde ken kólemde ham tereń izertlew kerek boladı.

[2] Inoyatov Ol. Zamanagóy sharayatta pedagog kadrlar tayarlaw : mashqala hám wazıypalar. - T. : “Pedagogikalıq tálim” jurnalı, 2012-jıl. (2-san), 16 -21-betler.

Sol maqsette, oqıtıwdıń forması, metodı hám quralların anıqlaw , olardan metodikalıq sistema sıpatında tabıslı paydalanıw arqali bolajaq geografiya oqıtıwshıların innovacion pedagogikalıq iskerlikke tayarlawǵa erisiledi. Zamanagóy sharayatlarda barǵan sayın artıp baratırǵan pedagogika tarawınıń mártebesi hám usı baǵdardağı maman qánigelerge bolǵan talaptıń artıp barıwı, joqarı pedagogikalıq tálimniń pútin sistemasında olardıń kásiplik-pedagogikalıq tayarlığın zaman talapları dárejesinde modernizasiyalaw zárúrshiligin belgileydi. Joqarı tálimde bolajaq oqıtıwshılardı pedagogikalıq - innovaciyalıq iskerlikke tayınlığın jetilistiriw procesi úzliksiz tálim sistemasın modernizaciyalawdıń ulıwma qaǵıydalarına tiykarlanadı.

Ádebiyatlar dizimi:

1. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2019-jıl 8-oktyabrdağı “Ózbekstan Respublikası joqarı tálim sistemasın 2030 jılǵa shekem rawajlandırıw koncepciyasın tastıyıqlaw” haqqındağı PF-5847-sanlı Pármanı.
2. “Tálim haqqinda”ǵı Nızam. O'RQ-637-san. 2020 -jıl 23-sentyabr. https://lex.uz/
3. Inoyatov Ol. Zamanagóy sharayatta pedagog kadrlar tayarlaw : mashqala hám wazıypalar. - T. : “Pedagogikalıq tálim” jurnalı, 2012-jıl. (2-san), 16 -21-betler.
4. Amonov X. Geografiyanı oqıtıwda oqıwshılardıń biliw iskerligin shólkemlestiriw hám basqarıw jolları. “Pedagogik mahorat” jurnali. Buxara 2020 4-san.

TABIIY FANLAR (SCIENCE) NI O‘QITISHDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH

Xalilova Barno Toirovna
TDPU tadqiqotchisi

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarish, asosan pedagoglarga bog‘liq bo‘ladi. Shu maqsadda yoshlarni bilim olishga katta e’tibor qaratish lozim. STEAM-tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini uyg‘unlikda o‘qitish uslubidir. STEAM texnologiyasida nazariy va amaliy bilimlar uyg‘unligiga e’tibor qaratiladi. STEAM ta’lim muhitida bolalar bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar.

Respublikamizda o‘ziga xos va mahalliy sharoitga mos ravishda yangi milliy ta’lim tizimi rivojlanmoqda. Rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimi tajribasi respublikamiz sharoitiga moslashtirilgan tarzda amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini erishib, bugungi kunda korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi alohida ta’kidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, Shuningdek ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkinligi asoslab berildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” [1] gi qonuni, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi qonunchilik hamda normativ-huquqiy xujjatlar asosida uzluksiz ta’lim jarayoni maktabgacha ta’lim muassasalarida atrofdagi tabiat va uni o‘rab turgan tabiiy muhit bilan tanishuvdan boshlanadi. Ushbu mavzuni chuqurlashtirish maktab ta’limida boshlang‘ich sinflar negizida “Atrofimizdagi olam” va “Tabiatshunoslik” ya’ni tabiiy fanlar (Science) kabi fanlar orqali, so‘ngra o‘rta maktablarda geografiya, biologiya, kimyo, tarix, iqtisodiy bilim asoslari va texnologiya kabi fanlar, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarida tabiiy hamda gumanitar fanlar majmui orqali davom ettirilmoqda.

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilar tabiat to‘g‘risidagi ilmiy jihatdan boxabarligi ularning dunyoqarashlarini shakllantirish, tafakkurini rivojlantirishda tabiat qonunlarini asoslab erishda

tabiiyot va geografiya, fizika, kimyo, biologiya, iqtisodiy bilim asoslari va tadirkorlik asoslari o‘quv predmetlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiatda ro‘y berayotgan hodisa va jarayonlar, tirik organizmlarning rivojlanish bosqichlari, tabiat va jamiyat qonunlariga insoniyatning ko‘rsatadigan ta’sirlari haqida ilmiy va amaliy bilimlar majmuasini yoritish tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-modulining asosiy vazifasini belgilab beradi.

O‘quvchining ichki motivatsiyasining qanchalik shakllanganligi tabiiy va iqtisodiy fanlarga qiziqishi, atrof-muhit muammolarini anglashi va uni hal qilishda muhim qarorlarni qabul qilishni bilishi hamda tabiiy va sotsial muhitga ta’sirini tahlil qilishda muhim o‘rin egallaydi.

Fanlarning o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilarda tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini anglashlariga yo‘naltirmog‘i lozim. Shu bilan birga, o‘quvchilar inson faoliyatining tabiatga saliy va ijoiy ta’siri, zamon va makon miqyosidagi gloal ekologik muammolarni va tabiat oldida javogarlik hissini tushunishi, shuningdek, sog‘lom turmush tarziga amal qilishlari hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan kompetent shaxsni tariyalashni ko‘zda tutadi.

Shu bilan birgalikda ixtisoslashtirilgan ta’lim yo‘nalishida ham yoshlarning iste’dodi va qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, ularning ilm-fanni egallashga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularni barkamol, jismonan va ruhan sog‘lom shaxs sifatida Vatanga sadoqat ruhida tariyalash maqsadida fanlardagi mavzularni kengaytirib o‘qitish maqsadga muvofiq.

Ta’lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik munosabatlarining chuqurlashib, hamda boyib borishi, xarakter, hamda dunyoqarashlarining turg‘unligi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo‘lajak kasb egalari uchun ta’lim muassasalarida ta’lim olish jarayoni –bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o‘z-o‘zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Bo‘lajak o‘qituvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o‘zida mujassam ettiradi.

O‘qituvchining kasbiy shakllanishi uning o‘quv-pedagogik vaziyatlarda aqliy, predmetli-amaliy va motivatsion omillar bilan bog‘liq o‘ziga xos

xususiyatlarning ifodalanishi bilan yorqin namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ushbu omillar ko‘plab umumiy jihatlarga ham ega. Bu sohadagi maxsus izlanishlar natijalari ko‘rsatganidek, kasbiy faoliyatga ta’lim oluvchilarning texnologik kompetentligi ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, avvallari mutaxassisning bilim, ko‘nikma va malakasi darajasiga qarab baho berilgan bo‘lsa, hozirda uning kompetentlik darajasi muhim o‘rin tutadi va bu Davlat ta’lim talablarida ham o‘z aksini topmoqda. [2]

Tabiiy fanlarni (Science) o‘qitishda nafaqat ularning o‘zaro ichki, balki tashqi, ya’ni turdosh blok-modullar tarkibiga kiruvchi fanlar bilan integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, quyidagi fan yo‘nalishlari bilan o‘zaro chamarchas aloqalari muhim hisoblanadi:

Tabiiy fanlar (Science) - kuzatuv va tajribalarga, dalillarga asoslanib, tabiat hodisalarini tasvirlash, bashorat qilish, tushunish, qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ona tili va adaiyot, xorijiy tillar orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda, yozma va og‘zaki ravishda o‘z qarashlarini ravon bayon etish malakalarini hosil qilishda, ilmiy atamalarni to‘g‘ri qo‘llash hamda baxs-munozaralar jarayonida erkin muloqot qilishga o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi.

Matematika o‘quv predmetida o‘rgatiladigan malakalar tabiiy fanlar darslarida matematik o‘lchov va hisob-kitoblar bilan bog‘liq masalalarni yechish, laboratoriya va boshqa tajribalarni o‘tkazish jarayonida eng maqbul yechim topa olish va to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun ahamiyatlidir.

Informatika va axborot texnologiyalari o‘quv predmeti yordamida tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonining samaradorligini turli ko‘rinishdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish orqali oshirishga imkoniyatlarni yaratadi.

Tarix o‘quv predmeti tabiiy fanlar bilan ham bevosita bog‘langan. Ilm-fan yutuqlarining ishlab chiqarish sohalari, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarining rivojlanishi va atrof-muhit holatiga ta’sirini ko‘rsatishda tarixiy ma’lumotlarning ahamiyati kattadir.

Kompetensiyaviy yondashuv natijasi tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ijodiy loyiha tayyorlash malakalarini hosil bo‘lishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Geografiya o‘quv predmetlari o‘quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obekt, jarayon va hodisalar, Vatanimiz tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va

iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqadorligi, tabiatdan oqilona foydalanish va ishlab chiqarishni oqilona tashkil etishning gloal va hududiy muammolari haqida ilmiy-amaliy tushunchalarni shakllantiradi, mustaqil fikr-mulohaza yuritishni, geografik bilimlarni amalda qo‘llashni o‘rgatadi. Geografiya fani o‘quvchilarda tabiat, aholi va xo‘jalik haqida tushunchalarni shakllantirish jarayonida fizika, astronomiya, kimyo va biologiya fanlariga oid ma’lumotlardan foydalanadi, turdosh fanlar sohasidagi bilimlarni o‘z maqsad va vazifalaridan kelib chiqib mazmun-mohiyatiga singdiradi. Shu bilan birga, geografiya fanini o‘qitish natijasida shakllantiriladigan tushuncha va kompetensiyalar oshqa tabiiy fanlarda o‘rganiladigan obekt, hodisa va jarayonlar haqida kompleks tasavvurni tarkib toptirishga xizmat qiladi. [3]

Biologiya o‘quv predmetlari o‘quvchilarda jonli tabiatning obekti va tizimini his etish, jonli va jonsiz tabiat o‘rtasidagi aloqalarni shakllantiradi. Jonli muhit muammolarini hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar, o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi yaxshbilanadi. Bir vaqtning o‘zida atrofimizni o‘rab turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rang-baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javogarlikni his kilgan holda mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi. [4]

Fizika va astronomiya o‘quv predmetlarini o‘qitishda o‘quvchilar tabiat hodisalarini va asosiy fizik jarayonlarni anglash bilan birga, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishda fizika va astronomiya qonunlarini qo‘llashni o‘rganadilar. Fanni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan kundalik hayot faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Kimyo o‘quv predmetini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar moddalar tarkibi, kimyoviy atamalarni farqlash, inson faoliyati va tabiatda ro‘y berayotgan kimyoviy jarayonlar haqidagi tushunchalarga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar kimyoviy birikmalarning farqlarini, tabiiy tizimlarning kimyoviy asosini, moddalarning tuzilishi va tarkiining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishadi. Kimyoviy moddalardan, maishiy kimyo mahsulotlaridan ehtiyokorlik bilan foydalanish va ular asosida eksperiment o‘tkazish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Kompetentli yondashuv ta’lim berishning natijaviy- maqsadli asosi sifatida ta’lim berishning turli xil darajalarida (umumiy, kasbiy, qo‘shimcha) hamda turli xil predmet sohalarida (pedagogika, iqtisodiyot, menejment, muhandislik ishi, informatsion texnologiyalar, ijtimoiy-madaniy faoliyat va boshqalar) keng qo‘llanilishga ega bo‘lmoqda. Biroq, ijtimoiy faoliyatning u

yoki bu turining ijtimoiy-yetuklik ustivorligi nuqtai-nazaridan olib qaraganda, hayotni asrab qolish va global ekotizim sifatida biosferaning barqarorligini ta’minlash, tabiat va uning turli jonsiz hamda jonli boyliklarini saqlash ularning ko‘paytirish, go‘zalligiga go‘zallik qo‘shish – jamiyatimiz har bir a’zosini o‘z kasbiga ma’suliyatli *(layoqatli)* munosabatda bo‘lishlikni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 23.09.2020 y. N O‘RQ-637. https://lex.uz/docs/5013007
2. Abdullayeva K. M. Maxsus fanlarni o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. - T.: 2006. - 182 b.
3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi// MonografiУ.-T.:Fan va texnologiya nashriyoti, 2013. -B. 96.
4. Xalilova B. T. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini oshirishning ba’zi jihatlari. “Ijtimoiy tahdidlarga moyil oilalarda ma’naviyaxloqiy muhitni barqarorlashtirishning gerontopedagogik asoslari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.: -T., 2020. B - 429-436.

Ájiniyaz atındağı
NÓKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
NMPI
1934

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA GEOGRAFIYA DARSLARINI TASHKILLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Esenova I.M.
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Nukus shahri
inkaresenova17@gmail.com

O‘zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligining birinchi yilidan boshlab yoshlar ta’limi va tarbiyasiga alohida etibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni qabul qilinishi yosh avlod kamoloti uzliksiz ta’lim tizimining ravnaqi haqidagi chinakkam g‘amho‘rlikning dalilidir.

Barkamol shaxsni shakllantirishga imkon beriuvchi o‘quv tarbiya jarayonini qayta qurishning muhim vazifasi maktab ta’limi samaradorligini oshirishdir. Ta’lim, samaradorligi ta’lim mazmunining maqsadi va vazifalariga mosligi, uning ilmiy jihatdan asoslanganligi izchilligi, turmush bilan bog‘liqligi, shuningdek mazmunga mos metodlar shakllar va vositalar majmuasining tanlanishi ta’minlanadi [1].

Mamlakatimizda geografiya ta’lim jarayoniga kompetentsiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanib, ta’lim sifat va samaradorligini oshirishga alohida etibor qaratilmoqda. Tabiiy fanlarni, jumladan, geografiyani o‘qitishda kompyuterning pedagogik dasturiy vositalari, axborot ta’lim muhitlaridan samarali foydalanish orqali ijodiy qobiliyatini rivojlantirish hamda o‘quvchilarning nazariy-metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega [4, 88].

Xalqaro miqyosda geografiya ta’limining sifat va samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar, didaktik materiallar va axborot texnologiyalarni tatdbiq etish mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari, o’quvchilarda geografiya faniga oid zarur kompetentsiyalarni shakllantirish, fanlararo bog‘liqlik mohiyatini ochib berish, ta’lim texnologiyalarining axborot texnologiyalari vositalari bilan integratsiyalash asosida fanni nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umumta’lim maktablarining ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash orqali o‘quvchi-yoshlar uchun o‘quv

muhitini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini axborot texnologiyalari asosida integratsiyalashgan o‘quv muhiti orqali o‘quvchilarda ta’lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish talab etilmoqda [3, 66].

Shuning uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning bilimli, etuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlashda zamanoviy o‘qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli kattadir.

Hozirgi kunda geografiya fanini o‘qitishda birqancha zamanoviy metodlar bo‘lib ularni o‘quvchilarning yoshiga nisbatan qo‘llanish o‘z natiyjasini berishi aniq. Shuningdek bu metodlarni innovatsion texnologiyalar yordamida dars davomida qo‘llanilsa o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi ortishiga xizmat qiladi. Biz quyida geografiya darslarini tashkillashtirishda foydalanilsa bo‘ladigan platformalar haqida qisqacha to‘qtalib o‘tamiz.

Bunday platformalarning biri *Wordwall* platformasi bo‘lib bu platforma orqali geografiya darslarida uy vazifasini so‘rashda yoki o‘tilgan darsni mustaqkamlashda foydalansa bo‘ladi. Platformada testlar ishlash, qo‘shimcha savollar yozish, diagrammalar tuzish va boshqa da imkoniyatlar yaratilgan.Bu platformada geografiya fanidan boshqa ustozlar tomonidan yaratilgan darsga tegishli bo‘lgan qiziqarli didaktik o‘yinlarni ham topish mumkin. Shuningdek platforma yordamida tasodifiy xarita, baraban aylantirish, gruhlarga saralash shu kabi shunga o‘qshash didaktik o‘yinlarni tashkillashtirish imkoniyatlari yaratilgan. Bu platformaning eng qulay tomoni oz vaqt ichida interaktiv o‘yinlarni tashkillashtirsa bo‘ladi.

Kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda tez tayyorlanadigan fazllarni yasashda foydalansa bo‘ladigan ko‘p vaqt olmaydigan platformaning biri bu *Tarsia marker* platformasidir. Bu platform orqali tez vaqt ichida o‘zingiz istagan formada dars mavzusiga oid savol va javoblardan tuzilgan fazllarni yasash imkoniyati mavjud [2,27]. Yasalgan fazllarni kompyuterga yuklab olish orqali qag‘ozga chiqarib, uni bo‘laklarga bo‘lish orqali o‘quvchilarga beriladi, o‘quvchilarning qancha vaqt ichida tez va aniq toplashiga qarab darsni qanday o‘zlashtirganin aniqlash mumkin. Biz yuqorida keltirib o‘tgan informaciyon resurslardan foydalanib darslarni tashkillastish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini orttirishiga, chaqqonlikka, tez qaror chiqarishiga yordam beradi. Bu platformalardan geografiya darslaridagina emas, barcha fanlarni o‘qitishda qo‘llansa ham bo‘ladi.

Darslarda interaktiv texnologiyalardan samarali foydalanish o‘quvchilarni yanada mahoratli bo‘lishga undaydi. Bundan tashqari, biz geografiya darslarini sifatli o‘rganish usuli va an’anaviy vositalar (Google Earth Win, Banditsam, Ispring, Eclipses Crossword, Crossword Tools) yordamida o‘rganish samaradorligini oshirish imkoniyatiga egamiz. Ammo bu imkoniyatlardan foydalanish o‘qituvchidan ko‘p izlanishlarni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, geografiya darslarida axborot texnologiyalari yordamida tashkillashtirish o‘quvchilarning:

- o‘rganilgan ma’lumotni animatsiya, audio va video formatlar orqali o‘zlashtirishi;

- o‘rganish jarayonida nafaqat ma’lumotga ega bo‘lishi, balki olarning darsga to‘liq ishtirok etishini ta’minlaymiz;

- berilgan ma’lumotlar bilan o‘z ustida izlanish imkoniyatlarini yaratamiz;

-o‘rganish jarayonida olingan bilimlarni malaka testlari yoki o‘quv topshiriqlari davomida monitoring qilish va muhokama qilish imkoniyatlariga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги ЎРҚ-637-сон “ Таълим тўғрисидаги” қонуни
2. Turmanov K. “Science of informatics and information technologies specific principles of teaching” Educational Research in Universal Sciences, VOLUME 1 ISSUE 3/2022, Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556, 26-28 p
3. Ходжаева Г.А., Жиемуратова Г.Ө. География сабақларын оқытыўда өзбетинше тапсырмаларды пайдаланыўдың әҳмийети.// Илим ҳәм жәмийет, №2, 2020. 66-68 б.
4. Ходжаева Г.А., Жиемуратова Г.О. География пәни сабақларында аўызеки методтан пайдаланыўдың әҳмийети // Вестник Каракалпакского государственного университета, №3, 2021. 85-88 стр.

MAKTAB GEOGRAFIYA TA’LIMIDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISH

Madiyar Abdullayev
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi
www.geograf.uz@gmail.com

Hozirgi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish darajasi o‘smoqda. Ayniqsa ta’lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatining oshishiga va ma’lumotni chuqur o‘rganib olishiga yordam beradi. Bu borada mobil ilovalardan foydalanish ta’limda juda katta qulayliklar yaratadi.

Mobil ilova (inglizcha: Mobile app) — ma’lum bir platforma (iOS, Android, Windows Phone va boshqalar) uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo‘ljallangan dastur hisoblanadi. Ko‘pgina mobil ilovalar qurilmaning o‘zida oldindan o‘rnatiladi. Ularni App Store, Google Play va boshqalar kabi onlayn dastur do‘konlaridan bepul yoki pullik yuklab olish mumkin. Dastlab, mobil ilovalar elektron pochtani tezda tekshirish uchun ishlatilgan, ammo ularning yuqori talablari boshqa sohalarda ham kengayishiga olib keldi. Keyinchalik esa ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari kengaydi.

Ta’limda mobil ilovalardan foydalanish bir qator sabablarga ko‘ra dolzarb va talabgir bo‘lib qolmoqda. Mobil telefonlar va planshetlar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ko‘pgina ta’lim jarayonining ishtirokchilari mobil qurilmalardan foydalanish imkoniyatiga ega, bu esa ta’lim olishni yanada qulaylashtiradi. Mobil ilovalar yordamida istalgan joyda va istalgan vaqtda ta’lim olish imkoniiyati mavjud. Shuningdek uning yordamida ta’limga oid materiallarni o‘rganishi, topshiriqlarni bajarishi, video darsliklar bilan tanishishi, animatsiyalar va o‘yinlarni o‘ynashi mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi

Maktab geografiya ta’limi jarayonida mobil ilovalardan foydalanish ko‘plab afzalliklarga ega, xususan:

-*Masofaviy ta’lim:* Mobil ilovalar o‘quvchilarga maktabdan va sinfdan tashqarida ta’lim olish imkonini yaratadi. Fan va mavzuga oid onlayn darslar, videofilmlar, interfaol materiallar va topshiriqlarga kirishni ta’minlashi mumkin;

-*O‘quv resurslari:* Mobil ilovalar vositasida o‘quv materiallari, elektron darsliklar, ma’lumotnomalar, ensiklopediyalar va boshqa axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi;

-*O‘quv jarayonini tashkil etish:* Mobil ilovalar yordamida ta’lim beruvchi, ta’lim oluvchilarga ishlar ketma-ketligi va o‘z vaqtlarini tartibga solish vazifasiga yordam beradi. Unda turliu kalendar funksiyalari, belgilangan sanalar uchun eslatmalar, vazifalar va dars jadvallarini taklif qilishlari mumkin;

-*Ta’lim olish vositalari:* Mobil ilovalar ta’lim oluvchilarga elektron xaritalar, geografiya faniga oid o‘lchov asboblari, lug‘atlar, matematik kalkulyatorlar, tarjimonlar, foto muharrirlar, topshiriqlar va o‘quv materiallarini yanada samarali bajarishga yordam beradigan o‘quv vositalarini taklif etadi;

-*Ta’limiy o‘yinlari:* Mobil ilova yordamida ta’limiy o‘yinlarni o‘ynash o‘quv jarayonini qiziqarli amalga oshirishga yordam beradi. Ta’limda bunday o‘yinlar tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi;

- *Muloqot va hamkorlik vositasi:* Mobil ilovalar o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalarning o‘zaro muloqotini ta’minlaydi.

Mamlakatimzida ta’lim tizimi uchun 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra har bir fanlar bo‘yicha o‘quv metodik majmualar shakllantirilishi nazarda tutilgan. Umga ko‘ra quydagilar ishlab chiqiladi:

-Darslik – o‘quvchi uchun;

-Mashq daftari – o‘quvchi uchun;

-Metodik qo‘llanma – o‘qituvchi uchun;

-Multimediali ilova (mobil ilova) – o‘quvchi uchun.

Yangi Milliy o‘quv dasturiga asoslangan holda maktab geografiya ta’limiga 7-sinf (Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi) va 10-sinf (Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) uchun o‘quv metodik majmualar shakllantirildi.

Milliy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan Multimediali ilova (mobil ilova) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘quv faniga oid materiallarni davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o‘quv fanini samarali o‘zlashtirishga va o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga ko‘maklashuvchi interaktiv elektron axborot-ta’lim resursi hisoblanadi.

10-sinf geografiya darsligi asosida “Geografiya 10” multimediali ilovasi ya’ni mobil ilova ishlab chiqildi va Play Market orqali foydalanuvchilarda taqdim etildi (1-rasm).



1-rasm. “Geografiya 10” mobil ilovasining umumiy interfeysi.

httpsplay.google.comstoreappsdetailsid=com.Respublikatalimmarkazi.Geografiya10

“Geografiya 10” mobil ilovasi quydagi 7 ta menyudan tashkil topgan:

- Mamlakatlar;
- Bayroqlar;
- Poytaxtlar;
- Mosini top-1;
- Mosini top-2;
- Transport tarmoqlar;
- Irqlarga mos atamani toping.

Har bir menyu ichida mavzuga mos holda topshiriqlar berilgan. O‘quvchilar darsda o‘tilgan mavzuga mos holda topshiriqlarni bajarishlari mumkin (2-rasm).

2-rasm. “Geografiya 10” mobil ilovasidagi menyular.







Mobil ilovada o‘quvchi o‘zi tanlagan mavzuni tanlaydi va topshiriqni bajarish jarayonini boshlaydi. Aytalik, o‘quvchi miqyosiga ko‘ra 3 ta din turiga javoblarni moslashtirishi kerak bo‘lsa, pastki qismda joylashgan dini nomini kerakli joyga joylashtirishi zarur bo‘ladi (3-rasm).

3-rasm. “Geografiya 10” mobil ilovasidagi topshiriq.



O‘quv-metodik majmualardagi mobil ilovalarning maqsadi zamonaviy fan va texnika rivojini hisobga olgan, xalqaro talablarga javob beradigan kompetensaviy yondashuv talablari asosida o‘quv materiallari mazmuni va sifatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribani samarali tatbiq etish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, geografiya ta’limida mobil ilovalardan foydalanish o‘qituvchilar va o‘quvchilarda uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Mobil ilovalar asosida ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashki etish, o‘quv materiallarini fanning so‘ngi yutuqlari asosida tezkor tarzda yangilab borish bilan bog‘liq bir qator yangiliklar tug‘diradi. Eng asosiysi ta’limda mobil ilovalardan foydalanish asosida o‘quv jarayonining individuallashishiga olib keladi. Buning natijasida o‘quvchi mustaqil ishlashi natijasida induvudual ishlash qobiliyati rivojlanadi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari rivojlanadi. Mobil ilovalar tarkibiga kiritilgan nazorat ishlari esa o‘zlashtirish

jarayonini monitoringini olib borishi bilan amaliy ahamiyatga egadir. Ta’limda mobil ilovalardan foydalanish maxsus joy, qo‘shimcha imkoniyat, joy tanlamasligi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. –T.; 2008. -180 b.
2. Qurbonniyozov R. Geografiya o’qitish metodikasi. –Urganch: 2001. –212 b.
3. Fedorko V. va boshq. Geografiya. 10-sinf uchun darslik / — Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. — 192 b
4. Mo‘minov O. Geografiya ta’limi metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1986. –B. 208.
5. www.wikipedia.org.

GEOGRAFIYA TA'LIMI VA UNI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Axmatova Madina Shuxrat qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
m.axmatova@mail.ru

Geografiya – bu Yerning inson sayyorasi sifatida yaxlit ko'rinishini ta'minlaydigan yagona o'quv fani deb hisoblash mumkin. U shuningdek umumiy madaniyatni, shu jumladan ekologik madaniyatni shakllantiradi; barcha darajalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zaruriy majmuadir. Fanning yana bir muhim jihati bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlarni qanday qilib birlashtirishga, ma'lum bir xalqaro aloqa tili – geografik xaritadan foydalanishga o'rgatadi. Geografik ta'lim insoniyat uchun umumiy uy sifatida o'z mamlakati va sayyoramizni o'rganish uchun ishonchli asosdir. Aynan shu ta'lim zamonaviy dunyo va insoniyatning xilma-xilligi va birligi bilan birligini ongli ravishda tushunishni ta'minlaydi [1]. O'quvchilar o'zlarini o'rab turgan moddiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni va insonning kosmosda mavjud bo'lishining ma'nosini to'g'ri tushunishlari uchun juda katta geografik bilimlarni to'plashi zarur. O'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishda maktab o'quvchilari uchun zamonaviy o'quv qo'llanmalariga katta ahamiyat beriladi. Sir emaski, o'qitishning asosiy vositasi hanuzgacha atlas bilan jihozlangan darslikdir. Shu bilan birga, samarali o'qitish o'quv-uslubiy majmuasi deb ataladigan boshqa bir qator o'quv qo'llanmalaridan (dasturlar, ko'rsatmalar, o'quv daftarlari) foydalanishni o'z ichiga oladi. Ammo o'quv materiallaridan tashqari, boshqa o'quv qo'llanmalari ham qo'llaniladi: audiovizual va ekran-tovush, shuningdek turli xil interaktiv o'quv vositalari (multimedia ensiklopediyalari va qo'llanmalari, moslashtirilgan dasturiy va uslubiy majmualar va shunga o'xshash elektron darsliklar, test dasturlari). Har qanday yangi texnologiyani o'zlashtirish bilan o'qituvchining yangi pedagogik tafakkuri boshlanadi: uslubiy tilning ravshanligi, tuzilishi, metodikada asosli me'yor paydo bo'lishi. Sinfda pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda, yaxshi natijalarga erishib, geografiyani o'qitish jarayoniga yangi nuqtai nazardan qarash mumkinligiga amin bo'la olamiz. Ayni paytda geografiya darslarida turli xil pedagogik yangiliklardan foydalanilmoqda. Shunga qaramay, quyidagilar eng xarakterli innovatsion yexnologiyalardir. Mavzuni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) goydalanish usuli. AKTni o'quv jarayonining mazmuniga kiritish turli predmet sohalarini informatika bilan

birlashtirishni nazarda tutadi, bu esa o'quvchilar ongini axborotlashtirishga va zamonaviy jamiyatdagi axborotlashtirish jarayonlarini (uning professional yo'nalishida) tushunishiga olib keladi. Maktablarni axborotlashtirish jarayonida paydo bo'layotgan tendensiyani anglash katta ahamiyatga ega: maktab o'quvchilari tomonidan informatika haqidagi asosiy ma'lumotlarni o'zlashtirishdan, umumiy texnologiyalarni o'rganishda kompyuter dasturlaridan foydalanishgacha e'tibor qaratiladi. Natijada maktab metodik tizimida yangi axborot texnologiyalari paydo bo'ladi va maktab bitiruvchilari kelgusi ish faoliyatida yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga o'rgatiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilganligidir. Zamonaviy texnologiyalar esa ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash demakdir. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

O'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

O'quvchilarni o’quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini taxminlanishi;

O'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

“Innovatsiya” so'zi inglizcha “innovationas” so'zidan olingan bo’lib, yangilik kiritish, yangilik degan ma'nolarni anglatadi. Hamisha pedagog va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Adabiyotlar:

1. Колодочка, Т. Н. Фреймовая педагогическая технология в дисциплине «География» / Т. Н. Колодочка // Школьные технологии. – 2004. - № 5. – С. 203-208.
2. I.A.Karimov «Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». Toshkent 1997 yil.
3. A.K.Munavvarov «Pedagogika» Toshkent 1996 yil
4. www.scientificprogress.uz
5. www.ziyonet.uz

INCLUSIVE EDUCATION REFORMS IN UZBEKISTAN

Temirova Ihvola Abdusamadovna
Namangan State University, 2st year master's student in Geography (subject of study)
E-mail:temirovaihvola@gmail.com

Abstract. *This article provides information on the introduction and use of inclusive education in general secondary schools, inclusive education reforms, education of disabled children alongside healthy children, and the conditions created for them.*

Key words: *inclusion, inclusive education, competence, education, individual planning, concept, integration, convention, intellect, behavior thieves, educational integration.*

In the scientific field, the term "inclusion" means "included" in English. Inclusive or covered education is a description of the educational process of persons with disabilities in general educational institutions, who, as a result, need special education. term used for. It is based on the ideology of providing equal treatment to all people, but nevertheless it ensures adaptation of the environment and the creation of compensation conditions. It should be noted that at the current stage of the development of society "Education in the Russian Federation is full Federal Law No. 273-F of December 29, 2012 on" legally formalizes the concept of "inclusive education" as the provision of equal access to education. For all students, their special educational needs and the variety of individual capabilities Taking into account the diversity, Chigrina A.Ya. said that inclusive education is a term used to describe the process of teaching children with limited opportunities in general education (public) schools and, as a result, need special education. The author emphasizes that inclusive education should represent a balance between the child's ability to master the general program in the presence of additional conditions and an individual program, and the importance of his social integration.

